SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

2
2025
ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

№ 2, 2025

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro‘yxatidan qayta o‘tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – **ISSN 2181 – 8096**

Bosh muharrir – **Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay’ati

D. Sayfullayev	*tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)*
D. Muxiddinova	*filologiya fanlari doktori (mas’ul kotib)*
A. Mannonov	*filologiya fanlari doktori, professor*
R. Xodjayeva	*filologiya fanlari doktori, professor*
Sh. Shomusarov	*filologiya fanlari doktori, professor*
Q. Omonov	*filologiya fanlari doktori, professor*
U. Muxibova	*filologiya fanlari doktori, professor*
X. Xamidov	*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
B. Abduhalimov	*tarix fanlari doktori, professor*
A. Xodjayev	*tarix fanlari doktori, professor*
M. Is’hoqov	*tarix fanlari doktori, professor*
A. Doniyorov	*tarix fanlari doktori, professor*
I.Xaydarov	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
X. Fayziyev	*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
N.Karimov	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
D.Xodjimuratova	*tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
Sh. Yovqochev	*siyosiy fanlar doktori, professor*
N.Abdullayev	*siyosiy fanlar doktori, dotsent*
A. Vahobov	*iqtisod fanlari doktori, professor*
R. Abdullayev	*iqtisod fanlari doktori, professor*
I. Mavlanov	*iqtisod fanlari doktori, professor*
R. Bahodirov	*falsafa fanlari doktori, professor*
E. Izzetova	*falsafa fanlari doktori, professor*
G. Glizon	*AQSHning New Mexico universiteti professori*
A. Shonazarova	*AQSHning Kolumbiya universiteti professori*
Ono Masaki	*Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori*
Li Dji In	*Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori*
V. Mesamed	*Isroilning Quddus universiteti professori*
A. Gurer	*Turkiyaning Anqara universiteti professori*
A. Vorobyov	*Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi*
G. Avda	*Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori*
A. Tohir	*Misr Arab Respublikasining “Al-Hivar” siyosiy tadqiqotlar markazi direktori*
H. Baydemir	*Turkiyaning Otaturk universiteti professori*

Nashrga tayyorlovchilar:
J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, G. Hushnazarova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

S.Qoraboyev Pashtu tilidagi tarixiy romanlarda pashtunvolay tamoyillarining talqin etilishi.....5
O.Mamatkulov Qiyomiddin Xodim hayoti va ijtimoiy faoliyati.....16

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

M.Abdurahmonova Urducha matn ustida ishlash jarayonida “talaba-o‘qituvchi” hamkorligi asosida qo‘llaniladigan interfaol usullar 31
Sh.Asqarova Stilistika yo‘nalishiining amaliy tilshunoslikdagi ahamiyati.....38
Hou Yanli., Zhu Xingfei. Exploring the Protection of Dungan Language through the Lens of the Language Attitudes of Dungan People 42
А.Иванова Невербальные компоненты коммуникации в китайском языке: лингвокультурологический аспект 50
M.Jumaniyazov “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida fe’llar va yuklamalarning tushum kelishigi bilan bog‘liq grammatik xususiyatlari 64
Ф.Таджихужаева Семантический анализ персидского соматизма جان *jān* «сердце» в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои 75
Z.Davlatov, H.Inomiddinov Shart-istak mazmunini ifodalashning lakonik (ixcham) usuli xususida.....83

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

A.Madraimov, B.Eshmurodov Amir Temur harbiy san’atida ruhiy-psixologik ta’sir vositalari 89
O.Nayimov Ibn Khaldun and Power Dynamics: A Geopolitical Relevance of the Muqaddimah.....99
Sh.To‘laganova Turkiy yozma yodgorliklar tilida juft so‘zlar.....105
J.Mahmudov Pahlavon Mahmud: ilk manbalarda 116
G.Salijanova Qadimgi va ilk O‘rta asrlarda Turon-Turkiston hududida savodxonlik hamda ta’lim tarixiga doir 126
Г.Кобилова Роль «Корейской волны» в укреплении международного статуса Южной Кореи.....135

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

O.Alimov Sharqiy Osiyodagi geoiqtisodiy megatrendlar: mintaqaviy integratsiyaning xalqaro-siyosiy va institutsional jihatlari 148
M.Kasimov Pokiston – Hindiston – Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarning xalqaro xavfsizlikka ta’siri..... 169
S.Bo‘ronov Qo‘shtepa kanalining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri 180
D.Turdiyeva Development of the Religious Education System in Malaysia and its significance today 188
А.Абдулхаев Влияние международных санкций на развитие Китайско-Иранского стратегического партнерства 197

ADABIYOTSHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERARY STUDY

SARDOR QORABOYEV
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

Pashtu tilidagi tarixiy romanlarda pashtunvolay tamoyillarining talqin etilishi

Annotatsiya: *Maqolada pashtu adabiyotidagi yirik tarixiy romanlar G'ulom G'avs Xaybariyning "Abdaliy qilichi"[1], Ibrohim Atoiyning "Osiyo yuragida to'fon"[2], Sa'diddin Shpunning "G'ordagi do'stlar" [3] va "Yashil chaqchaygan" [4] asarlarida pashtun millatparvarligi va pashtunvolay tamoyillarining talqin etilish masalalari tahlil qilingan. "Pashtunvolay" pashtunlarning milliy qadriyatlari, urf-odatlari va kundalik hayotida amal qilishi lozim bo'lgan yozilmagan qonun-qoidalari majmuyi bo'lib, dunyo xalqlari tamaddunidagi noyob madaniy hodisalardan biri hisoblanadi. Maqolada pashtunvolayning "badal", "jirga", "ninavoti", "mlotar", "melmastiyo", "lo'xay varkavil" va "nang" kabi tamoyillari tarixiy romanlarda qanday talqin etilganligi misollar bilan yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *pashtu tarixiy romanlarida natsionalizm, etnopsixologiya, milliy qadriyatlar, milliy ruh, an'analarga sodiqlik, pashtunvolay va uning tamoyillari masalasi.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы интерпретации пуштунского национализма и принципов кодекса чести афганцев – «паштунволай» в исторических романах "Мечь Абдалей" Гулома Гавса Хайбария, "Ураган в сердце Азии" Ибрагима Атоия, "Друзья в пещере" и "Зелёный пучеглазый" Садидина Шпуна. «Паштунволай» – это кодекс чести и свод национальных ценностей, обычаев и неписаных правил, которым пуштуны обязаны следовать в своей повседневной жизни, и считается одним из уникальных культурных явлений в цивилизации народов мира. В статье приводятся примеры из исторических романах на принципы паштунволай, такие как «бадал», «джирга», «нинавоти», «млотар», «мелмастиё», «лохай варкавъл» и «нанг».*

Ключевые слова: *национализм в пуштунских исторических романах, этнопсихологии, национальные ценности, национальный дух, верность традициям, паштунволай – кодекс чести пуштунов и его принципы.*

Abstract. *The article deals with the analysis the issues of representing of Pashtun nationalism and pashtunvolay principles in the great historical novels in Pashto literature such as "Abdaley sword" by Ghulam Ghaus Khaybari, "Typhoon in the heart of Asia" by*

[1] غلام غوث خيبري ، ابدالی توره ، کندهار- 1389 ش
[2] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش
[3] سعد الدين شپون ، د سمځي ياران ، ۱۳۸۱ ش - ۲۰۰۲ م ، پيښور
[4] سعد الدين شپون ، شين تاغی ، ۱۹۹۸ م ، لاهور

Ibrahim Atoyi, "Friends in the cave" and "Green goggle-eyed" by Sa'diddin Shpun. "Pashtunvolay" is a set of national values, customs and unwritten rules that Pashtuns must follow in their daily life, and is considered one of the unique cultural phenomena in the civilization of the nations of the world. The article illustrates with examples how the principles of pashtunvolay, such as "badal", "jirga", "ninawati", "mlotar", "melmastiyo", "lo'khay varkavil" and "nang", are interpreted in historical novels.

Key words: *Pashtun nationalism in historical Pashto literature, ethnopsychology, national traditions, national values, national spirit, loyalty to traditions, pashtunvolay and the issue related to pashtunvolay principles.*

"Pashtunvolay" pashtun millatining qadriyatlari, urf-odatlari va kundalik hayotida amal qilishi lozim bo‘lgan yozilmagan qonun-qoidalari majmuyi bo‘lib, dunyo xalqlari tamaddunidagi noyob madaniy hodisalardan biri hisoblanadi. Pashtun natsionalizmi (*millatparvarligi*)ning asosini aynan pashtunvolay tamoyillari tashkil etadi. "Natsionalizm", "natsionalist" so‘zlari XX asrda sobiq Sovet Ittifoqida salbiy ma'noda qo‘llanilgan bo‘lsa ham, G‘arbda neytral ma'noda ishlatilganligi bu so‘zning kelib chiqishi va ma'nosini ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Natsionalizm lotincha "natio" – "xalq" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "o‘z xalqini sevuvchi" ma'nosini beradi va dastlab, o‘z xalqi farovonligi va ravnaqi uchun qayg‘uruvchi insonlarga nisbatan ishlatilgan. Sovet Ittifoqida bu so‘z salbiy ma'noda o‘zlashishining asosiy sabablaridan biri Gitler boshchiligidagi nemis natsionalistlarining shovinistik xatti-harakatlaridir. Keyinchalik qisqartirilgan shaklda "nemis natsistlari" deb atalgan Germaniya natsionalistlariga bo‘lgan munosabat "natsionalizm" so‘zini shovinizmga o‘xshash "millatchilik" ma'nosini kasb etishini ta'minladi.

Sovet Ittifoqida natsionalizmning ijobiy ma'nosi o‘rnini to‘ldirish uchun boshqa bir lotin so‘zi "patriotizm" qo‘llanildi. Patriotizm lotincha "patria" so‘zidan olingan bo‘lib, "ota makon", "vatan", "mamlakat" ma'nolarini beradi. Lekin ta'kidlash lozimki, natsionalizm va patriotizm orasida sezilarli ma'noviy tafovut mavjud. Patriotizm "vatanparvarlik" ma'nosini bildirsa, natsionalizmni "millatparvarlik" deb talqin qilish kerak. Ma'no jihatdan bir-biriga juda yaqin bo‘lgan bu istilohlarning farqli tomoni natsionalist patriotdan farqli ravishda millat birinchi darajali, davlat esa ikkinchi darajali deb biladi va davlatga bo‘lgan munosabatda davlat muammosini shu davlatning asosini tashkil etuvchi xalq manfaatini himoya qilmasdan hal qilib bo‘lmaydi deb hisoblaydi[1].

Pashtu tilida ham XX asrda "natsionalizm" atamasi har ikki ma'noda, ya'ni ham "millatparvarlik", ham "millatchilik" ma'nosida ishlatilgan. "Millatparvarlik" ma'nosida pashtu tilida ملت [millat] – "millat" va پالنه [polәna] – "parvarish qilish", "avaylab o‘stirish" so‘zlaridan yasalgan ملتپالنه [millatpolәna] atamasi ishlatilayotgan bo‘lsa,

[1] Александр Свастьянов, Все, что вы хотели знать о русском национализме, журнал "Наш современник" №12, Москва. – 2007, 194 стр.

“millatchilik” ma’nosida ملت [millat] – “millat” va پرستي [parasti] – “sajda qilish”, “jonidan ortiq ko‘rish” so‘zlaridan olingan ملتپرستي [millatparasti] termini qo‘llaniladi.

XXI asrga kelib natsionalizm “millatparvarlik” ma’nosida ancha keng miqyosda ishlatila boshlandi va ma’no jihatdan ham kengaydi. Natsionalizm millat, milliy davlatchilik, milliy o‘zlikni anglash va milliy manfaatlarni o‘z ichiga olganligi uchun keng qamrovli tushuncha bo‘lib, “millatchilik” termini sifatida tushunish uchun hajman kattalik qila boshladi. Pashtu tilidagi natsionalizm ingliz olimi Smitning ta’biri bilan aytganda, “millat sifatida shakllanishga harakat qilayotgan, o‘z yaxlitligi (bir butunligi), manfaatlari va qadryatlarini himoya qilayotgan yirik ijtimoiy guruhning mafkuraviy harakatiga”[1] aylandi.

Pashtun natsionalizmining shakllanishi ham xuddi shunday mafkuraviy harakat natijasi edi. Asrlar davomida shakllanib kelgan pashtunvolay tamoyillari millatning hayotidagi maishiy hodisalardan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ko‘cha boshladi. Bu XIX asrning ikkinchi yarmida Afg‘oniston ingliz mustamlakachilari nishoniga aylangan murakkab vaziyatda yanada yorqin namoyon bo‘ldi. Bu davrdagi pashtun natsionalizmi ingliz olimi Erik Hobsbawn ta’kidlagandek, “bosqinchi kuchlarga qarshi himoya reaksiyasi”,[2] funksiyasini bajardi.

Natsionalizm g‘oyalarining kuchayishini arman olimi Mnatsakanyan quyidagicha ta’riflaydi: “Natsionalizm g‘oyalarining kuchayishi ijtimoiy hayotning beqarorligi va jamiyatda hal qilinishi qiyin bo‘lgan ijtimoiy muammo mavjudligining aniq belgisidir”[3]. Darhaqiqat, millatparvarlik tushunchasiga urg‘u bergan mamlakatlarning ijtimoiy hayotida millat taqdiriga tahdid soladigan yirik muammoni ko‘rishimiz mumkin. Afg‘onistonda ham garchi inglizlar mamlakatni zabt etolmagan bo‘lsalarda, uni tuzalmas dardga giriftor qildilar. Bu pashtunlar hayotiga hozirgacha o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatib kelayotgan 1893-yilgi “Dyurand bitimi” bo‘lib, bir butun millatni ikkiga ajratib qo‘ydi. Bitim natijasida Britaniya Hindistoni tarkibiga o‘tgan sharqiy pashtun qabilalari hayotida yangi murakkab davr boshlandi. Ular ingliz mustamlakachilariga qarshi ham qurolli, ham mafkuraviy kurash olib bordilar.

Pashtunlarning bu kurashlari ularning tarixiy mavzudagi asarlarida, jumladan, tarixiy romanlarda ham keng yoritilgan. Tarixiy romanlarda pashtun millati hayotidagi muhim voqea-hodisalar, ularning tarixiy shaxslari va milliy qahramonlari obrazlarini yaratishda pashtun natsionalizmining asosini tashkil etadigan pashtunvolayning bir qancha asosiy prinsiplari batafsil yoritib o‘tilgan.

Pashtunvolayning tarixiy romanlarda eng ko‘p yodga olingan prinsipi bu ***“badal”*** – “qasos” hisoblanadi. Masalan, birgina G‘ulom G‘avs Xaybariyning “Abdaliy qilichi” romanida 13 ta o‘rinda bu tamoyilga murojaat qilingan[4]. Hatto afg‘onlarga

[1] Smith A. National Identity, London – 1991.
[2] Hobsbawn E. Nation and nationalism since 1780: Programme, Myth, Reality. Cambridge - 1990
[3] Мнацаканян М. О. Национализм и глобализм, Апкил. 2008, 80 стр.
[4] غلام غوث خيبري ، ابدالی توره ، کندهار- 1389 ش

qarshi kurashayotgan Maratha konfederatsiyasi[1] lashkarboshisi Sadhashiv Bhaou Rao va uning do‘stlari ham pashtunlar tomonidan jangda o‘ldirilgan hind askarlari uchun Ahmadshoh Abdaliy va uning qo‘shinidan “badal” – “o‘ch” olmoqchi bo’ladilar[2].

Qasos ko‘pgina xalqlar adabiyotiga salbiy odat sifatida qoralanadi. Chunki inson hayotiga tahdid hisoblangan ushbu tajovuzkorona harakat qotillik natijasida esa qotillikni dunyoga keltiradi, ba’zan esa o‘rta asrlar feodal tuzumidagidek avlodlar osha davom etadigan qonli adovatlarga sabab bo‘ladi.

Badal pushtun ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan bo‘lgan g‘urur va nafsoniyat mahsulidir. O‘zini pashtun deb hisoblagan har bir odam amal qilishi kerak bo‘lgan bu tamoyilga ko‘ra pashtun har qanday nohaqlik yoki tahqirga o‘z salbiy munosabatini bildirishi kerak. Ijtimoiy kelib chiqishi yoki iqtisodiy ahvolidan qat’i nazar, hech bir pashtun haqoratga toqat qila olmaydi. Chunki eng nochor ahvoldagi qabila vakili ham o‘zini boshqalar bilan teng darajada deb hisoblaydi. Janjallashyotgan tomonlar murosaga kelmay ish qotillik darajasiga yetib borsa, qotilni jazolash o‘ldirilganning yaqin qarindoshlarining zimmasiga tushadi. Badal ijobiy hal etilishi ham mumkin. Jabrlanuvchi tomon ***“soz”*** – “xun haqi” evaziga qasos olishdan voz kechishi mumkin. Soz olgan jabrlanuvchi tomon barcha da’volardan voz kechadi va ikki o‘rtada tinchlik o‘rnatiladi. Soz miqdori va turi jabrlanuvchi tarafidan belgilanadi. Soz tariqasida ko‘pincha ***“sivarah”*** talab qilinadi. Sivarah jabrlanuvchi tomonga qotilning yaqin qarindoshlaridan bo‘lgan qizning nikohlab berish odatidir. Sivarah odatiga ko‘ra qotilning singlisi yoki qizi o‘ldirilganning ukasi yoki o‘g‘liga nikohlanishi natijasida qonli dushmanlik qon-qarindoshlikka aylanadi. Bu har ikki taraf qabila sardorlari, urug‘ kattalari yoki kuchli ta’sirga ega obro‘li shaxslar ishtirokidagi ***“jirga”***da tasdiqlanadi.

Jirga **–** bu turli masalalarni hal qiluvchi qabila sardorlari va mahalliy oqsoqollar kengashi. Ibrohim Atoiyning “Osiyo yuragida to‘fon” romanida Xaybar dovonida (hozirgi Afg‘oniston va Pokiston chegarasidagi hudud) Afridiy qabilasi tomonidan tashkil etilgan jirga quyidagicha tasvirlanadi:

“To‘rxpar qishlog‘ida Ko‘kixeyl Afridiy oqsoqollari jirga chaqirgan edilar. Jirga joyida oqsoqollar katta bir doira shaklidagi chiziqda o‘tirardilar va ulardan bir necha qadam orqada qurolli yoshlar va ularning ortida ayollar o‘tirardilar. Ulardan yuqoriroqda kichik bir tepalikda do‘lchi (biron muhim hodisa boshlanganini bildirib do‘l, ya’ni yirik hajmli do‘mbira chaladigan shaxs – tarj.) turardi. U do‘l chalib, jirga boshlanganini e’lon qildi.

[1] Maratha konfederatsiyasi 1674–1820-yillarda janubiy va janubi sharqiy Hindistondagi rojalar sulolalari, ya’ni Gvaliorda joylashgan “Shindiy” sulolasi, Indaurdagi “Hulkar”, Baroddagi “Gaykvad”, Nagpurdagi “Govind Pant Bhonsle”, Dhar va Devasda joylashgan “Pavar” sulolalari ittifoqidan tashkil topgan, markazi Raygad (keyinchalik Puna) shahri bo‘lgan davlat.

[2] غلام غوث خيبري ، ابدالی توره ، کندهار- 1389 ش ، 29 مخ

Jirganing ishtirokchilari sukut saqlab o‘tirar edilar. Jirganing odatiga ko‘ra, hech kimga gapirishga, hatto salomlashish uchun ham ijozat berilmagan edi” [1]. Shuningdek, asarda jirgada ko‘rilayotgan masala qo‘l ko‘tarish orqali ovoz berish yo‘li bilan hal qilinishi, ayollar masalaga salbiy munosabatlarini qo‘llaridagi toshlarni urib shaqqillatish, qurolli yoshlar qilichlarini jaranglatish orqali ifodalashlari, jirga tugagach, yoshlar jirga o‘tkazilgan joyda atanga (pushtunlarning milliy raqsi) tushishlari keltirib o‘tilgan.

Jirga ko‘rilayotgan masalaning dolzarbligi va qatnashuvchilar, oqsoqollar obro‘-e’tibori va miqdoriga ko‘ra uch darajadada bo‘ladi.

1. Qabilaviy jirgada qabilaning ichki muammolari, iqtisodiy ahvoli, ijtimoiy-strategik vaziyatni baholash masalasidan tortib qabiladagi obro‘li oilalar orasidagi nizolar yoki badal kabi qabila doirasidagi jiddiy muammolar muhokama qilinadi. Unda qabila oqsoqoli va faqat shu qabilaga tegishli e’tiborli kishilar, ruhoniylar, jamoat hamda madaniyat arboblari ishtirok etadilar.

2. Mahalliy jirgada bir necha qabilalar o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish, ularni murosaga keltirish, aybdor yoki urush boshlagan tomonga nisbatan jazo choralarini ko‘rish va uning ijrosi kabi muammolar ko‘riladi. Mahalliy jirgada hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo yuzaga kelgan hududdagi barcha qabila oqsoqollari qatnashadilar.

3. Lo‘ya (*katta*) jirga davlat ahamiyatiga molik masalalarni ko‘radi. Jirgalar orasida eng katta vakolatga ega bo‘lgan lo‘ya jirga faqatgina zarur favqulodda hollardagina chaqiriladi. Afg‘onistonning 2004-yil 28-yanvarda qabul qilingan konstitutsiyasining 111-moddasiga ko‘ra, lo‘ya jirga quyidagi holatlarda chaqiriladi:

1) mamlakat mustaqilligi, milliy hokimiyat, hududiy yaxlitlik va eng muhim masalalar bilan bog‘liq ishlar haqida qaror qabul qilish uchun;

2) konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish uchun;

3) prezident davlat va xalq manfaatlariga zid jinoyat bilan ayblanganda uni sud qilish uchun[2].

Bundan tashqari, Afg‘oniston Islom Respublikasi davrida qonun chiqaruvchi organ ham jirga tizimiga asoslangan bo‘lib, ikki palatadan **ulusi jirga** (*quyi palata*) va **mishrono‘ jirga** (*yuqori palata – senat*)dan tashkil topgan edi.

G‘.G‘. Xaybariyning “Abdaliy qilichi” romanida Ahmadshoh Abdaliy Hindistonga borib, jirga chaqirgani, u yerda yashovchi ruhila pashtunlari (*Hindiston hududida yashovchi pashtun qabilalari*)ni ham qo‘shib keng maydonda mashvara-maslahat majlisini o‘tkazgani va qilinadigan ishlar taqsimlangani keltirilgan bo‘lsa, Ibrohim Atoiyning “Osiyo yuragida to‘fon” romanida jirganing yangicha “paudziy jirga” (harbiy kengash) shakliga duch kelamiz[3].

---

[1] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 32 مخ

[2] The Constitution of Afghanistan (Islamic republic of Afghanistan), Ministry of Justice, Official Gazette, extraordinary issue, 111-article, 28 January 2004, 85 page.

[3] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 222 مخ

Shuningdek, jirgada ***“lo‘xay varkavil”*** an’anasi ham hal qilinadi. So‘zma-so‘z tarjima qilinganda ”tovoq berish” ma’nosini beruvchi bu tamoyil asosida himoya so‘rash yotadi. Bu qabilalar orasidagi o‘ziga xos diplomatik munosabat bo‘lib, zaifroq qabila sardori boshqa bir kuchli qabila sardoriga o‘z qabilasining tinchligi va xavfsizligini himoya qilish uchun sug‘urta tarzida ”lo‘xay” beradi. Lo‘xay sifatida aksariyat hollarda qurbonlikka atalgan uy hayvoni – qo‘y, mol, echki beriladi. Lekin “Abdaliy qilichi” romanida Ahmadshoh Abdaliy Hindistonga borganida Dehli yaqinidagi Saharanpur shaharchasida [1] unga tobelik izhor qilib kelgan Hofiz Rahmatxon [2] boshchiligidagi ruhila pashtunlari va hind rojalari lo‘xay sifatida qimmatbaho sovg‘alar olib keladilar.

Agar kuchli qabila sardori lo‘xayni qabul qilsa, u va uning qabilasi har qanday vaziyatda ham himoyasi ostidagi qabila manfaatlarini saqlashga, uning mudofaasini ta’minlashga majbur. Lo‘xay evaziga bunday katta majburiyatni o‘z bo‘yinlariga olishlarining asosiy sababi qabila sardorlarining o‘z qabilasining obro‘- etiborini kuchaytirishga bo‘lgan intilishidir.

“Abdaliy qilichi” romanida Ahmadshoh Abdaliy kuchli strateg sarkarda ekanligi ham ochib berilgan. U ruhila pashtunlari va hind rojalari lo‘xaylarini qabul qilar ekan, ularni marathlardan himoya qilish oson bo‘lmasligini, qo‘l ostidagi lashkarlarni birlashtirish yaqinlashib kelayotgan urushda g‘alabaga katta hissa qo‘shishini ta’kidlaydi. U ruhila sardorlarning ham qo‘shinlarini marathlarga qarshi urushga jalb qiladi. Jirga paytida ularga ham dushman yo‘lini to‘sish, ta’minotini uzib qo‘yish kabi jangovar vazifalar qo‘yadi[3].

Pashtunvolay prinsiplaridan yana biri ***“lashkar”,*** ya’ni armiya vazifasini bajaruvchi qurollangan qo‘shin. Pashtunvolay tamoyiliga ko‘ra har bir qabila o‘z lashkariga ega bo‘ladi. Qabila qo‘shini yuzdan bir necha ming nafargacha bo‘lgan kishilardan tashkil topadi. Lashkar ham qabiladan tashqarida urush harakatlarini olib borishga mo‘ljallangan armiya, ham qabila tartib-qoidalari buzilgan paytda ichki nazoratni amalga oshiruvchi politsiya vazifasini bajaradi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, jirga tomonidan muqaddas urushga chaqirilgan lashkar katta miqdordagi dovtalab (ko‘ngilli)lar bilan to‘lib ketadi. Bu lashkar yagona qo‘mondon rahbarligi ostida harakatlansa-da, asosan jirga hukmini amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Ruhila pashtunlari ham o‘z turmush tarzlarida pashtunvoliy tamoyillariga kuchli rioya qilardilar. Ular Hindiston zaminida ***“G‘und”*** tamoyili asosidagina o‘z hukmronliklarini saqlab turar edilar. Bu tamoyilga asos bo‘lgan pushtu tilidagi

[1] Hindistonning Uttar-Pradesh shtatidagi shahar. Bu shahar o‘sha paytda Ahmadshoh Abdaliyni Hindistonga yordamga chaqirgan Boburiylarning pashtunlardan bo‘lgan sarkardasi Najib ud-Davla hukmronligi ostida edi.

[2] Hofiz Rahmatxon – 1748–1774-yillarda Hindiston hududidagi pashtun qabilalari yashovchi Ruhilobod viloyati hukmdori.

[3] غلام غوث خيبري ، ابدالی توره ، کندهار- 1389 ش ، 53 مخ

“g‘und” so‘zi siyosiy termin sifatida “partiya” ma’nosini bersa, harbiy termin sifatida “polk” ma’nosini beradi. Lug‘aviy ma’noda “to‘planma”, “jamlanma”, “ittifoq”, “blok” ma’nolariga to‘g‘ri keladi. Serjanjal qabilaviy tizimda har bir qabila o‘ziga ishonchli ittifoqdosh topishga intiladi. Bunda u o‘zaro umumiy manfaatdorlikni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Bir blokka birlashgan qabilalar o‘zaro savdo-iqtisodiy va madaniy-ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yadilar va umumiy manfaatlarini birgalikda himoya qiladilar. G‘und a’zolaridan biriga qilingan tahdid g‘undga qilingan tahdid sifatida baholanadi. Bu vaziyatda qabilalar oziq-ovqat va qurol-aslaha zaxiralarini birlashtirib, dushmanga qarshi yakka qo‘mondon rahbarligi ostida kurashadilar. “Abdaliy qilichi” romanida ruhila pashtunlari Hofiz Rahmatxon boshchiligida g‘undga birlashgan edilar. Jang davomida ham ularning 30 minglik lashkari Hofiz Rahmatxonning umumiy qomondonligi ostida harakatlanadilar. Ular turli qiyin vaziyatlarda bir-birlariga “mlotar”ga keladilar. So‘zma-so‘z tarjima qilganda “bel bog‘lamoq” ma’nosidagi “mlotar” so‘zi “yordam”, “ko‘mak” ma’nolarini ham beradi.

“Mlotar” pashtunvolay prinsipi sifatida ikki narsani ifodalaydi:

1) oiladagi qurol ushlashga va ishlatishga yaraydigan erkaklar miqdori;
2) dushmanlari tomonidan xo‘rlangan yaqinlarining yoki qabiladoshlarining himoyasiga otlanish.

Odatda, dushmanlari tomonidan kamsitilgan pashtun o‘z qabiladoshlarining qo‘llab-quvvatlashi – mlotarga suyanadi. Har ikkala tomondan katta miqdorda to‘plangan mlotarning murosaga kelmasligi qurolli to‘qnashuvga aylanib ketishi mumkin. Lekin aytish joizki, mlotar faqatgina janjalli vaziyatlardagina ko‘rsatilmaydi, balki qabiladoshlarining nochor iqtisodiy ahvoli yoki ruhiy tushkun holatida ham mlotar ko‘rsatiladi.

“Abdaliy qilichi” romanida Maratha qo‘shini hujumi arafasida Ahmadshoh Abdaliyning Hindistonga kelishi u yerda yashovchi pashtunlarga ko‘rsatilgan mlotar sifatida talqin qilinadi.

Pashtunvolaydagi “mlotar” kabi o‘zaro qo‘llab-quvvatlashiga asoslangan tamoyillaridan biri ***“ninavoti”*** – “boshpana” hisoblanadi. “Mlotar” o‘z yaqinlari, birodarlari, qarindosh-urug‘lari va qabiladoshlarini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘llanilsa, “ninavoti” mushkul ahvolga tushib qolgan har qanday insonga yordam berishni nazarda tutadi. Pashtunlar boshpana izlab kelgan har bir insonga “ninavoti” berishni o‘zlari uchun farz deb biladilar. Qochqin hukumat vakillari tomonidan ta’qib qilinayotgani ham unga boshpana berishlariga to‘sqinlik qilolmaydi. Bundan tashqari, mezbon ta’qibidan qochayotgan dushman ham boshpana so‘rab kelishi mumkin. Ninavoti pushtu tilidan tarjima qilinganda “kirish” ma’nosini beradi. Dushmanning o‘z raqibi uyiga ninavoti – kirishga ijozat so‘rab kelishi murosaga kelish harakatini anglatadi. Shu tarzda o‘zaro munosabatlarda ijobiy aloqalar o‘rnatilishi va sobiq raqiblar kelishuvchan hamkorlarga aylanishi mumkin.

Shu o‘rinda tamoyil sifatida “ninavoti”ning “badal”dan ustun turishini ta’kidlab o‘tish lozim. Chunki uy egasi qasd olish maqsadida qidirib yurgan dushmani “ninavoti” so‘rab kelgan taqdirda ham mezbon unga tegishga haqqi yo‘q. Mel-mastiyo, ya’ni mehmondorchilik tamoyili bo‘yicha uni qabul qiladi, oldiga dasturxon yozadi. Mezbon dushmani uning hududidan, agar boshqa qabila vakili bo‘lsa, mezbon qabilaning hududidan chiqib ketgachgina dushman o‘ldirilishi mumkin.

Ninavoti asosan insonlarga, ya’ni murojaat qiluvchining o‘ziga yoki oila a’zolariga so‘raladi. Lekin pashtu tilidagi tarixiy romanlarda ninavoti buyumlarga nisbatan ham so‘ralgan vaziyatlar ham keltirilgan. Masalan, Sa’diddin Shpunning 2002-yilda chop etilgan sovet-afg‘on urushi va undan keyingi vaziyat, fuqarolik urushi va toliblar boshqaruvining 1-davriga (1996–2001-yy.) bag‘ishlangan “Samtse yoron” – “G‘ordagi do‘stlar” romanida ninavotining shunday shakliga duch kelamizki, unda bosh qahramon Kamolxonning do‘sti ota-bobosidan qolgan qurolni olib kelib, yashirib qo‘yishni so‘raganida qahramon ushbu tamoyilga ko‘ra do‘stiga yordam berishga majbur bo‘ladi[1].

“Nomus” tamoyili pashtunvolaydagi eng murosasiz masalalardan hisoblanadi. Ayol kishiga qilinadigan yengil hazil ham jiddiy tus olib, katta mojarolarga sabab bo‘lishi mumkin. Ba’zan o‘ta mutaassib kishilar tomonidan ayol kishiga ehtirosli ko‘z bilan qarashning o‘zi zino bilan teng baholanishi, janjalga sabab bo‘lishi, hatto insonlar hayotiga nuqta qo‘yishi mumkin. Xiyonat kechirilmaydi. Axloqsiz mashg‘ulot ustida qo‘lga olingan har ikkala jins vakili **to‘r** – aybdor (qora, gunohkor) hisoblanadi va qatl etiladi. Hatto o‘z xohishisiz bu mashg‘ulot ishtirokchisiga aylanib qolgan, ojizligi tufayli o‘z iffatini himoya qilolmasdan **badnom** bo‘lgan ayol (yoki qiz) ham vaziyat qurboniga aylanadi.

Badnom bo‘lib, vaziyat qurboniga aylangan ayol obrazini biz Sa’diddin Shpunning “Samtse yoron” – “G‘ordagi do‘stlar” romanida ko‘rishimiz mumkin. Baxtjamolaning onasi (afg‘onlarda ayolni uning to‘ng‘ich farzandi ismi bilan chaqirish an’anasi mavjud) tabiatan juda chiroyli bo‘lganligi uchun ularning uyiga tintuvga kelgan rus harbiylari nafslarini tiyolmay qoladilar va kuch bilan maqsadlariga erishadilar. Eri uyiga qaytgach, vaziyatdan xabardor bo‘ladi va uni jar yoqasiga olib boradi. Nima uchun jar yoqasiga olib kelinganini tushungan badnom bo‘lgan ayol o‘zini jarga tashlaydi. Bu harakati bilan u ham xo‘rlik azobini ko‘tarib yashashdan qutilishi, ham oila sha’niga tushgan dog‘ni o‘z qoni bilan yuvishi kerak edi. Baxtjamola onasini jar yoqasiga olib kelib, uni o‘limga hukm qilganligi uchun otasini qotil sifatida ko‘rsa, bosh qahramon Kamol esa qotil vaziyatni shu darajaga olib kelgan ruslarning buyuk davlatchilik da’volari, deb hisoblaydi[2].

“Nomus” tamoyili G‘.G‘.Xaybariyning “Abdaliy qilichi” romanida hind qizi Krishnapiari misolida beriladi. Roman g‘oyasi talabi bilan muallif nomus masalasini

[1] سعد الدين شپون ، د سمڅي ياران ، ۱۳۸۱ ش - ۲۰۰۲ م ، پېښور ، ۲۶ مخ

[2] سعد الدين شپون ، د سمڅي ياران ، ۱۳۸۱ ش - ۲۰۰۲ م ، پېښور ، ۲۴۸ مخ

siyosiylashtiradi. Romandagi sujetga ko‘ra, Maratha konfederatsiyasi lashkarboshisi Sadhashiv Bhaou Rao mahalliy aholini afg‘onlarga qarshi qo‘zg‘atish, Ahmadshoh qo‘shinini aholi orasida obro‘sizlantirish maqsadida yashirincha “afg‘on askarlari hind qizlarining nomusini bulg‘amoqda”, degan bo‘hton tarqatadi. Bunda Sadhashiv Bhaou Rao afg‘on askari Akbarxon va uni sevib qolgan hind qizi Krishnapiari muhabbatidan foydalanadi. Uning bu harakati qizning badnom bo‘lishiga olib keladi. Ijobiy qahramon bo‘lgan Akbarxon esa badnom bo‘lgan qizning nomusi uchun kurashadi va uni baxtli qilish uchun unga uylanib, o‘zi bilan Afg‘onistonga olib ketadi. Krishnapiari umrining oxirigacha G‘aznida Akbarxon bilan baxtli yashaydi[1]. Asarda muallif afg‘onlarning ayollarga chuqur hurmat ko‘rsatishini hind rojalaridan biri Suraj Mal Jat tilidan bayon qiladi: “Afg‘onlar hatto o‘z ashaddiy dushmanining ayoliga “ona” yoki “singlim” deb murojaat qiladigan, ularni o‘zining oila a’zolaridan ham ko‘proq hurmat qiladigan dunyodagi yagona xalqdir!” [2]

“Melmastiyo” – mehmondorchilik ham pashtunvolayning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Pashtunlar ham ko‘pgina Sharq xalqlari kabi mehmondo‘st bo‘lishadi. Faqat ularning mehmondorchiligi shu darajadaki, uyiga dushmani mehmon bo‘lib kelsa ham, ochiq yuz bilan kutib olishadi, oradagi mojaro haqida bir og‘iz ham so‘z ochishmaydi. Mehmon kim bo‘lishi, qaysi payt, qay vaziyatda kelishidan qat’i nazar, izzatga loyiqligi afg‘on xalq maqollarida ham o‘z aksini topgan. Sadiddin Shpunning “Shin tog‘ey” – “Yashil chaqchaygan” asarida mehmon kech bo’lganda bemavrid kelganini aytib, uzr so‘ragan payt mezbon “Mehmon – atoyi xudo”, ya’ni “Mehmon – xudoning inoyatidir” degan maqolni eslatib, uni har qanday paytda kutib olishdan xursand bo‘lishini ta’kidlaydi.

Shuningdek, tarixiy romanlarda pashtunvolayning quyidagi tamoyillariga misollar keltirilgan:

“Badraga” – mehmonga tashrif buyurgan hurmatli shaxslarni manziliga kuzatib qo‘yish uchun ajratilgan maxsus qurolli guruh. Bundan tashqari, badraga dushman ta’qibidagi hamda hayoti xavf ostida bo‘lgan hamkor qabila sardorini ham qo‘riqlab boradi. Badragaga hujum qilish kechirilmas qonli qasosga olib kelganligi uchun unga hujum uyushtirilmaydi. Badraga qabilalar himoyasida bo‘lgan belgilangan trayektoriya bo‘yicha harakatlanadi. Shuning uchun badragaga hujum qaysi qabila hududida uyushtirilsa, o‘sha qabila ham javobgar hisoblanadi.

I. Atoiyning “Osiyo yuragida to‘fon” romanida ingliz siyosiy agentlari Peshovardan Kobulga borish uchun Xaybar dovonidan o‘tishda ushbu hududda yashaydigan Afridiy qabilasi sardorlaridan Kobulgacha kuzatib borish uchun badraga so‘raydilar. Lekin siyosiy agentlarning Kobulga tashrifi Afridiy qabilasi manfaatlariga zid kelishini inobatga olib, qabila sardorlari ularning iltimosini rad etadilar.

[1] غلام غوث خيبري ، ابدالی توره ، کندهار- 1389 ش ، 224 مخ
[2] غلام غوث خيبري ، ابدالی توره ، کندهار- 1389 ش ، 107 مخ

“Balandra” ayrim joylarda ***“ashar”*** deb ham ataladi. Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan an’analardan biri – hashar pashtunlar ijtimoiy hayotida ham muhim o‘rin tutadi. Ko‘p miqdorda ishchi kuchi kerak bo‘ladigan yirik hajmdagi mehnat faoliyati paytida o‘z yaqinlarini balandra – hasharga chaqirishadi. Shahar joylarda asosan yoz va kuz fasllarida qurilish mobaynida hasharga chaqirishsa, qishloq joylarda yerga ishlov beriladigan erta bahor va yig‘im-terim payti hashar va ziyofatlarga boy bo‘ladi. Hasharga kelgan kishi o‘z ish qurolini, qishloq joylarda chorvasini ham o‘zi bilan birga olib keladi. Chorva mollarining olib kelinishining sababi erta bahorda ulardan yerga ishlov berishda foydalanilsa, yig‘im-terim paytida ularni hosili yig‘ib olingan maydonga qo‘yib yuborishadi. Hashar kuni oqshom ziyofat beriladi. Balandra afridiy qabilasi tilida ”ziyofat” ma’nosini ham beradi[1].

“Itbor” arab tilidan kirib kelgan bu so‘zning asl ko‘rinishi اعتبار [i’tibār] bo‘lib, pushtu tilida juda ko‘p ma’nolari mavjud. Lekin o‘zbek tilidagi diqqat-e’tibor ma’nosini bildiruvchi shakli yo‘q. Asosiy ma’noda obro‘-e’tibor, ishonchni bildirsa, iqtisodiy termin sifatida kreditni ifodalaydi. Bu so‘z siyosiy termin sifatida ham qo‘llaniladi. Pashtu tilidagi xat ma’nosini beruvchi لیک [lik] so‘zi bilan birlashsa, diplomatik اعتبارلیک [i’tibārlik] – “ishonch yorlig‘i” atamasini hosil qiladi. Yozilmagan qonunlarga ko‘proq amal qilinadigan pushtunlar jamiyatida bu prinsip jamiyat a’zolarini o‘zaro bog‘lab turuvchi rishta hisoblanadi. Savdo-sotiq, katta miqdordagi molni nasiyaga berish kabi iqtisodiy muomalalarda shartnomalar asosan og‘zaki bitimga asoslanadi. Bitim qabilaning yoki o‘sha hududning e’tiborli kishilari guvohligida tuzulishi unga bildirilgan itbor – ishonchni suiiste’mol qilinmasligiga sug‘urta vazifasini o‘taydi.

Pashtunvolayning pashtun millati xarakterini shakllantiradigan asosiy prinsiplaridan bo‘lgan ***“g‘ayrat”*** prinsipi arabchadan olingan bo‘lib, g‘ayrat so‘zi “shijoat” ma’nosidan tashqari pushtu tilida “g‘urur” ma’nosiga ham ega. Shuning uchun “g‘ayyur pashtun” atamasi “g‘ayratli, shijoatli pashtun” emas, “g‘ururli, mag‘rur pashtun” ma’nosini ifodalaydi. G‘ayrat prinsipiga ko‘ra pashtunlar ularga nisbatan hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘lishlariga toqat qilolmaydilar.

I.Atoiyning “Osiyo yuragida to‘fon” romanida ingliz qo‘mondonlari o‘z lagerlarida afg‘on qabila sardorlarini yig‘ib, ularga qarshi chiqqan sardorlarni qattiq jazo kutayotganligini aytib tahdid qilganlarida, yoshroq bir qabila sardori o‘rnidan turadi va pashtunlar g‘ururli xalq ekanligini, ular bilan gaplashayotganda qirq yil oldin (1-ingliz-afg‘on urushi nazarda tutilmoqda) inglizlarning tanobini tortib qo‘ygan jangchilarning farzandlari bilan gaplashayotganliklarini hisobga olib gapirishlarini, bu yerlarning haqiqiy egasi pashtunlar ekanligini ta’kidlaydi. Uni ingliz harbiylari hibsga olganda, u boshqa qabila sardorlariga pashtunvolayning “g‘ayrat” prinsipini eslatadi[2].

[1] Асланов М. Г., Пушту-русский словаръ., Москва. 1985, 127 стр.

[2] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 65 مخ

Pashtunvolayda “g‘ayrat” prinsipi kabi pashtun millati xarakterini shakllantiradigan ***“nang”*** prinsipi ham mavjud bo’lib, o’zbek tilidagi “oriyat” tushunchasiga to’g’ri keladi. Mohiyatan “nang” va “g‘ayrat” prinsiplari juda yaqin bo’lganligi uchun “g‘ayyur pashtun” – “mag’rur pashtun” va “nangyolay pashtun” – “oriyatli pashtun” atamalari sinonim sifatida ham ishlatiladi.

“Osiyo yuragida to‘fon” romanidagi “Qahramon kelinchak”[1] bobida I. Atoiy “g‘ayrat” va “nang” prinsiplarining yorqin namunasini berib o‘tgan. Unda afg‘onlar bir nechta hal qiluvchi janglarda g‘alaba qozonadilar va inglizlarning mag‘lubiyati aniq bo‘lib qoladi. Kobulda xalq bayramni boshlab yuboradi. Abdulloh ismli kobullik yigit sevgani Zahro bilan to‘yni shu xursandchilikka ulab o‘tkazmoqchi bo‘ladi. To‘y avjida yangalar kelin-kuyovni chimildiqqa olib kirib, endi kelinni yuzini ochishganida o‘q ovozlari eshitila boshlaydi. Bu afg‘onlar va Kobulning Sherpur darvozasi tomonda qamalda qolgan inglizlar o‘rtasidagi qurolli to‘qnashuv edi. Shunda kelin jang hali tugamaganligini, qanchadan qancha yoshlar hali jang qilayotgan paytda uning qallig‘i jang maydonida emasligini uning oriyati qabul qilolmayotganini aytadi. Yigit ham qurolini olib, jangga ravona bo‘ladi.

Bundan tashqari, Pashtu tarixiy romanlarida pashtunvolaydagi ***“hamsoya”*** – “bir mintaqada yashyotgan qo‘shni millat vakillari bilan urush paytida bir-biriga yordam berish maqsadida yagona etnik guruh kabi birlashish”, ***“yavvolay”*** – “birlik”, ***“iymon”*** – “Allohga tavakkul qilish va yolg‘iz Allohga ishonish”, ***“istiqomat”*** – “matonat”, ***“tura”*** – “qilich”, ***“xpilvokiy”*** – “mustaqillik”, ***“meroti”*** – “mardlik” va ***“zrivarto’b”*** – “jasurlik” kabi ko‘plab prinsiplar afg‘onlar hayotining ijtimoiy normalari sifatida talqin qilingan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, pashtu tilidagi tarixiy romanlarda keltirib o‘tilgan pashtunvolay tamoyillari pashtun xalqining etnopsixologiyasini ochishga xizmat qiladi. Romannavislar tomonidan o‘rinli qo‘llangan prinsiplar nafaqat asarning xalqchilligini ta’minlagan, balki uning badiiy jihatdan puxta shakllanishiga ham hissa qo‘shgan.

Pashtu tilidagi tarixiy romanlarda pashtunvolay ba’zi o‘rinlarda an’anaviy-ijtimoiy me’yor sifatida, ba’zan sharaf kodeksi, gohida an’analar majmuyi sifatida tasvirlangan.

Pashtunvolay tamoyillari pashtu tilidagi tarixiy romanlarga boshqa xalqlarda uchramaydigan o‘ziga xos milliy ruh bera olgan. Ularda ajdodlar an’anasiga sodiqlik va yuksak vatanparvarlik g‘oyalari, milliy qadryatlarga chuqur hurmat ufurib turadi.

[1] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 234 مخ

OYBEK MAMATKULOV
Tayanch doktorant, TDSHU

Qiyomiddin Xodim hayoti va ijtimoiy faoliyati

Annotatsiya: *Qiyomiddin Xodim o‘zining yirik adabiy, siyosiy va ijtimoiy faoliyati bilan tanilgan pashtun yozuvchisi, shoiri va publitistidir. U nafaqat adabiyot sohasida, balki o‘z xalqining siyosiy va ijtimoiy ahvolini isloh qilish uchun ham faol qatnashgan. Xodimning asarlari pashtun xalqining milliy g‘ururi, erkinlik va mustaqillik kurashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shoir sifatida uning ijodi xalqining og‘riqlari, xohish-istaklari va umidlarini ifodalaydi.*

Xodimning publitsistik faoliyati esa o‘zining keskin va ta’sirchan uslubida siyosiy ongni uyg‘otish va milliy g‘oyani targ‘ib qilishga qaratilgan. U mustaqillik, adolat va erkinlikni himoya qilgan, Pashtunistonning siyosiy taqdiri uchun kurashgan yirik shaxsdir. Uning asarlari va fikrlari zamonaviy pashtun adabiyoti va siyosatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu maqolada Qiyomiddin Xodimning hayoti, siyosiy faoliyati, qisman ijodi va uning pashtunlarni “uyg‘otish” yo‘lidagi milliy harakatlarga qo‘shgan hissasi batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Xodim, Vish zalmiyon, Pashtuniston, Pashto‘ to‘lana, Afg‘on millati, Zeray, Ittihodi mashriqiy, To‘lo‘ afg‘on, Isloh, Hevod, Afg‘on xalqi, publitist.*

Annotation: *Qiyamuddin Khadim is a Pashtun writer, poet and publicist known for his great literary, political and social activities. He was not only active in the field of literature, but also actively participated in reforming the political and social situation of his people. Khadim's works are closely related to the national pride of the Pashtun people, their struggle for freedom and independence. As a poet, his work expresses the pain, desires and hopes of his people.*

Khadim's publicistic activities are aimed at awakening political consciousness and promoting the national idea in his sharp and impressive style. He is a great figure who defended independence, justice and freedom, and fought for the political destiny of Pashtunistan. His works and thoughts have made a great contribution to the development of modern Pashtun literature and politics. This article analyzes in detail the life, political activities, partial works of Qiyamiddin Khadim, and his contribution to the national movement to "awaken" the Pashtuns.

Keywords: *Khadim, Vish Zalmiyon, Pashtunistan, Pashto tolana, Afghan nation, Zeray, Ittihodi Mashriqi, Tolo Afghan, Isloh, Hewad, Afghan people, publicist.*

Аннотация: *Киямуддин Хадим — пуштунский писатель, поэт и публицист, известный своей большой литературной, политической и общественной деятельностью. Он не только был активен в области литературы, но и активно участвовал в реформировании политического и социального положения своего народа. Произведения Хадима тесно связаны с национальной гордостью пуштунского народа,*

его борьбой за свободу и независимость. Как поэт, его творчество выражает боль, желания и надежды своего народа.

Публицистическая деятельность Хадима направлена на пробуждение политического сознания и продвижение национальной идеи в его остром и впечатляющем стиле. Он является великой фигурой, которая защищала независимость, справедливость и свободу и боролась за политическую судьбу Пуштунистана. Его труды и мысли внесли большой вклад в развитие современной пуштунской литературы и политики. В этой статье подробно анализируется жизнь, политическая деятельность, отдельные работы Кияхиддина Хадима и его вклад в национальное движение по «пробуждению» пуштунов.

Ключевые слова: *Хадим, Виш Залмиён, Пуштунистан, Пушту то‘лана, афганская нация, Зерай, Иттиходи Машрики, Толо Афган, Ислох, Хевад, афганский народ, публицист.*

XX asr Afg‘oniston adabiyoti taraqqiyoti jarayonida ko‘plab yirik adib va ziyolilar yetishib chiqdi. Ulardan biri – atoqli pashtun shoir va yozuvchisi, adabiyotshunosi hamda madaniyat arbobi Qiyomiddin Xodim bo‘lib, u Afg‘onistonning ma’rifatli adabiy muhitida yorqin iz qoldirgan ijodkordir. U nafaqat pashtu tilidagi she’riyatda, balki ilmiy, adabiy va madaniy hayotda ham muhim o‘rin tutgan.

Qiyomiddin Xodim o‘zining serqirra faoliyati orqali Afg‘onistonning zamonaviy adabiy tafakkurini shakllantirishda katta hissa qo‘shdi. U ijodida milliy o‘zlik, tarixiy xotira, insoniy qadriyatlar, ma’naviy poklik va zamonaviylik g‘oyalari uyg‘unlashgan.

Uning adabiy merosi, shaxsiyati va ilmiy izlanishlari bugungi kunda ham Afg‘oniston adabiyoti va madaniyatining muhim sahifasi hisoblanadi. Shu sababli Qiyomiddin Xodimning hayoti va ijodini o‘rganish, nafaqat bir adib portretini chizish, balki butun bir davr adabiy va ma’naviy muhitini anglashga xizmat qiladi.

Abdulloh Baxtoniy ustozi Qiyomiddin Xodim haqida shunday yozadi: “Samarali umr, yuksak fikr, yetuk nazm va nasr egasi ustoz Qiyomiddin Xodim mamlakatimizning adabiyot va ilm arbobi sifatida yashab o‘tdi…Uning hayoti va ijodi haqida oz narsa yozilgan, hali ko‘p yozilishi kerak…Qalamim ustoz she’riyatidan, nasridan rang oldi, tafakkuridan ongim munavvar bo‘ldi”[1].

Mulla Hisomiddin o‘g‘li Mulla Aligul Oxunzoda nevarasi Qiyomiddin Xodim o‘zi haqida shunday deydi: “Bobom va undan oldingi silsilamiz o‘z davrining ziyoli va olim kishilari bo‘lgan. Bizning ajdodlarimizda ilmsiz kishilar o‘tmagan. Ota tomondan Kunar qumtepaliklarida yashagan Oxunzodalardanmiz. Qumtepa xalqi Zaxel urug‘idan bo‘lib, bu Mo‘mand Pashtun urug‘iga tegishlidir. Ammo Savkani qabilasidan bo‘lgan Miyo Umar sohib (Umar sohib afandi) eng katta bobmiz ekanligi haqida otamdan ko‘p eshitardim. Shuning uchun mening nomim axborlarda ba’zida “Komavi” va “Zoxeli”, ba’zida esa “Miyo Umarzay” nomi ostida yoziladi. Gohida

[1] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وری ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، مقدمه

“Sayloni” deb ham yoziladi, chunki ona tarafdan bobomning ismi Sayyid Abdurrohman Sayloni edi, uni “Faqir sohib” deb chaqirishardi”[1]. Mazkur gaplarining dalili o‘laroq Abulloh Baxtoniy o‘zining “Milliy adabiyot va jurnalizm xodimi” kitobida ustozi Xodimning katta bobolaridan bo‘lgan Miyo Muhammad Umarning Hind diyorida tug‘ilib, hayotini ruhiy tarbiya, ta’lif, tasnif, tadris bilan o‘tkazgan diniy ilmlar olimi, ruhoniy peshvosi bo‘lganini, pashtu, fors, arab tillarida ta’lifotlar qilib, pashtu shoiri bo‘lganini ta’kidlaydi. Miyo Muhammad Umarning o‘g‘li Muhammadiy Sohibzoda ham yetuk pashtu shoiri bo‘lib, otasi hayotini o‘tkazgan masjid va madrasada qolgan ota merosni bir maktabaga aylantirdi, xattotlar avlodini shakllantirdi va ko‘pgina pashtu asarlarini, jumladan, “Rahmonbobo”, “Yunus”, “Shaydo” va boshqa ko‘pgina asarlarni bizgacha yetib kelishiga sababchi bo‘lgan. Qiyomiddin Xodimning ona tomondan bobosi hazrat Abdurrohman Sayloni ham Nangrahordagi Koma mintaqasining taniqli ruhoniy olimlaridan bo‘lgan. Qur’on tafsirini pashtu tilida yozgan mufassir olim, yozuvchi va shoir Murod Ali Sohibzoda, istedodli tarjimon va jurnalist Muhammad Yunus Murod, pashtu tilida ijod qilgan Koma shoirlari Mavlavi Ahmadulloh, Omonulloh Andalib, Sayyid Murod Muin shu oilaning a’zolaridandir[2].

Shunday sharoitda, pashtu tili va adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri, professor, iste’dodli yozuvchi, shoir, tarjimon, jurnalist, siyosatchi Qiyomiddin Xodim Afg‘onistonning Nangrahor viloyati sharqiy qismida joylashgan Koma mintaqasida dunyoga keldi. Olimning tug‘ilgan yili manbalarda turlicha keladi (Sidiqilloh Rishtin[3] h.q. 1325, Muhammad Ismail Yun[4] va Jalil Sobiri Heraviy[5] 1285 (1906), Habibulloh G‘amxo‘r[6] 1286 (1907), Abdurrauf Benavo[7] 1284 (1905), A.S. Gerasimova[8] 1909, G.F.Girs[9] 1912)[10]. Xodimning o‘zi Abdurrouf Benavoga yozib bergan hayot qissasida tavallud sanasini “Taxminan h. q. 1325 (1906)- yil tug‘ilganman” [11] deya qayd etgan. Diniy olim bo‘lgan Hisomiddin o‘g‘li

---

[1] عبدالروف بېنوا، اوسني ليکوال، لومړی توک؛ کابل، ۱۳۴۰ ه. ش. ۲۹۲ مخ

[2] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۷-۸ مخونه

[3] صدیق الله ربښتین، د پښتو نثر هنداره، یونیورستی بک ایجنسی، خیبر بازار- پېښور، ۳۲۶ مخ

[4] محمد اسمعیل یون، د پښتو معارصو ادبیاتو فکري محورونه، کابل پوهنتون ژبو او ادبیاتو پوهنځی پښتو څانګه، ۱۴۰۲ لمریز کال، ۱۱۷ مخ

[5] جلیل صابری هروی، شعرای عصر حاضر، مشهد – نشر نوند، ۱۳۸۹، ۷۸۵ ص.

[6] https://www.samsoor.com/article/2877

[7] عبدالروف بېنوا، اوسني ليکوال، لومړی توک؛ کابل، ۱۳۴۰ ه. ش. ۲۹۱مخ

[8] Герасимова А.С. “Литература Афганистана на языке пушту”. –Москва, 1986. С. 44.

[9] Гирс Г.Ф. «Современная художественная проза на пушту в Афганистане». – М., 1958. С. 89.

[10] Maqolada keladigan yillar manbalarda asosan hijriy shamsiy taqvim bo‘yicha kelganligi uchun o‘zgarishsiz qoldirildi. Qavs ichida (621- soni qo‘shilgan) milodiy yil yozildi. Agar hijriy qamariy yil kelsa, yil oldidan uning h.q. qisqartmasi + yil va formula asosida hisoblangan milodiy yil qavs ichida berildi.

[11] عبدالروف بېنوا، اوسني ليکوال، لومړی توک؛ کابل، ۱۳۴۰ ه. ش. ۲۹۲ مخ

Qiyomiddinga kichikligidan Qur’on ta’limini bera boshladi. Otasi bilan sarf va nahv, shuningdek, ba’zi nazmiy kitoblarni[1], keyin fiqhiy kitoblarni[2] “Kanz” gacha egalladi. Otasi uning ta’limiga jiddiy e’tibor qaratgan, o‘g‘lini o‘zi o‘qitishiga qaramasdan, boshqa ustozlarga ham bergan. Qiyomiddin Kunar viloyatida ustozdan boshlang‘ich sarf kitobi bo‘lgan “Sarfi mir”ni o‘rganadi. Mazkur kitobni boshqa talabalar oylab, hatto yillab o‘rgansa, Xodim uni qisqa muddatda yodlab chiqadi. Bu uning o‘tkir zehn va qobiliyatidan dalolat beradi. Bu haqida o‘zining biografiyasida shunday yozadi: “Bu yerda guruhdoshlarimdan o‘tib ketdim, bir oyda “Sarfi mir”ni yodladim va keyin uyga qaytib keldim”[3].

Qiyomiddin xattotlikka shunchalik qiziqqan ediki, chiroyli yozishni ustozsiz kitoblardan o‘rganib, kunlarini yozish bilan o‘tkazganini, qog‘oz, qalam topilmay qolsa, devorlarga cho‘p bilan pashtu, fors, arab tillarida birikmalar yozib yurganini, keyinroq esa Mulla Xalil xattotlik ustozi bo‘lganini o‘z qaydlarida keltiradi[4]. Otasi undan mamnun bo‘lib uni maqtab qo‘yardi, boshqalarning oldida “Aflotunning o‘g‘li hamma narsani o‘zi biladi” deb aytardi[5]. Shundan keyin dastlab Koma maktablarida, keyin Lara mo‘ri (لړه موړي), Gandibog‘ (ګنډي باغ), Agom (اګام), O‘rg‘ach (ارغنچ), Kilg‘o‘ (کیلغو), Kobul, Peshovar, Hindiston va boshqa hududlarda bo‘lib, arab, fors tillarini chuqur o‘zlashtirdi, hikmat, fiqh, mantiq, hadis, tafsir, munozara ilmi, usuli fiqh, tabobat va boshqa o‘z davrining ilmlarini egalladi. Xodim yoshligidan qiziquvchan, o‘jar bo‘lganligini quyidagicha ifodalaydi: “Hayotda hech kim tanqiddan xoli emas, odamlar meni itoatsiz deyishardi. Ota-onam ham meni ko‘p tanqid qilardilar, lekin men ularga “Agar men itoatli bo‘lsam, men ham boshqalarga o‘xshab qolaman-da!” deb javob berardim. Yoshligimda onam bilan ko‘p bahslashardim. Onam “Odamlar unday qilyapti, sen esa bunday ” desa, “Odamlarni menga gapirmang, ular duch kelgan ishni qilib ketaveradi” deb javob berardim”[6].

Bo‘lg‘usi adib o‘n besh yillik ta’lim safarlari davomida ko‘p ilmlarni o‘rgandi, asosan diniy ilmlarni o‘qidi, shu bilan birga she’r va adabiyotga muhabbat qo‘ydi, ilk she’rlarini yozdi. Qishloq va shaharlarda dars doiralarida aylandi. Pashtunxvo va

---

[1] A. B. Xitmatgorning ma’lumotiga ko‘ra, o‘sha vaqtlarda nazmiy kitoblar forsiy adabiyotlar va insho kitoblari bo‘lgan, jumladan پنج کتاب , تحفۀ النصایح , Sa’diyning **“**گلستان و بستان**”i,** Hofizning “**دیوان**”i, bitiruvchilar “بهار دانش**”,** “**کلیله دمنه**”** kitoblarini o‘rgangan. Yozish uchun ,کتاب کریم ,دستور الصبیان ,انشای دلکشا ,انشای خلیفه ,انشای هرکرن انشای ترسل kabi manbalardan foydalanilgan.

عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اګست ۲۰۰۸، ۱۲ مخ

[2] A. B. Xitmatgorning ma’lumotiga ko‘ra, o‘sha vaqtlarda quyidagi fiqh kitoblari o‘qitilgan: خلاصه کیدانی، منیۀ المصلي، قدوري، مخ کنز الدقایق، مختصر الوقایه، د کنز شرح مستخلص الحقایق، د مختصر شرح مختصر الوقایه، د قدوري شرح الهدایه. عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اګست ۲۰۰۸، ۱۴مخ

[3] عبدالروف بینوا، اوسني لیکوال، لومړی توک؛ کابل، ۱۳۴۰ ه. ش. ۲۹۳ مخ

[4] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اګست ۲۰۰۸، ۱۳ مخ

[5] عبدالروف بینوا، اوسني لیکوال، لومړی توک؛ کابل، ۱۳۴۰ ه. ش. ۲۹۲ مخ

[6] محمد اسمعیل یون، د پښتو معارصو ادبیاتو فکري محورونه، کابل پوهنتون ژبو او ادبیاتو پوهنځی پښتو څانګه، ۱۴۰۲ لمریز کال، ۱۱۸-۱۱۷ مخونه

Hind hududlaridagi inglizlarga qarshi tuzilgan Milliy ozodlik harakatlarining namoyishlari, yig‘ilishlari, axborlari, posterlari hamda mustamlakachi qo‘l ostidagi xalqlar uning aqlini egalladi. Xodim yosh bo‘lishiga qaramay ko‘p safarlar qildi, ochlik, chanqoqlik, faqirlik va shu kabi sinovlar bilan to‘qnashdi. Uning zahmatlari bilan bog‘liq quyidagi ma’lumotlarni manbaalarda uchratish mumkin: “U na maktabda o‘n ikki yil tadrijiy ta’lim oldi, na oliy o‘quv yurtida o‘qidi, na magistratura, na doktoranturada ta’lim oldi. Na yumshoq kursilarda o‘tirib o‘qidi, na yumshoq gilamlarda. Na to‘yib ovqat yedi, na qonib suv ichdi, yozning issig‘ida lablari qaqrab, qishning sovug‘ida qo‘llarini og‘zi bilan “kuf-kuf” qilib isitib ustozlar ortidan ilm izlab yurdi… yer chopdi, omoch haydadi, hosil o‘rdi, mol boqdi… u shunday sharoitlarda an’anaviy tarzda o‘z davrining ilmlarini qisqa muddatda o‘zlashtirardi. Xodimning zehniy quvvati, aqliy yetukligiga uning ijodi dalil bo‘ladi”[1]. Lekin moddiy qiyinchiliklar bilan birga qishloq, qabila va urug‘larning raqobatlari, kurashlari, qarashlari…, turmush, ro‘zg‘or kabi o‘ylar uning ruhiy va jismoniy holatiga ta’sir o‘tkazmay qolmadi.

Xodim 1304 (1925)-yilda rasmiy faoliyatining debochasi sifatida Komadagi boshlang‘ich maktablardan birida o‘qituvchi bo‘lib ishlashni boshlaydi. Biroz muddatdan keyin Hindistonga boradi. U yerdan qaytib Afg‘onistonning Jalolobod viloyatidagi bir maktabda yana muallim sifatida faoliyatini davom ettiradi. Shu paytga kelib uning sog‘ligidagi muammo zo‘rayadi. Bu haqida Qiyomiddinning o‘zi shunday yozadi: “Juda parishon bo‘ldim, parishonligim sababi kasalligim edi. Tahsilni to‘xtatdim, muborizaga kirishdim, bu paytda turmushning qattiq inqiloblari to‘lqinida ketayotgan edim. Hech qanday ish yoqmay qoldi. Ta’lim doirasidan chiqib kettim, boshqacha aytganda shirin va yoqimli ma’shuqamdan chorasiz ayrildim. Tun qorong‘usida ketayotgan edim, yo‘limni yo‘qotgandim, qayerga ketayotganimni bilmasdim”[2] So‘ng Xodim davolanish maqsadida Peshovarga boradi va biroz shu yerda muolaja ostida bo‘ladi. Kasalligi yuragi bilan bog‘liqligini shogirdining qaydlaridan taxmin qilish mumkin: “Uning kasalligining davosi qalbiy va zehniy jarayonlar bilan bog‘liq, u Peshovar siyosiy atmosferasida aylandi, Lvorgayda[3] yangi o‘qitish metodlari va uning tatbiqi bilan vaqtini chog‘ o‘tkazdi hamda yuragi ham yaxshilandi. Pashto qabilalari an’analari bag‘rida Milliy ozodlik harakati va “Xudo xizmatkorlari[4] (Xudoyi xidmatgor)” tashkilotlarining siyosiy va ijtimoiy muhiti

---

1 https://ps.wikipedia.org/wiki/قیام_الدین_خادم

2 عبدالله بختانی خدمتکار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۲۱-۲۰ مخونه

[3] Pokistondagi Xaybar-Pashtunxvo provinsiyasining markaziy shahri. Ikkinchi nomi Landiko‘tal.

[4] 1929-yil kuzida Britaniya Hindistonining Shimoli-G‘arbiy chegara provinsiyasida pashtun milliy ozodlik tashkiloti "Paxtun Jirg‘a" rahbariyati tomonidan tuzilgan ko‘ngilli bo‘linmalar. “Xudoyi xidmatgor” otryadlarining bosh qo‘mondoni Abdulg‘afforxon edi. Ular asosan shahar mayda burjuaziyasi, talaba-yoshlar, ziyolilar, dehqonlar vakillaridan tuzilgan. Ular ingliz mustamlakachiligiga qarshi kurashda faol qatnashdilar. Pokiston tashkil topgandan keyin (1947) “Xudoyi xidmatgor” a’zolari pashtun milliy harakatining yetakchi tashkilotiga aylandi. 1955-56- yillarda G‘arbiy Pokistonning yagona provinsiyaga

hamda Peshovar, Ko‘hot[1], Xaybar va Lvorgay adabiy quchog‘ida uning hayot yo‘li ham oydinlashdi”. Demak, muolajadan keyin Xodim faoliyatini Lvorgayda davom ettiradi. Buni Rishtin ham “Pashto nasri ko‘zgusi” asarida tasdiqlaydi: “Bir muddat Lvorgayda ham bolalarga o‘qish va yozishdan dars beradi[2]. O‘sha paytlarda mustamlaka ta’siridan xoli bo‘lgan madrasa va maktablarda o‘qitishning eski usulidan foydalanilardi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Xodim yangi o‘qitish metodini yo‘lga qo‘yadi va bu yaxshi natija beradi, oldin bolalar savodini chiqarish yillarni talab qilgan bo‘lsa, Xodim usuliga ko‘ra, bunga olti oy kifoya edi.

Qiyomiddin o‘qish kezlarida she’r yozishni boshlagan bo‘lsa ham, o‘ziga “Xodim” taxallusini ayni shu vaqtlarda tanlagan. Uning “Xodim” taxallusini tanlash sababini Abdulloh Baxtoniy o‘sha paytda “Xudoyi xidmatgor” tashkiloti tuzilganligi va o‘sha vaqtdagi mashhur shoir Mavlavi Muhammad Akbar Xodimning shu tashkilotga a’zoligi bilan bog‘laydi[3].

Xodim Lvorgayda hayotining yangi sahifalari ochilganini shunday izohlaydi: “Taxminan ikki yil Lvorgayda bo‘ldim. Shoirlik, yozuvchilik va adabiyot sir-asrorlari zavqini o‘zimda kashf qildim. Shu yerda unashtirildim va xuddi shu yerdan 1312 (1933)-yil Kandahor “Pashto adabiy anjumani”[4] ning a’zosi sifatida tayinlandim va bu yerdan ketdim”[5]. Xodim mazkur qaydlarida Lvorgayda unashtirilganini aytish bilan shu yerda to‘yi bo‘lganiga ishora qilgan. Bu ma’lumotni Jovid Masrur ham o‘z maqolasida keltirib o‘tgan[6].

Baxtoniy Xodimning Bojur[7] da ham bir muddat bolalarga dars bergani va xattotlikni o‘rgatgani haqida ustozidan o‘z qulog‘i bilan eshitganini o‘zining “Milliy adabiyot va jurnalizm xodimi” asarida aytib o‘tadi[8].

Xodim ijodiy faoliyatini ayni Xaybar-pashtunxvo mintaqalarida kezgan paytlaridan boshlagan. Xodim urdu, ingliz va arab tillarini yaxshi bilgan. Bu tillar yordamida u qiziquvchan va izlanuvchan shaxs sifatida ko‘p narsaning sir-asrorlarini tushunishga intilardi. Bu uning muvaffaqiyatining kalitlaridan biri deb hisoblanishi mumkin[9]. Birinchi nashr qilingan she’ri pashtu tilida bo‘lsa, ilk nasri urdu tilidan

---

birlashishiga qarshi chiqdilar. 1956-yilning kuzida ular Pokiston milliy partiyasiga qo‘shilishdi. Yu. V. Gankovskiy.

[1] Pokistonning Xaybar-Pashtunxvo provinsiyasi shaharlaridan biri

[2] صدیق الله ربښتین، د پښتو نثر هنداره، یونیورستی بک ایجنسی، خیبر بازار- پیښور، ۳۲۶ مخ

[3] عبدالله بختانی خدمتګار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وری ۱۳۸۷ ل – اګست ۲۰۰۸، ۹ مخ

[4] “Kandahor adabiy anjumani” ilmiy, adabiy va madaniy tashkilot sifatida sh.h. 1311-yilda davlat tomonidan tuzilgan bo‘lib, bir qancha yozuvchi va shoirlar pashtu tili va adabiyotini rivojlantirishda ahamiyatli ishlarni amalga oshirdi. https://www.google.com/search?q=انجمن+ادبي+پښتو+د&oq=انجمن+ادبي+پښتو+د

[5] عبدالروف بېنوا، اوسني لیکوال، لومړی ټوک؛ کابل، ۱۳۴۰ ه. ش. ۲۹۵ مخ

[6] https://samsoor.com/article/4719

[7] Pokistonning Xaybar-pashtunxvo provinsiyasidagi tuman

[8] عبدالله بختانی خدمتګار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وری ۱۳۸۷ ل – اګست ۲۰۰۸، ۲۲ مخ

[9] https://www.samsoor.com/article/2877

pashtu tiliga tarjima bo‘lgan. Uning ko‘p tilni bilishi ijodiy faoliyatida muhim rol o‘ynaganini quyidagi ma’lumotlardan bilib olish mumkin. “Ta’lim jarayonida urdu tilini o‘rgangan edim, bunda xat yoza olardim, o‘qishim arab tilida bo‘lgan edi, arab tilida ham yaxshi yoza olardim. Pashtu o‘zimni tilim, maktabdan yozishni boshlagan edim. Ingliz tilini ham biroz bilardim, go‘yo men yozuvchilikka tayyor edim, shoirlik qiziqishi menda kichikligimdan bor edi… Mening ilk nazmim “Ittihodi mashriqiy”da chop etilgan, “Uyg‘on, ey pashtun!” (شه بیدار پښتونه) deb nomlanadi. Ilk nasrim ham “Ittihodi mashriqiy”da nashr qilingan. Bu ish va salomatlik to‘g‘risida bo‘lib, urdu tilidan tarjima qilingan” [1]. Shu tarzda, Qiyomiddin Xodim tom ma’noda ijod maydoniga kirib keldi. 1315 (1936)-yilda “Pashto‘ to‘lana[2]” tashkilotining tuzilishi va Xodimning mazkur jamiyatda bir necha yillar har xil lavozimlarda ishlashi unga ijod va nashr ishlarida keng imoniyatlar eshigini ochdi. Uning bir necha tillarni bilishi ko‘pgina asarlarni pashtu tiliga tarjima qilish imkonini berdi.

“Pashto‘ to‘lana” tashkilotiga asos solingan paytdan uning “Zeray” gazetasi Xodimga topshirilgan edi. U 1318 (1939)-yilda tashkilotning “Ta’lif va tarjima bo‘limi” mudiri bo‘ldi. Qiyomiddin Xodim 1321 (1942)-yilda “Ittihodi mashriqi” gazetasiga bosh muharrir etib tayinlanadi va 1324 (1946)-yilgacha bu lavozimda ishladi. Bu gazeta avval pashtu va dariy tillarida bo‘lib, nashr etishda toshbosmadan foydalanilgan. Xodim rahbarlik qilgan davrda gazeta faqat pashtu tilida, yozuv mashinkalaridan foydalangan holda nashr etila boshladi. Gazetada she’r va adabiyot nashrlari ko‘paydi, sodda tilda saviyali maqolalar chiqa boshladi. Tanqidiy maqolalar ham vaqti-vaqti bilan batafsil chop etila boshlandi va bu maqolalar asosan Xodimning o‘zi tomonidan “nishon” (بډي) sarlavhasi bilan satira janrida yozilgan. Xodimning Kobulda ishlab yurgan kezlari Ikkinchi jahon urushi yillariga to‘g‘ri keldi. Bu davr mobaynida uning qiziqish, fikrlash doirasi kengaydi. U zamonaviy fanning dolzarb muammolari – atom energiyasi, kosmik nurlar haqidagi maqolalarni tarjima qiladi, Robindranat Tagor asarlarining pashtu tiliga tarjimalarini nashr etdi[3]. Qiyomiddin Xodimning ijodiy yo‘li rang-barang va murakkabdir. Hayot qo‘ygan dolzarb savollarga javob berishni o‘z burchi deb biladi. O‘zini qiynayotgan mavzular va ularning yechimini maqola, she’r yoki asar shaklida izhor qiladi. Qalam bilan zolimdan mazlumning qasosini, boydan kambag‘alning haqqini olib bergisi keladi ("Taqdir qo‘li" (د تقدیر لاس), 1945-yil, Kobul jurnali[4]), gohida qarovsiz qolgan

[1] عبدالروف بېنوا، اوسني ليکوال، لومړی توک؛ کابل، ۱۳۴۰ ه. ش. ۲۹۶-۲۹۷ مخونه

[2] “Kandahor adabiy anjumani” 1314 (1935)-yil Kobulga ko‘chirilib Ta’lim vazirligi dasturi doirasida yangitdan ish boshladi. Ikki yildan keyin 1309 (1930)-yil Kobulda tashkil topgan “Kobul adabiy anjumani” tashkiloti bilan birlashtirilib, “Pashto to‘lana– Pashtu jamiyati (پښتو تولنه -)” tashkilotiga asos solindi. “Pashtu jamiyati” 1357(1978)-yilgacha ilmiy va madaniy markaz sifatida pashtu tili va adabiyotini rivojlantirish borasida samarali faoliyat yuritdi. Keyin “Pashtu to‘lana” tashkiloti asosida “Afg‘oniston Fanlar akademiyasi”ga asos solindi.

[3] “Isloh”, 1945, 3-10- oktabrdagi soni; “Anis”, 1945, 11- oktabr.

[4] Гирс Г.Ф. «Современная художественная проза на пушту в Афганистане». – М., 1958. С. 93.

bolalarni himoya qilgisi (“Bolalarga qarang” (په اطفالو پام کوئ)[1]), gohida jamiyatda qadrlanmagan bevani, oilada ezilgan afg‘on ayollarining huquqlarini tiklagisi keladi ("Pashtunlar nuqtayi nazarida ayol" (د پښتنو په نظر کې ښځه) 1948-yil, Kobul jurnali[2]), mamlakatdagi har qanday kamchilikni hal qilishda o‘zini haqdor deb biladi.

Xodim 1324 (1945)-yilda Nangrahordan Kobulga ko‘chdi va “Pashto‘ to‘lana”ning “Ensiklopediya tarjimasi” (د دایرة المعارف ترجمه) bo‘limi mudiri bo‘ldi. Bu keyinchalik “Ariana Ensiklopediyasi” (د آریانا دایرة المعارف) deb nomlangan mustaqil tadqiqot va nashriyot tashkilotiga aylangan ensiklopediya edi. Afg‘oniston Fanlar akademiyasi tashkil etilishi bilan esa u akademiyaga qo‘shildi. Xodim 1325 (1946)-yilning ikkinchi yarmigacha shu yerda bo‘ldi. Bu davrda u tarjimon sifatida o‘z nomi bilan nashr etilgan ko‘plab ensiklopedik maqolalarini pashtu tiliga tarjima qilgan.

Abdulloh Baxtoniyga ko‘ra, mafkuraviy to‘qnashuvlar tufayli 1325 (1946)-yilda Pashtu jamiyati qomusiy tarjimonlar bo‘limi mudiri Qiyomuddin Xodim va Pashtu jamiyati “Kobul” jurnali muharriri Gul Pocho Ulfat norozilik sifatida o‘z ishlarini tark etishga va boshqa joylarga murojaat qilishga majbur bo‘ldilar. Ulfat “Ittihodi mashriqiy”ning mas’ul mudiri bo‘ldi, Xodim Kooperativ depo mudiri G‘ulom Hasan Sofiy yordamida depo inspeksiyasi boshlig‘i etib tayinlanadi va Nangrahorga yo‘l oladi[3].

Endilikda Qiyomiddin Xodim siyosiy maydonda ham bo‘y ko‘rsata boshladi. Buni tushunish uchun o‘sha paytlardagi siyosiy vaziyatlarga biroz nazar tashlasak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ikkinchi jahon urushi nihoyasiga yetgach, urushda qatnashmagan bo‘lsa-da, Afg‘oniston ham ichki siyosatda, ham tashqi siyosatda bir qator jiddiy muammolarga to‘qnash keldi. Afg‘onistonda qattiq zulm, repressiya va senzura kuchaygan edi. 1946-yilda ichki siyosatda afg‘on xalqi ustida juda qattiq nazorat yuritib kelgan M.Hoshimxon (podshoh M.Zohirshohning amakisi) boshchiligidagi hukumat Shoh Mahmud (M.Zohirshohning boshqa bir amakisi) yetakchiligidagi hukumat bilan almashgan[4]” bo‘lsa ham, afg‘on qabilalari orasidagi norozilik kayfiyati hamon ustun bo‘lib turar, mamlakat iqtisodiyoti va xo‘jaligi zudlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator muammolarga to‘qnash kelgan edi. Yangi hukumat vakillari, olim va ziyoli kishilar orasida bahs-munozara, fikr almashish va yig‘ilishlar ko‘paydi. “Ittihodi mashriqi” gazetasi ana shunday bahs-munozaralar maydoniga aylandi va u yerda bu borada Ulfat va Xodimning ko‘plab maqolalari, xalqni “uyg‘otuvchi” she’rlari chop etildi. Mamlakatda hukumat almashinuvi bilan ijtimoiy-siyosiy hayotda ham

[1] Гирс Г.Ф. «Современная художественная проза на пушту в Афганистане». – М., 1958. С. 94.
[2] Гирс Г.Ф. «Современная художественная проза на пушту в Афганистане». –М., 1958. С. 94.
[3] عبدالله بختانی خدمتګار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وری ۱۳۸۷ ل – اګست ۲۰۰۸، ۴۲-۴۳ مخونه
[4] Ghobar, Mir Gholam Mohammad. Afghanistan in the Course of History. Volume II. - Alexandria (USA): Hashmat K. Gobar, 2001. - P. 175.

birmuncha o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jumladan, bir qator ommaviy va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning paydo bo‘lishiga hamda faoliyat yuritishiga sharoit yuzaga keldi. Shulardan biri “Vish zalmiyon”[1] (Uyg‘oq yoshlar) harakatidir. Baxtoniy keltirgan ma’lumotga ko‘ra[2], 1325 (1946)-yil dalv oyining 25-sanasida Jalolobod shahrida Xodimning uyida u va Gul Pocho Ulfat boshchiligida mazkur harakatga asos solindi. Uning tarkibiga asosan pashtun millatiga mansub savdo-sanoat sohasi vakillari, kichik lavozimdagi davlat xizmatchilari hamda ziyoli qatlam vakillari kirishdi. Bir yil ichida bu harakat butun mamlakat bo‘ylab tarqaldi. Qisqa adabiy tanqidiy asarlar yozish, kichik she’rlar yaratish ommalashdi, satirik usuldagi maqolalar yozish keng tarqaldi. Xodimning bu boradagi ishlari, yo‘l-yo‘riqlari va sa’y-harakatlari yuksak tahsinga sazovor. U jamoat yig‘inlarida ham nutq so‘zlar va har chiqishida ko‘pincha yangilik bor edi. O‘sha paytda Hindistondagi ingliz mustamlakachi hukumati butunlay ag‘darildi va bu buyuk davlat ikki qismga, Hindiston va Pokistonga bo‘lindi. Biroq, Pashtunxvo viloyati soxta referendumdan so‘ng Pokistonga qo‘shib olindi. Binobarin, o‘sha joyning aholisi pashtunlardan iborat edi. Hurriyatparast kishilar, afg‘on hukumati va yoshlari ham bu borada Pashtunxvo xalqining mustaqil taqdirini talab qildilar. Dastlab, bu mintaqa Hindiston nashrlarida ham afg‘on nashrlarida ham, Patanistan deb atalgan, ammo Nangrahor “Uyg‘oq yoshlar”i yig‘ilishidan so‘ng Xo‘giyonu bozori darvozasi oldida Qiyomiddin Xodim: “Bu mintaqa endi Pataniston emas, balki Pashtuniston deb nomlanishi kerak”[3] deya nutq so‘zladi. Shundan keyin Pashtuniston nomi afg‘on gazeta va nashrlarida mashhur bo‘lib, keyin Pashtunxvo va dunyoda keng tarqalgan. Boshqa bir manbada keltirilishicha, 1320 (1941)-yildayoq Kobul va Kandahorda “Vish zalmiyon” harakatining tamal toshi qo‘yilgan. Partiya tashkil etilishining dastlabki kunlarida partiya yetakchilari bir-birining uyida yoki boshqa xavfsiz joylarda yig‘ilib, siyosiy fikrlar almashishgan. Kobuldagi “Isloh” gazetasi mudirligi Qiyomiddin Xodimga topshirilgan[4]. 1327 (1948)-yil javzo oyining

7- sanasida Kandahor, Nangrahor, Kobul va boshqa viloyatlardan “Vish zalmiyon” harakatining 22 kishidan iborat yetakchilari, ziyolilari, shoir va yozuvchilari soat kunduzgi ikkilarda Dorulomondagi Abdulmajid Zobuliyning yangi

---

[1] 1948-yil oxirida mamlakat vakillik organlariga bo‘lib o‘tgan saylovlarda "Vish zalmiyon" (**ویښ خلمیان** – uyg‘oq yoshlar) harakati a’zolaridan bir necha nafari deputat bo‘lib saylanishga muvaffaq bo‘ldi va ularning sa’y-harakati bilan 1951-yilda so‘z va matbuot erkinligini ta'minlash, shaxsiy gazeta va jurnallarni nashr etish uchun huquqiy asos bo‘ladigan "Matbuot haqida" yangi qonun qabul qilindi. Mazkur harakat mamlakat yoshlarini umumiy taraqqiyot uchun birlashtirish yo‘lida keng ko‘lamli faoliyat olib bordi. Natijada 1950-yilda mamlakat oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarni birlashtiruvchi talabalar ittifoqi yuzaga keldi.

A.M. Mannonov, N.A. Abdullayev, R.R. Rashidov, Afg‘oniston tarixi, O‘quv qo‘llanma, T: 2018, B. 193.

[2] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۴۳ مخ

[3] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۴۴-۴۵ مخونه

[4] http://www.tolafghanistan.com/ویښ-زلمیان-خوک-وه/

ta’mirdan chiqqan mehmonxonasida mazkur harakat partiyasini tuzish uchun to‘planishdi va partiya dasturi uchun barchalari o‘z loyihalarini taqdim etishdi. Loyiha taqdim etganlarning birinchisi Abdurrauf Benavo va Nur Muhammad Tarakiy, ikkinchisi Qiyomiddin Xodim, uchinchisi Siddiqulloh Rishtin edi. Birinchisining loyihasi ilg‘or va zamonaviy, ikkinchisiniki milliy va vatanparvarlik, uchinchisiniki diniy va madaniy ruhda edi. Uzoq bahs-munozaradan keyin dastur[1] bir ovozdan qabul qilindi[2]. Yuqoridagi manbaalardan “Uyg‘oq yoshlar” harakatining tashkil topishi borasidagi ma’lumotlar turlicha ko‘rinishi mumkin. Aslida, harakat dastlab yashirin tarzda tuzilgan, oshkoralikka o‘tilgandan keyin harakatning Jalolobodagi sho‘basi tashkil topishida Xodim va Ulfat asosiy rol o‘ynagan.

A. Baxtoniy ma’lumotiga ko‘ra, Ustoz Xodim taxminan 1328 (1949)-yilda Hirotga boradi va viloyat gazetasi “Ittihodi islom”ga o‘z asarlarini berib yuradi. Shundan so‘ng, “Vish zalmiyon” harakati tarqatib yuborilgunga qadar, Xodim bir vazifada bir joyda yoki mintaqada bir yildan ortiq vaqt o‘tkaza olmadi.

Xodim 1329 (1950)-yilda Hirotdan Kandahorga ko‘chib, “To‘lo‘ Afg‘on” gazetasining bosh muharriri bo‘ldi. Bu gazeta ham “Ittihodi mashriqiy” gazetasi singari, pashtu tilidagi yirik va muhim bo‘lgan viloyat poytaxtining davlat gazetasi edi. Xodim bu gazetaga matbaa va publitistikadagi yangiliklar, shuningdek, adabiy-tanqidiy maqolalar chop etish orqali yaxshigina shakl berdi. U bu gazetada ham “Vish zalmiyon” harakatini targ‘ib qildi. O‘sha paytlarda asosiy bosmaxonalar kichik bo‘lardi, gazeta sig‘imi katta emas edi. Biroq, Xodim bu cheklangan mantbuotdan she’riyat, adabiyot va o‘z g‘oyalarini nashr etishda keng foydalangan. Lekin u o‘zining ilk she’rlar to‘plamini to‘liq chop etishga erisholmadi. Shundan so‘ng Kobulga taklif qilinib, yana “Pashto‘ to‘lana” jamoasiga a’zo bo‘ldi. 1330 (1951)-yilda “Kobul” jurnaliga bosh muharrir bo‘lib tayinlanganiga qaramasdan, “Pashto‘ to‘lana” rahbariyati va Mustaqil matbuot boshqarmasi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagani uchun Xodimning nomi jurnal tepasida bosh muharrir sifatida qayd qilinmadi[3]. Shunga qaramay, u o‘z vazifasini juda ishtiyoq va qiziqish bilan bajardi.

---

[1] Dasturda quyidagilar ko‘zda tutildi: islom dini, konstitutsiyaviy monarxiya va podshoh mavqeyini hurmat qilish, qonun chiqaruvchi, ijro, sud kabi hokimiyat tarmoqlarini ajratish, ularning huquq va vakolatlarini belgilash, erkin va adolatli saylovlar orqali konstitutsiyaga davr talabiga ko‘ra o‘zgartirishlar kiritish, konstitutsiyani hayotga tatbiq etish, fikr va so‘z erkinligini ta’minlash, matbuot erkinligini rivojlantirish, har qanday irqiy, til va mintaqaviy xurofot va ustunlikni talab qilishning oldini olish, shaxslarning tabiiy va ijtimoiy huquqlarini qonun orqali ta'minlash, zulm, poraxo‘rlik, kontrabanda va adolatsizlikka qarshi kurashish, ijtimoiy hayotda dabdaba va haddan oshishga yo‘l qo‘ymaslik, texnologiya va sanoatni rivojlantirish, mamlakatning har bir sohasini ish va ta'lim bilan ta’minlash, dehqonlar va fermerlar huquqlari, iqtisodiy va madaniy islohotlarga e’tibor berish. Noto‘g‘ri tushunchalarga qarshi chiqish, milliy til pashtu va Pashtunistonni himoya qilish, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini va xalqaro tinchlik va xavfsizlikni talab qilish va ilm bilan amalga oshirish.

[2] **https://www.samsoor.com/article/2877**

[3] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وری ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۴۶-۴۷ مخونه

Kobul siyosat, matbuot va pashtu jamiyatining markazi edi, ammo madaniyat xizmatkori Xodim hech bu yerga joylasha olmadi. Yana matbuotni tark etishga va ma’muriy ish bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ldi. Xodim 1331(1952)- yilda Saro‘bi kooperativ elektr stansiyasi bosh direktori etib tayinlandi.

Xodimning bir joyda muqim ishlamaganiga ehtimol uning o‘z dunyoqarashi va pozitsiyasiga ega ekanligi, har narsaga ho‘p deyavermasdan bahslashadigan, haqiqatparvar bo‘lgani ham sabab bo‘lgandir. O‘zining ushbu xarakteri haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: “Meni ko‘p bahslashadi, hech qanoat qilmaydi deyishadi, bilmadim, bu odamlarning qusurimi yoki mening aybim. Ustozlarim ham mening savollarimga hayron bo‘lishardi. Lekin men munozara qilinayotgan narsa ustida ishonchim komil, asoslar va tamoyillarga ko‘ra gapiraman. Shunday bo‘lsa-da, keskin munozara qilmayman... odamlar meni urishqoq deydi, do‘stlarim bo‘lsa “unda adabiy jasorat bor” deyishadi. Yoshligimda odamlar meni “Katta ish” (ishkal) deya tanqid qilishardi, lekin men o‘z fikrimni ayta olishim va ta’magir bo‘lmaganimdan faxrlanaman. Qolaversa, haqiqatni sevish gunoh bo‘lsa, men gunohkorman. Odamlar masalalarda turli nuqtayi nazardan qarashlari mumkin, lekin men haqiqatga sodiqman. Kim nima desa desin, “Ko‘p og‘izdan ko‘p gap chiqadi”[1].

1332 (1953)-yilda Mustaqil matbuot boshqarmasi rahbariyatida o‘zgarishlar bo‘lib, Xalilulloh Xaliliy mustaqil matbuot rahbari bo‘ldi. Uning taklifi bilan “Isloh” gazetasining bosh muharriri etib Qiyomiddin Xodim tayinlandi. "Isloh" mamlakatning milliy gazetasi edi. Ko‘plab obunachilarga ega bo‘lgan bu gazeta pashtu va dariy tillarida nashr etilgan. Ba’zida ikki tilning nisbati saqlanib qolgan, ba’zan esa yo‘q. Biroq, Xodim taklifi bilan “Isloh”ning yetmish besh foizi pashtu va yigirma besh foizi dariy, uning muqobilida “Anis” gazetasining yetmish besh foizi dariy, yigirma besh foizi pashtu tilida chiqa boshladi. Gazeta tili va uslubi yaxshilandi. Pashtu va dariy qismlari ravon, sodda, va publitistik tilda nashr etilgan. Ustoz Xodim bu ishga alohida e’tibor bergan. Xodim “Isloh” gazetasida kunning muhim masalalarini muhokama qilardi. Ushbu gazeta uchun milliylik va baynalmilalizmga oid qiziqarli takliflar Xodim tomonidan taklif qilingan. O‘zi ham unda saviyali, dolzarb maqolalar bilan qatnashardi. Unda o‘sha davrning yetuk olimlari, yosh adiblari ishtirok etardi[2]. Isloh gazetasini boshqarish davomida u o‘zining bir qancha kitoblarini ham nashr etishga muvaffaq bo‘ldi.

Mustaqil matbuot boshqarmasi rahbariyatida yana o‘zgarishlar bo‘lib, Xodimning lavozimi yana o‘zgartirildi. Davlat xizmatchilari uchun pashtu tili kurslari boshqaruvi Pashtu jamiyati doirasidan chiqarilib, uning o‘rniga “Pashtu tili o‘qitish umumiy boshqaruvi” tashkil qilindi, uning bosh mudiri Qiyomiddin Xodim bo‘ldi. “Zeray” gazetasi ham Pashtu jamiyati o‘rniga bu yirik boshqaruvga bog‘langan va Siddiqilloh

[1] محمد اسمعیل یون، د پښتو معارصو ادبیاتو فکري محورونه، کابل پوهنتون ژبو او ادبیاتو پوهنځی پښتو ځانګه، ۱۴۰۲ لمریز کال، ۱۱۸ مخ

[2] عبدالله بختانی خدمتګار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اګست ۲۰۰۸، ۴۸ مخ

Rishtin o‘rniga Xodim nazoratiga o‘tgan. Xodim bir muddat “Zeray”ning barcha ishlariga mas’ul bo‘ldi, so‘ng Mo‘tamid Shinvoriy Qiyomiddin Xodim rahbarligida faoliyat yuritib, uning mas’ul boshqaruvchisi bo‘ldi. Xodim o‘zining tarjimayi holida bu davrlarni qisqa tarzda ifodalagan: “1332 (1953)-yilda “Isloh” gazetasi mudiri bo‘lib tayinlandim. Undan keyin bir necha yil kurs mudiri bo‘ldim, “Zeray”ni yuritdim, hozirda mana shu Pashtu jamiyati a’zosiman”[1].

Pashtu jamiyatida 1335 (1956)-yilda Pashtu jamiyatida katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Gul Pocho Ulfat Milliy sho‘ro deputatlik muddatini yakunlab, Pashtu jamiyati rahbari bo‘ldi. Pashtu jamiyati a’zolarining ilmiy doirasi to‘g‘risidagi qonun loyihasi ma’qullandi. Unga olimlar va tadqiqotchilar taklif etildi. Harakatga sobiq faxriy adiblar, hatto universitet bitiruvchilari ham qo‘shildi. Xodim ham Pashtu jamiyati jamoasiga a’zo bo‘ldi. Yangi loyiha asosida Ulfat va Xodimga “Bosh tadqiqotchi” ilmiy unvoni berildi.

Pashtu tili va adabiyoti haqidagi munozaralar Pashtu jamiyatida qizg‘in tus oldi. Ularda Xodim faol ishtirok etdi. U pashtu tilini “tozalash” haqida maqolalar yozgan va Kobul jurnalida o‘z qarashlarini e’lon qilgan. Xodimning boshqa mavzulardagi tadqiqot maqolalari ham “Zeray” gazetasi va “Kobul” jurnalida chop etilgan.

1340 (1961)-yil oxirida Afg‘oniston hukumati tarkibida o‘zgarishlar yuz berdi. Muhammad Yusuf Sardor Muhammad Dovud o‘rniga bosh vazir bo‘ldi. Gul Pocho Ulfat yangi Devonda Mustaqil qabilalar idorasi raisi etib tayinlandi. Baxtoniyga ko‘ra, Siddiqulloh Rishtin Ulfatning o‘rniga Pashtu jamiyati mudiri etib tayinlanganidan keyin ustoz Xodim pashtu jamiyatiga sig‘may, ishini tashlab ketga[2]. Ehtimol ular o‘rtasida qandaydir ziddiyat yoki tushunmovchilik bo‘lgandir. Qisqa muddatli ishsizlikdan so‘ng, Xodim 1342 (1963)-yilning ilk oylarida 1328 (1949)-yilda faoliyatini boshlagan “Hevod” gazetasiga bosh muharrir etib tayinlandi. U bu yerda 1344 (1965)-yilgacha faoliyat yuritdi. Odatiga ko‘ra, bu gazetani ham juda yaxshi boshqardi, adabiyotga, gazeta tilini yaxshilashga katta e’tibor berdi. Unda vaqti-vaqti bilan mushoiralar ham chop etdi.

Xodim har doim Milliy Sho‘roga a’zo bo‘lishni orzu qilgan. U Koma shahridagi Vakillar palatasining sakkizinchi muddati uchun o‘z nomzodini qo‘ygan edi. Biroq keng tarqalgan ilmsizlik, hukmron tabaqalarning haddan tashqari ko‘p aralashuvi, saylovlarga ortiqcha sarf-xarajatlar tufayli xalq o‘z xizmatkorlarini tanlay olmadi[3].

Nihoyat, 1344 (1965)- yilda uning qalbdagi niyati amalga oshib, senator etib saylanadi va Milliy Sho‘ro Senati a’zosi bo‘ladi. U bu muddatni tugatgandan keyin bu kabi rasmiy ishlarda ishlamadi.

Qiyomiddin Xodim afg‘on xalqini uyg‘otish, millatni, mamlakatni rivojlantirish uchun nafaqat nazmiy va nasriy asarlari bilan harakat qilgan, balki Afg‘oniston

[1] عبدالروف بېنوا، اوسني ليکوال، لومړی توک؛ کابل، ۱۳۴۰ ه. ش.۲۹۷ مخ

[2] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۶۶ مخ

[3] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۷۲ مخ

siyosiy arboblari orasida hamisha zamon bilan hamohang katta siyosiy harakatlarni amalga oshirib kelgan faol va ko‘zga ko‘ringan shaxslardan biri hisoblanadi. Xodimning maslakdoshi, shogirdi Abdulloh Baxtoniyning ta’lifi mazkur fikrimizni yaqqol ochib beradi: “1341 (1962)-yildan 1352 (1973)- yilgacha yurtimiz ziyolilari guruhlarga, firqalarga bo‘lingan edi. Ulardan biri milliylik asosida tuzilgan "Afg‘on millati" nomli guruh ham bor edi. O‘sha davrda millat ziyolilari har joyda, har bir xonadonda, uy va hujralarda to‘planib, imkon qadar bir-biriga yaqinlashish, hamkorlikda siyosiy faoliyatlar tashkil etish, partiyalar tuzishga intilardi.

“Bir kuni domla bilan Mayvand ko‘chasida gaplashib o‘tirgan edik. Suhbat qanday qilib va nima uchun partiya tuzish kerakligi to‘g‘risida edi. Xulosayi kalom shunday edi: Kommunistik partiya muvaffaqiyatsiz bo‘ladi, chunki bizning diniy jamoamiz buni qabul qilmaydi va chet el aralashuvi ehtimoli ham mavjud. Islomiy partiya keng jamoatchilik tomonidan qabul qilinadi, lekin xuddi shu yo‘l chet el aralashuvi uchun ochiq hamda ikkiyuzlamachi va g‘arazli kimsalar tomonidan bir nimalar o‘ylab topish ehtimoli ham ko‘proq, chunki oddiy xalqning diniy tuyg‘ulari ular uchun ayni muddao, ularning bilimsizligidan foydalanishlari mumkin. Xo‘sh, nima qilish kerak? Mening taklifim shu ediki, milliy, fuqarolik va demokratik partiya tuzilishi kerak. Uning nomi nima bo‘lar edi? Afg‘on sotsial-demokratik partiyasi … Ustozga bu nom juda ma’qul kelib, shunday dedi: – “Ajoyib, juda yaxshi nom.”

Men: “Ustoz, bu nomning bosh harflari uning qisqartmasi bo‘lib qoladi – Asad (اسد).

Ustoz: “Yaxshi, asad– sher degani, afg‘onlar shijoatda sher kabidir”.

Oradan ancha vaqt o‘tgach, xuddi shu nom va g‘oya bilan Kobuldagi ustoz Xodimning uyida Afg‘oniston xalq partiyasi asoschilarining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi…[1].

Ushbu ma’lumotlarni mazkur partiya a’zosi bo‘lgan Ro‘shon Xodim ham tasdiqlaydi: “Xodim sohib “Uyg‘oq yoshlar” harakatining asoschilaridan biri bo‘lishdan tashqari, 1344 (1965)-yilda “Afg‘on millati” nomi bilan mashhur bo‘lgan Afg‘oniston sotsial-demokratik partiyasiga ham asos solgan. Bu partiyaning birinchi Qurultoyi o‘sha yili Kobuldagi Mayvand ko‘chasining ikkinchi qismida joylashgan Xodim sohibning uyida bo‘lib o‘tdi va 42 nafar milliy arboblar ishtirokida partiya nomi, partiyaning nashriyot organi nomi, partiya kadrlari va markaziy qo‘mitasi ham tuzildi. Partiya shiori va nizomi ham ustoz Qiyomiddin Xodim tomonidan yozildi. Ta’sischilarning birinchi qurultoyida nizomning har bir moddasi uzoq muhokama va bahslardan keyin mutlaq ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilindi…”[2].

Xodimning ko‘plab maqolalari partiyaning “Afg‘on millati” gazetasi nashrida chop etilgan. U bu gazetani chop etishda ham har tomonlama yordam berdi, gazeta muharrirlari Xodimning siyosiy fikrlari, ijtimoiy nazariyalari va jurnalistik

[1] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وړی ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۷۸-۷۹ مخونه

[2] https://ps.wikipedia.org/wiki/**قیام_الدین_خادم**

tajribasidan ko‘p foyda oldi. Keyinroq bu guruhda bo‘linish yuz berdi. Xodim o‘z fikrlari, g‘oyalari va asarlarini nashr etish uchun 1348 (1969)-yilda o‘zining “Afg‘on xalqi” gazetasini chiqardi. Bu gazetaning egasi va muharriri Xodimning o‘zi edi. Xodim o‘ta jiddiy, chuqur siyosiylashgan, madaniy ohang hukmron bo‘lgan gazeta chiqarayotgan ekan, u shu gazeta atrofida milliy guruh tuzmoqchi edi. Lekin uning atrofida yetarlicha qo‘llovchilar yo‘qligi, moliyaviy yetishmovchilik, hukumat bosimi tufayli guruh tuzilmadi, endigina o‘n bitta son chiqargan gazetani yopishga majbur bo‘ldilar.

So‘nggi yillar Qiyomiddin umrining so‘nggi yillarini ishsiz, go‘yo tinch-totuv o‘tkazgandek ko‘rinsa-da, bu yillarda u pashtunlarning kelib chiqishi, tarixi, urf-odatlari haqida fikr qildi, o‘rgandi, yozdi. Kundalik siyosatdan uzoqda, milliy madaniyat asoslari ustida fikr yuritdi, ishladi, ba’zi adabiy tadqiqot seminarlarida qatnashdi, maqolalar yozdi va taqdim etdi. U “Boyazid Ro‘shon” xalqaro seminarida ro‘shoniylar davri kurashlarini haqida ma’ruza qildi, “Xalqaro pashtushunoslik markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi xalqaro seminarda “Pashtunvali”ning mohiyatini tushuntirib berdi, “So‘nggi asrlarda pashtu tilida chop etilgan asarlar” nomli seminarda maqolalar asosida pashtunlarning hayot falsafasini yoritib berdi. So‘nggi paytlarda, ba’zan sog‘lom, ba’zan kasal holatda, goh Kobulda, goh Nangrahorda, goh Peshovarda paydo bo‘lib qolardi. Nima bo‘lganda ham afg‘on g‘ami bilan band va bu uning hayot tarzini namoyon etardi.

Qamoq:“Savr inqilobi”dan keyin 1357 (1978)-yilning birinchi yarmida Xodim qamoqqa olindi. Xodim tergovda har qanday og‘zaki yoki yozma bayonot berishdan bosh tortdi. U faqat “Men shu yurtning yozuvchisi, xalqning xizmatkoriman, rahbaringiz mening ukam va shogirdim. Agar u meni so‘roq qilsa, men tayyorman[1]” der edi.Yigirma besh kun tutqinlikda qolgan Qiyomiddin Xodim Afg‘oniston Demokratik Respublikasi tuzilganini e’lon qilgan mamlakat rahbari Nur Muhammad Tarakiy bilan suhbat qilgandan keyin qo‘yib yuborildi.

Qiyomiddin Xodim keksaydi, xasta bo‘ldi, umr bo‘yi aqliy mehnat qilib charchagan edi. 1979-yil 21-avgust kuni (1358-yil sunbula oyining 5-sanasida / h.q.1399-yil shavvol oyining 5-sanasida) dushanba kuni Aliobod kasalxonasida bu bevafo dunyodan ko‘z yumdi va Komadagi ota-bobolari ko‘milgan qabristonga dafn qilindi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Qiyomiddin yoshligidan ilm o‘qidi, bu yo‘lda ko‘p safarlar qildi, 50 yildan ortiq ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohalarida tahsinga loyiq xizmatlar qildi. U ilmiy va amaliy sa’y-harakatlar qilgan Afg‘oniston zamonaviy adabiyoti davrining ko‘zga ko‘ringan olimi, madaniy va siyosiy mutafakkiri sifatida tarixda qoldi. Xodim maktab, madrasa, Kobul universiteti adabiyot fakultetining pedagogi, mudarrisi, ustozi, yetuk olimi sifatida ko‘p shogirdlar yetishtirdi. Islohotlar yo‘lida “Uyg‘oq yoshlar” va “Afg‘on millati”

[1] عبدالله بختانی خدمتگار، د ملی ادب او ژورنالزم خادم، افغانستان، وری ۱۳۸۷ ل – اگست ۲۰۰۸، ۸۴-۸۵ مخونه

partiyalari faoliyatida asosiy yetakchilardan biri sifatida faol ishtirok etdi. U qobiliyatli shoir, yozuvchi, tarjimon va tadqiqotchi sifatida ko‘plab she’riy va nasriy asarlar yaratdi. Ba’zi manbalarda uning 100 ga yaqin she’riy to‘plam va nasriy asarlari mavjudligi aytilsa, boshqalarida 60 dan ortiq ekani ta’kidlanadi. Biz muallifning 20 ga yaqin asarlarini topishga muvaffaq bo‘ldik. Shuningdek, Qiyomiddin Xodim ilmiy, adabiy, siyosiy va boshqa ijtimoiy masalalarga oid yuzlab tadqiqot va tahliliy maqolalari bilan zamonaviy afg‘on adabiyotining yorqin yulduzlaridan biriga aylandi. Umrining ko‘p qismini matbuotda o‘tkazdi. U iste’dodli jurnalist sifatida ko‘plab Afg‘oniston nashrlarida bosh muharrir va direktor bo‘lib ishladi. Uning publitistik maqolalari nafaqat yangiliklarni yetkazish yoki tahlil qilish uchun xizmat qiladi, balki jamiyatga yo‘nalish beradi, unga hayotning mazmuni va shartlarini ko‘rsatadi. Maqolalarida xalqning talab, umid va takliflari o‘z ifodasini topadi. Shu tarzda Qiyomiddin Xodim XX asr Afg‘oniston pashtu adabiyoti osmonida porladi.

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

ABDURAHMONOVA MUHAYYO
Professor, f.f.n., TDSHU

Urducha matn ustida ishlash jarayonida “Talaba-o‘qituvchi” hamkorligi asosida qo‘llaniladigan interfaol usullar

Annotatsiya*. Mazkur maqolada urducha matn ustida ishlash jarayonida “talaba-o‘qituvchi” hamkorligi asosida qo‘llaniladigan interfaol usullar tahlil qilinadi. Unda interfaol ta’limning mazmuni va ahamiyati, matn bilan ishlashda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi strategiyalar, shuningdek, talabaning fikrlash faoliyatini faollashtirishga qaratilgan metodlar yoritiladi. Muallif matn tahlilining zamonaviy yondashuvlariga tayangan holda “klaster”, “aqliy hujum”, “konseptual jadval” kabi usullarni qo‘llash tajribasini ko‘rib chiqadi va ularning o‘zlashtirish darajasiga ta’sirini tahlil qiladi. Maqola oliy ta’lim tizimida dars samaradorligini oshirish, talabalarni mustaqil fikrlashga, matnni chuqur tahlil qilishga yo‘naltirish borasida foydali ilmiy-amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Maqoladagi asosiy vazifa *–Talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan holda, matn ustida ishlash jarayonida interfaol usullarni qo‘llash orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, matnni chuqur tahlil qilish ko‘nikmalari va tushunish darajasini oshirish. Talabaning passiv o‘quvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb etilishi, bu orqali uning matnni tushunish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.*

Kalit so‘zlar*: “talaba-o‘qituvchi” hamkorligi, interfaol usullar, “klaster”, “aqliy hujum”, “konseptual jadval” usullari, matn analizi.*

Abstract*.This article explores interactive methods used in the process of working with texts based on “student-teacher” collaboration. It highlights the essence and importance of interactive learning, as well as strategies that enhance the effectiveness of text analysis. Drawing on modern approaches to text interpretation, the author examines the use of methods such as clustering, brainstorming and conceptual tables, and analyzes their impact on students’ comprehension levels. The article offers valuable scientific and practical recommendations for improving the efficiency of higher education lessons and fostering students’ independent thinking and in-depth text analysis skills.*

Keywords and expressions: *interactive methods ,“student-teacher” collaboration, clustering, brainstorming and conceptual tables, analysis skills.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются интерактивные методы, применяемые в процессе работы с текстом на основе сотрудничества «студент-*

преподаватель». Освещается содержание и значение интерактивного обучения, а также стратегии, способствующие повышению эффективности работы с текстом. Автор, опираясь на современные подходы к анализу текста, рассматривает применение таких методов, как «кластер», «мозговой штурм», «концептуальная таблица», и анализирует их влияние на уровень усвоения материала. Статья содержит полезные научно-практические рекомендации по повышению эффективности занятий в системе высшего образования, а также по формированию у студентов навыков самостоятельного мышления и глубокого анализа текста.

Ключевые слова: *интерактивные методы, сотрудничество «студент-преподаватель». интерактивное обучение, «кластер», «мозговой штурм», «концептуальная таблица», анализ текста.*

Davr talabiga koʻra hozirda talabaning dars jarayonining faol subyektga aylanib, uning oʻzi izlanishi, til faktlarini kuzatishi, farqlay olishi, chuqur tahlil qilib, tasnif qilishi va nihoyat oʻzi kerakli xulosaga kelishi lozim. Interfaol taʼlim oʻqituvchiga talabalarda mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi. Interfaol taʼlim anglash (onglilik) tamoyiliga asoslangan. Shu sabab dars jarayoniga talabaning til hodisalarini kuzatishi, anglashi, bilishi, amalda qoʻllashi uchun zarur til vositalari, imkoniyatlarining uzviy sistemasini tatbiq etish kerak. Nutqiy faoliyatni toʻgʻri shakllantirishda hozirgi innovatsion texnologiyalar borasidagi yutuqlarga tayanmoq kerak. Nutqiy salohiyatni shakllantirish va oʻstirishda ogʻzaki va yozma nutq meʼyorlariga amal qilish kerak. Shundagina talaba fikr bildirishga shoshilmaydi, mustaqil fikr yuritishga, soʻzlashdan oldin har bir soʻzni chuqur oʻylab, matnga mos soʻz tanlashga oʻrganadi. U oʻz nutqida har bir soʻz va iborani oʻrinli ishlata biladi. Talabada soʻz va soʻz birikmalarini qoʻllashga masʼuliyat hissi paydo boʻladi, loʻnda, ravon va raso soʻzlashga odatlanadi.

Matn ustida ishlashdan **maqsad** – matnni his qilishga oʻrgatish - talabalarni sinchkovlik bilan oʻqishga, oʻqilganlardan kerakli maʼlumotni ajratib olishga, mavjud bilimlar bilan bogʻlashga oʻrgatishdir.

Matn tanlashda oʻziga xos **talablar** qoʻyiladi:

– Oʻquvchilarning individual yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda matn tanlash;

– Matn sermazmun va tushunarli boʻlishi;

– Talabaning maʼnaviy-axloqiy rivojiga qaratilgan matnlarni tanlash: zamonaviy talaba uchun ijobiy, yaxshi fazilatlarni tarbiyalovchi, insoniy his-tuygʻularni uygʻotadigan, tashqi dunyo bilan uygʻunlikni his qilish imkonini beradigan mavzularda boʻlishi;

– Talabaga mamlakat va millat haqida maʼlumot yetkazuvchi matn tanlanishi bu – talaba oʻzi oʻrganayotgan millat tarixi, madaniyati, urf-odatlari haqida boy tasavvurga ega boʻlishiga turtki beruvchi matnlar tanlanishi shart.

Matn ustida ishlash uch bosqichni o‘z ichiga oladi. Bularning har birida bajariladigan usullar bor.

Talabalarda matn orqali gapirish ko‘nikmasini shakllantirish maqsad qilinsa, ularning so‘z boyligini oshirish; o‘z fikrini izchil va mantiqiy ifoda etishga o‘rgatish; o‘quv materialini to‘laqonli o‘zlashtirish; estetik zavq ulashish; mustaqil fikrlashga o‘rgatish; o‘z fikriga dalil keltira olishga erishiladi.

Nutqqa o‘rgatish jarayonida quyidagi **muammolar** yuzaga kelishi mumkin:

– Talabalar chet tilida gapirishdan xijolat bo‘lib tortinadi. Xato qilishdan qo‘rqadi va shuning uchun o‘qituvchi va kursdoshlar tomonidan tanqidga uchrashdan xavfsiraydi.

– Talabalar muhokama qilinayotgan mavzu yuzasidan yetarli ma’lumotga ega emasligi.

– Berilgan topshiriqni yechish uchun o‘quvchilarning lug‘at boyligi yetarli emasligi.

– Bitta talaba javob berganida qolganlar muloqotdan chetda qolish xavfining mavjudligi.

Zero I.A.Zimnyayaning fikricha, “Talabalar nutqni rivojlantirish jarayonida duch keladigan asosiy qiyinchilik – bu nutqiy ko‘nikma va malakalarning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Ular mantiqan yakunlangan fikrni ifoda etishda qiyinchilikka duch keladilar, ko‘pincha og‘zaki javob berishdan qochishadi, chunki xatolikka yo‘l qo‘yishdan qo‘rqadilar”[1].

Matnni o‘qitish jarayoni **3 bosqichdan** iborat. Bular:

1-bosqich “matnni o‘qishdan oldingi bosqich” deb ataladi. Bunda o‘qituvchining asosiy maqsadi – antitsipatsiya (matn mazmunini oldindan taxmin qilish qobiliyati)ni rivojlantirish hisoblanadi. O‘qituvchi oldiga matnni o‘qishga motivatsiya uyg‘otish, talabani o‘qishga qiziqtirish vazifasi qoyiladi. Bu jarayonda quyidagi “Bihu” sarlavhali matn asosida pastda keltirilgan usullardan foydalanish mumkin:

1.Aqliy hujum strategiyasi ("G‘oyalar savati") .“Aqliy hujum” metodi asosida tashkil qilingan dars quyidagi tartibda tashkil qilinadi. Matnga aloqador muammo aniqlanadi va talabalarning shu muammo yuzasidan fikrlari doskaga yozib boriladi. Talabalar o‘zi bildirayotgan g‘oyalarni asoslab berishi darkor. O‘qituvchi bu metodni qo‘llaganida matn bilan ishlash bir necha bosqichda olib boriladi.

[1] И.А. Зимняя. «Психология обучения иностранным языкам в школе». — М.: “Просвещение”, 1991. С. 115.

بیہو

دنیا میں طرح طرح کے تہوار ہوتے ہیں . کچھ جانوروں کو لوگ گھروں میں پا لتے ہیں. ان کو ہم پالتو جانور کہتے ہیں . کچھ جنگل میں رہتے ہیں اور وو جنگلی جانور کہلاتے ہیں . پالتو جانور وں میں گائے، بیل ، بھینس ، بھیڑ بکری ،اونٹ، گھوڑا، گدھا، کتا اور بلی وغیرہ شامل ہیں. گائے ، بھینس اور بکری سے ہمیں دودھ ملتا ہے اور بھیڑوں سے اون . دودھ سے مکھن اور گھی بنتا ہے اور اون سے گرم کپڑے . گھوڑے، گدھے اور اونٹ سواری کر نے اور بوجھ ڈھونے کے کام آتے ہیں.بیل کھیت جوتنے اور بیل گاڑی کھینچنے میں ہماری مدد کرتا ہے.



والد:شاباش بیٹا! تم نے بالکل ٹھیک حساب لگایا ہے. اچھا تو یہ بتاؤ کہ بیسروپےمیں سے تم نے چودہ روپے کا سامان خرید لیا . اب تمہارے پاس کتنے روپے باقی بچے؟

وقار: (انگلیوں پر گنتے ہوئے) بیس روپے میں سے چودہ روپے گھٹائےیہ تو چھہ روپے باقی بچے.

1-bosqich. Talabalarni matnni tushunishga tayyorlash jarayoni. O‘qituvchi matnni tarqatgach, uni o‘qishdan oldin savol bilan talabalarga murojaat qiladi. O‘ylab ko‘ring:

– Matnning birinchi misrasidan uning mazmunini taxmin qilishga harakat qiling. Sizningcha, hikoya nima haqida bo‘ladi? (Birinchi misra quyidagicha boshlanadi – “Dunyoda turfa xil bayramlar bor”).

Talabalar matn mazmunini tushunishga harakat qiladilar.

2-bosqichda o‘qituvchi talabalarning fikrlarini umumlashtiradi va o‘z munosabatini bildiradi.

3-bosqichda o‘qituvchi quyidagi savolni o‘rtaga tashlaydi: bosh qahramon kim bo‘lishi mumkin? (Birinchi suratda dalada ishlayotgan ayol tasviri bor).

Talabalar berilgan savolga javob topishda turlicha fikrlar bildiradilar, bahs-munozaraga kirishadilar.

Talabalar tomonidan matn shu metod yordamida o‘rganilsa, matn mazmunini yaxshiroq anglaydilar, uning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar, matnlarni qiyoslash orqali ularning mohiyatini teran idrok etadilar. "Ko‘pgina talabalar izchil monolog tarzida fikr bildirish ko‘nikmasiga ega emaslar, ular o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashni bilmaydilar. Bu ham so‘z boyligining kamligi, ham mustaqil nutqiy faoliyat amaliyotining etishmasligi bilan bog‘liq[1]." Bu metod talabalarni fikrlashga, darsda faol ishtirokchi bo‘lishga, hozirjavob va mulohazali bo‘lishga o‘rgatadi.

[1] Т.А. Ладыженская и др. Развитие речи учащихся.– М.: “Просвещение”, 1986. – С. 23.

2-bosqich **“matnni o‘rganib anglash bosqichi”** deb ataladi. Bu bosqichni o‘tkazishdan maqsad matnni tushunish va uni o‘quvchi tomonidan talqinini tahlil qilishdir. Asosiy urg‘u talabaning matnni idrok etishini to‘liq ta’minlashga qaratiladi.

Bu bosqichning asosiy strategiyalarining mohiyati parcha ortidan parcha o‘qib, mazmunga kirishish; matnga sharh berib o‘qishdir. Bu bosqich bevosita o‘qituvchi ishtirokida amalga oshadi.


Munozara metodi – o‘qituvchi munozara shaklida o‘tkazmoqchi bo‘lgan mavzuni (“Qanday bayramlar bor? Qaysi bayram qachon nishonlanadi?”) tanlaydi va uni talabalar diqqatiga havola qiladi. Talabalar tanlangan muammoga tegishli ma’lumotlarni atroflicha o‘rganadilar. O‘qituvchi talabalarga muammoni beradi va uning qoidalarini tushuntiradi. Talabalar muammo yechishga oid fikrlarini bir necha variantlarda ifoda qiladilar, lekin hech qaysi fikr tanqid ostiga olinmaydi. Imkon qadar talabalarning ko‘proq fikr bildirishlariga sharoit yaratiladi. Mavzu yuzasidan to‘g‘ri va tugal munozarani tashkil etish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. O‘qituvchi munozara muhitini yaratish va talabalarni munozaraga jalb qilish uchun ishni bir necha bosqichga bo‘lishi va har bir bosqich uchun tegishli mashqlar va yo‘naltiruvchi savollarni belgilab olishi zarur. Bularsiz bahs-munozara o‘tkazib bo‘lmaydi.

Darsning ma’lum qismida o‘qituvchi tegishli fikrlarni ajratib oladi va munozarani yakunlaydi. O‘qituvchi darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni rag‘batlantiradi, zarur topshiriqni berib, mashg‘ulotni tugatadi.

Matnga oid savollar tuzish. Ushbu usul matn mazmunini tushunish jarayonidagi asosiy jihat bo‘lib, matnni har tomonlama tushunishga olib keladi. Matnni tushunish, avvalo, undagi alohida so‘zlarni, so‘z birikmalarini tushunishdan iborat. Shuningdek, bunga yana butun matnning mantiqiy tuzilishi, uning asosiy g‘oyasi va ma’nosi, muallifning badiiy niyati ham kiradi. Shuning uchun matnning turli qismiga oid savollar bo‘lishi mumkin: ayrim so‘zlar va jumlalar, matn pachasi paragraflariga oid bo‘lishi mumkin. Bu yondashuv matndagi birorta ham tushunarsiz qismi qolmasligini ta’minlaydi.

“Klaster” metodi – puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. “Klaster” metodini amalga oshirishda quyidagicha ishlanadi:

Klaster metodini amalga oshirishda تېهوار “bayram” so‘zini (berilgan matndagi asosiy g‘oya “bayramlar”) aylana shaklidagi chizma ichida, ya’ni markazdagi doiraga yoziladi. Talabalar bayramlar haqida nimani o‘ylagan bo‘lsa, shuni qog‘ozga tushiradi. Ular o‘z fikrlarining to‘g‘ri-noto‘g‘riligi haqida o‘ylab o‘tirmay, yozib boradi. Belgilangan vaqt tugamaguncha, yozishdan to‘xtamaydi. Talabalar “Bayramlar” haqifagi tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari surish hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatishga urinadilar. Yoki xuddi shu usulda bosh qahramon haqidagi fikrlarni talabalardan yozish taklif etiladi.



Bunda talabalar tomonidan yozilgan fikrlar umumlashtirib aytib beriladi. Bu fikrlarni doskada yoki qog‘ozda yozish mumkin. Mazkur metod erkin o‘ylash va fikrlarni bemalol bayon etish imkoniyatini yaratadi. Mazkur metod turli-tuman g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalarni fikrlash, aniqlashda amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar ta’lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlaydi. Darsda ushbu metod talabalar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmuyi tarzida yuzaga chiqadi. Ushbu jarayonda har bir talaba tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalarni jamlash hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni topa olish imkoniyatini yaratadi. O‘qituvchi ularning fikrlarini umumlashtiradi.“Klaster”metodi – erkin fikrlashning asosiy omili hisoblanib, talabalarga biron-bir mavzu to‘g‘risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan strategiyadir.

3-bosqich – “**matn o‘qilgandan keyingi bosqich**” deb ataladi.

Bu bosqichda asosiy maqsad matn mazmuniga asoslanib, talaba talqin qilayotgan mazmunni isloh qilish hisoblanadi.

O‘qituvchining asosiy vazifasi – talabaning matnni tushunishi va idrok etishiga erishish; matnga umumiy savol qo‘yish; savol-javob, suhbat qurish.

Matn sarlavhasiga, rasmlarga qayta murojaat qilib, birinchi keltirilgan taxminlar tekshiriladi.

Natija shunday bo‘lishi kerakki, talaba tomonidan muallif nazarda tutgan mazmunni to‘g‘ri tushunishiga erishish lozim.

1. “Matnni tasavvur qilish” strategiyasi.

Bu usul paytida talabalar o‘z taxminlarini tekshiradilar. O‘qituvchi matn yuzasidan quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

– Ushbu qismni o‘qiganingizdan keyin nimani bilib oldingiz? Bosh qahramon haqida nima deb o‘ylaysiz?
– Qaysi taxminlaringiz tasdiqlandi?
– Siz kutgan voqea yuz berdimi?
– Sizningcha, hikoya qanday tugaydi?
– Siz qanday tugatishni istar edingiz?
– Hikoya voqealaridan keyin qahramonning taqdiri nima bo‘ldi?

2. “Matnning asosiy g‘oyasini ajratish”.

Tuzilgan rejaga muvofiq matnni so‘zlab berish; bu jarayon talabaning o‘qilgan matnni qanchalik o‘zlashtirganini bildiradi. Talabaning o‘g‘zaki nutqining rivojlantirish darajasi, shuningdek, tahlil qilish qobiliyatini ko‘rsatadi. O‘qituvchi talabaning fikri bilan qiziqadi: matn unda qanday taassurot qoldirdi? U muallifning fikriga qanday munosabatda?

oshadigan va amalga oshmaydigan istak-xohishga qo‘llasa bo‘ladi, deydi [1]. Abdurahmon Jomiy ham mana shu qarashni qo‘llaydi[2]. Xorazmiy esa quyidagi misollarni keltiradi: ليت زيدا خارج – *Koshki, Zayd chiqsa.* Bu amalga oshadigan istak-xohishni ifoda qilishini tushunsak bo‘ladi. *يا ليتنا نرد* – **Koshki, qaytarilsak** [An’om–27]. لعل yuklamasi ehtimollikni ifoda qiladi.لعل عمرا حاضر – *Ehtimol, Zayd tayyordir.* Abu Mustafo bu harfni amalga oshadigan tilakni ifodalaydi, deb ta’kidlaydi[3]. Masalan: *لعل الساعة قريب* – **Ehtimol, qiyomat soati yaqin** [Shuaro-17]. Xorazmiy ham Abu Mustafo keltirgan oyatni keltiradi. Bundan ko‘rinadiki, Xorazmiyning misoli ham amalga oshadigan umidga dalolat qilyapti. Abu Bakr Nahviy لعل shaklni ifoda qiladi, deydi[4]. Jamoliddin Fakihiy لعل yaxshi ko‘rgan narsada umidni; لعل الحبيب قادم – *Ehtimol, suyukli kelar,* xohlamagan narsada rahm – shavqatni;لعل عمرا هالك – *Ehtimol, Umar halok bo‘lgan,* ifodalash deydi[5]. Misollardan ko‘rinadiki, Xorazmiy qoidalarga ko‘p ta’rif bermasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri misollarni keltirib, asar hajmining muvazonatini saqlagan. Lekin bu mavzuda hajmi katta kitoblarda keltirilgan ma’lumotlar o‘rtamiyona uslubda o‘z aksini topgan.

Bu yuklamalar kesimining egadan oldinga chiqishi joiz bo‘lmaydi. Faqat kesim old ko‘makchi bilan kelgan bo‘lsa, joiz bo‘ladi. Masalan:إن فى الدار زيدا – *Darhaqiqat, uyda Zayd bor*[6].

Bu harflarga ما harfi qo‘shilib, ularning egaga ta’sir qiluvchi vazifasi bekor bo‘ladi. Masalan: لعلما زيد خارج – *Ehtimol, Zayd chiqar.* Gapda kesim tushirib qoldirilishi mumkin. Masalan: إن مالا و إن ولدا – *Darhaqiqat, (ularda bor) mol-dunyo va bola-chaqa.* Bu gapning asl ko‘rinishi quyidagicha: إن لهم مالا و لهم ولدا – *Darhaqiqat, ularda mol-dunyo va bola-chaqa bor.*

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, arab tilida so‘zlarning tushum kelishigida kelishi faqat o‘timli yoki o‘timsiz fe’llarga bog‘liq ravishda emas, balki yordamchi fe’llarning bevosita ta’siri natijasida ham o‘zgarar ekan. Quyida keltirilgan “bo‘lmoq”, “aylanmoq” va “davom etmoq” fe’llari ega bilan kelib, kesimning tushum kelishigida kelishini talab qilishi o‘ziga xos xususiyatlardan hisoblanadi. Bu fe’llar qatoriga inkorni ifoda qiluvchi “yo‘q”, “emas” ma’nosidagi fe’llar ham qo‘shilishi mavzuning murakkabligini anglatadi. Ba’zida tushum kelishigining alomati (fatha, kasra yoki “ya” harfi) yashirin (مقدر – muqaddar) bo‘lishi mumkin. Bu odatda so‘zning oxirgi harfiga (masalan, alif maqsura (ى) yoki alif

---

[1] شرح الأشموني على الفية ابن مالك، تحقيق محمد محيي الدين عبدالحميد،الجزء الأول، دار الكتاب العربي،بيروت - لبنان،1955م،ص170.

[2] Abdurahmon Jomiy. Sharhi Mulla Jomiy, Al-Kofiya. – T.: “Sharq”, 2014. – B.201.

[3] أبو مصطفى البغدادي، الواضح فى النحو، شرح و توضيح على متن الآجرومية،2012م،ص113.

[4] أبو بكر احمد بن الحسن بن شقير النحوى البغدادي، المحلى وجوه النحو،تحقيق دكتور فائز فارس، دارالأمل بيروت1987م،ص105.

[5] جمال الدين عبد الله بن احمد بن على الفاكهى، رفع النقاب، تحقيق محمد الأمين بن عبدالله بن يوسف،دارالمنهاج، الجزء الثانى،لبنان- بيروت،2011م،ص2,170،

[6] Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanuvchi 10518-raqamli qo‘lyozma, 222-a.

mamduda (اء) bilan tugaydigan so‘zlarda) yoki boshqa fonetik sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Bu holat ham o‘rganuvchidan qo‘shimcha diqqat va tahlilni talab qiladi, chunki kelishik belgisi ko‘rinmasa ham, so‘zning grammatik vazifasi tushum kelishigini anglatib turadi. Bu esa arab tili grammatikasining o‘ziga xos va ba’zan murakkab jihatlaridan biridir.

Undan tashqari, bu fe’llarda shunday bir xususiyat borki, ular tugallangan ma’noni ifoda qiluvchi ot kesimli gapga kirib keladi. O‘timli fe’llar kabi aniq holatdagi otning emas, noaniq holatdagi kesimning kelishigiga ta’sir qilishi bu fe’llarni boshqasidan ajratib turadi. Bu fe’llar ishtirokida gap tuzish uchun o‘rganuvchi ot kesimli gapni oldindan tasavvur qila olishi kerak. Ya’ni, dastlab mavjud bo‘lgan ega va kesim (ikkalasi ham bosh kelishikda) jumlasiga ushbu yordamchi fe’llardan biri qo‘shilganda, kesimning tushum kelishigiga o‘tishini yodda tutish kerak. Mavzuda mana shu jihatlar ko‘rsatib berilgan.

Ma’lumki, gapning egasi har doim bosh kelishikda keladi. Lekin arab tilida biz yuqorida o‘rgangan yuklamalar borki, ular egani tushum kelishigida turishga majbur qiladi. Bu yuklamalar gapning ma’nosini kuchaytirish yoki biror gapdan ko‘zlangan maqsadni qisqa tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. Bu yuklamalar gapdagi ish-harakatning amalga oshishi yoki oshmasligini ham oldindan ifodalash xususiyatiga ega. Bu ifoda uslubi arab tilining naqadar o‘ziga xos ekanini ko‘rsatadi. Misol uchun لعل – “ehtimol” ma’nosini ifoda qiluvchi yuklama o‘zbek tilida odatiy tarzda tushuniladi. Masalan: لعلك ألآن أحسن – *Ehtimol, sen hozir yaxshiroqsan.* Buni arablar kengroq talqin qilishadi. Ya’ni “أرجو أن تكون الآن أحسن” shaklidagi ma’nodasida.

Bu jumlaning o‘zbekcha tarjimasi: *Umid qilamanki, hozir ahvolingiz yaxshiroq, Umid qilamanki, endi tuzukroqsiz, Endi yaxshiroq bo‘lsangiz kerak, deb umid qilaman.* Bu xususiyatlar o‘zbek tilida yo‘q bo‘lib, aynan asliyatning ma’nosini berish uchun yana boshqa grammatik vositalarni ishlatish taqozo etiladi. Bu albatta, arab tilini o‘rganuvchilar uchun dolzarbdir. Chunki arab tilidagi bu qoidalarni bilmasdan uning asl mohiyatini anglab yetish qiyin. “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e’rāb” asarida mana shu qoidalar arab tilining barcha imkoniyatlaridan foydalanib tushuntirilgan. Muallif qoidalarni dalillashda Qur’oni karim oyatlaridan foydalangan. She’riy baytlardan tanlaganda ham Qur’oni karim oyatlaridagi uslubga ma’no jihatdan yaqinroq namunalarni berishga harakat qilgan. Xalq og‘zaki ijodidan ham foydalanib, ko‘plab maqol va matallar keltirgan. Hadisi shariflardan kam foydalangan bo‘lsa-da, boshqa nahvshunoslarga nisbatan ko‘proq hadis keltirgan.

ФЕРУЗА ТАДЖИХУЖАЕВА
Докторант, ТГУВ

Семантический анализ персидского соматизма جان *jān* «сердце» в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои

Аннотация. *Соматизмы – это слова и выражения, связанные с частями человеческого тела, которые активно участвуют в формировании языковой картины мира, в изучении соматизмов, в первую очередь, позволяет глубже понять ментальность народа, а также выявить познавательные стратегии языкового сознания и проследить взаимодействие тела и языка.*

В соматическом коде особое место занимают символьные функции различных частей тела. Например, голова – символ мыслительной деятельности, глаза – символ света, духовности, а также недобрых намерений и коварных замыслов («дурной глаз» – по суеверным представлениям: взгляд человека, причиняющий вред, приносящий несчастье).

Так же, как и другие языки персидский язык имеет свои семантические особенности. Особенно, можно наглядно увидеть эти особенности в персидских соматизмах. Названия частей тела - древнейшая совокупность слов, непосредственно связанная с функционально-эмоцианальными сторонами человеческой жизни. Такая лексика относится к основному словарному фонду, а также составляет лексико-семантическую группу не только персидского языка, но и других языков мира.

Один из таких соматизмов является جان jān «сердце», который использовался в разных значениях в контексте. Выявление персидского соматизма جان jān «сердце» и его изучение с точки зрения семантического анализа в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои является целью данного соискания.

В результате исследования нами был изучен соматизм جان jān «сердце», который имеет несколько значений и было проанализировано частота его употребления в поэме Алишера Навои. В данной статье вышеприведённый соматизм был анализирован семантически на основе тюркской поэмы «Стена Искандера» Алишера Навои, а также были выявлены значения по контексту и частота употребления соматизма جان jān «сердце» в данной поэме. Можем сделать вывод, писатель умело использовал соматизм جان jān «сердце» в своей поэме и показал, что персидский соматизм может передавать другие значения в тюркском языке.

Ключевые слова и сочетания. *Алишер Навои; «Стена Искандера»; соматизм; семантический анализ; جان jān «сердце».*

Annotatsiya. *Somatizmlar – bu inson tanasining a'zolari bilan bog'liq bo'lgan so'z va iboralardir, ular til orqali dunyoqarashni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Somatizmlarni o'rganish, avvalo, xalqning mentalitetini chuqurroq tushunishga, til ongining bilish strategiyalarini aniqlashga va tana bilan til o'rtasidagi o'zaro aloqani kuzatishga imkon beradi.*

Somatik kodda tana a'zolarining ramziy funksiyalari alohida o'rin tutadi. Masalan, bosh — fikrlash faoliyatining ramzi, ko'zlar — nur, ma'naviyat, shuningdek, yomon niyat va makkor rejalar ramzi sanaladi ("yomon ko'z" — irim-sirim e'tiqodlarda: insonning baxtsizlik va zarar keltiruvchi nigohi).

Boshqa tillar singari, fors tilida ham o'ziga xos semantik xususiyatlar mavjud. Ayniqsa, bu xususiyatlarni fors somatizmlarida yaqqol ko'rish mumkin. Tana a'zolarining nomlari inson hayotining funksional va emotsional jihatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan eng qadimiy so'z qatlamidir. Bu leksika asosiy lug'aviy qatlamga kiradi va nafaqat fors tilida, balki boshqa dunyo tillarida ham leksik-semantik guruhni tashkil etadi.

Shu kabi somatizmlardan biri – جان jān "yurak" bo'lib, u turli kontekstlarda turlicha ma'nolarda qo'llangan. Mazkur tadqiqotning maqsadi Alisher Navoiyning "Saddi Iskandari" dostonidagi جان jān "yurak" forsiy somatizmining semantik tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqot natijasida جان jān "yurak" somatizmi bir nechta ma'noga ega ekani aniqlandi va uning Alisher Navoiy dostonida qo'llanish chastotasi tahlil qilindi. Ushbu maqolada mazkur somatizm semantik jihatdan tahlil qilindi hamda u doston doirasida qanday kontekstlarda va qanday ma'nolarda ishlatilgani o'rganildi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, yozuvchi جان jān "yurak" somatizmidan mahorat bilan foydalangan va forsiy somatizm turkiy til doirasida boshqa ma'nolarni ham ifodalashi mumkinligini ko'rsatgan.

Kalit so'zlar va iboralar: *Alisher Navoiy; "Saddi Iskandari"; somatizm; semantik tahlil; جان jān "yurak".*

Abstract. *Somatisms are words and expressions related to parts of the human body that actively contribute to the formation of the linguistic worldview. The study of somatisms primarily allows for a deeper understanding of a people's mentality, as well as the identification of cognitive strategies of linguistic consciousness and the exploration of the interaction between body and language.*

In the somatic code, symbolic functions of various body parts hold a special place. For example, the head symbolizes intellectual activity, the eyes symbolize light, spirituality, as well as ill intentions and malicious plans (e.g., "evil eye" — in superstitious beliefs: a gaze that brings harm or misfortune).

Like other languages, the Persian language has its own semantic and functional features. These features are particularly evident in Persian somatisms. The names of body parts are among the oldest layers of vocabulary directly related to the functional and emotional aspects of human life. This type of vocabulary belongs to the core lexical stock and constitutes a lexical-semantic group not only in Persian but also in other world languages.

A large volume of literature on the study of the work of Alisher Navoi in its various aspects is rather modestly represented by the stated topic, and the semantic analysis of Persian somatism جان jān in the work of Alisher Navoi is studied, one might say, only incidentally when solving more complex problems. We know a lot of foreign works directly on the topic of somatism, but regarding Persian somatisms and their use in the poem "The Wall of Iskandar" by Alisher Navoi has not previously been touched upon.

As a result of the study, it was found that the somatism جان jān has several meanings and the frequency of its usage in Alisher Navoi's poem. In this article, the given somatism was analyzed semantically on the basis of the Turkic poem "The Wall of Iskandar" by Alisher

Navoi, and the contextual meanings and frequency of somatism جان jān "heart" in the poem "The Wall of Iskandar" by Alisher Navoi were identified. We can conclude that the writer skillfully used somatism جان jān "heart" in his poem and illustrated that Persian somatism can convey other meanings in the Turkic language as well.

Keywords and phrases. *Alisher Navoi, "The Wall of Iskandar", somatism, semantic analysis, جان jān "heart".*

Введение. Названия частей тела являются актуальным объектом исследования современной лингвистики, так как данные единицы входят в состав весьма продуктивных пластов языка. Надо отметить, что соматизм جان *jān* также можно встретить в поэме «Стена Искандера» в разных значениях, что показывает мастерство Алишера Навои.

Большой объем литературы по изучению творчества Алишера Навои в различных его аспектах довольно скромно представлен заявленной темой, а семантический анализ персидского соматизма جان *jān* в произведении Алишера Навои исследуется, можно сказать, лишь попутно при решении более сложных задач. Непосредственно по теме соматизмы нам известны много зарубежные работы, однако касательно персидских соматизмов и их использование в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои ранее не было затронуто.

Нужно отметить, что многие соматизмы в лингвистике широко рассматривались и изучались зарубежными учёными, как Н.Х. Туйгунова[1], Д.Б. Дашиева [2], А.Р. Попова [3], Л.С. Пейсиков [4], Ю.А. Рубинчик [5], С.Г. Мехтиханлы[6]. Д.М.Магомедов[7], Т.М. Алиева[8], И.А.Туркулец[1], Ц.М.

[1] Tuygunova N.Kh. Sopostavitel'nyy analiz leksiki, oboznachayushchey chasti tela v tadzhikskom i angliyskom yazykakh (na osnove proizvedeniya S. Ayni). [Comparative Analysis of Vocabulary Denoting Body Parts in Tajik and English (Based on the Works of S. Ayni)]– Dushanbe, 2012.

[2] Dashieva D.B. Izuchenie somaticheskoy frazeologii v sovremennoy rusistike.[The Study of Somatic Phraseology in Contemporary Russian Linguistics] – Buryatskiy gosudarstvennyy universitet, 2010.

[3]Popova A.R. Ob odnoi iz osobennostey somaticheskoy frazeologi [On One of the Features of Somatic Phraseology]. – Nizhegorodskaya, 2009..

[4] Peysikov L.S. Leksikologiya sovremennogo persidskogo yazyka [Lexicology of the Modern Persian Language]. – M., 1975.

[5] Rubinchik Yu.A. Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazyka [.Grammar of the Modern Persian Literary Language] – M., 2001

[6] Mekhtikhanly S.G. Nazvaniya chasteй tela v sostave frazeologizmov russkogo i persidskogo yazykov [Body Part Names in the Phraseological Units of the Russian and Persian Languages]. – Gilyan, Iran, 2017.

[7] Magomedov D.M. Strukturno-semanticheskiy analiz somaticheskih frazeologicheskih edinits avarskogo yazyika [Structural-semantical analysis of somatic phraseological units of the Avar language]. –M., 2013.

[8] Alieva T.M. Polisemantizm somaticheskoy leksiki v raznosistemnyih yazyikah. [Polisemantism of somatic vocabulary (based on Russian and German languages)] –Mahachkala, 2010

Шин[2], Н.А.Седова[3], Р.Ю.Мугу[4], М.А.Сабирова[5], также отечественными учёными, как Х.З. Алимова[6], М.Р.Тожибоева[7] а также в работе иранских учёных Н.Д.Маранд, М.Ш. Чавошиан, М.Амини[8]. Однако не была затронута семантика персидского соматизма جان *jān* в произведениях Алишера Навои, а также их функциональная особенность.

Анализ научных источников свидетельствует о том, что статус соматизма в конкретных языках рассмотрен с разной степенью полноты и точности. Если подробно рассмотрим соматизмы в мировой лингвистике, то приведем ихние взгляды. Что касается изучения сомтаизма в русском языке, учёные отмечают, что оно в целом исследовано достаточно подробно. Рассмотрены общие и частные вопросы, к числу которых относятся работа русского - ираниста Ю.А.Рубинчик, который утверждает, что персидский язык является одним из древнейших письменных языков мира. На этом языке создана богатейшая литература, преимущественно поэзия. Помимо Ирана, он был распространен во многих сопредельных с ним странах (в некоторых районах Средней Азии)[9]. Здесь автор определяет использования персидского языка в Средней Азии, в частности можно наблюдать в произведении Алишера Навои «Хамса» Также автор подчёркивает, количество слов иранского происхождения, являющихся общенародным достоянием, довольно велико, к ним относятся части человеческого тела: **چشم** [čašm] «глаз», **دست** [dast] «рука», **پا** [pā] «нога». Как приводит Ю.А. Рубинчик, существует значительное различие между литературно-разговорным и языком книжным, официально-канцелярским, в

[1] Turkulets I.A. Frazeologizmyi s komponentami- somatizmami v hudojestvennyih tekstah M.A. Sholohova[Phraseology with components-somatisms in literary texts M.A. SHolohova.] – Volgograd, 2015.

[2]SHin TS.M. Strukturno- semanticheskaya harakteristika russkih somaticheskih frazeologicheskih edinits i ih ekvivalentyi v yaponskom yazyike.[Structural and Semantic Characteristics of Russian Somatic Phraseological Units and Their Equivalents in the Japanese Language] – M., 1998.

[3] Sedova N.A. Sootnoshenie obrazov chastichnogo(chastey) i tselostnogo cheloveka v yazyikovoy kartine mira [The Correlation of the Images of the Partial and Holistic Human Being in the Linguistic Worldview]. –Omsk, 2000.

[4] Mugu R.YU. Polisemantizm somaticheskoy leksiki (na materiale russkogo i nemetskogo yazyikov) [Polisemantism of somatic lexicon (based on Russian and German languages)]– Maykop, 2003.

[5] Sabirova M.A. Strukturno-semanticheskie osobennosti somaticheskih slov i idiom v poezii Kamola Hudjandi [Structural and semantic features of somatic words and idioms in poetry by Kamola Hudjandi – Hudjand], 2018

[6] Alimova X.Z. Dariy tilida somatizmlarning struktur va semantik tasnifi [Structural and Semantic Classification of Somatisms in the Dari Language] – T., 2005.

[7] Tojiboeva M.R. Alisher Navoiyning «Ilk devon»idagi arabcha sozlarning leksik-semantik talқini [Lexical and Semantic Interpretation of Arabic Words in Alisher Navoi's "First Divan"]. – T., 2011.

[8] ناهید جلیلی مرند، شراره چاوشیان، محبوبع امینی بدن انسان در امثال وتعبیرات: مطالعه چاپ چهارم. – تهران، ۱۴۰۲. – ص۳۱-۶۱. تطنبیقی فرانسه و فارسی

[9] Rubinchik YU.A. Sovremennyiy persidskiy yazyik [Modern persian language]. –M.1960. – P.8

котором употребляются главным образом слова арабского происхождения и архаизмы. Так, например, вместо چشم [čašm] «глаз» в высоком стиле можно встретить عین [’eyn] «глаз», «око»[1].

Следующий русский исследователь, активно работавший в области изучения соматизмов А. М. Эмирова, которая отмечает, что эталоном пространственной ориентации человека на самом деле является анатомическая ориентация его тела: спереди – та, на которой расположены органы чувств (особенно наблюдения), и задняя часть спины, которая представляет структурную симметрию человеческого тела. Автор делает вывод: «Само тело человека было самым доступным и изучаемым объектом с первых человеческих шагов. Его ориентация, его оценка окружающего его мира удобнее для человека соотносить с частями своего тела»[2].

В современной лингвистике есть слова, которые имеют несколько значений. В основном они отличаются оттенком значения или сферой употребления. Такие слова имеют прямое значение, когда отражают его предметно-понятийную отнесенность и косвенно-дополнительное значение, появившиеся в результате развития смысловых связей.

Надо отметить, что соматизм جان *jān* является многозначным словом не только в персидском, но также в тюркском языках. Значение этого соматизма можно выявить из контекста. Как приводит Анвари в своем толковом словаре[3], соматизм جان jān даёт следующие значения: 1) жизнь, сердце, сила, душа животных; 2) душа, дух, старание; 3) ласковое обращение к любимому человеку; 4) ответ при обращении; 5) междометие “Ура” когда человек счастлив. 6) оригинал чего либо; 7) тело, тельце; 8) свежость, сила, молодость.

В «Толковом словаре произведений Алишера Навои»[4] соматизм جان *jān* имеет следующие значения: 1) дух, жизнь, существование; 2) дух, внутреннее состояние, душевное состояние; 3) часть тела, сердце; 4) сила, старание, возможность; 5) память, воспоминание, воображение; 6) тело, тельце; 7) душа; 8) любимый человек. Проведя сравнительный анализ двух толковых словарей можно отметить, что персидский соматизм جان jān имеет схожесть в значениях двух языков, однако некоторые значения не имеются в тюркском языке, такие как междометие “Ура”, “оригинал чего либо”, “свежость”, “молодость”.

В вышеупомянутой поэме слово جان jān используется 199 раза.

---

[1]Rubinchik YU.A. Sovremennyiy persidskiy yazyik. [Modern persian language]. –M.1960. – P.37-38.

[2] Emirova, A.M. Nekotoryie aktualnyie voprosyi sovremennoy russkoy frazeologii. [Some Topical Issues of Modern Russian Phraseology]– M., 1972 – p. 22.

[3] **فرهنگ انوری حسن چاپ دانشگاه. تهران، ۸۱ ۱۳ جلد ۲ صفحه ۲۰۷۶**

[4] Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati [Explanatory Dictionary of the Language of Alisher Navoi’s Works] T., “Fan” 1983-1985. 1.juz B. 587.

В ходе исследование мы наблюдали некоторые из вышеуказанных значений.

Цель и задачи. Цель данного исследования заключается в том, чтобы произвести семантический анализ персидского соматизма جان *jān* в тюркской поэме «Стена Искандера» Алишера Навои.

Исходя из вышеуказанной цели, были определены следующие задачи:

– определить случаи употребления соматизма جان *jān;*

– определить частотное использование данного соматизма;

– определить их значение по контексту;

Методы. В ходе исследования мы воспользовались сравнительно-семантическим и статистическим методами и был изучен соматизм جان *jān* «сердце» на основе произведения «Стена Искандера» Алишера Навои.

Результаты и достижения. В результате исследования мы выявили, что персидский соматизм جان *jān* является многозначным словом в персидском языке, а также имеются некоторые значения в тюркском языке. Для сбора и анализа примеров мы воспользовались «Конкорданс «Стена Искандера» Алишера Навои»[1].

Выдающийся поэт узбекской литературы Алишер Навои в своей поэме «Стена Искандера» [2] сумел грамотно и поэтично употребить персидский соматизм جان *jān* в разных значениях и в составе фразеологизма.

Ниже приведём пример соматизма جان *jān:*

«Bilik kasbini qildi tā **ĵān**i bār,
Hunar bildi ānča ki imkāni bār». (15/83)
“Пока он полон **сил** он трудился
По возможности он изучил ремесло”

В приведённом примере соматизм «جان» *jān* даёт значение «сила». В ходе изучения в данной поэме персидский соматизм «جان» *jān* выступает в значении «сила» в 6 примерах (30/23, 31/192, 44/22, 47/75, 57/45, 59/19, 72/124, 23/262).

Следующий пример соматизм «جان» *jān*:

«Ču mehmān uzātib qolin xāniġa,
Qoyub mēzbān minnatin **ĵān**iġa». (53/11)
“Когда гость протянул руку к столу
Он почувствовал в **душе** благодеяние хозяина дома”

В ходе изучения этой поэмы было найдено 115 соматизмов «جان» *jān* в значении «душа» (4/65, 4/65, 6/12, 6/16, 6/17,6/28, 7/3, 7/28, 7/39, 7/40, 7/41, 7/42,

[1] Quronbekov A., Imomnazarov M., Mannonov A. va b. Alisher Navoiyning “Saadi Iskandari” dostoni konkordansi [The Concordance of the Poem “The wall of Iskander” by Alisher Navoi]. Tashkent, “Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi” Publ., 2012. 832 p.

[2] Нижеприведенные бейты собраны из поэмы «Стена Искандера», первое число обозначает главу, а второе номер бейта.

15/55, 17/11, 19/42, 20/33, 20/39, 20/48, 22/22, 23/243, 25/11, 27/121, 27/369, 27/404, 27/463, 30/34, 31/127, 31/192, 32/32, 32/68, 33/8, 36/17, 39/2, 43/88, 44/44, 45/34, 47/172, 47/172, 47/172, 52/22, 53/3, 53/11, 56/12, 60/20, 60/21, 60/55, 60/106, 60/106, 60/175, 60/186, 64/36, 64/68, 64/115, 64/136, 64/179, 65/3, 65/4, 65/7, 65/34, 65/40, 66/12, 67/12, 67/16, 67/17, 68/9, 68/35, 68/146, 69/31, 72/37, 72/102, 72/106, 76/108, 76/177, 77/35, 77/44, 77/45, 80/23, 80/105, 80/138, 80/141, 84/26, 89/14, 89/75, 89/105, 89/152, 89/152, 89/225, 67/11, 67/14, 74/8, 76/199, 6/12, 6/16, 7/17, 7/41,9/47, 9/54, 9/72, 24/39, 24/48, 25/10, 25/28, 27/128, 29/19, 35/100, 44/28, 52/100, 60/55, 64/150, 31/212, 39/221, 16/30, 23/214). Однако, слово *jān* выступает и в других значениях.

Приведём другой пример с использованием этого соматизма:

«Birin luṭf arā ĵavhari **ĵān** deyin,

Aŋa ābxōr ābi ḥayvān deyin». (1/83)

“Даром щедрости одарите смысл **жизни**

Назовём влагой, водой живой”

В рассматриваемом примере соматизм *jān* в составе словосочетания «**ĵavhari ĵān»** выступает в значении **«смысл жизни».** Здесь лексема *jān* не выступает в своём номинативном значении, а даётся в переносном значении. Таких примеров нами было найдено 6 (1/83, 6/10, 6/11, 6/11, 9/25, 60/86) с использованием соматизма *jān* в значении «жизнь» и в составе словосочетания **ĵavhari ĵān.**

Следующий пример с использованием соматизма *ĵān*:

«Quyāš čehralik šōxi barbatnavāz

Ki, **ĵān** rištasi tār aŋa, čālsa sāz». (1/58)

“Как прекрасен лицо барбатиста

Который **духовной** связью уловил в напеве”

В приведённом примере соматизм теряя своё номинативное значение, приобретает новый смысл вместе со словом **rištasi** и переводится как *духовная связь.* В данной поэме это словосочетание встречалось 3 раза (1/58, 52/98, 7/30).

Ниже дан пример соматизм «جان» *jān*:

«Nihān ’išqdin yetti iš **ĵān**ima,

Bu kun fāš etāy rāz ĵānānima». (60/30)

“Из тайной любви муки в моем **сердце**

Сегодня раскрою тайну возлюбленной”.

В рассматриваемом примере соматизм «جان» выступает в значении «сердце», здесь данный соматизм даётся в своём номинативном значении, то есть как часть тела. В изучаемой поэме этот соматизм в значении «сердце» приводится в 5 примерах (60/30, 4/74, 66/3, 76/126 и 80/140.).

Далее приводится пример соматизма *jān* в составе словосочетания*:*

«Ma’āniy sipāhini **ĵān** mulkidin,

Ne **ĵān** mulkidin, lāmakān mulkidin» (5/60)

“Глубокие знания он вывел не из **духовного** мира,
Не из царства **духа**, а из мира беспредельного”.

В рассматриваемом примере можно выделить использования соматизма jān дважды. В первом случае, данный соматизм в составе словосочетания **ĵān** mulkidin переведён как определяющее слово, однако во второй строчке эта лексема даётся как определяемое слово. Этот приём было использовано, с целью не допустить тождественного повтора. Было найдено достаточное количество (4) подобных примеров. (4/65, 4/65, 5/60, 5/60).

Ниже дан пример соматизм «جان» *jān*:

«Šukūh ānča yuzlandi **ĵān**im sari,
Tavān ham tani nātavānim sari» (8/97)
“Когда величие настигло моё **тело**
Сило обхватила моего изнуренного тела”

В вышеприведённом примере соматизм «جان» *jān* выступает в значении «тело». В ходе изучения было найдено 2 примера использования соматизма «جان» *jān* в значении «тело» (8/97, 77/47).

«Guli ’aṭri yuz yilčiliq yol ketib,
Yuz illik oluk **ĵān** tāpib, čun yetib».(9/42)
“Аромат цветка сто лет ждал
Столетний овраг обрёл **дух** - тогда достиг”

В данном бейте соматизм «جان» jān переводится как «**дух**», так как данный соматизм в составе словосочетания приобрёл новое осмысление, которое не встречалось ни в словаре Анвари и ни в словаре Алишера Навои. Таких примеров нами было найдено 4 (7/17, 9/42, 9/48, 32/32).

Исходя из вышеприведённых примеров можно сделать вывод, что персидский соматизм «جان» *jān* выступает в разных значениях в поэме «Стена Искандера». В ходе исследования были найдены примеры, где соматизм «جان» *jān* используется в составе фразеологических оборотов, однако мы не проанализировали их так, как изучение фразеологизмов не является целью нашего исследования. Хотя соматизм «جان» *jān* является персидским словом, тюркский писатель Алишер Навои смог выразительно передать смысл этой лексемы в своей поэме, а также Навои с индивидуальным подходом использовал этот соматизм в разных значениях.

Вывод.

1. Соматизм «جان» *jān* в поэме «Стена Искандера», перейдя из своей коммуникативной функции в художественно-изобразительную, начинают приобретать новое эстетическое значение.

2. Соматизм «جان» *jān* в персидском языке, как указывается в словаре Анвари, имеет более чем 8 значений, и в толковом словаре Алишера Навои их

также восемь. Однако, 3 значения в персидском словаре не встречаются в словаре Навои.

3. В поэме «Стена Искандера» соматизм «جان» jān использовался 199 раз из них 115 раза в значении «душа», в значении «сердце» 5 раза, встречался в этой поэме 6 раза в значении «сила» и в значении «тело» 2 раза, а в составе словосочетаний в значении «старание» 9 раза, и в значении «жизнь» 6 раз и 7 раз в других значениях, которых мы вывели из контекста.

4. Многократное употребление персидского соматизма «جان» *jān* в поэме «Стена Искандера» Алишера Навои предположительно связано с тем, что поэт использовал в основном арабские и персидские заимствованные слова. И одну треть его слов составляют персидские и арабские слова

5. Большая часть персидского соматизма «جان» *jān* имеет семантические соответствия с тюркским языком, что объясняется общностью основных функций частей тела у разных народов.

ZOIRJON DAVLATOV
O‘qituvchi, TDSHU

HUSNIDDIN INOMIDDINOV
O‘qituvchi, TDSHU

Shart-istak mazmunini ifodalashning lakonik (ixcham) usuli xususida

Annotatsiya. *Turk tilining o‘zbek tilidan farqlanib turuvchi leksik vositalaridan biri ise to‘liqsiz fe’li qo‘llanilish doirasi haqida ma’lumot beriladi. Ushbu fe’lning turk tilida yordamchi fe’l sifatida qo‘llanilishi borasida misollar bilan yoritib beriladi. Jumlalarda fe’lning vazifaviy shakllari bilan qo‘llanilib turli xil ma’no anglatishi yoritib beriladi. Shuningdek, o‘zbek tilida necha ma’no anglatishi qiyosiy tahlil bilan ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ise, leksema, sema, bosh ma’no, mustaqil ma’no, ravish, sifatdosh, harakat nomi, modal so‘z.*

Annotation. *Information is provided about the scope of the verbs of opportunity (ise). The use of these verbs as auxiliary verbs in Turkish will be explained with examples. Different meanings of the verbs are explained in the sentences using functional forms. Also, its meaning in the Uzbek language will be revealed by comparative analysis.*

Key words: *ise, lexeme, sema, main meaning, independent meaning, adverb, adjective, verb, modal verb.*

Аннотация. *Предоставляется информация о сфере применения глаголов возможности (ise). Использование этих глаголов в качестве вспомогательных в турецком языке будет объяснено на примерах. Различные значения глаголов*

поясняются в предложениях с использованием функциональных форм. Также путем сравнительного анализа выяснится его значение в узбекском языке.

Ключевые слова: *исе, лексема, сема, основное значение, самостоятельное значение, наречие, прилагательное, глагол, модальное слово.*

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xorijiy tillarni o‘rganish, o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj ortdi. Zero, chet tillarni mukammal egallash, o‘z navbatida, bu sohaning yetuk bilimdonlarini, tarjimonlarni yetishtirish imkonini beradi. Bu holat chet mamlakatlar bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Shu bois, xorijiy tillar, jumladan, turk tilining spetsifik belgilarini tadqiq etish va aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Turk tilidagi **ise** to‘liqsiz fe’li o‘rniga ko‘ra o‘zbek tilidagi **esa** bog‘lovchisiga yoki **bo‘lsa** so‘z shakliga xos ma’no va vazifada keladi, ya’ni o‘rganilyotgan to‘liqsiz fe’l o‘zbek tiliga fe’lning perifrastik shakli– yoyiq shakliga to‘g‘ri keladi. **İse** to‘liqsiz fe’li to‘liq yoki qisqa shaklda ishlatilishi mumkin.

Masalan, quyidagi misolda **ise** so‘zi to‘liq shaklda qo‘llangan:

*Kötülükler **ise** Cenab-ı Mesıh’in pek sevgili evlatlarınındır (E.N.)Yomonliklar esa Janabi Masihning sevgili avlodlarinikidir.* Qisqa shakldagi **ise** to‘liqsiz fe’li fonetik variantga ega: **-sa, -se, -sa, -se** to‘liqsiz fe’llari turk tilidagi unlilarning uyg‘unlashuvi qonuniga muvofiq ishlatiladi. **-sa** ko‘rsatkichi qattiq unlili bo‘g‘in tugallangan so‘zlarga qo‘shilsa, yumshoq unli bo‘g‘in bilan tugallangan so‘zlarga **-se** keltiriladi. Masalan: *Onun adını **söylerse** hayatının bütün sırları ortaya dökülecek sanıyordu (R.N.G.)Uning ismini aytib yuborsa, butun sirlari oshkor bo‘ladiganday tuyulardi. Allah esergesin bir şey **hissederse** hepimiz rezil olacağız (R.N.G.). Xudo asrasin, bir baloni sezadign bo‘lsa, hammamiz sharmanda bo‘lamiz. İşte yanınızda bendenizi mahcup eden gecikişim, hiç **olmazsa** uğradığım ziyanların birazını olsun kurtarmak içindir (E.N). Hozir oldingizda kaminani uyaltirgan kechikishim hech bo‘lmaganda duchor bo‘lgan ziyonlarning bir qismini bo‘lsa-da, qutqarish uchundir.*

To‘liq yoki qisqa shakldagi **ise** to‘liqsiz fe’li keng ma’nodagi otlar bilan ishlatilishi mumkin. Masalan:

– Ot+**ise** to‘liqsiz fe’li:

***Vesime’yse** hüngür hüngür ağlıyor (R.N.G.).*

Basıma esa ho‘ng-ho‘ng yig‘layapti.

***Kıstemse** gelecek bahara artık (S.E.):*

Omad esa keladi bahorga yaqin.

– *Sifat+**ise** to‘liqsiz fe’li:*

*Kanatsız bir küçük yavru kuş, henüz yürümeyen, söylameyen bir çocuk nasıl dikkate **muhtaçsa** Handan da öyle(H.E.A.)!*

*Qanotsiz kichik qush bolasi hali yurmagan, gapirmagan bir bola qanchalik diqqatga **muhtoj bo‘lsa,** Xandan ham shunday.*

– Modal so‘z+**ise** to‘liqsiz fe’li:

*Bu yüzden mi **yoksa** oğlunun doğum günü olduğu için mi, her ne ise, gençleri beklerken, üçü bir olup , elbirliğiyle işe girişmişlerdi (O.YO.)?*

Shu sababli yoki bo‘lmasa o‘g‘lining tug‘ulgan kuni bo‘lganligi sabablimi, nima bo‘lgandayam, yoshlarni kutayotganida uchovi bir bo‘lib, ishga kirishgan edilar.

– Olmosh+**ise** fe’li:

***Bense** otobüsle gidiyorum. Men bo‘lsam avtobus bilan ketyapman.*

*Açlıktan **nerdeyse** öleceksiniz. Ochlikdan qayerda bo‘lsa ham o‘lasiz.*

– Ravish+**ise** to‘liqsiz fe’li:

*Paran **çoksa** kefil al, işin yoksa şahit ol.*

Puling ko‘p bo‘lsa, kafolot ol, ishing yo‘q bo‘lsa, guvoh bo‘l.

İse to‘liqsiz fe’li fe’llarning zamon va mayl shakllari ishtirokida ham kelishi mumkin. Misollar keltiramiz:

– Hozirgi-kelasi zamon fe’li+**ise** to‘liqsiz fe’li:

*Fakat karanlikta korkmuş, yalnız kalmış bir küçük çocuğu teskin için ne **söylenirse,** ruhu ateşler, özlemler içinde dağılıp yanan bir kadına ne **söylenirse** söyledim(H.E.A.). Faqat qorong‘ulikdan qo‘rqqan, yolg‘iz qolgan bir kichik bolaga taskin berish uchun nima **aytilsa,** ruhi otashlar, sog‘inchlar ichida yongan bir ayolga nima **aytilishi lozim bo‘lsa,** aytdim.*

*İki insan bir birini **severse** birbirinin hayatından bu uzak vapur gibi geçmelidir (H.E.A.). Ikki inson bir-birini **sevadigan bo‘lsa,** bir-birining hayotidan bu uzoq paroxod kabi o‘tib ketishi kerakdir.*

– O‘tgan zamon +**ise** to‘liqsiz fe’li:

*Fakat ne **yaptımsa** bir şey söyletmeye muvaffak olamadım (H.E.A.). Ammo nima qilgan bo‘lsam ham uni bir og‘iz gapirtirishga muvaffaq bo‘lolmadim.*

*Eğer elbiseyi **beğendiyseniz,** ceketin kollarını biraz uzatabiliriz (H.E.A.). Agar libos **yoqqan bo‘lsa,** jeketning yengini biroz uzaytirishimiz mumkin.*

– Kelasi zamon fe’li+**ise** to‘liqsiz fe’li:

*Eğer bu memleket, insanlığın hatırasında yüceltilerek **yaşayacaksa,** o hakkı ona ancak sanata karşı gösterdiği hürmet verecektir (H.E.A.). Agar bu mamlakat insoniyatning xotirasida yuksaltirilib **yashaydıgan bo‘lsa,** o‘sha huquqni unga faqat san’atga nısbatan ko‘rsatgan hurmati beradi.*

O‘zbek tilida **esa** so‘zi bog‘lovchiga aylanganligi avval ham qayd etildi.

Turk tilidagi **ise** so‘zi esa, o‘zbek tilidagi **-sa** shart mayli ko‘rsatgichiga xos ma’no va vazifada ishlatiladi. O‘zbek tilida ham, turk tilida ham shart mayli faol kafolatlanadi: *Keşke **darılsa da,** Pariş’e dönse (H.E.A.).*

Koshki ranjisa-yu, Parijga qaytsa.

*Bu delilikleri affettirecek kadar bari güzel **olsa** (H.E.A.)!*

*Bu telbaliklarni kechiradigan darajada, hech bo‘lmaganda, go‘zal **bo‘lsa.***

ise to‘liqsiz fe’li qatnashgan gaplar tahlili ushbu so‘zning quyidagi ma’nolarda ishlatilishini ko‘rsatadi:

1. **ise** so‘zi to‘liq shaklda ishlatilganida va keng ma’nodagi otlar ishtirokida kelganida, o‘zbek tilidagi **esa** bog‘lovchisiga yoki bog‘lovchi vazifasida ishlatiluvchi **bo‘lsa** so‘ziga xos ma’no va vazifada keladi.

Masalan: *Sonra büyükler televiziyon seyreder, gazete, dergi okurlar. Biz* ***ise*** *ders çalışırız, müzük dinleriz. Keyin kattalar televizor tomosha qilishadi, gazeta, jurnal o‘qishadi.Biz* ***esa*** *dars tayyorlaymiz, musiqa tinglamiz. Adalar, Şile, Polonezköy ve Belgrad Ormanları* ***ise*** *başlıca deniz ve dinlenme alanlarıdır. Orollar, Shule, Polonezkuy va Belgrad o‘rmonlari esa asosan dengiz va dam olish sohalaridir. Asıl adı Celalettin, Mevlana* ***ise*** *Efendimız anlamına gelen bir takma addır. Asl ismi Jaloliddin, Movlono* ***esa*** *afandimız ma’nosıga to‘g‘ri keladigan taxallusdir. Kilisenin yapımında dönemin tanınmış mımarlarından Antemios baş mimar, Miletli Isidoros* ***ise*** *yardımcı olarak görev almışlardır. Cherkovning qurulishida davrning mashhur me’morlaridan Antemios bosh me’mor, miletli Isidoris* ***bo‘lsa*** *yordamchi sifatida ishlangan.*

2. **İse** to‘liqsiz fe’li shart mayli ko‘rsatkichi singari o‘zi birikib kelgan fe’ldan anglashilgan ish-harakatning yuz berishi ma’lum bir voqea-hodisaning ro‘y berishi uchun shartligi ma’nosini bildiradi. Masalan: *Mavi Yolculuğa* ***çıkarsanız*** *hepinizin istediği olur. Moviy sayohatga* ***chiqsangiz,*** *hammamizning istagimiz amalga oshadi.* ***Ağlarsa*** *anam ağlar, başkası yalan ağlar.* ***Yig‘laydigan bo‘lsa*** *onam yig‘laydi, boshqasi yolg‘on yig‘laydi.*

Shunisiga ko‘ra, fe’llarning zamon va mayl shakllari bilan kelgan **ise** to‘liqsiz fe’li shart mayliga o‘xshydi. Faqat farqi shundaki, fe’llarning zamon yoki mayl shakliga qo‘silib kelgan **ise** to‘liqsiz fe’li o‘zi birikkan fe’l shakliga ko‘ra qo‘shimcha ma’nolarga ega bo‘ladi. Solishtiring:

O yüzden istediği evlenmeyi ***yapsa*** *bile devam ettiremez (R.H.K.).O‘sha sababli istaganidek turmushga chiqolsa ham oilaviy hayotini davom ettirolmaydi.*

Bu hikayeyi kim ***uydurduysa,*** *alışkanlığın ne büyük bir güç olduğunu çok iyi anlamış olacak. Bu hikoyani kim* ***to‘qib chiqargan bo‘lsa,*** *odatlanishning qanchalik buyuk kuch ekanligini tushungan bo‘ladi.*

Bu gaplarning birinchisida shart maylidagi fe’l nutq onida yoki nutq onidan keyin bajarilshi shart bo‘lgan harakatni bildiradi. Ikkinchi misolda shart ma’nosiga qo‘shimcha bajarilishi zarur shart bo‘lgan ish-harakatning uzoq o‘tmishga, ya’ni gapirilayotgan vaqtda ancha oldinga aloqadorligi ma’nosi ifodalanadi.

Keyingi gaplarning birinchisida shart malidagi fe’l qatnashgan, ikkinchi va uchinchi gaplarda hozirgi-kelasi zamon shaklidagi fe’l va **ise** to‘liqsiz fe’li mavjud. **Olsa, kokarsa, bakarsan, ararsan** fe’llari mazmunan hozirgi-kelasi zamonga oid, lekin misollarni qiyoslasak, ko‘ramizki, **olsa** so‘zidan hozirgi zamonga tegishlilik ma’nosi ustun. Qolgan fe’llarda esa kelasi zamonga urg‘u beriladi, ya’ni **kokarsa,**

bakarsan, ararsan fe'llarida kelasi zamonda bajarilishi shartlashilgan, ya'ni gapirilayotgan paytdan keyin bajarilishi zarur bo‘lgan ish-harakat ma'nosi bildiriladi:

*Lamia ne kadar **olsa** da genç kız sayılırdı(R.N.G.). Lamıa nima bo‘lganda ham yosh qiz hisoblanardi. Et **kokarsan** tuzlanır, ya tuz **kokarsa** ne yapılır? **Go‘sht hidlanadigan bo‘lsa** tuzlanadi, tuz hidlanadigan bo‘lsa,nima qilinadi? Vardır öyle insanlar, sözlerine **bakarsan** iyiderler, ama aslını **ararsan,** kötülük etmeye çalışırlar. Shunday insonlar borki, gap-so‘zlariga **qaraydigan bo‘lsang,** yomonlik qilishga harakat qiladilar.*

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo‘lishsizlik shakli shart maylidagi va **ise** to‘liqsiz fe'li ishtirokidagi ko‘rinishlariga misollar keltiraylik:

*Bu güzellikleri **kaçırmasak** iyi olur. Bu go‘zalliklarni e'tibordan qochirmasak, yaxshi bo‘ladi. Bilim adamlarına göre bu dengesizliğinin çeşitli sebeplerden vardır, ve bu sebepler **bulunmazsa** ülke nüfusunun büyük çoğunluğu kadınlardan oluşacakmıştır. Olimlarning fikriga qaraganda, bu muvozanatsizlikning turli sabablari bor va bu sabablar topilmasa, o‘lka aholisining katta qismi ayollardan iborat bo‘ladi.*

Bu gaplardagi **kaçırmasak** fe'li bajarilmasligi gapirilayotgan vaqtga shartlashilganligi ma'nosi ifodalanadi, **bulunmazsa** so‘zidan esa bajarilmasligi kelasi zamonga shartlashilganligi mazmunini bildiriladi.

3. **ise** to‘liqsiz fe'li **öyle** o‘shanday olmoshiga qo‘shilib kelganida, gapda modal munosabatni bildiruvchi kirish so‘zi vazifasini bajaradi. **Öyleyse** so‘zi "unday bo‘lsa", "shunday bo‘lsa" ma'nolarini bildiradi.

Masalan: *Büyükanası, halaları, amcaları, amcalarının karıları, akrabaları, hiç kimse konuşmuyordu anasıyla. **Öyleyse** anası bu köyden ne duruyor. Buvisi, ammalari, amakilarining xotinlari, qarindoshlari hech onasi bilan gaplashmasdilar. **Unday bo‘lsa,** onasi bu qishloqda nega turibdi. Çok güzel, **öyleyse** Boğaziçindeki bütün tarihi eserleri ve doğal güzellikleri görebileceğiz. Juda yaxshi, unday bo‘lsa, Bo‘g‘ozichidagi barcha tarixiy obidalar va tabiiy go‘zalliklarni ko‘ra olamiz. **Öyleyse,** yaşadığımız sürece, niçin huzur ve mutluluk içinde vakit geçirmeyelim? **Shunday bo‘lsa,** yashagan davrimiz davomida nima uchun huzurda va baxtli vaqt o‘tkazmaylik?*

4. **Yok–yo‘q** *modal so‘zi ishtirokida kelgan **ise** to‘liqsiz fe'li **yoksa** shaklida ishlatiladi. Masalan: Olmaz, dişleriniz çok çürümüs, dolgu yapamayız. Mutlaka çekimesi gerek. **Yoksa** sağlığınıza çok zarar verir. Bo‘lmaydi, tishlaringiz juda ishdan chiqqan, plomba qila olmaymiz. Olib tashlash kerak. **Bo‘lmasa**, sog‘ligingizga katta zarar beradi. Çabuk hazırlanın, **yoksa** bayrama geç kalacağız. Tez tayyorlan, **bo‘lmasa** bayramga kech qolamiz.* **Yoksa** so‘zi o‘zining asl ma'nosida ishlatilishi mumkin, ya'ni **yo‘q** va **bo‘lsa** so‘zlarining birikuviga mutanosib mazmunga ega bo‘lishi mumkin.

Masalan:

-Nerede arayım?
-Bana mı soruyorsun?
-Aradım, yok!
***-Yoksa,** sana eşşek bulacak değilim ya.*
-Qayerda qidiray?
-Qaradim, yo‘q!
-Yo‘q bo‘lsa senga eshak topib berishim kerak emas-ku!
*Paran çoksa kefil al, işin **yoksa** şahit ol.*
*Puling ko‘p bo‘lsa, kafolot ol, ishing **yo‘q bo‘lsa,** guvoh bo‘l.*

5. **ise** to‘liqsiz fe’li chiqish kelishigidagi so‘zlar, asosan fe’lning harakat nomi shakliga qo‘shilib kelganida, qiyoslash, solishtirish ma’nolarini beruvchi so‘z shaklini hosil qiladi. Ya’ni, **maktansa** shaklli so‘zlar o‘zi birikkan so‘z bildirgan mazmunni bosh gapdan ifodalangan ma’noga taqqoslaydi hamda ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi bosh gap – ikkinchi gap orqali nazarda tutilgan holat birinchi gapdan anglashilgan holatga nisbatan afzal ko‘riladi. Masalan, quyidagi misollarning birinchisida so‘zlovchi shubhali qiz bo‘lib yashashini beva bo‘lib yashashini taqqoslaydi hamda ikkinchi holatning afzalligini qayd etadi. *Şüpheli kız olarak **yaşamaktansa,** emin bir dul olarak yaşamak onun için daha kolay olacaktı.*

Shubhali qiz bo‘lib yashagandan ko‘ra ishonchli bir beva bo‘lib yashash uning uchun yanada oson bo‘lardi.

Keyingi misolda “azob ichida yashash” “o‘ldirish” bilan solishtiriladi va ikkinchi holat ma’qul ko‘riladi: *Bu azap içinde **yaşamaktansa** insanı öldürmek daha çok insanca ve merhametli bir hareket olur(H.E.A.). Bunday azobda yashashdan ko‘ra insonni o‘ldirish ko‘proq insoniy va marhamatli ish bo‘lardi.*

6. O‘rganilyotgan to‘liqsiz fe’l matnga qarab to‘liqsizlik ma’nosini bildirishi mumkin, ya’ni bu shakldagi fe’llar bir ishning yuzaga chiqishiga to‘siq bo‘ladigan, monelik qiladigan holatning mavjudligini, ammo bu to‘sqinlikka qaramay yuzaga chiqishi ma’nosini bildiradi: *Açlıktan **nerdeyse** öleceksiniz. Ochlikda qayerda bo‘lsa ham o‘lasiz.*

Xulosa. Demak, turk tilidagi **ise** so‘zi **idi, imiş** leksemalari singari to‘liqsiz fe’l vazifasida faol qo‘llaniladi. Bu so‘z keng ma’nodagi otlar bilan va fe’llarning mayl yoki zamon shakllari ishtirokida keladi. **Ise** to‘liqsiz fe’li konteksga ko‘ra **esa** so‘ziga yoki shart mayliga xos ma’no va vazifada kelishi mumkin. Shuningdek, til faktlari tahlili o‘rganilyotgan leksemaning **esa, bo‘lsa** so‘zlariga xos ma’nolarda ishlatilishi mumkin.

Ma’lum bir so‘zlar yoki grammatik shakllar bilan ishlatilgan bu to‘liqsiz fe’l spetsifik mazmunlarni tashishi mumkin.

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK// ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDY AND HISTORIOGRAPHY

ASKARIY MADRAIMOV
Dotsent, PhD, TDSHU
ORCID: 0009-0000-2238-2888,

BAHODIR ESHMURODOV
Magistratura talabasi, TDSHU

Amir Temur harbiy san‘atida ruhiy-psixologik ta‘sir vositalari

Annotatsiya. *Maqolada buyuk davlat arbobi va harbiy strateg Amir Temurning ko‘p sonli dushman qo‘shinlarini jangsiz yoki kam talafot bilan yengish maqsadida qo‘llagan ruhiy ta’sir usullari xususida so‘z boradi. Shu bilan birga, ushbu masala yuzasidan O‘zbekistonda amalga oshirilgan ayrim ilmiy tadqiqotlar tarixshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilib, mavzuning muammoviy jihatlari yoritiladi. Maqolada Temuriylar davri harbiy-ruhiy tayyorgarlik an’analari va ularning zamonaviy harbiy-mafkuraviy jarayonlar bilan bog‘liqlik masalalariga ham e’tibor qaratilgan.*

Amir Temurning buyuk sarkarda sifatidagi harbiy san’atdagi yutuqlaridan biri – dushman ustidan g‘alabani nafaqat kuch va qurol bilan, ruhiy bosim o‘tkazish orqali qo‘lga kiritganidir. Ushbu jihatdan maqolada Sohibqiron harbiy strategiyasida o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan psixologik ta’sir etish usul va vositalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, uning tomonidan harbiy sohada ilk bor qo‘llanilgan “yetti qo‘l” saflanishi, turli chalg‘ituvchi manyovr va harbiy orkestrning bor imkoniyatini o‘z qo‘shini jangovar holatini ko‘tarishga va dushmanni ruhan zaiflashtirishga qaratilishi janglar taqdirini belgilovchi asosiy omillar qatoriga kiritilgan.

Maqolada Amir Temur harbiy san’atining o‘ziga xos psixologik qirralarini yoritish bilan birga uni zamonaviy harbiy konsepsiyalar bilan uzviy bog‘lashga qaratilgan fikrlar mavjud.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Sohibqiron, harbiy orkestr, manglay, chag‘dovul, “yetti qo‘l” operativ saflanishi, ruhiy ta’sir etish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются методы психологического воздействия, которые применял великий государственный деятель и военный стратег Амир Темур для разгрома многочисленных войск противника без боя или с минимальными потерями. При этом с историографической точки зрения изучаются некоторые научные исследования, проведенные в Узбекистане по данному вопросу, и освещаются проблемные аспекты темы. В статье также уделяется внимание традициям военно-духовной подготовки эпохи Тимуридов и их связи с современными военно-идеологическими процессами.*

Известно, что одним из достижений Амира Темура в военном искусстве как великого полководца было то, что он достигал победы над противником не только силой и оружием, но и применением психологического давления. В этой связи в статье рассматриваются методы и средства психологического воздействия, являющиеся уникальной чертой военной стратегии Сахибкирана. В частности, впервые примененное им в военной сфере построение «Семь кулов (корпусов)», различные отвлекающие маневры и использование всех возможностей военного оркестра для поднятия боеготовности своего войска и духовного ослабления противника являются одними из главных факторов, определяющих судьбу сражений.

В статье рассматриваются уникальные психологические аспекты военного искусства Амира Темура, а также идеи, направленные на его тесную связь с современными военными концепциями.

Ключевые слова: *Амир Темур, Сахибкиран, военный оркестр, манглай, чагдовул, оперативное построение «Семь кулов (корпусов)», духовное влияние.*

Abstract. *The article discusses the methods of psychological influence used by the great statesman and military strategist Amir Temur to defeat numerous enemy troops without a fight or with minimal casualties. At the same time, some scientific studies conducted in Uzbekistan on this issue are studied from a historiographical point of view and the problematic aspects of the topic are highlighted. The article also pays attention to the traditions of military-spiritual training of the Timurid era and their connection with modern military-ideological processes.*

It is known that one of Amir Temur's achievements in the military art as a great commander was that he achieved victory over the enemy not only by force and weapons, but also by using psychological pressure. In this regard, the article examines the methods and means of psychological influence, which are a unique feature of Sahibkiran's military strategy. In particular, the "Seven Kuls (Corps)" formation, which he first used in the military sphere, various diversionary maneuvers and the use of all the capabilities of the military orchestra to raise the combat readiness of his troops and spiritually weaken the enemy are among the main factors determining the fate of battles.

The article examines the unique psychological aspects of Amir Temur's military art, as well as ideas aimed at its close connection with modern military concepts.

Keywords: *Amir Temur, Sahibkiran, military orchestra, manglai, chagdavul, operational formation "Seven Kuls (Corps)", psychological influence.*

Kirish. Ma’lumki, buyuk davlat arbobi va benazir harbiy strateg Amir Temur nafaqat qo‘shin soni yoki zamonaviy qurol-aslaha bilan, balki ruhiy ta’sir vositalarini mahorat bilan qo‘llash orqali ham dushman ustidan g‘alabaga erishgan.

U jangda qon to‘kilishini kamaytirish, dushmanni jangga kirishishdan avval mag‘lub etish maqsadida, askarlar va raqiblarga ta’sir o‘tkazishning o‘ziga xos usullarini ishlab chiqqan.

Amir Temur harbiy orkestrni – jangdagi yana bir ta’sirli “qurol” sifatida – qo‘shin jangovar ruhini oshirish, askarlarning shayligi, ularda qo‘rquvni yengish va g‘animga nisbatan nafrat hissini kuchaytirish, shuningdek, dushmanga kuchli ruhiy ta’sir

o‘tkazishda samarali qo‘llagan. Ushbu orkestr nafaqat musiqa ijro etgan, balki qo‘shinlarni boshqargan va harbiy harakatlarning ma’naviy hamrohiga aylangan.

Bugungi kunda ham harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini yuksaltirish masalasi o‘z dolzarbligi bilan ajralib turibdi. Amir Temur tajribasi bu borada biz uchun muhim ilhom va ibrat manbayidir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy hamda tarixiy tahlil kabi umumilmiy usullardan foydalanildi.

Manbalar va adabiyotlar tahlili asosida Amir Temur o‘z qo‘shini va g‘animga ruhiy ta’sir etish usullari ko‘rib chiqiladi.

Natijalar. Harbiy tarixchi R.Samarovning “Amir Temurning sarkardalik mahorati: siyosiy-psixologik talqin” maqolasida[1], Amir Temur davlat, chegara, hudud, siyosiy jarayon, urug‘lar manfaati, xavf va tahdid, jangchi, qurol-aslaha, jangovar tayyorgarlik kabi konseptlar haqida aniq harbiy-siyosiy tasavvurga ega bo‘lish bilan birga, ularni predmetlashtirish uchun tabiat hodisalariga o‘xshatgan.

Mazkur tenglashtirish Amir Temur tomonidan strategiyani ishlab chiqishda, taktik usullarni tanlashda sarkardaning jangovar mahorati sifatida ifodalangan. Xususan, hujum uyushtirishni bo‘ronga, raqibga ruhiy zarba berish va qo‘rqitishni hamda unga bosim o‘tkazishni momaqaldiroqqa, suvoriy va piyoda qo‘shinlarning bir vaqtda yopirilgan holda harakatini amalga oshirishni esa selga qiyoslagan[2].

Uning fikricha, dushman qo‘shini Sohibqiron qo‘shinidan o‘n barobar ko‘p bo‘lsa, hukmdor g‘alabani ta’minlash uchun aqlini ishga solgan. Bu Oliy Bosh Qo‘mondonning tafakkuri har jihatdan mukammal bo‘lganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasi ilmiy xodimlari va tarixchi olimlar hamkorligida yozilgan “Sohibqiron Amir Temur harbiy san’ati” to‘plamida aytilishicha, bu o‘rinda u musiqiy qurolni ishga solgan. Jang boshlangandan so‘ng u o‘zining harbiy orkestriga “Yolg‘ondan ortga chekinish usuli”ni chalishni buyurgan. Dushman esa bundan xabar topib, g‘alaba qozonganiga ishongan. Ammo Amir Temur kechasi “shabixun” usulini qo‘llashdan oldin g‘anim askarining ruhini sindirish uchun kutilmaganda, to‘rtta yirik orkestrining to‘rtinchi bo‘linmasiga “Hal qiluvchi jangga o‘tish usuli”ni chalishni amr etgan. Momoqaldiroq tovushi singari jangovar gulduros sadolar ostida “Urho-ur” deya na’ra tortgan askarlarning kutilmagan hamlasidan shoshib qolgan g‘anim parokanda bo‘lib, jangovar jipsligini yo‘qotgan va sarosimaga tushib, yetarli qarshilik ko‘rsata olmagan[3].

[1] Samarov R.S. Amir Temurning sarkardalik mahorati: siyosiy-psixologik talqin // Harbiy ta‘lim va fanda innovatsiyalar. – 2021. – № 1(10). 3–11-betlar.

[2] Samarov R.S. Amir Temurning sarkardalik mahorati: siyosiy-psixologik talqin // Harbiy ta‘lim va fanda innovatsiyalar. – 2021. – № 1(10). 3–11-betlar.

[3] R.Samarov, S.Axrorov, J.Xolmo‘minov, S.Sadriddinov. Sohibqiron Amir Temur harbiy san’ati. – Toshkent: 2022. 226-bet.

Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asarida yozishicha, “tunukadin uy qilib tevalarga ortgan erdi, vaqti kelib, jang ichra kirgan vaqtlarinda nag‘mayi qilib, tanburlarin cholib, imom Hasan va imom Husayn marsiyalaridin o‘qur erdilar. Alarni ovozig‘a askarlar mast-u mustag‘riq bo‘lub, o‘zlarin jangg‘a urar erdilar”[1].

Rumga (bu yerda Usmonlilar davlati) qarshi jangda to‘rt ming karnaychi, nog‘ora va bolabon cholg‘uchilar hamda xushovoz xonandalar ishtirok etishgan. Shundan ham bilsa bo‘ladiki, Amir Temur askarlarning jangovar ruhini oshirishda butun boshli harbiy orkestr va ansambldan, ya’ni ko‘p sonli cholg‘uchi va xonandalarning mahoratidan hamisha o‘rinli foydalangan.

Amir Temur va temuriylar zamonida musiqa sohasining turli yo‘nalishlarida bir qator usullar yaratildi. Jumladan, ularni quyidagi tarzda tasniflashimiz mumkin:

- «Chaqiriq va ogohlantiruvchi usullar».
- «Harbiy va jang tartibi usullari».
- «Mavsumiy marosim usullari».
- «Saroy qonun va qoidalariga itoat etish usullari».
- «Tantanavor bayram usullari».
- «Ov sayli usullari».
- «Diniy chaqiriq usullari» va b.

1391-yil 18-iyun kuni Qunduzcha daryosi bo‘yida (Rossiya Federatsiyasi Samara viloyati hududi) Amir Temur va To‘xtamishxon qo‘shiniga kuchli ruhiy ta’sir o‘tkaza olgan. Bu jangda ikki tomondan 400 ming jangchi qatnashdi va bu o‘sha davrda dunyoda bo‘lib o‘tgan eng katta janglardan biri bo‘ldi.

Qo‘shinning yetti qo‘ldan (elementdan) iborat operativ saflanishi (jangovar tartibi) shaxsan Amir Temur tomonidan belgilangan bo‘lib, bungacha hech bir sarkarda tomonidan qo‘llanilmagan edi.


“Yetti qo‘l” operativ saflanishining markazida uch qo‘l, o‘ng va chap qanotlarda ikkitadan qo‘l joylashtirilgan edi. Markaz, ya’ni asosiy kuchlar, old tarafidan manglay (avangard) bilan himoyalangan, markaz ketidan esa zaxira kuchlari – chag‘dovul (aryergard), u bilan birgalikda Oliy Bosh Qo‘mondon Amir Temurning qarorgohi (boshqaruv punkti) harakatlanar edi.

O‘ng va chap qanotlardagi qo‘shinlarning oldiga avangard ajratildi. Asosiy manglay qanotlardagi avangardlardan oldinroqda harakatlanar va dushman jangovar tartibini yorib o‘tish vazifasini bajarar edi. Chag‘dovul to‘satdan paydo bo‘ladigan zaxira vazifasini bajarish bilan birga Oliy Bosh Qo‘mondon qarorgohini qo‘riqlar va ortdan bo‘luvchi hujumlarni qaytarardi.

Chag‘dovul jang Amir Temur foydasiga hal etilishda asosiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Qarama-qarshi tomonda To‘xtamishxon o‘z qo‘shinini besh qo‘lga bo‘ldi. Jangdan avval Amir Temur dushmanga nisbatan ruhiy ta’sirning o‘ziga xos usulini

[1] Toshkandiy Salohiddin. Temurnoma. / Nashrga tayyorlovchi Poyon Ravshanov, muharrir Chori Avaz. – Toshkent: 1991. 308-bet.

qo‘lladi – lashkarning bahodir va botirlari jangga piyoda bo‘lib kirdilar, chodirlar, xon qarorgohi sahroda (tekislikda, tepalikda emas) tikildi, gilamlar solindi – bu amallarning barchasi dushmanni mensimaslik, g‘alabani oldindan nishonlashga kirishilganidan darak berar edi. Natijada, jang boshlanmasdan dushman lashkariga ruhiy putur yetkazildi[1].



1391 yil 18 iyunda Qunduzcha daryosi bo‘yidagi jangda tomonlarning operativ saflanishi (har bir qo‘l alohida rang bilan ajratilgan)[2].

Harbiy tarixchilarning ta’kidlashicha, Qunduzcha jangida Sohibqiron o‘z qo‘shinlarini axloqiy-ruhiy holatini oshirib, jang avvalida dushmanning qarshilik ko‘rsatishga bo‘lgan irodasini sindirgan kuchli ruhiy ta’sir o‘tkaza oldi[3]. Xususan, R.Samarov, S.Axrorov, J.Xolmo‘minov va S.Sadriddinovlar tadqiqotida To‘xtamishxonga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar jarayonida Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan strategiya dushman quvvatini yo‘q qilishga emas, balki, avvalo, uning jangovar ruhini sindirish, qarshilik ko‘rsatish istagini susaytirish va ruhiy tushkunlikka olib kelishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi bilan ajralib turishi aytiladi. Bu kabi kompleks yondashuvlar jangovar harakatlar boshlanishidan oldin

[1] R.Samarov, S.Axrorov, J.Xolmo‘minov, S.Sadriddinov. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati. – Toshkent: 2022. 90–91-betlar.
[2] R.Samarov, S.Axrorov, J.Xolmo‘minov, S.Sadriddinov. Sohibqiron Amir Temur harbiy san'ati. – Toshkent: 2022. 90-bet.
[3] O‘sha asar. 95-bet.

amalga oshirilgan bo‘lib, Temur harbiy san’atining ruhiy-psixologik jihatlari o‘ziga xos o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Mashhur o‘zbek tarixchi-sharqshunosi va manbashunosi B.Ahmedovning “Amir Temur vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari” asarida yozilishicha, “Mo‘g‘ullar men turgan yer va lashkarlarim qay ahvolda ekanligini bilib kelish uchun oldimga elchi jo‘natdilar. Elchini chalg‘itish maqsadida lashkarimni ikki marta qayta-qayta uning oldidan o‘tkaztirdim”[1] yoki “Lashkarlarim besh oy davomida To‘xtamishxonning orqasidan quvib yurgani sababli, ko‘p vaqt och qola boshladilar. Chunonchi, bir necha kun boshmaloq o‘ti, ov go‘shti, sahro qushlarining tuxumi bilan kun kechirdilar. Lashkarni bunday og‘ir ahvolga tushib qolganini eshitgan To‘xtamishxon fursatdan foydalanmoqchi bo‘ldi, chumoli va chigirtkadan ham ko‘p lashkar bilan ustimizga yopirilib keldi... farzandlarim va nabiralarim huzurimga kelib tiz cho‘kib, men uchun jon fido qilishga tayyor ekanliklarini bildirmagunlaricha, sarkardalarim va askar boshliqlari jang qilishga ro‘yixushlik bermadilar. Shu payt To‘xtamishxonning bayroqdori bilan til biriktirib, jangni boshlaganimda va ikki tomon lashkari yuzma-yuz kelganda, bayroqdor bayrog‘ini tuban qilishi haqida u bilan kelishib oldim. Jang-u jadal o‘ti osmon-u falakka ko‘tarilganda, chodirlar tikib, taom tayyorlashni buyurdim. Xuddi shu payt To‘xtamishxonning bayrog‘i tuban bo‘ldi va To‘xtamishxon sarosimaga tushib qoldi. U Jo‘chi ulusini talon-torojga tashlab, jang maydoniga orqa o‘girib qochib qoldi”[2].

Ushbu voqealar shundan dalolat beradiki, Amir Temur harbiy zehn va tajribasi bilan nafaqat jismoniy kuchni, balki ruhiy ustunlikni ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratgan. U harbiy razvedka, josuslik, ma’lumot to‘plash va yollash kabi vositalar orqali dushmanning ichki holatini aniqlash va unga ta’sir o‘tkazishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan. Shu tufayli, Amir Temurning harbiy siyosat va ruhiy ta’sirga asoslangan yondashuvi zamonaviy harbiy-psixologik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu jihatdan, Temur dushman va o‘z qo‘shini ruhiy holatini o‘rganishda harbiy razvedka xizmatini yo‘naltirishga muhim ahamiyat qaratgan.

Arab tarixchisi Ibn Arabshohga ko‘ra, harbiy razvedka asosan qo‘shinlarning ruhiy holati, bo‘linmalarning joylashuvi, qudrati, dushman kim bilan hamkorlik qilayotgani, davlat sarhadlarida yuz berayotgan voqea-hodisalar haqida muttasil xabar yuborib turish vazifasini bajarib kelgan.

Ichki razvedka – mamlakatdagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlikni saqlash, qo‘shinlar ichidagi ruhiy holat, ularning kayfiyati, ahvolidan xabardor bo‘lib turish maqsadida tashkil etilgan.

Tashqi razvedka – ayg‘oqchilar dunyoning turli mamlakatlarida savdogar, hunarmand, sayyoh, qalandar, munajjim, darvesh, jodugar niqobi ostida faoliyat

[1] Ahmedov B. Amir Temur vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari. – Toshkent: 2001. 19-20 – betlar.
[2] O‘sha asar. 24-bet.

ko‘rsatgan va ulardan yuksak bilim, uddaburonlik va sezgirlik talab etilgan. Ular asosan mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy vaziyat, harbiy salohiyati, mamlakatga kelishni istagan xorijlik turli olimlar haqida ma’lumotlar, mintaqaning yaqin va uzoqligiga qarab xabarlar kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy Amir Temurga yetkazib turilgan.

Razvedkachi(ayg‘oqchi)lar dushman qo‘shinining soni, qurollari va ruhiy xolati, mamlakat aholisining kayfiyati, mansabdor shaxslarning turmush tarzi va odatlari to‘g‘risida, shaharlarning qaysi darvozasidan kirish osonligi, o‘z qo‘shinini dushmanga oshkor etmay joylashtirish mumkin bo‘lgan manzillar, hudud relyefi haqidagi aniq ma’lumotlarni, ba’zi hollarda aniq tarhlar (sxemalar – kartalar) yetkazib berishgan[1].

Sharofiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylarning qoldirgan ma’lumotlari ham bunga misol bo‘la oladi. Jumladan, To‘xtamishning Eron va Kavkazortiga qisqa muddatli chopqinlari faqatgina katta to‘qnashuv oldidan qarshi tomonning javob reaksiyasini razvedka qilish, ya’ni “tomirini bosib ko‘rish” edi. Shuning uchun ham bunday vaziyatni to‘g‘ri anglagan Sohibqiron To‘xtamishning Eronni bosib olishini oldini olgan holda 1386 yilning qishida Samarqanddan chiqib o‘zining “uch yillik yurishi”ni boshlaydi[2].

Amir Temur turli mintaqalardan kelgan, so‘zlashuv tili va ijtimoiy kelib chiqishi har xil bo‘lgan elatlardan tashkil topgan harbiy bo‘linmalarda ijtimoiy-psixologik muhitning sog‘lomligiga ham katta e’tibor qaratgan. Natijada harbiy jamoa nafaqat jang taqdirini belgilashda, balki sodir bo‘lishi muqarrar bo‘lgan xavf va xatarlarni bartaraf etishda ham jonbozlik ko‘rsatgan[3].

Sohibqiron askarlarining o‘zaro munosabatlarda aniq me’yorlarga amal qilishi masalasiga ham alohida urg‘u berib, “Navkarning begiga va bekning navkariga muomala qilish tuzuki”da “Haqiqiy navkar bilsinki, u agar (qo‘l ostida) o‘z navkari bo‘lgan taqdirda undan nimani talab qilsa, uning begi ham undan aynan shu narsani kutadi”[4], deb ta’kidlaydi. Ko‘rinib turibdiki, harbiy soha tili bilan ko‘rsatib o‘tganda “askar – askar”, “askar – o‘nboshi”, “askar – yuzboshi”, “askar – mingboshi”, “o‘nboshi – yuzboshi”, “yuzboshi – mingboshi”, “mingboshi – sarkarda” kabi harbiy munosabatlarda “...nimani talab qilsa, uning begi ham undan aynan shu narsani kutadi” deya, vazifani aniq belgilab berish bilan birga, to‘g‘rilikka amal qilinishi lozimligini buyurgan[5].

---

[1] Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. – Toshkent: 2019. II qism. 399–400-betlar.

[2] Ali Yazdiy. Zafarnoma, 1997. 105–106-b., Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma, 1996. 133-bet.

[3] Rahmonov D. Amir Temur harbiy jamoasining sotsiodinamikasi // Amir Temurning harbiy san’atni rivojlantirishdagi roli: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. 2021. 106–109- betlar.

[4] Temur tuzuklari. // Forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi. – Toshkent: 1991. 87-bet.

[5] Sadriddinov S.R. Harbiy psixologiyada Amir Temurning sarkardalik faoliyatini o‘rganish: metodologik yondashuv // Amir Temurning harbiy san’atni rivojlantirishdagi roli: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami, 2021. 68–69-betlar.

Shu bilan birga, Amir Temur har bir yurishdan oldin o‘z armiyasi ko‘rigini o‘tkazib, jangchilarining shayligi va ruhiy holatini o‘rgangan.

Temurshunos olim H. Dadaboyevning “Amir Temurning harbiy mahorati” ilmiy asarida yoritilishicha, o‘rdugohda Oliy Bosh Qo‘mondonning borgohi (chodiri) tikilgan va u turli rangdagi tug‘ (gerb) hamda bayroqlar bilan bezatilgan. Belgilangan vaqtda lashkargohga yetib kelgan askarlar qat’iy tartib va intizom bilan o‘z joylarini egallagan va yurish oldidan o‘tkaziladigan an’anaviy harbiy ko‘rikka puxta tayyorgarlik ko‘ra boshlagan[1].

Odatda, borgoh oldida harbiy cholg‘uchilar askarlarni mardlikka, matonatga rag‘batlantiruvchi, ularning jangovar ruhini ko‘taruvchi kuylarni tinimsiz chalib turishgan[2].

Jangovar harakatlar boshlashdan avval, dushmanning qarshilik ko‘rsatishga bo‘lgan ishtiyoqi va kuchlarini zaiflashtirish maqsadiga erishish, uni jaholat va razolat botqog‘iga botirish va ruhiy tushkunlikka tushirish uchun dushman tomonidagi zodagonlar va qo‘mondonlarni pul evaziga sotqinlikka og‘dirish, aholida mag‘lubiyatga moyillik kayfiyati yaratish va Amir Temur qo‘shinlarini mag‘lub qilish xomxayol ekanligi to‘g‘risida mish-mishlar tarqatish, vahima ko‘tarish amalga oshirilar edi.

Sarkardaning “yuksak tafakkuri” u tomondan qo‘llangan harbiy strategiyada, raqibga psixologik ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, jangovar vaziyatni to‘g‘ri baholay olish iqtidorida ifodalangan. Xususan, Amir Temurning quyidagi so‘zlari mazkur fikrga dalil bo‘la oladi: “...epchillik, uddaburonlik qilib, dushman lashkar to‘plab ulgurmasdan burun, ularga zarba berib, to‘zitib yubormoqni munosib ko‘rdim”[3].

Bundan tashqari, ba’zi manbalarda Sohibqiron o‘zining harbiy san’atida qo‘rquv va dahshat uyg‘otish, targ‘ibot, qo‘rquv madaniyati, kuch va shafqatsizlikni namoyish etish, o‘z bosqinlarini oqlash uchun diniy va siyosiy argumentlardan foydalanish kabi turli xil ruhiy-psixologik ta’sir vositalaridan foydalangani to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi.

Uning vahshiylik va zolimlikdan foydalangan holda dushmanlarini ruhiy tushkunlikka solib, jangsiz taslim bo‘lishga majbur qilgani, shaharlarni vayronaga aylantirgani, qo‘rquv va qarshilikni bostirish uchun ommaviy qatllarni uyushtirgani hamda o‘z kuchini ko‘rsatish va itoatsizlik qilganlarga dahshat uyg‘otish uchun inson boshlaridan mezanalar (minoraning yuqori qismi) bunyod etgani aytiladi. Ibn Arabshohning yozishicha, “Temur Halab shahrini egallagach, uning haybati vahimasi (odamlar) qalblarini qamrab, savlati uchqunlari har tarafga tarqaldi. So‘ngra Temur

[1] Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – Toshkent: 1996. 14-bet.
[2] Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy san’at rivojiga qo‘shgan hissasi, 2021. 45-bet.
[3] Ahmedov B. Amir Temur vasiyatlari, maslahatlari, tanbehlari. – Toshkent: 2001. 24-bet.

shunchalik nafslami halok qilgani bilan kifoyalanib qolmasdan, hatto kallalardan mezanalar bunyod qildi[1]".

Biroq, Shomiy o'zining "Zafarnoma" asarida hodisa ishtirokchisi sifatida Halab shahri fathi xususida quyidagilarni bayon etgan: "Amir Sohibqiron o'zi shaxsan jangga kirishdi. Halabliklar uning askarlari ko'pligini ko'rgach, ojiz qoldilar va qochishdan boshqa chora topmadilar. G'olib lashkar ular ketidan ot qo'ydilar. Otliq va piyodalardan shunchalar ko'p qatl etdilarki, o'liklardan tepalar ko'tarildi, Halab ko'chalari-yu darvozasi o'liklarga to'ldi, shu qadarki, otliqlar o'liklar boshini bosib o'tardilar"[2]".

Halab fathi masalasida mazkur manbalardagi ma'lumotlarni solishtirishda Ibn Arabshoh ona vatani Shomni (Suriya) istilo qilgan va oilasini Samarqandga majburiy olib ketgan Sohibqirondan norozi bo'lganligi tufayli bevosita voqea guvohi bo'lmasada salbiy hissiyotga berilgani, uning Amir Temur tomonidan mamlakatlar va shaharlarni zabt etishda xunrezliklarga yo'l qo'ygani haqida bir muncha bo'rttirilgan xabarlar keltirganini e'tiborga olish zarur.

Dushmanga psixologik bosim o'tkazish va o'z armiyasining jangovar ruhiyatini ko'tarish borasida o'rta asrlar buyuk sarkardasi hisoblangan Chingizxonga nisbatan Sohibqiron tizimli va ancha samarali mexanizmlarni ishlab chiqa olgan. Albatta, Amir Temur asosiy ruhiy ta'sir etish mexanizmlarini Chingizxon va mo'g'ullardan o'zlashtirgan, biroq ularni har tomonlama boyitishga va yangilari bilan to'ldirishga erisha olgan.

Shuningdek, Sohibqiron raqiblarini qo'rquvga solish va o'z armiyasi jangovar ruhini ko'tarish maqsadida o'zining g'alabalari va kuchi haqida ma'lumot tarqatish bilan birga jangchilarni doimiy ravishda rag'batlantirishni yo'lga qo'ygan. Masalan, jangda bahodirlik ko'rsatib g'alaba qozongan amirlar uchun in'omlar ham belgilab qo'yilgan. Qaysi amir biron qo'shinni yengsa yoki viloyatni fath etsa, u tug', nog'ora, bahodir, botir martabasi, davlat kengashlariga kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan[3]. Har bir zobit jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan. Oddiy navkar nizomni qat'iy bajarishga majbur bo'lib, jangda u ayovsiz va dovyurak bo'lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala va adolatli bo'lishi lozim edi.

Amir Temur o'z tuzuklarida: "Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar: birinchisi – faxrli xitob, tug' va nog'ora berib, uni bahodir deb atasinlar; ikkinchisi – uni davlat va saltanat sherigi bilib, kengash majlislariga kirgizsinlar; uchinchisi – unga chegara viloyati topshirilsin va o'sha yerlik amirlar unga bo'ysunsinlar. Agar amirlardan qaysi

[1] Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – Toshkent: 2019. I qism. 211-bet.
[2] Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: 1996. 295-bet.
[3] Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – Toshkent: 1996. 16-bet.

birovi to‘ra (xon o‘g‘li)ni yengsa yoki biron amirzodaga shikast yetkazsa, yo biror o‘lka xonini mag‘lub etsa, uni yuqoridagi yo‘sinda mukofotlasinlar”[1] deb ko‘rsatgan.

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur jangovar harakatlar boshlanishidan oldin dushmanning ruhiy bardoshini sindirish, qarshilik ko‘rsatish salohiyatini zaiflashtirish va qo‘shinlar safida ruhiy tushkunlik uyg‘otishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirgan. Jumladan, dushman safidagi zodagonlar va qo‘mondonlarni moliyaviy vositalar orqali o‘z tomoniga og‘dirish, mahalliy aholi orasida mag‘lubiyat kayfiyatini shakllantirish, Temur lashkarini mag‘lub etish imkoni yo‘qligi haqida mish-mishlar tarqatish hamda ommaviy vahima chiqarish kabi tadbirlar uning harbiy-psixologik strategiyasining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Amir Temur o‘z qo‘shinining doimo tartibli, axloqiy-ruhiy holati yuqori va jangga shay bo‘lishi uchun ularning ruhiy-psixologik tayyorgarligiga e’tibor bergan. Bu vositalar unga nafaqat janglarda g‘alaba qozonish, balki katta hududlarni nazorat qilish va turli xalqlar ustidan hokimiyatni saqlab qolish imkonini yaratgan.

MUHOKAMA

Ta’kidlash joizki, Sohibqironning harbiy san’ati va ruhiy ta’sir etish usullarini yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, oliy harbiy bilim yurtlari tinglovchilariga harbiy tarix fanida o‘qitish, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirishda keng foydalanish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Umuman olganda, Amir Temur dushmanni jangsiz yoki kam talafot berish orqali yengish maqsadida o‘z davrida turli ruhiy ta’sir etish usullaridan ilg‘or foydalangan yetuk sarkarda bo‘lgani haqida manbalarda ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ularning asosiylari zamonaviy tarixchi-sharqshunoslar ilmiy ishlarida aks etgan.

Biroq, Sohibqiron, uning harbiy san’ati va ruhiy ta’sir etish usullarini yozib qoldirilgan manbalar asosida to‘liq o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Shuning uchun bunday mavzudagi ilmiy ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amir Temurning sarkardalik mahorati bilan qo‘llagan ruhiy ta’sir etish usullarini ilmiy o‘rganish asosida erishilgan natijalardan harbiy ta’lim amaliyotida turli toifadagi komandirlarni tayyorlashda, qo‘shinlarning jangovar ruhiyati va shayligini oshirishda, jangchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar (harbiy psixologiyada muhim harbiy-kasbiy sifatlar deb yuritiladi), har qanday vaziyatda komandirlik qobiliyatini, tezkor va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishda tarixiy-ta’limiy manba sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] Temur tuzuklari. // Forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasi. – Toshkent: 1991. 80–81-betlar.

OTABEK NAYIMOV
PhD in Political Science, UWED, Alfraganus University

Ibn Khaldun and power dynamics: A geopolitical relevance of the Muqaddimah

Annotation. *This article is an attempt to study the enduring legacy of Ibn Khaldun, who, among other fields, contributed significantly to the development key political and geopolitical theories. In doing so, the author investigates the contemporary relevance of his geopolitical concepts, such as the Asabiyyah, the cyclical nature of the rise and fall of civilizations, power dynamics, and the sources of societal and political changes. In the article, the author adopts a critical stance about the negative impact of the prevalent Eurocentric assumptions in the way of genuine scholarly research and calls for a more inclusive and objective study of other non-European contributions. Finally, the growing significance of understanding Ibn Khaldun's rich legacy is underlined, including the shifting power dynamics, major factors driving geopolitical changes, and its societal and economic foundations in our increasingly confrontational and geopolitically uncertain times.*

Key words: *Asabiyyah, power dynamics, geopolitical transformations, cyclical nature of civilizations, societal and economic changes.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshqa sohalar qatori muhim siyosiy va geosiyosiy nazariyalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Ibn Xaldunning boy merosini ilmiy tadqiq etishga bo'lgan bir urinishdir. Maqolada uning "Asabiya", sivilizatsiyalar taraqqiyoti va inqirozining siklik tabiati, kuchlar dinamikasi, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar manbalari kabi siyosiy konsepsiyalari keng o'rganilgan. Tadqiqot davomida muallif keng tarqalgan noxolis Yevrosentrik qarashlarga nisbatan o'zining tanqidiy munosabatini bildirib, haqiqiy va ob'ektiv ilmiy izlanishlarga yo'l ochish uchun boshqa sivilizatsiyalarning ham o'rni va ahamiyatini holis o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Nihoyat, bugungi qarama-qarshiliklarga va geosiyosiy mavhumlikka boy bo'lgan davrda kuchlar dinamikasining o'zgarib borishi, geosiyosiy transformatsiyani harakatga keltiruvchi omillar, uning ijtimoiy va iqtisodiy asoslari kabi jihatlarni tadqiq etishning ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Asabiya, kuchlar dinamikasi, geosiyosiy transformatsiya, sivilizatsiyalarning siklik tabiati, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar.*

Аннотация. *В этой статье изучается непреходящее наследие Ибн Халдуна, который, помимо прочего, внес значительный вклад в развитие ключевых политических и геополитических теорий. При этом автор исследует современную актуальность его геополитических концепций, таких как Асабия, цикличность подъема и падения цивилизаций, динамика власти и источники общественных и политических изменений. В статье автор занимает критическую позицию относительно негативного влияния распространенных европоцентристских предположений на пути подлинных научных исследований и призывает к более всеобъемлющему и объективному изучению вкладов других неевропейских цивилизаций.*

Наконец, подчеркивается растущая значимость понимания богатого наследия Ибн Халдуна, включая меняющуюся динамику власти, основные факторы, движущие геополитические изменения, и его общественные и экономические основы в наши все более конфронтационные и геополитически неопределенные времена.

Ключевые слова: *Асабия, динамика власти, геополитические трансформации, цикличность цивилизаций, общественные и экономические изменения.*

Introduction. Many view geopolitics as an inherently Western field of study. This misconception is frequently reinforced by a flawed Eurocentric bias, which tends to minimize or ignore the contributions of other non-Western cultures to the evolution of geopolitical thought, portraying them as very limited or even virtually non-existent. This line of interpretations in political sciences has not been constructive: it often stands in the way of genuine scholarship. However, such wrongful claims have been challenged over the last years by the rise of different geopolitical approaches, decolonial perspectives, and the growing body of research highlighting the rich traditions of different regions, including Islamic civilization[1]. Notably, even some scholars within the Western scholarly traditions are challenging its enduring false premises. While opposing such narratives, Peter Frankopan, a professor of history at Oxford University, argues that is the East not the West that dominated the intellectual, cultural, and economic landscape of the world, serving as the cradle of major civilizations and empires. In doing so, he explicitly critiques the West's striking "lack of historical perspective[2]."

Main concepts. One towering figure who decisively dismantles this erroneous assumption is -Ibn Khaldun, the renowned Islamic scholar and polymath. Two key factors elevated this scholar to widespread recognition, granting him almost a legendary status. One is, undoubtedly, his foundational work, *the Muqaddimah* (the Introduction), which offers reader a holistic, multidisciplinary approach, blending fields as diverse as history, political science, economics, geography, sociology, geopolitics, and anthropology, among others. The other is his renowned encounter with Amir Timur, "who is truly a king and knows rightly how to rule a Sultanate[3]", during the siege of Mamluk city of Damascus in 1401. It was a historically significant meeting that has been widely studied for its geopolitical and intellectual implications. Thus, Ibn Khaldun not only theorized some key concepts in geopolitics but also engaged in a famous conversation with Amir Timur - an undefeatable ruler who

1 Dr. Dabashi Khamid. Can Non-Europeans Think? Zed Books Ltd. London.-2015; Chaichian Mohammed. Empires and Walls: Globalization, Migration, and Colonial Domination. Brill. Laden-Boston.-2014; Dr.Alatas Syed Farid. Applying Ibn Khaldun: The Recovery of a Lost Tradition in Sociology. Routledge. Taylor and Francis Group. London and New-York. -2014.

2 Frankopan Peter. The Silk Roads. A New History of the World. Bloomsbury edition. 2016. The New Silk Road. -Pp.487-505.

3 Arabshah Ibn Ahmad. Tamerlane. The Life of the Great Amir. Translated by J.H.Sanders. I.B.Tauris. London. New-York. –Pp.144-145.

embodied and actively shaped the transformative geopolitical dynamics of its era. According to his accounts written in *the Muqaddimah*, quote:

"This king Timur is one of the greatest and mightiest of kings. It is simply that he is highly intelligent, and perspicacious, addicted to debate and argumentation about what he knows and also about what he does not know[1]."

Ibn Khaldun's contribution to geopolitics is manifold. While not referring directly to it, his work touches upon several core geopolitical concepts, like power dynamics, the cyclical theory of history, human behavior, state formation, territorial influence, and factors underlying the rise and fall of civilizations. In *the Muqaddimah*, Ibn Khaldun thoroughly examines the foundations of human civilization, exploring key aspects including desert life and group feeling (*Asabiyyah*), the rise and decline of dynasties, their political longevity, the life of nomadic and sedentary societies, trade, economic systems, craftsmanship and the role of science and knowledge in human social organization. Remarkably, this set of themes still retains significant relevance in contemporary geopolitical and strategic studies, highlighting the timeless value of his legacy.

The concept of *Asabiyyah* or Group Feeling

The concept of *Asabiyyah* is central to Ibn Khaldun's political philosophy. As a distinctly Arabic term, it conveys the idea of group feeling or group cohesion, reflecting strong kinship and tribal bonds, which, as he believes, are firmly established among nomadic nations. For him, *Asabiyyah* serves as a key tenet of historical and social development, explaining the cyclical nature of change, shifting power dynamics, and the rise and fall of civilizations.

According to Ibn Khaldun, *Asabiyyah* is strong in nomadic nations due to close tribal ties and extreme living conditions than in sedentary societies. Since "desert life is a place of hardship and starvation, only tribes held together by group feeling can live there. Greater fortitude is found among the savage Arab Bedouins than the people who are subject to laws[2]". Ibn Khaldun believes that the life of tribes in the desert is limited to the bare necessities; this form of harsh and savage existence better prepares them for life, strengthens their resolve, fosters resilience and collective fighting spirit, and keeps them united. In short, life in the desert is a classic example of the survival of the fittest.

The tribal solidarity and fortitude of nomadic people give them an advantage over the people of cities, who are materially obsessed, increasingly decadent and submersed in luxury and lavishness. Ibn Khaldun is firmly convinced that "the toughness of desert life precedes the softness of sedentary life." *Asabiyyah*, on the

[1] Ibn Khaldun. The Muqaddimah. An Introduction to History. The Classic Islamic History of the World. Princeton University Press. Bollingen Series, 2015. Introduction, 2005 Edition.

[2] IBID. Bedouin civilization, savage nations and tribes, their conditions of life, including basic and explanatory statements. -Pp.91-97.

other hand, gives the nomadic societies a protection, mutual defence and peaceful coexistence. A leader may emerge from within the clan and claim a restraining influence and the role of mediator in every society in order to maintain social order and harmony. That person must be superior to others in strength, personal qualities and enterprise, otherwise, his rule over the community cannot be sustained. This is the process by which, as Ibn Khaldun theorized it, "royal authority" (*mulk*), or the creation of the state arises in nomadic societies, facilitated by a strong *Asabiyyah*. The ascent of Genghis Khan's nomadic confederation to global prominence and the relentless expansion of the Mongol empire can best illustrate Ibn Khaldun's concept of *Asabiyyah*, as to how the social solidarity of nomadic people could challenge and even dominate richer urban societies and agricultural centers, reflecting broader power dynamics, geopolitical and civilizational transformations.

Gradually, as the state attains a certain level of superiority, its control increases, and the ruling elite may amass vast amounts of wealth and redistribute it among its respective tribes, given their strong sense of *Asabiyyah*. These changes may make people more prosperous and secure, even fostering their sense of complacency. Traditional social norms and priorities give way toward pursuing wealth, luxury, and earthly comforts in a relatively stable and prosperous environment. Ibn Khaldun contends that the submergence of the tribe into a life of prosperity and luxury is the main obstacle on the way to royal authority (state) and its eventual decay. The obsession with material wealth and pursuing a carefree lifestyle erode *Asabiyyah*, vital for social cohesion that once united and empowered the state but now renders it vulnerable to internal decay and external conquest. Consequently, the new dynasty, which is more ambitious and bolstered with stronger *Asabiyyah*, rises and displaces the moribund state. As stated in *the Muqaddimah*, "the greater their luxury, and the easier life they enjoy, the closer they are to extinction. When group feeling is destroyed, the tribe is no longer able to protect itself, and will be swallowed up by other nations[1]".

While further developing his cyclical theory of civilizations, Ibn Khaldun underlines that prestige and power, at best, last three to four successive generations in a single lineage. This natural lifespan of civilizations would encompass 120-160 years, with each generation spanning roughly 40 years, as per the Islamic traditions of measuring generations. According to him, the first generation establishes authority through courage, determination, and a sense of strong *Asabiyyah*; the second maintains it through tradition and what he learned from his father, the builder; the third loses much-needed vigor, becomes complacent and materially obsessed; and the fourth who completely lacks the traits of his forefathers, simply oversees the pervasive erosion of prestige and power. This gradual decline occurs because the

[1] IBID. -Pp.108-109.

following generations tend to grow preoccupied with luxury and wealth, which erodes their *Asabiyyah* and eventually leads to a certain downfall.

Ibn Khaldun observes that when a superior power subjugates a defeated nation, it gradually loses its sense of hope and vigor, leading to an eventual disintegration. The vanquished nation always imitates its conquerors' culture, traditions, and customs, weakening its own identity. In doing so, a defeated nation will only accelerate its own demise and will soon perish. Up to our days, many previously colonized nations continue to grapple with the severe legacies of colonial rule, facing the daunting task of forging strong national identities, preserving cultural heritage, and raising the status of the national language in the life of their respective societies. The very essence of these struggles still resonate with Ibn Khaldun's key political theories, such as the cyclical nature of progress, the dynamics of social and historical transformations, state-building, thus further highlighting their conceptual relevance in the postcolonial world.

One may wonder why such a grim end is inevitable; could this process be changed or reversed? Although Ibn Khaldun’s theoretical framework on the rise and fall of civilizations is uniquely revolutionary, he does not provide a clear and systemic solution to reverse an unfolding decline. However, attentive readers of the *Muqaddimah* may sense subtle hints for delaying or mitigating the impact of this downward trajectory. For instance, he argues that a nation could extend its royal authority farther by retaining a measure of its savagery. Ultimately, Ibn Khaldun presents the cyclical nature of civilizations as an inevitable outcome of natural law. It is noteworthy that within the field of political science, the study of power transition, including concepts like the cyclical rise and fall of civilizations, shifting power dynamics, and the complex interplay of relations between established and rising powers, has a long-standing intellectual tradition, with scholarly quest continuing from antiquity to our days[1].

Geographical Determinism

Ibn Khaldun explored a wide range of themes in *the Muqaddimah*, such as the influence of geography and climate on human behavior and societal developments, the economic foundations of geopolitics, the significance of trade in generating wealth, regional power dynamics, and the role of religion as a unifying social institution. He has formulated a theory on the natural lifespan of empires,

[1] In addition to Ibn Khaldun, numerous other thinkers, including Thucydides, Arnold J.Toynbee, Paul Kennedy, Graham T. Allison etc. have significantly contributed to the understanding of the aforementioned areas of study. See: Thucydides. History of the Peloponnesian War. Translated by Rex Warner. Penguin Books. Book-1, 1954; Toynbee J.Arnold. A Study of History. Abridgement of Volumes I-VI by D.C.Somervell. Oxford University Press. 1987; Kennedy Paul. The Rise and the Fall of the Great Powers. Economic Change and Military Conflict from 1500 to 2000. First published by Unwin Hymen. 1988; Allison T. Graham. Destined for War: Can American and China Escape Thucydides’s Trap? Boston-New-York, 2017.

underscoring the cyclical character of rise and decline. Ibn Khaldun's insights into the role of geography, power consolidation, and the recurring trajectories of civilizations continue to resonate in contemporary geopolitical discourse while prompting intense scholarly debates. Moreover, a well-known dictum, *"your geography is your destiny,"* is often attributed to him, reflecting his profound thoughts on how environmental factors shape the course of human societies and steer geopolitical transformations.

Ibn Khaldun's theory of geographical determinism - or environmental determinism, emphasizes the profound impact of climate and landscape on human behavior, character formation, lifestyles, work ethics, and broader societal organization. He argued that extreme climate zones (*iqlim*), such as excessively hot or cold regions tend to create courage, resilience and strong *Asabiyyah*, due to harsh living environment[1]. In contrast, temperate climate zones are more likely to foster greater material pursuits, comfort, complacency, and a weakened *Asabiyyah*, as the relative ease of life blinds the sense of struggle and survival. Geographically, communities in deserts or mountainous terrains develop greater independence, tighter social bonds, and a stronger sense of *Asabiyyah*, whereas those in fertile plains and agricultural zones tend to become more urbanized, prioritize wealth accumulation, and are governed by centralized state institutions.

According to Ibn Khaldun, these environmental factors play a pivotal role in state formation, the dynamics of power, patterns of geopolitical rivalry, and, ultimately, the rise and fall of civilizations. Thus, his theory provides a key foundational basis through which to analyze the interconnection between geography, societal development, and historical shifts.

Conclusion. At a time of heightened global tensions and great power rivalry, the need to better understand the nature of geopolitical transformations has become ever more urgent. In this regard, Ibn Khaldun's *Muqaddimah* offers not only invaluable insights into power dynamics, state formation, and the cyclical nature of civilizations but also a compelling counterargument to the pervasive Eurocentric narrative of geopolitical thought, making it highly relevant in analyzing modern day complexities. His key political concepts, like *Asabiyyah*, the rise and fall of dynasties, and theories on geographical determinism still remain deeply influential in examining how societies rise through strong group feeling, and decline through complacency and how environmental factors determine the nature of power relations.

In an era marked by geopolitical uncertainties, structural realignments, and an increasing number of conflicts, Ibn Khaldun's ideas help us understand the root causes of societal and political changes, intellectually arm scholars and policy-makers to make better sense of complex political processes and the sources of tensions in

[1] Ibn Khaldun. The Muqaddimah. An Introduction to History. The Classic Islamic History of the World. Princeton University Press. Bollingen Series, 2015. -Pp.58-64.

modern multicultural societies. By no means obsolete, the visionary ideas of Ibn Khaldun continue to resonate in the contemporary world, particularly in postcolonial contexts, where national governments still face enormous challenges in forging stronger national identities, fostering social unity, and navigating increasingly fierce geopolitical competition among major powers. Moreover, his insights remind us the significance of adopting more inclusive approach to geopolitical inquiry; recognize the intellectual contributions of other, non-European civilizations' and reiterate the relevance of history, societal forces, and geography. This is the quintessential lesson of what *the Muqaddimah* has to offer.

SHAHNOZA TO'LAGANOVA
PhD, TDSHU

Turkiy yozma yodgorliklar tilida juft so'zlar

Annotatsiya. *Juft so'zlar til taraqqiyotining bir qirrasi o'laroq turkiy yozma yodgorliklarning qadimgi manbalaridayoq ko'zga tashlanadi. Mazkur maqola qadimgi turkiy bitiglardan Navoiy asarlarigacha bo'lgan ayrim yozma manbalarda mavjud juft so'zlar tadqiqiga bag'ishlangan. Juft so'zlar tilning muhim birliklaridan biri bo'lib, ularning shakllanishi, semantik xususiyatlari va qo'llanilish tamoyillari til tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan sinonimik, antonimik va ma'no jihatdan bog'liq juft so'zlar misollar bilan izohlangan. Jumladan, Navoiy asarlari tilida turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini arabiy va forsiy o'zlashmalar bilan boyitilgani, bu o'zlashmalar orqali juft so'zlar hosil qilingan jihatlari tahlilga tortilgan. Juft so'zlarni hosil qilishda bugungi til qoidalari eski til qonuniyatlariga hamohang emas. Til tarixida juft so'zlar yasalishidagi o'ziga xos jihatlar ham maqolada tahlilga tortilgan. Yozma yodgorliklar matnida juft so'zlarni ajratib olishda ham chalg'ituvchi jihatlar bor. Xususan, ular uyushib kelayotgan so'zlar bilan juda o'xshash bo'lib, hozirgi kabi tinish belgilarining qo'llanmaganligi sababli bir-biridan ajratishda noqulayliklar vujudga keladi. Shuningdek, mazkur juft so'zlarga qo'shimchalarning qay tarzda qo'shilishi xususida ham gap boradi.*

Qadimgi matnlarda juft so'zlar asosan poetik ifoda vositasi sifatida xizmat qilgani, badiiylikni oshirish va ma'no kuchaytirish uchun ishlatilgani ta'kidlangan. Shuningdek, juft so'zlarning yangi ma'no hosil qilishi ham tahlilga tortilgan. Maqolada eski turkiy til davrida yozma manbalar tilida juft so'zlarning hosil qilinishida o'zlashma so'zlarning ham ahamiyati haqida gap boradi Ayrim barqaror birliklarning tasviriy samaradorligida va barqaror-lashuvida ularning tarkibidagi juft so'zlarning ahamiyati o'rganilgan. Xususan, bitiglar tilida mavjud stereotip hamda frazeologik birliklarda juft so'zlarning ishtiroki tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *juft so'z, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, sinonimiya, antonimiya, stereotip birlik, frazeologizm, so'z birikmasi*

Аннотация. *Парные слова как одна из граней развития языка проявляются уже в древнейших источниках тюркских письменных памятников. Настоящая статья посвящена исследованию парных слов, встречающихся в ряде письменных источников — от древнетюркских надписей до произведений Навои. Парные слова являются важными единицами языка, и их формирование, семантические особенности и принципы употребления имеют большое значение для изучения истории языка. В статье на примерах поясняются синонимичные, антонимичные и семантически связанные парные слова, характерные для древнетюркского языка. В частности, анализируется, как в произведениях Навои художественные возможности тюркского языка были обогащены заимствованиями из арабского и персидского языков и как с помощью этих заимствований образовывались парные слова. Современные правила образования парных слов не полностью соответствуют законам древнего языка. Особенности образования парных слов в истории языка также рассматриваются в статье. При выделении парных слов в письменных памятниках возникают определённые затруднения. В частности, они сильно схожи с сочетающимися словами, и из-за отсутствия знаков препинания, как в современном языке, возникает трудность в их разграничении. В статье также рассматривается, каким образом к этим парным словам присоединяются аффиксы. В древних текстах парные слова в основном служили поэтическими средствами, использовались для повышения художественности и усиления смысла. Также рассматривается образование новых значений с помощью парных слов. В статье подчёркивается роль заимствованных слов в формировании парных слов в языке письменных памятников эпохи древнетюркского языка. Изучается значение парных слов в составе некоторых устойчивых выражений, их влияние на выразительность и закрепление этих выражений. В частности, исследуется участие парных слов в стереотипных и фразеологических единицах языка надписей.*

Ключевые слова: *парные слова, древнетюркский язык, старотюркский язык, синонимия, антонимия, стереотипные единицы, фразеологизмы, словосочетания.*

Annotation. *Paired words emerge as an aspect of language development already visible in ancient sources of Turkic written monuments. This article is dedicated to the study of paired words found in certain written sources, from ancient Turkic inscriptions to the works of Navoi. Paired words are one of the essential units of language, and their formation, semantic characteristics, and principles of use are of great importance in studying language history. The article explains, with examples, synonymous, antonymous, and semantically related paired words typical of the ancient Turkic language. In particular, it is analyzed how the artistic capacity of the Turkic language in Navoi's works was enriched with Arabic and Persian borrowings, and how these borrowings contributed to the formation of paired words. The rules for forming paired words in the modern language are not entirely consistent with the laws of the old language. The unique features of how paired words were constructed throughout the history of the language are also examined in the article. There are also misleading aspects when identifying paired words in written monuments. Specifically, they are very similar to coordinated words, and due to the lack of punctuation marks as used today, distinguishing them can be difficult. The article also discusses how affixes are added to these paired words. In ancient texts, paired words mainly served as poetic devices, used to*

enhance artistic expression and intensify meaning. The emergence of new meanings through paired words is also analyzed. The article addresses the role of borrowed words in the formation of paired words in the language of written sources during the Old Turkic period. The significance of paired words within certain stable expressions and their contribution to expressive efficiency and stabilization is studied. In particular, the participation of paired words in stereotypical and phraseological units in the language of inscriptions is investigated.

Keywords: *paired words, ancient Turkic language, Old Turkic language, synonymy, antonymy, stereotypical units, phraseologisms, word combinations.*

Kirish. Tilda mavjud har bir element uzoq tarixiy shakllanishni boshdan kechiradi. Xususan, juft so‘zlarning shakllanishi tilda alohida hodisa bo‘lib, uning tarixida biz bilmagan jihatlar juda ko‘p. Bugungi kunda qashshoqlik, nochorlik etaloni sifatida ishlatiladigan *och-yupun* juft so‘zi qadimgi turkiy bitiglarda faol qo‘llangan *ičrä ašsïz, tašra tonsuz* (ichi oshsiz, tashi to‘nsiz) stereotip birligini eslatadi va bu ikki birlikning bir-biri bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiqqanligini ehtimol qilish mumkin. Qadimgi turkiy manbalarda juft so‘zlarning juda yaxshi namunalari uchraydi. Ayrim manbalar tilini mazkur so‘zlarsiz tasavvur qilish qiyin. Juft so‘zlarda ikki so‘z ma’nosi, ohangdorligi bir-biriga mutanosiblik kasb etishi kerak. So‘zlarni juftlashtirishda muayyan qonuniyatlar mavjud. Shuning uchun har bir juft so‘z til tashuvchilarining teran zakosini aks ettiradi.

Hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan juft so‘zlar xususida A.Hojiyev va boshqalar[1]ning ishi diqqatga sazovor[2]. Shuningdek, qiyosiy tilshunoslikda

Sh. Imyaminova va Sh. Bekmuratovalarning nemis va o‘zbek tilidagi juft so‘zlarning tadqiqiga bag‘ishlangan ishi bu boradagi so‘nggi ishlardandir[3]. Til tarixiga oid matnlarda juft so‘zlarning ishtiroki faol bo‘lgan. Bu borada ham ko‘p tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, turk olimlari Erhan Aydin va Ahmet Karamanlarning qadimgi turkiy bitiglardagi juft so‘zlarga bag‘ishlangan ishi shular jumlasidan[4].

Bu borada Q. Sodiqovning tadqiqotlari ham diqqatga sazovor[5]. Shuningdek, N. Qilichov[6] hamda M. Xolmurodovaning[1] tadqiqotlarida ham juft so‘zlar borasida fikrlar mavjud.

[1] Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: “Ўзбекистон”, 1992.

[2] Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрор сўзлар. – Тошкент: “Фан”, –144 б.

[3] Имяминова Ш., Бекмуротова Ш. Немис ва ўзбек тилларида жуфт сўзларнинг структурал-семактик тадқиқи. – Тошкент: “GlopeEdit”, 2022. – 84 б.

[4] Erhan Aydin, Ahmet Karaman. Eski türk yazit ve el yazmalarinda ikilemeler https://dergipark.org.tr/tr/download/article-file/741630

[5] Содиқов Қ. “Хуастуанивт”нинг қадимги туркий версияси // Жаҳон адабиёти. № 7. –Тошкент, 2015. – Б. 56; Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Т.: “Akademnashr”, 2021.

[6] Қиличов Назарбой Қадимги туркий тилдаги синоним компонентли жуфт отлар семантикаси https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/download/5443/5622

O‘zbek tilshunosligida juft so‘zlar borasida turli qarashlar mavjud. Ayrim olimlar yangi ma’no ifodalamasligi asosida ularni alohida leksik birlik sifatida qabul qilishmaydi: “Juft so‘zlar ifodalaydigan jamlik, umumlashtirish kabi ma’nolar ham ularni so‘z yasalish hodisasidan ko‘ra morfologik hodisa deb qarash to‘g‘ri bo‘lishini ko‘rsatadi”[2].

Boshqalarining fikriga ko‘ra, bunday so‘zlar yangi ma’no tashiydi. Shuning uchun ham so‘zlarni juftlashtirish orqali yangi so‘z hosil bo‘ladi, degan xulosa beriladi: “Til tarixida so‘zlarni juftlash yo‘li bilan yangi ma’no hosil qilish usulidan badiiy asarlarda keng foydalanilgan. Ko‘k turk bitiglarida *ot* va *sub* so‘zlari juft holda qo‘llanib, «bir-biriga qarshi; teskari; yov» ma’nolarini anglatadi: *Biriki bodunuγ ot-sub qïlmadïm.* – «Birikkan xalqni (bir-biriga) o‘t-suv [ya’ni “yov”] qilmadim» (K. 27)[3]. Bizningcha ham juft so‘zlarning ayrimlari hosila ma’noga ega.

Juft so‘zlar xususidagi tadqiqotlarda har ikki komponentning ma’no jihatidan bog‘liqlik holatda bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Nafaqat semantik jihatdin, morfologik jihatdan ham har ikki so‘z bir turkumga oid bo‘lishi kerak. Juft so‘zlar ko‘zlangan ma’noni umumlashtirishi, ta’kidlashi, kuchaytirishi e’tirof etilib kelinadi: O‘zbek tilida juft so‘zlar jamlik, umumlashtirish kabi ma’nolardan tashqari, fikr almashuvda eng nozik ma’no ottenkalarini ifodalash uchun xizmat qiladi[4].

Sinonimiya asosida shakllantirilgan juft so‘zlarning o‘ziga xos xususiyati haqida esa shunday deyilgan: “Sinonimlarni juft holda qo‘llash va bu orqali qandaydir ma’no ifodalashda ularning (sinonimlarning) ma’no va qo‘llanish jihatidan, qisman bo‘lsada, bir-biridan farqlanishi asosiy rol o‘ynaydi. Sinonimlar juftlashganda, ma’no umumlashtiriladi, ma’no kuchaytiriladi[5].

Yozma yodgorliklar orasida Xuastuanift bitigida juft so‘zlar juda faol: kün-ay, qutï-qïwï, öŋi-mäŋizi; aš-ičkü; ačïtdïmïz-ağrïtdïmïz; quruğ-öl; nomuğ-törüg; qorqït-dïmïz-ürkitdimiz; tïnlïğqa-turalïğqa; urtumuz-yontumuz; täwlädimiz-kürlädimiz; yazïntïmïz-yaŋïltïmïz; ïnantïmïz-tayantïmïz; adaš-qudaš; yïlğïqa-barïmqa; äwkä-barqqa; ädgüti-tükäti va boshqalar.

Boshqa manbalar tilida ham juft so‘zlar uchraydi. To‘nyuquq bitigida: ïda-tašda, iči-tašïn, tïlïğ-sabïğ, yär-sub, qïz-quduz, isig-küčüg. Kul tigin bitigida: turu-ölü, altun-kümüš, ölü-yitü, ot-sub, yadağïn-yalaŋïn, otča-borča, közi-qašï. Irq bitigida: yarïn-kečä; söz-sab; esän-tükäl; yaš-ot; maŋizläyür-bädizläyür; ögi-qaŋï; idišin-ayaqïn; otsuz-subsuz va boshqalar.

Bitiglarda *yer* va *sub* so‘zlari juft holda qo‘llanib, «tuproq, o‘lka, yurt, vatan» ma’nosini anglatgan: *Kögmän yer-sub idisiz qalmazun tiyin.* – «Ko‘gman yer-suvi

[1] Холмуродова М. “Қутадғу билиг” лексикаси: PhD diss. – Toshkent, 2019. – 159 с.
[2] Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Т.: “Ўқитувчи”,1979. – Б. 19–20
[3] Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Тошкент:”Akademnashr”, 2021. – Б. 304
[4] Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Т.: “Фан”, 1963. – Б. 44
[5] O‘sha asar. – B. 53–54.

egasiz qolmasin deya» (K. 20); *Tängri Umay ïduq yer-sub basa berti erinč*. – «Tangri Umay (bilan) muqaddas yer-suv(imiz yovni) bosib berdi-ku» (Ton. 38)[1].

Qadimgi yozma manbalar tilidan juft so‘zlarni ajratib olishning o‘ziga xos murakkab jihatlari mavjud. Mazkur so‘zlar juft yoki uyushib kelayotgan so‘zlar ekanligini aniqlash tadqiqotchidan ziyraklik talab qiladi. Q.Sodiqov tomonidan tuzilgan “Qutadg‘u bilig” so‘zligi”da olim asar bo‘ylab uchragan juft so‘zlar va ular asosida hosil bo‘lgan yangi ma’noni izohlagan. Ayrim o‘rinlarda uch komponentli juft so‘zlar ham keltirilgan:

Ku-jaw-at tilasa, tuz-etmak yetur.

Dong-ovoza-nom (chiqarmoq) istasang, tuz-non yedir (QBN.886,3)[2].

Ushbu misolda *ku-jaw-at* – dong-ovoza-nom har bir qism ma’no anglatgan. Agar xalq orasida yaxshi nom, dovrug‘, obro‘-e’tibor qozonishni istasang, xalqqa yaxshilik qil, yordam ber degan o‘git keltirilgan.

Yoki:

“Qutadg‘u bilig” asarida shunga o‘xshash uch qismli misollardan yana quyidagilarni keltirish mumkin*: yïl-au-kun – yil-oy-kun, et-öz-yin – tan-u jon, vujud, kun-yïl-ay – kun-yil-oy.*

Meniŋdin keräk emdi öt-saw-erig,

Bu öδläk öti täb seŋä, ey tirig.

Mendan o‘git-nasihatlar nega kerak bo‘ldi,

Bu davron o‘giti senga kifoya, ey tirik (QBQ.161b, 5)[3].

“Devonu lug‘oti-t-turk”dagi turkiy matnlarda ham juft so‘zlarni uchratish mumkin. Xususan, tün-kün juft so‘zi faol qo‘llangan.

Tün-kün turup yig‘layu,

Yašïm meniŋ sawrulur.

Aytmoqdaki: tun-u kun tinimsiz yig‘layman, ko‘z yoshlarim sovruladi[4].

Yoki:

Uδik meni kučäyür,

Tün-kün turup yïğlayu.

Kördi közüm tawraqïn,

Yurtï qalïp ag‘layu.

Aytmoqdaki: sevgi menga azob berayotir, kecha-kunduz yig‘layman; ko‘zlarim uning yiroqlashganini ko‘rdi, ketida yurti [ya’ni uy-joyi] yig‘lab qoldi[5].

---

[1] O‘sha joyda.

2 Содиқов Қ. «Қутадғу билиг» сўзлиги. – Тошкент: “Akademnashr”, 2020. – Б. 84.

3 Содиқов Қ. «Қутадғу билиг» сўзлиги. – Тошкент: “Akademnashr”, 2020. – Б. 57.

[4] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. Нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б. 278.

[5] O‘sha asar. – B. 413.

Ma’shuqa hajrida qiynalgan oshiq o‘zining iztiroblarini mazkur misralar orqali bayon etmoqda. “***Tün-kün turup yïğlayu”*** jumlasidagi ***tün-kün,*** ya’ni *tun-u kun* birikmasi uzluksiz davom etayotgan vaqtni nazarda tutadi. Ko‘pincha, insonlar bir narsaning o‘y-tashvishiga tushgan bo‘lsa va o‘zida kechayotgan kechinmalarni mazkur birikma orqali ifodalaydi.

Juft so‘z komnonentli birliklarning tilda ko‘proq barqarorlashuvini kuzatish mumkin. Jumladan, mazkur juft so‘zdan so‘ng ish-harakat yoki holatni anglatuvchi so‘z qo‘yilsa, ma’lum bir vaziyatni aks ettiruvchi, insonning nihoyasiz iztirobi, tashvishi, halovatsizligini anglatuvchi ifoda hosil bo‘ladi. Bu birlik orqali ba’zi o‘rinlarda quvonchli holatlar ham aks ettirilgan.

Yana bir misol:

Iwrïq bašï qazlayu,
Sag‘raq tolu közläyu,
Saqinč quδï kezläyu,
Tün-kün bilä sewnälim.

Aytmoqdaki: Ivriq [may idishi]ning boshi g‘oz kabidir, qorni [may turadigan qismi] ko‘z (kosasi) kabi to‘lgan. Qayg‘uni uning tagiga ko‘maylig-u, kecha-kunduz sevinaylik[1].

Alisher Navoiy asarlari tilida *kecha-kunduz* juft so‘zi ko‘p uchraydi:

Kecha-kunduz ne tinmak, ne tayanmoq,
Ne bir dam qon yutardin ko‘ngli qonmoq[2].

Kecha – sutkaning qorong‘i qismi; *Kunduz* – sutkaning yorug‘ qismi. Bir qarashda ikkala so‘z ma’no bog‘liqligi zid ma’noli so‘zlar asosidadek tuyuladi.

Lekin, juft so‘zdan ko‘zlangan maqsad qorong‘i yoki yorug‘ semalari asosida yuzaga chiqmaydi. Bularni korrelyativ ma’no jihatdan bog‘liqligi juft so‘zdan ko‘zlangan ma’noni nazarda tutadi. Ya’ni, har ikkala so‘z vaqt semasi – biridan keyin biri kelishi kerak bo‘lgan uzluksiz vaqtni nazarda tutadi. Ushbu juft so‘z Navoiygacha bo‘lgan asarlar tilida ham faol edi:

Navoiy asarlari tilida esa tun va kun boshqa sinonim so‘zlarga almashgan holatlari uchraydi. Navoiy “Xamsa”sida o‘ndan ortiq variantlari uchradi. Masalan, “Sab’ayi Sayyor”da:

Yurumak erdi tun-u kun komi,
Yo‘q edi hech yerda oromi[3].

“Saddi Iskandariy”da:

---

[1] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк. Нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифи: Қ.Содиқов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2017. – Б. 53.

[2] Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Мукаммал асарлар тўплами. 8-том. –Тошкент: “Фан”, 1991. – Б .272.

[3] Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Мукаммал асарлар тўплами. 10-том. –Тошкент: “Фан”, 1992. – Б.155.

Chu ul fikrdin xotirin tindurip,
Kecha-kunduz orom tutmay yurup[1].

“Layli va Majnun”da:

Kunduz-kecha mehnatimda tinmay,
Ichmakni, yemakni ham sog‘inmay[2].

Bugun juft so‘zlarning turlari, komponentlari va imlo qoidalari ham ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra juft so‘zlar chiziqcha bilan yoziladi, hech qanday bog‘lovchisiz keladi. Ammo bu qonuniyatni klassik asarlar tiliga tatbiq qilishda birmuncha mulohazalar bor. Zero, “Burungi me’yorlar hozirgi o‘lchovlarga to‘g‘ri kelavermaydi. Matnning murakkab uslubi, so‘z ma’nolari ba’zan asarni tadqiq etayotgan mutaxassislarni ham chalg‘itadi”[3].

Klassik asarlar tilida -u bog‘lovchisi orqali teng bog‘langan so‘zlar borki, bugunga kelib ularning aksariyati juft so‘zlarga aylangan.

Yo‘q kun-u kecha ***xo‘rd-u xob*** *manga,*
Kecha g‘am, kunduz iztirob manga[4].

Bu so‘z Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida “yeyish, ichish va uyqu” deb izohlangan. Ba’zan teskari holatda ham uchraydi (***xob-u xo‘rd***). Navoiy o‘zining “Sab’ai sayyor” dostonining so‘nggi boblarida asarning yozilishi haqida bayon qilar ekan, uni to‘rt oyda yakuniga yetkazganini, agar boshqa ishlarga chalg‘imaganda to‘rt haftada tugatishi mumkinligini aytadi. Bu asar yozilishi chog‘ida o‘zining halovatsizligini yuqoridagi bayt orqali izhor etadi. Bugungi kunda ham o‘xshash vaziyatlarda ko‘p qo‘llanadigan yegan-ichganning tayini yo‘q kabi jumlalar mazmuniga o‘xshash mohiyati bilan ***xo‘rd-u xob*** aynan yeyish, ichish va uxlashni emas, halovat-xotirjamlikni ifodalamoqda.

Yana bir misol:

Yo‘q kunduz-u kecha xo‘rd-u xobi,
Dom ichida qushdek iztirobi[5].

Ushbu bayt “Layli va Majnun” dostonidan olingan bo‘lib, unda ayriliqda halovatsiz qolgan Majnun ahvoli bayon etilgan. Bunday holatlarda ***xord-u xob*** so‘zlarining faol qo‘llanishiga sabab mazkur so‘zlarda alliteratsiya mavjud bo‘lishi bilan bir qatorda, she’rning vazn va qofiya talablari ham bo‘lishi mumkin.

Tun-u kun zoyil o‘ldi xo‘rd-u xobi,

[1]Алишер Навоий. Садди Искандарий. Мукаммал асарлар тўплами. 11-том. –Тошкент: “Фан”, 1993. – Б.580.
[2]Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Мукаммал асарлар тўплами. 9-том. –Тошкент: “Фан”, 1992. – Б. 279.
[3] Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Т.: “Akademnashr”, 2021. – Б. 488.
[4]Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Мукаммал асарлар тўплами. 10-том. – Тошкент: “Фан”, 1992. – Б.447.
[5]Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Мукаммал асарлар тўплами. 9-том. – Тошкент: “Фан”, 1992. – Б.119.

Bo‘lup afzun damo-dam iztirobi[1].

Mazkur bayt “Farhod va Shirin” dostonidan olingan. Baytda Shiringa oshiq bo‘lib qolgan va unga yetishish istagida halovatidan ayrilgan Shiruyaning ahvoli bayon etilgan. Misolda birlik tarkibiga yana bir yangi so‘z – ***zoyil o‘l*** qo‘shilgan. Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida mazkur so‘z *yo‘qolmoq, yo‘q bo‘lmoq, o‘chmoq, so‘nmoq*[2] kabi ma’nolarda izohlanadi. Ya’ni, borgan sari iztirobi ortib, tun-u kun uyqu va yemakdan qoldi.

Keltirilgan namunalardagi ***xord-u xob*** teng bog‘langan so‘z birikmasi emas, juft so‘z bo‘lish ehtimoli katta. Chunki, bu o‘rinda ikki yaqin ma’noli so‘zlarni alohida ta’kidlashdan ko‘ra, juft holatda ma’noni umumiylashtirish, alohida ma’no ottenkalarini hosil qilish mavjud. Qolaversa, qadimgi turkiy tilda ham juft so‘zlarning teng bog‘lovchilar orqali ifolalangan varianti mavjud ekanligi quyidagi fikrdan anglashiladi:

“Ba’zi hollarda juft so‘zlar tarkibidagi so‘zlar unutilib, ular juft holatdagina yetib kelgan bo‘ladi. Jumladan, hozirgi o‘zbekchada uvali-juvali degan so‘zimiz bor” Bu so‘zning kelib chiqishi esa qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Turkiy tilda *uya* so‘zi ikki xil: 1) birodar, yaqin kishilar, tug‘ishganlar; 2) yashash joyi, uya ma’nosini bildirad. “Hozirgi o‘zbek tilidagi uvali-juvali tuzilishiga ko‘ra juft so‘zdir: uwa-yuwa-juwa bir so‘zning turli fonetik variantlari bo‘lib, u «avlod, tug‘ishganlar» ma’nosini beradi. Uvali-juvali so‘zi tarkibidagi birinchi -li qadimgi turkiy tilda ishlatilgan teng bog‘lovchining qoldiq shaklidir. Keyingisi esa hozir sifat yasovchi sifatida tushuniladi[3].

Navoiy asarlari tilida mavjud barcha teng bog‘langan so‘zlar juft so‘zlar sifatida talqin etilishi kerak demoqchimasmiz. Bunday holatlarda ikki taxminni ilgari suramiz:

1. Navoiy asarlarida qo‘llangan bunday ifodalar davr adabiy tilida mavjud bo‘lib, juft so‘z holatida bo‘lsa ham, she’riyatda vazn va qofiya talabi bilan ayrim bog‘lovchilar orqali ifodalangan bo‘lishi mumkin.

2. Navoiyning so‘z qo‘llash mahoratidan kelib chiqib, har uch til imkoniyatlaridan foydalana olish qobiliyatiga ko‘ra teng bog‘langan birikmalar uchun ma’no, ohang, vazn omillari inobatga olinib tanlangan so‘zlar keyinchalik juft so‘zlarga aylanib ketgan. Bugun biz juft so‘z sifatida biladigan ifodalarning Navoiy asarlarida quyida so‘z birikmasi shaklida uchratishimiz mumkin:

Ul ne ko‘zdurkim, erur *noz-u karashma* jomidin

[1]Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Мукаммал асарлар тўплами. 8-том. – Тошкент: “Фан”, 1991. – Б.480.

[2]Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. 1-том. – Тошкент: “Фан”, 1983. – Б. 643.

[3] Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Т.: “Akademnashr”, 2021. – Б. 306.

Bo‘lsa maxmur – ofat, ammo bo‘lmog‘i usruk – balo[1].

Yoki:

Ey Navoiy, nazming asru soda erdi qo‘ydi yuz,
Shoh islohidin oncha *zeb ila ziynat* anga[2].

Yoki:

Topmish ul yuz qatra-qatra xo‘ydin o‘zga *ob-u tob*,
Qayda, vah-vah, muncha kavkab zohir aylar oftob[3].

Navoiy asarlari tilida bugungi talablar asosida shakllantirilgan juft so‘zlar ham uchraydi:

Kunduz-kecha mehnatimda tinmay, Ichmakni-yemakni ham sog‘inmay[4].

Shu o‘rinda yana bir qoidani eslatib o‘tish kerak. Bugun ishlatilayotgan juft so‘zlarda qo‘shimcha keyingi so‘z ortidan qo‘shiladi. Lekin, qadimgi turkiy tildagi juft so‘zlarning aksariyatida har ikkala komponent qo‘shimchalarni birdek qabul qilgan. Keltirilgan parchadagi *ichmak-yemak xord-u xob*ga

Juft so‘zlarning yana birmuncha stilistik vazifalari ham mavjud:

Badiiylikni ta’minlash, asar ta’sirini oshirish, ma’noni kuchaytirish maqsadida yozma adabiy tilning turli vositalaridan foydalanilgan. Biri so‘zlarni juft holda qo‘llash usulidir. Bu narsa ma’noni kuchaytirish, badiiylikni ta’minlashgagina emas, o‘sha juftliklar ko‘magida yangi ma’nolar yasashga ham xizmat qiladi[5].

Juft so‘zlardagi komponentlarning ma’no uyg‘unligi yoki zidligi, komponentlarning tanlanishida ohangga e’tibor (qofiyadoshlik, vazndoshlik, tovush takrori) uning poetik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yozma yodgorliklar tiliga nazar tashlasak, juft so‘zlarning qoliplashgan (stereotip) hamda frazeologik birliklar komponenti bo‘lganligini anglash mumkin.

Juft so‘z komponentli stereotip birliklar. Stereotip birliklar muayyan vaziyat yoki holat ifodasida tez yodga keladigan, bu vaziyatni teran anglata olish imkoniyatidan matnlarda intertekstuallik xususiyatiga ega birliklardir. Ularning intertekstual birliklar sirasiga kirishining sababi tuzilishidagi semantik stilistik jihatlarida[6]. Nutqqa tayyor holatda turishi jihatidan frazeologik birliklar, maqollarga o‘xshab ketadi. Biroq frazemalar singari bo‘linmas butunlikka ega emas, maqollar singari xulosaviy hukm mohiyatini saqlamaydi.

[1] Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Мукаммал асарлар тўплами. 4 том. – Тошкент: “Фан”, 1989. – Б. 23.
[2] O‘sha asar. – B. 8.
[3] O‘sha asar. – B. 31.
[4] Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Мукаммал асарлар тўплами. 9-том. – Тошкент: “Фан”, 1992. – Б. 279.
[5] O‘sha asar. – B. 494.
[6] Бу ҳақда қаранг: Тўлагонова Ш. Қадимги туркий битигларда кечган стереотип бирликлар: семантика ва стилистика масалалари. PhD дис. Автореф. – Тошкент, 2021. – 56 б.

Bitiglarda faol qo‘llangan stereotip birikmalardan biri – *isig, kučüg bir–* (ish kuchini bermoq). Birikma insonlarning bir necha yillik umri davomida ma’lum bir maqsad yoki manfaat yo‘lida sarflagan kuch-quvvati, mehnati va hatto umid-ishonchlarini umumiy tarzda ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda hozirgi o‘zbek tilidan farqli ravishda, juft so‘z komponentlarining har ikkala qismi qo‘shimchalarni qabul qilgan.

Stereotip birikmalardan yana biri *ölü-yitü käl* (o‘la-yita kel) birikmasidir. Mazkur birikma ham juft so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, hozirgi kunda nutqimizda “o‘lib-qutulib”, “o‘la-yita” tarzida uchraydi. Bu birikma bitiglarda sarson bo‘lgan xalq ahvolini ifodalashda bir necha marta takrorlangan.

Yana bir birikma – *yadağïn-yalaŋïn käl* (yayov-yalang‘och kelmoq) ham stereotip birikma sifatida matnlarda ko‘pincha urushdan mag‘lub bo‘lib qaytayotgan qo‘shin ahvolini bayon etishning eng maqbul ifodasidir.

Yana bir juft so‘z komponentli stereotip birikmalardan biri *otča borča käl-* (o‘tday-bo‘ronday kelmoq) birikmasidir. *Otča borča käl*(o‘tday-bo‘ronday kelmoq) birikmasi bitiglarda jangovar holatni, urushlardagi qo‘shin shijoatini ifodalashda foydalanilgan. Ushbu birikma kutilmagan vaziyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ham ushbu birikmaning “balo-qazoday keldi” yoki “mo‘r-malaxday yopirildi” kabi variantlari mavjud.

Juft so‘z komponentli frazeologik birliklar. Ayniqsa, zid ma’noli so‘zlar uyg‘unligidagi juft so‘zlarda frazeologik birlik komponenti bo‘lish imkoniyati keng. Yuqorida keltirilgan *ot-sub qïl-* frazemasi bu fikrning dalilidir. Bu turdagi juft so‘zlarda yangi, konotativ ma’no hosil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, hozir o‘zbek tilida qo‘llanadigan

Turk olimi Talat Tekin qadimgi turkiy bitiglardagi frazemalarni ajratib ko‘rsatadi: *adaq qamšat-; atï küsi yoq bol-; balïqdaqï tağïq-, tağdaqï in-; ičrä ašsïz tašra tonsuz; bašliğiğ yüküntür-, tizligig sökür-; körür közi körmäz-tek, bilir biligi bilmäz tek bol-; közi-qašï yablaq bol-; birki bodunuğ ot-sub qïl-; tün udïma-, küntüz olurma-; qïzïl qanïm tükäti-, qara tärim yügürt-; isig-kučük bir-; ölü-yitü qazğan-; uça bar-.*

Do‘g‘an Aksan Talat Tekin tilga olgan, *adaq qamšat-; atï küsi yoq bol-; közi-qašï yablaq bol-; ot-sub qïl* kabilarning frazeologizm ekanligini ta’kidlagani holda, *tün udïma- küntüz olurma-; balïqdaqï tağïq-, tağdaqï in-; ičrä ašsïz tašra tonsuz; körür közi körmäz teg bilir biligi bilmäz teg bol-* kabilarni frazeologik birlik emasligini aytib o‘tadi[1].

Do‘g‘an Aksan keltirgan frazeologizmlarning aksariyati juft so‘z komponentli: *atï-küsi, közi-qašï, ot-sub* ekanligi ham yuqoridagi fikrni dalillaydi.

Xulosa. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardagi juft so‘zlar til tarixining muhim leksik birliklaridan biri bo‘lib, ularning shakllanishi, qo‘llanilishi va semantik

[1] Бу ҳақда қаранг: Doğan Aksan. Göktürk yazıtlarında söz sanatları güçlü anlatım yolları // Türk dülı araştırmaları yıllığı – Belleten. Cılt 38. – İstanbul, 1990. – S. 6–7.

xususiyatlari turkologiya fanida katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda qadimgi turkiy bitiklar, xususan, To‘nyuquq, Kul Tegin, Bilga Xoqon, eski turkiy til manbalari, eski o‘zbek tili manbalaridagi juft so‘zlarning leksik-semantik va morfologik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, qadimgi turkiy tilga xos bo‘lgan juft so‘zlar til rivojida muhim rol o‘ynagan bo‘lib, ular fikrni ta’kidlash, kuchaytirish va umumlashtirish vazifalarini bajargan. Ba’zi juft so‘zlar tilda turli barqaror birliklarni shakllantirganligining guvohi bo‘ldik.

Juft so‘zlar ko‘pincha sinonimik, antonimik yoki ma’no jihatdan bog‘liq birliklar asosida shakllangan. Ayniqsa, sinonimlar asosida hosil qilingan juft so‘zlar so‘zning ma’no doirasini kengaytirgan, uning ta’sirchanligini oshirgan. Masalan, "isig-küçüg" (ish-quvvat), "ot-sub" (teskari, qarama-qarshi), "tün-kün" (kecha-kunduz) kabi juft so‘zlar qadimgi bitiklarda keng qo‘llanilgan. Shu bilan birga, ba’zi juft so‘zlar semantik jihatdan antonimlikni ifodalab, o‘ziga xos badiiy ta’sir yaratgan.

Maqolada qadimgi turkiy til va zamonaviy o‘zbek tilidagi juft so‘zlarning bog‘liqligi ham tahlil qilindi. Qadimgi yodgorliklarda uchraydigan ko‘plab juft so‘zlar zamonaviy o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lib, ular fonetik va semantik o‘zgarishlarga uchragan. Masalan, bugungi kunda keng qo‘llanadigan "kecha-kunduz", "xo‘rd-u xob", "tun-u kun" kabi birliklar qadimgi bitiklarda ham uchraydi. Bu esa juft so‘zlarning vaqt o‘tishi bilan shaklan va ma’nan o‘zgarishlarini ko‘rsatadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, qadimgi turkiy bitiklarda juft so‘zlar nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki ijtimoiy-madaniy va poetik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ba’zi juft so‘zlar doimiy foydalaniladigan, nutqda barqarorlashgan birliklarga aylangan va hatto stereotip birikmalar sifatida shakllangan. Masalan, "yadağïn-yalaŋïn" (yalang‘och va och holda) yoki "otča-borča" (jangovar holatda) kabi juft so‘zlar qadimgi turkiy matnlarda doimiy qo‘llangan.

Kelgusida qadimgi turkiy yodgorliklardagi juft so‘zlarning grammatik va semantik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ularning zamonaviy turkiy tillardagi ekvivalentlari va semantik taraqqiyoti masalalari bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish lozim. Bu esa nafaqat turkologiya va tarixiy tilshunoslik sohalariga, balki bugungi o‘zbek tilining rivojlanish jarayonlariga ham muhim hissasini qo‘shadi.

Tadqiqot natijalari qadimgi yozma yodgorliklar tilida juft so‘zlarning keng qo‘llanilganligini tasdiqlaydi va ularning shakllanish qonuniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa kelgusida turkiy tillarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish va juft so‘zlarning semantik tizimini yanada kengroq ochib berish imkonini beradi.

JASURBEK MAHMUDOV,
Professor, .filologiya fanlari doktori, Oriental universiteti

Pahlavon Mahmud: ilk manbalarda

Annotatsiya: *Ma'lumki, ilohiy ma'rifatdan ogoh insonlar – oriflar, avliyoullohlar ma'lum bir tariqatga mansub bo'ladilar. Biroq ba'zi avliyolar bir nechta tariqatga mansub bo'ladilar, ba'zilarining esa tariqatlarini qaysi tariqatga mansubligi, boshqalar bilmaydi. Bu hol, tabiiyki, avliyo deb tan olinayotgan Pahlavon Mahmudga ham tegishli. Shu o'rinda savol tug'iladi: xo'sh, Pahlavon Mahmud qaysi tariqatga mansub bo'lgan? Bu yo'lda uning piri murshidlari kim bo'lgan? Maqolada shu xususda so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *avliyolar, malomatiylik, Ja'far Badaxshiy, Abdurahmon Jomiy, yashirin suluk va riyozat, Alisher Navoiy.*

Аннотация: *Известно, что люди, осознающие божественное просветление - арифы, святые Аллаха, принадлежат к определенному тарикату. Однако некоторые святые принадлежат к нескольким тарикатам, а некоторые не знают, к какому тарикату принадлежит их тарикат, а другие не знают. Это, конечно, касается и Пахлавана Махмуда, который признан святым. В этом месте возникает вопрос: к какому тарикату принадлежал Пахлаван Махмуд? Кто были его гуру и наставники на этом пути? В статье будет рассмотрен этот вопрос.*

Ключевые слова: *святые, поношение, Джафар Бадахши, Абдуррахман Джами, скрытая пиявка и риязат, Алишер Навои.*

Abstract: *It is known that people who are aware of divine knowledge - arifs, saints of Allah belong to a certain tariqa. However, some saints belong to several tariqas, and others do not know which tariqa they belong to. This, of course, also applies to Pahlavan Mahmud, who is recognized as a saint. At this point, the question arises: to which order did Pahlavan Mahmud belong? Who were his spiritual guides on this path? The article talks about this.*

Key words: *saints, reproach, Ja'far Badakhshi, Abdurrahman Jami, hidden leech and riyazat, Alisher Navoi.*

Kirish: Pahlavon Mahmud haqida ma'lumot berilgan birinchi manba Nuriddin Ja'far Badaxshiyning "Xulosatul-manoqib" asaridir. Mir Sayyid Ali Hamadoniy manqabasi hisoblangan bu asar 1376-yilda fors tilida yozilgan bo'lib, unda Pahlavon Mahmudni malomatiy avliyo sifatida ta'rifladi. Ushbu asar Pokistonda nashr etilgan.

Pahlavon Mahmud haqidagi keyingi forsiy manba Abdurahmon Jomiy tomonidan 1476-yilda yozilgan "Nafahot ul-uns min-hazarot ul-quds" tazkirasidir. Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns"ning Xorazmda tarjima qilingan nusxasidan malomatiylarning ta'rifi haqidagi bo'limni keltirsak: "Va ammo malomatiyya xalqlaredurkim, ixlosning ma'nisining rioyasi va sidqning qoidasining muhofazasida jahdi tamom qilurlar (Malomatiylar chin ixlosga rioya qiluvchi va to'g'rilik

qoidalarini hamisha muhofaza etishga jiddu jahd ko‘rsatuvchi toifadirlar). Toatni ixfosida (toat ibodatni yashirishda) va hayratni xalqdin yoshurun etmaklikda mubolag‘a qilurlar, balki vojib bilurlar, boinki hech daqiqani beamali solih o‘tkarmaslar. Tamomi fazoyil va navofilga tamassuk etmakni o‘zlariga lozim tuturlar. Ixlosning ma’nisining tahqiqidin batamomi avqotda bahra olurlar. A’mol va ahvollarig‘a tafarrudda (yolg‘izlikda) Haqning nazari tushmak bila lazzat toparlar. Va ham chunoniki, osiyi ma’siyatning zuhuri bila po‘rhazardur. Alar toati, ki anda riyoni gumon etilsa, ul toatning vujudidan hazar qilurlar, toinki ixlosning qoidasi xalaldor bo‘lmag‘ay va ba’zi debdurlarkim, malomatiy valiylaredurkim, xayr (yaxshilik)ni izhor qilmaslar va sharr (yomon)ni po‘shida tutmaslar va bu jamoa har necha aziz ul-vujud va sharif ul-hol ham bo‘lsalar, hanuz xilqati vujudining hijobi alarning nazarlaridin bilkulliya munkashif bo‘lg‘on ermastur va shul sababdin tavhidning jamolining mushohadasi va tafridning ‘ayniy muoyanasidin pardada qolibdurlar. Nechukkim, amallarini satr (yopish) etmaklari va hollarining maxfiy tutmoqlari xalq va o‘zlarining nafslari mavjud erkaniga mash’urdur. Xalqning va nafslarining vujudi tavhidning ma’zasig‘a mone’ bo‘lur. Vaholanki, nafs ham az jumla ag‘yorturur. (nafs ham insonga xuddi yot – begona dushman kabidir). Madomiki, o‘z hollariga nazar qilsalar, ag‘yorni (dushmanni) a’mol va ahvollarining mutoalasidan bil-kulliya ixroj etkan bo‘lmaslar (ya’ni, o‘z hollari va amallariga yaxshilab e’tibor bersalar ular butunday dushman – nafsning qutqularidan butunlay chiqib ketmaganlar). Va alar bila sufiyaning oralaridag‘i farq bukim, Qadim-u lam yazalning inoyati sufiyaning manlikidan (menlik – ya’ni men deb gapirish, o‘z nafsini o‘rtaga qo‘yish) chiqarib, va manlik birla xalqning hijobini nazarlaridan bilkulliya olibdur. Lojaram (faqatgina) toatda va hayrot (xayrot – yaxshiliklar) etmakda o‘zlari birla xalqni o‘rtada vosita bilmaslar. Xalq bizlarning toatimizg‘a muttale’ (ergashib) bo‘lmasun demakdin omonda, satri hol va ixfoi a’mol qilmoq birla muqayyad ermaslar (o‘z ahvollarini yopish va amallarini yashirish bilan ovvora emaslar). Agar har vaqte ki, toatning izhorini maslahat va saloh ko‘rsalar izhor qilurlar (qachonki toatlarini aytishni lozim topsalar ko‘rsatadilar) va agar ixfosini ravo ko‘rsalar maxfiy tutarlar. Bas, “malomatiyya” muxlislardurlar “ba kasri lom” (muxlis) va sufiya muxallasondurlar “bar fathi lom”. “Inna axlasnahum bixalisatin” (“Sod” surasidan) alarning hollarining sifatlaridur[1].

Alisher Navoiy o‘z tazkirasida Pahlavon Mahmud haqida «yoshurun suluk va riyozati ham bor ermish, andoqki fayz olamidin choshni yetgan ermish», deya uning qaysidir tariqatga mansub bo‘lganini, shu sabab ilohiy fayzlar (ilhom) kelib turganini eslab o‘tgan, lekin tariqatining “yoshurun”ligini ta’kidlagan. Oriflarning qaysidir tariqatga mansubligini aniqlash uchun, avvalo uning ajdodlari, piri murshidlari hisobga olingan. Tariqat vakilining sulukini oydinlashtiruvchi asosiy omillar bu –

[1] Таржимаи Нафаҳот ул-унс. Охунд Раҳмонқули қори таржимаси. ЎзРФАШИ, қўлёзма № 7286. ҳиж. қам. 1304 йили Муҳаммад Раҳимхон Феруз топшириғи билан тайёрланган, 566 варақ.

uning kimning muridi bo‘lganligi, qanday muhit va oilada tarbiya topganligi bilan bog‘liqdir. Professor N. Komilov yozadi: “Darhaqiqat, biror-bir so‘fiyning tariqati va tasavvufdagi maslagini aniqlash uchun uning muhiti, pirlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish kerak…Tasavvuf ahli darvesh va so‘fiyning piri kimligini bilsalar, uning qaysi raviya yoki sulukka tobe’ligini aniqlay olganlar”.

Hozirgacha adabiyotshunoslikda Pahlavon Mahmud javonmardlik tariqati vakillaridan deb, dalil tariqasida ba’zi ruboiylaridagi “mard, javonmard” kabi so‘zlar misol qilib ko‘rsatilardi. Ayniqsa, bu holat eronlik olimlar mulohazasida keng e’tirof etiladi. Jumladan, Said Nafisiy yozadi: “Eronda javonmardlar va futuvvat ahlidan qolgan yana bir odatlardan biri hozirda “kurashxona o‘yinchilari” deb nom olgan sportchi va polvonlar orasida saqlanib qolgan. Ular o‘zlarining boshliqlarini “javonmard qassob” deb ataydilar. Uzoq muddat davomida, ya’ni hijriy 737 (1337) dan 783 (1381) yillargacha Xurosonda hukmronlik qilgan sarbadorlar ham mana shu guruhga mansub bo‘lishganini, ularning laqablaridagi “pahlavon” kalimasidan ham bilsa bo‘ladi. Qitoliy taxallusi, Purboyvaliy laqabi bilan mashhur mutasavvif shoir Pahlavon Mahmud Xorazmiy hijriy sakkizinchi asrning futuvvat ahli peshvolaridan biri edi»

Adabiyotshunos olimlarimiz T. Jalolov va Yo. Is’hoqov ham bu masalada eronlik olimlar fikrlariga hamohang tarzda, Pahlavon Mahmudni javonmardlik tariqati vakili sifatida e’tirof etishgan. Aftidan, bunga yana bir narsa sabab bo‘lganga o‘xshaydi: ma’lumki, Pahlavon Mahmud mo‘g‘ul bosqini asoratlari hali tugab ulgurmagan davrda yashagan. O‘sha paytda xalq orasida muhtojlik, mo‘g‘ullarga qarshi isyonlar bo‘lib turgan va shu qiyinchiliklarni yengishga yordamchi kuch bu – javonmardlik tariqati bo‘lgan. Turli kosib-hunarmandlar tabaqasidan tashkil topgan guruhlar o‘zlarini javonmard atab, xalqqa yordam ko‘rsatish uchun birlashgan. Aytishlaricha, sarbadorlar ham shunday kayfiyatdagi insonlar bo‘lgan. Lekin bular aksari zohiriy holatlardir. Aslida esa har bir orifning avliyolik maqomiga erishishida, avvalo, botiniy kuch-quvvat hamda shu quvvat manbayi – piri murshid lozim bo‘lgan. Ana shu kabi botiniy kamolotga erishmagan orif avliyo deb atalishi, to‘g‘rirog‘i, avliyo bo‘lishi mushkul bir holdir.

Husayn Voiz Koshifiy yana yozadi: “Bilgilkim, futuvvat so‘zining lug‘aviy ma’nosi yoshlik, demak, yosh yigitni “fatiy” derlar. Ba’zilar bu so‘zga izoh berib, futuvvatni javonmardlik (jo‘mardlik) deganlar. Istiloh (termin) sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunali axloq bilan mashhur bo‘lishni aytadilar, shu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan o‘z kasbdoshlari, toifa-tabaqasi orasida mumtoz bo‘ladi. Xos ta’rif yuzasidan esa futuvvat insoniy fitrat nuri zuhurining nafsoniy belgilar zulmatiga qarshi qo‘yilishi, (shu zulmatni) yorib o‘tishidan iboratdir…”

Sayyid Ja’far Sajjodiyning “Farhangi istilohoti va ta’biroti irfoniy” asarida futuvvat yoxud javonmardlik istilohi quyidagicha izohlanadi: “Futuvvat”–

javonmardlikdir. Oriflar istilohida fidokorlik, nisor qilish, bag‘ishlashdir. Uning birinchi darajasi mansabga fidokorlikdir. Yuqori darajasi esa nafsga fidokorlikdir. Sullamiy aytadiki, o‘zingni kichik sanasang, qolganlarni katta bilsang va hurmat qilsang, birodarlaring aytgan tanbehlarni ko‘tara olsang, xalq bilanyaxshi muomalada bo‘lsang sen ozor ko‘rgan odamlarga ochiq yuz bilan muomala qilib ularni kechirsang o‘zingni xulq va ayblaringni ko‘ra olsang, haqiqiy javonmardsan.

Jomiy yozadi:

Buti xudro bishkan xor-u zalil,

Nomvar shav ba futuvvat chu Xalil...

(O‘z butingni, ya’ni nafsingni xor-u zalil qilib sindirib tashla va futuvvatda xuddi Ibrohim Xalilulloh kabi shuhrat qozon...)

Demak, javonmardlik insonning axloqiy fazilatlar kamolotiga, yaxshi xislatlarga ega bo‘lishidir. Futuvvat haqidagi maqolalarda o‘qiymiz: “Eronning taniqli tasavvufshunoslari *(S. Nafisiy, A. Zarrinkub)* so‘fiylik maslagini xoslar uchun, javonmardlikni esa avom xalq uchun deb biladilar va ularning ikkalasi birgalikda rivojlanganini e’tirof etadilar”.

Muhammadkozim Yusufpur shunday yozadi: “Tasavvufning ko‘p sonli tarmoqlari ichida jamiyatning oddiy odamlari orasida yoyilgan va rivojlangan oqimlaridan biri futuvvatdir. Tasavvuf xoslar (ma’rifatli tabaqa) orasida tarqalgandan so‘ng, futuvvat odobi bilan ko‘cha va bozorlarga kirib bordi. Shu ma’noda, futuvvat bu avomona tasavvuf bo‘lib, uning rasm-rusumlari oddiy va amaliy, ya’ni kosib-hunarmandlar, dehqonlarga tushunarli bo‘lgan”.

Pahlavon Mahmudning kosib-hunarmand oilasidan chiqqan va o‘zi ham po‘stindo‘zlik, telpakdo‘zlik bilan shug‘ullangan. Manoqibda uning saxovatpeshaligi, xalqqa osh-u non tarqatganligi aytilib, davomida «ammo o‘zlari shul ob-u taomdin yemas erdilar va ichmas erdilar, bir kasb qilib, non olur erdilar. Yarmin sadaqa qilib, yarmin tanovul qilur erdilar», deyiladi.

Ma’lumki, tariqat pirlari qaysidir kasb bilan mashg‘ul bo‘lib, tirikchilik qilishgan. Xalq kitoblaridan biri «Risolayi bofandalik»da shunday keltiriladi: «Hadisi sharifda vorid bo‘lubdurki, qola Nabiy-yu alayhissalom «Al-kasibu habibulloh». Agar so‘rsalarki: «Kulohboflig‘ kimdin qoldi?», javob ayg‘ilki: «Doniyol payg‘ambardin qoldi». Savol: «Shonaboflig‘ kimdin qoldi?», Javob: «Asadulloh g‘olibdin qoldi». Savol: «NAQSH boflig‘ kimdin qoldi?», «Xoja Bahouddindin qoldi»… Savol: «G‘ulochaboflig‘ kimdin qoldi?», Javob: «Najmiddin Kubrodin qoldi…». Demak, bu risolada Hazrat Ali, Najmiddin Kubro singari javonmardlik peshvolarining tikuvchilik bilan shug‘ullangani qayd etilgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ularning ma’naviy shogirdi Pahlavon Mahmudning ham mazkur kasblardan biri bo‘lgan po‘stindo‘zlik, telpakdo‘zlik bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Nosiriddin Rabg‘uziyning «Qisasi Rabg‘uziy» asarida shunday keltiriladi: «Xabarda kelmish: Rasul alayhissalom yorliqadi: *Ni’ma al-amal-u al-gaz-lu linisa’i*

ummati va ni’ma al-amal-u al-xiyatat-u lirijali ummati lav la al-kizb-u fihim. (Qanday yaxshi hunar to‘quvchilik xotin-qiz ummatlarimga va qanday yaxshi hunar tikuvchilik er ummatlarimga, agar ularda yolg‘onchilik bo‘lmasa edi)». Hayotini payg‘ambarimiz hadislari asosiga qurgan Pahlavon Mahmudning tikuvchilik bilan shug‘ullangani, ajab emas. Shuningdek, Navoiy, Muhammad Boqir tazkiralarida «Pakayor qassobning o‘g‘lidur» deb keltirilishi hamda rivoyatlarda «po‘stindo‘zlik kasbini ishga solib…» singari jumlalarning uchrashi Pahlavon Mahmudning po‘stindo‘z, telpakdo‘zlik bilan shug‘ullanganini bildiradi. Xullas, Pahlavon Mahmud kurashchilikdan tashqari, po‘stindo‘zlik va telpakdo‘zlik bilan ham mashg‘ul bo‘lgan.

Ma’lumki, tariqatda ustozu shogirdlik masalasi muhim hisoblanadi. Zero, hech bir avliyo muayyan tariqatsiz, piri murshidsiz ulug‘ darajaga erisha olmaydi. Ayniqsa, murid murshidi komildan yaxshi tarbiya olmas ekan, uning kamolotga erishishi qiyin. Tariqatga aloqador bo‘lgan mazkur muhim masalaga ham to‘xtalish asnosida Pahlavon Mahmudning ustozlari haqida ham so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi. Hazrat Pahlavonning ustozi kim bo‘lganligi, u qaysi tariqat vakili ekanligiga aniqlik kiritish maqsadida yana manbalarga murojaat qilamiz.

Abdurahmon Jomiy tazkirasidagi Pahlavon Mahmud zikri asosida Zarrinkub uni Shayx Muhammad Xilvatiyning shogirdi, deb fikr bildirgan. Bundan Pahlavon Mahmud Xilvatiylar tariqatiga mansub bo‘lgan, degan xulosa ham chiqadi. Lekin shayx bilan bo‘lgan suhbatning o‘zi shaxsning tariqatini belgilab bera olmaydi. Sulaymon Uludag‘ning “Najmiddin Kubro” risolasida ba’zi olimlarning fikriga tayanib tadqiqotchi Muhammad Xilvatiyn Najmiddin Kubro shogirdlaridan biri deb xulosa chiqargan. Biz ham shu fikrga qo‘shilamiz, zero, buni Jomiy tazkirasidagi holat ham isbotlaydi. Ya’ni, kubraviya tariqatida asosan jahriya zikr bo‘lgan va Xorazmda Pahlavon Mahmud bilan jahriy zikr aytishi Muhammad Xilvatiyning ham kubraviya tariqati namoyondalaridan bo‘lganini isbotlaydi. Demak, hampiralar o‘tirib jahriy zikr aytishgan va ularning ovozi to‘rt farsax joyga yetib borgan.

Zarrinkub monografiyasida Nuriddin Ja’far Badaxshiyning Sayyid Ali Hamadoniy ahvoli va karomatlariga doir ma’lumotlarga asoslanib yozgan «Xulosat ul-manoqib» asariga murojaat qiladi: “U hatto gohida xarobotga ham borib turar, u yerda xarobotiylar bilan toibona (tavba) so‘zlarini aytar va yig‘lar, uning so‘zlari ta’siridan xarobot ahli ham birga yig‘lashar va shu kuni xarobotiylar barcha katta-yu kichik gunohlaridan forig‘ bo‘lishib, fasodni tark qilishardi. Shularga asoslanib Pahlavon Mahmudni xarobotga kelib turgan malomat ahlidan ekanini yozadi. Bu ma’lumot Muhammadkozim Yusufpur mulohazalarida ham takrorlanadi. Faqat u Badaxshiyning asarini «Xulosat ul-maqomot», deb noto‘g‘ri beradi.

Bu bo‘limga xulosani tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul fikrlari bilan bersa bo‘ladi: «Islom olamida o‘nga yaqin tariqat va tariqat tarmoqlari malomatiylikdan quvvat olib yoki uning ta’sirida bunyod etilgandir. Najmiddin Kubro asos solgan kubraviylik ana shulardan biri edi». Demak, Pahlavon Mahmudning malomatiylikka

mansub bo‘lishi uning kubraviylik bilan aloqasiga bog‘liq ekanini o‘zbek tasavvufshunos olimi bir jumla bilan izohlagan-ketgan.

Ollohyor Mahzunning «Riyoz uz-zokirin» tazkirasida keltirilganidek, Pahlavon Mahmud hazratlarining otalari ham avliyolik fazilatiga ega, ulug‘ shayx Najmiddin Kubrodan murshidlik ruxsatini olgan pir bo‘lgan. Shuning uchun taniqli shoir Erkin Samandar o‘z qasidasida: «Yana shu narsa ham haqiqatki, Yaratganga e’tiqodlari behad, padari buzrukvorlari buyuk shayx Najmiddin Kubroga qo‘l bergan valiy, o‘zlari Haq karamidan bahramand, dinu diyonatga umrini bag‘ishlagan tengsiz karomat egasi, ilohiy donish sohibi edilarki, tiriklikda pir atalganlari, mulla va ulamoki bor, ul hazratga tan berib, ta’zim bajo aylaganlari ana shundan dalolatdir…» deb ta’kidlab o‘tgan.

Tazkira davomida keltirilganidek, «Bor sen Xivaqg‘a, ahli Xivaqni zalolat bodiyasidan hidoyat nohiyasiga dalolat qilgil. Sening ahliyyang, ya’ni xotuningning qornida bir janiyn bordur, ul xud bizning nafas o‘g‘limizdur, Xorazm diyorining xullayi aqdi oning zimmayi iqtidoridadur. Ul pisar (o‘g‘il) bizning nafas o‘g‘limizdur. Oning oti Mahmuddir» jumlalaridan esa Pahlavon Mahmudning botiniy jihatdan piri Najmiddin Kubro hazratlari bo‘lganini bilib olish mumkin. Bundan Pahlavon Mahmud kubraviya tariqatining vakili bo‘lganligi ayon bo‘ladi.

Pahlavon Mahmudning kubraviya tariqati vakili ekanini tasdiqlaydigan yana bir dalilni keltirib o‘tsak. Ma’lumki, Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat»da avliyolarni o‘ziga xos tartibda, ya’ni har bir tariqat vakillarini ketma-ket, masalan, nAQSH bandiya shayxlarini bir bo‘lak, kubraviya shayxlarini bir bo‘lak, turkiy avliyolarni yana bir bo‘lak tarzida turkumlarga ajratib zikr etgan. Shuni hisobga olib, biz Pahlavon Mahmudning qaysi suluk avliyolari qatorida kelganligiga e’tibor qaratdik. Manbashunos olim Hamidxon Islomiy o‘zi foydalanayotgan tazkirada Pahlavon Mahmud to‘g‘risida 478-tartibda xabar berilganini yozgan. Mazkur tazkiraning Turkiyada tayyorlangan tanqidiy matnida esa Pahlavon Mahmud 479-tartibda keltirilgan. Demak, ushbu asarda ul zot zikri 475 va 485 tartib raqamlari orasida berilgan. Endi mazkur avliyolarga diqqat qaratsak: «№ 475: Shayx Sayfiddini Boxarziy, qaddasollohu sirrahu, Shayx Najmiddini Kubroning xalifasidindur. Zohiriy ulum tahsili va takmilidin so‘ngra Hazrati Shayx mulozamatiga musharraf bo‘ldi va tarbiyat topdi…»; «№ 476:

Ayn-uz-zamon Jamoliddin G‘iliy, quddisa sirruhu. Ul dag‘i Hazrat Najmiddini Kubroning xulafosidindur. Bag‘oyat donishmand va fozil ermish. Avoyilda hazrati Shayx suhbati azimati qildi, kitobxonaga kirdi va ulumi aqliy va naqliy latoyifidin majmuayi intixob qildiki, safarda munisi bo‘lgay va Xorazm azimati qildi…» 478-tartib raqamida Xoja Abulvafo Xorazmiy (q.s.) keltirilgan bo‘lib, ma’lumotlarga ko‘ra, u ham kubraviya tariqatiga mansub shayxlardan hisoblanadi. Undan so‘ng esa 479-tartibda «Pahlavon Mahmud Pakayor quddisa sirruhu» zikri keltiriladi. Undan keyingi avliyo, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Shayx Najmiddin Roziy bo‘lib, uning

zikri quyidagicha boshlanadi: «№ 480: Shayx Najmiddin Roziy al-ma’ruf Bi-Doya, quddisa sirruhu. Ul dog‘i Shayx Najmiddin Kubroning ashobidindurki, oning tarbiyatin Shayx Najmiddin Bag‘dodiyga havola qilg‘on ekandur…».

Demak, ma’lum bo‘lmoqdaki, «Nasoyim ul-muhabbat»da Pahlavon Mahmud zikri Shayx Najmiddin Kubro (q.s.) muridlari qatorida kelgan. Shuni hisobga olib, yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda Pahlavon Mahmudning kubraviya sulukida bo‘lganini e’tirof etish mumkin.

Endi Pahlavon Mahmudning javonmardlikka bog‘liqlik jihatlariga to‘xtalsak. Buning uchun, dastavval, uning piri murshidi Najmiddin Kubro hazratlari haqidagi mulohazalarga e’tibor qaratsak. «Najmiddin Kubroning tasavvuf tarixidagi yana bir xizmatlari – javonmardlik g‘oyalarini tariqatga joriy etishi bo‘ldi», – deydi professor N. Komilov o‘zining yuqorida eslangan risolasida. Yana bu haqda o‘qiymiz: «Najmiddin Kubro tasavvuf ta’limotiga bir qator yangiliklar kiritdi. Birinchidan, tasavvufshunos olim, prof. N. Komilov ta’kidlashicha, islomiya mazhabida mashhur bo‘lgan «Ofoq va anfus» nazariyasini tasavvufga tatbiq etdi. Ikkinchidan, futuvvatni tasavvufga qo‘shdi. Uchinchidan, aqliy bilish bilan intuitiv (hissiy) bilishning birligini, bog‘liqligini ko‘rsatdi».

Shayx Najmiddin Kubro silsilalari haqida to‘xtalar ekan, prof. N.Komilov quyidagilarni yozadi: «Biz yuqorida Najmiddin Kubroning tariqat yo‘lidagi pirlari Shayx Ro‘zbehon Misriy, Shayx Ammor Yosir va Shayx Ismoil Qasriy ekanini aytdik… Najmiddin Kubroning pirlari unchalik mashhur kishilar emas, ularning biror-bir toifa yoki silsilaga mansubligi ham ko‘zga tashlanmaydi. Lekin shunga qaramay, bu uch shayxning tariqatida umumiylik bor. Birinchidan shuki, ularning uchalasi ham Shayx Abulnajib Suhravardiyning muridlaridir. Shayx Ziyovuddin Abulnajib Abdulqahhor as-Suhravardiy, Jomiyning yozishicha, zohiriy va botiniy ilmlarda barkamol kishi bo‘lgan. Ko‘p risola va kitoblar yozib, so‘fiylik nisbati Shayx Ahmad G‘azzoliyga borib tutashadi. Suhravardiy faqirlik bilan futuvvatni (ya’ni, javonmardlikni) birga olib tushuntiradi… Shayx Ismoil Najmiddin Kubroni irodat xirqasi bilan siylaganini aytgan edik. Bu voqeaning o‘zi Najmiddin tariqat odobi va nisbatda Shayx Ismoil silsilasiga mansublikni qabul qilganini anglatadi. Shayx Ismoilning «xirqa nisbati» esa, quyidagi zanjirdan iboratdir: Shayx Ismoil xirqani Muhammad bin Molikuliydan (Xolikuliydan) olgan, u – Dovud Xodim ul-fuqarodan, u – Abulabbos Idrisdan, u – Abulqosim bin Ramazondan, u – Abuya’qub Tabariydan, u – Abuabdulloh bin Usmondan, u – Abuya’qub Nahjuriydan, u – Abuya’qub Susiydan, u – Abdulvohid bin Zohiddan, u – Komil bin Ziyodan, u – Ali bin Abu Tolibdan, u – Muhammad Mustafo (s.a.v.) dan xirqa olganlar».

Demak, Najmiddin Kubro hazratlarining tariqati bevosita Hazrat Ali (k.v.) orqali Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga borib tutashgan. Bu holat ham kubraviya tariqatining asosida fatiylik, javonmardlik odob-axloqi yotishidan va Pahlavon Mahmudning

botinan kubraviya tariqati vakili sifatida bevosita javonmardlik odobiga aloqador so‘fiy bo‘lganligini tasdiqlovchi dalildir.

Xullas, Pahlavon Mahmudning javonmardlik bilan aloqasini uning pahlavonligi, kurashchilar peshvosi bo‘lganligi bilan emas, balki tariqati – kubraviya bilan izohlash kerak. Yana shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Pahlavon Mahmud Shayx Kubrodan botiniy irshod olgan. Shu sababdan u ham uvaysiy, modarzod avliyo sifatlariga ega bo‘lgan. Ushbu holat hazrat Bahouddinga ham tegishli bo‘lgan. Ya’ni: «Tariqat odobini Bahouddin Mir Kuloldan olgan. Lekin haqiqat yuzasidan uvaysiy bo‘lib, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy ruhlari hazrat Bahouddinni tarbiyat qilgan».

Tabiiyki, tasavvufda muridning zohiriy murshidlari bo‘lishi ham talab qilinadi. Shuni ko‘zda tutgan holda biz yana «Riyoz uz-zokirin»ga murojaat qilamiz. Unda quyidagi jumlalar keltirilgan: «Naqldurkim, ayturlar, ul hazrat zohirda Hazrat Shayx A’louddinga xizmat qilib, alardin kasb-u kamol qilg‘on ermishlar. Ziyoda ulug‘ martabalik avliyolarning jumlasidin ermishlar…»

Tarixchi olim K. Xudoyberganov yozadi: «Xiva «Ichan-qal’a» muzey-qo‘riqxonasining fondida saqlanayotgan Saparzoda Bobojon o‘g‘lining Xorazm avliyolari haqidagi qo‘lyozmasida shunday deyiladi: «Bu kishi (Shayx Sayyid A’louddin) XIII asrda tug‘ilgan Xorazm o‘zbeklaridandur. U yigitlik vaqtida maktab-madrasalarni tamom qilib maktabdorlik etib, masjidlarning maktabxonasida bolalarni o‘qitaturgan mulla bo‘lgan. Polvoni Mahmudni ham bu kishi bola vaqtida maktabda o‘qitgan ustozi ekan. Bu jihatdan xalqlar ul kishini ham valiyulloh deb e’tiqod etib, qabrini ziyorat qilganlar. «Har turli odamlar, har kim mani ziyorat qilmoqchi bo‘lsa, avval ustozim Sayyid A’louddinni ziyorat etib, so‘ngra menga kelsun» deb, hazrat Polvon pir aytgan emish”. Demak, Pahlavon Mahmud maqbarasi ziyoratining qoidasi bo‘yicha, avval Sayyid A’louddin maqbarasi ziyorat qilinishi, keyin Pahlavon Mahmud maqbarasi ziyoratiga o‘tish talab etilgan. Bu esa Pahlavon Mahmudning o‘z ustoziga nisbatan bo‘lgan yuksak ehtiromidir. Shuningdek, bu vasiyatda Pahlavon Mahmud maqbarasining ziyorat odobi ham yotadi. Ya’ni, ziyoratchilar Pahlavon Mahmud ziyoratiga o‘tishdan oldin, albatta, uning ustozi Sayyid A’louddin qabrini ziyorat qilishlari lozimdir.

Shu o‘rinda Sayyid A’louddin kim degan, degan savol tug‘iladi. Tarixchi olimlar Komiljon Xudoyberganov, Rustam Iskandarov va Abdulla Abdurasulov o‘zlarining “Sayyid A’louddin maqbarasi” (XIV asr) maqolasida shunday yozishgan: “Qabr koshinlariga arab tilining suls xati uslubida shunday deb yozilgan: “Bizning buyuk shayximiz A’louddin vafoti bilan Allohning marhamatiga yetdi. Ketgan kuni baxtli sha’bon oyidan o‘n kun o‘tgach sodir bo‘ldi. Ushbu she’rdan ma’lum bo‘ladiki, bu shayx milodiy 1303-yil 18-mart kuni vafot etgan. Imom Yofi’iy va Ahmad Roziy xorazmlik mashhur shayxlar ro‘yxatiga Sayyid A’louddinni ham kiritib, uni Shayx Najmiddin Kubrodan keyingi yirik shayx bo‘lgan, deydilar”.

Sharqshunos olim Hamidxon Islomiyning “Alisher Navoiy va Xorazm avliyolari” asaridagi Shayx Alouddin Xorazmiy bo‘limida o‘qiymiz: “Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”ning 608-tartibida yozadi: Shayx Alouddin Xorazmiy, qaddasollohu sirrahu. Bu toifada buzurg ermish. Imom Yofi’iy rahmatulloh debdurki, “o‘n ikki kun bir vuzu’ bila namoz qilur va o‘n besh yil yonin yerga qo‘ymadi. Va necha kun o‘tar erdiki, taom yemas erdi, magar ozroq va xashin. Mening bila Minoda erdi. Ham Imom Yofi’iy debdurki, Shayx Alouddin dediki, Rum daryosining sohillaridin ba’zida go‘sha tutib erdim”...

Agar Shayx A’louddin haqidagi ma’lumotlarga diqqat qilinsa, uning hayoti sirli ekaniga guvoh bo‘lamiz; uning bir g‘oyibdagi eranlar bilan muloqoti ham o‘zgacha. Ya’ni, Shayx bir necha bor rijol ul-g‘aytlarga duch kelgan; ularning qo‘lidan nasiba ham yegan; ularning tilidan “bizing salomimizni o‘z yoring Abdulloh Yofi’iyg‘a yetkur!” omonatini ham olgan. Zikr oxiridagi “Shavvolning yettinchi kechasi keldi va mening bila mu’oxot ahdi bog‘ladi”, jumlasi esa Shayxning bu yashirin zot bilan, aniqrog‘i g‘aybdan kelgan mard bilan do‘slik ahdini bog‘laganini anglatadi. Mu’’oxot lug‘atda – biror kishi bilan do‘stlik va birodarlik rishtasini bog‘lash demakdir. Demak, Shayx A’louddin favqulodda g‘ayrioddiy bo‘lgan holatlarni boshidan kechirgan.

Zikr davomida har ikki shayx bir-birlarining ahvollaridan xabar berishgani esa ularning qalin o‘rtoq va suhbatdosh ekanidan dalolatdir. Shu o‘rinda Imom Yofi’iy bilan zamondosh va suhbatdosh bo‘lgan Shayx Alouddin Xorazmiy va Sayyid Alovuddin bir shaxsmi, degan savol tug‘iladi. Buni bilish uchun Imom Yofi’iy yashagan davrni aniqlash lozim bo‘ladi. Taassufki, tazkirada Navoiy har ikkala zotning ham vafoti sanasini ko‘rsatmagan. Natijada Vikepediya saytidan Abdulla Yofe’iy izladik va quyidagilarni topdik: “Abdulla As’ad Yofi’iy– 698- qamariy, 1298-milodiyda Adanda tug‘ilgan, 20-jumodius soniy 768-qamariy, 20- fevral 1367 milodiyda Makkada vafot etgan.

Tarixchi olimlarimiz Komiljon Xudoyberganov, Rustam Iskandarov va Abdulla Abdurasulovlarning Sayyid Alouddin haqida “bu shayx milodiy 1303-yil 18-mart kuni vafot etgan” degan ma’lumotlarini hamda Komiljon akaning ul zot haqida “Makkada ko‘p bo‘lgan” degan qaydini hisobga olsak, Shayx Alouddin Xorazmiy va Pahlavon Mahmudni maktabda o‘qitgan ustozi Sayyid Alouddin bir shaxs bo‘lib chiqadi. Chunki zikr davomida Shayx A’louddin Makkada ziyoratda bir necha bor bo‘lgani, hatto “buyurganlari uchun ixtiyorsiz Hajga kelgan”ini eslab o‘tadi. Demak, Imom Yofi’iy bilan hamsuhbat bo‘lgan, o‘z hujrasida g‘aybdan kelgan eronlar bilan muloqot qilgan Shayx Alouddin Xorazmiy bu Pahlavon Mahmudning ustozi Sayyid Alouddindir.

Har bir avliyoda bo‘lgani kabi, ul zotda ham shogird yetishtirish, valiy tayyorlash holati bo‘lgan. Bu ham mazkur tazkirada va manoqibda bir rivoyat asnosida keltiriladi. Ya’ni, Hindistonga otlangan Xorazmshoh va uning a’yonlari hamda

Pahlavon Mahmud bir to‘qayda ajralib, har qaysisi turli joydan borishga kelishishadi. Noma’lum bir qishloqdan chiqib qolgan va lo‘li xotinga mehmon bo‘lgan Pahlavon Mahmud voqeasida manoqibda shunday keladi: «Ul hazrat ko‘ngullarida niyat qildilar: bul xotunni rohi hidoyatga dalolat qiloyin, otimni zohir qiloyin, shoyad tavba va istig‘forga kelib, mujibi jannat bo‘lg‘ay», – deb bu ruboiyni mehribon bo‘ldilar. Ruboiy bu turur:

Otash dar zimiston zi guli savriy beh,
Yak parchayi namad zi atlasi Rumiy beh.
Beshnav suxani Mahmudi Puryorvaliy –
Az odami bexayr zani lo‘li beh.

Ul xotin bul kalomi mo‘jiznishonni eshitgach, masti mustag‘raqi daryoyi nuri vahdat bo‘ldi. Hama po‘sti – ustixonidin vasvosi shayotin daf’ bo‘ldi. Andoq valiyulloh bo‘ldikim, osmonga qarab arsh toqin, yerga boqib po‘shti mohini ko‘rdi. Gunohi kabira va sag‘iralaridin tavba qilib, o‘tgan ishlariga afsus va nadomatlar qilib giryon-giryon bo‘lub, yetti yuz tilla ul hazratga hadya qilib, murid bo‘ldi…»[102.]

Shu o‘rinda olmon tasavvufshunos olimasi Annemarie Shimmel xonim keltirgan quyidagi misollarga e’tibor qilsak: «milodiy 1234-yilda vafot etgan hazrat Abu Hafiz Umar as-Suhravardiy ta’siri ostida musulmon bo‘lgan bir qo‘shiqchi qiz to‘g‘risida shunday rivoyat qilishadi… Hazrat Rumiyning tarjimai hollaridan ma’lumki, «yengiltak qizlar» u zotning ta’siri ostida islom dinini qabul etib, so‘fiyona hayot kechira boshlashgan…»[103]. Demak, bu misoldan shu narsa ayon bo‘ladiki, tasavvuf tarixida ayollarga ta’sir o‘tkazish orqali so‘fiylik darajasiga yetkazish holatlari uchragan. Pahlavon Mahmudning hindistonlik lo‘li ayoliga ta’siri, uni yomon yo‘ldan qaytarib, valiylik maqomiga yetkazish holati esa Pahlavonning ham avliyolikda o‘z maqomiga ega bo‘lganidan dalolatdir. Qolaversa, bu sifat uning ma’naviy ustozi bo‘lgan Najmiddin Kubrodan o‘tgan fazilat deyish mumkin. Zero, shayxi valiytarosh ta’sirida nafaqat insonlar, balki ko‘cha itining, osmonda uchib yurgan sa’vaning holi o‘zgargani rivoyatlardan ma’lum. Demak, bu misol ham Pahlavon Mahmudning Najmiddin Kubroning ma’naviy farzandi ekaniga dalolat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Pahlavon Mahmud hazratlarida avliyolarga xos barcha xususiyatlar bo‘lgan ekan va biz bemalol ul zotni haqiqiy avliyo deb atashimiz mumkin. Uning ulug‘ darajasini e’tirof etgan valiylardan Hazrat Shayx Ahrori Valiy (r.a.): «Pahlavon Mahmud haqiqat tavhidni topg‘on kishi erkan», – deb bejiz aytmaganlar. Bu mulohazalardan shu paytgacha yashirin bo‘lib kelgan jumboq, ya’ni Navoiy ta’biri bilan aytganda «yoshurun suluk va riyozati” bo‘lgan Pahlavon Mahmud hazratlarining qaysi tariqatga mansubligi aniq bo‘ldi. Ya’ni, Pahlavon

[103] Шиммел А. Жонон менинг жонимда (Олмон тилидан Й.Парда тарж.). – Т.: “Шарқ”, 1999. – Б.51–52.

Mahmud o‘zida ham kubraviylik, ham javonmardlik, ham xilvatiylik, ham malomatiylik tariqatlarini mujassamlashtirgan keng fe’lli sufiy, shoir va polvon bo‘lgan. Xulosa sifatida tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: «Islom olamida o‘nga yaqin tariqat va tariqat tarmoqlari malomatiylikdan quvvat olib yoki uning ta’sirida bunyod etilgandir. Najmiddin Kubro asos solgan kubraviylik ana shulardan biri edi».

Demak, Pahlavon Mahmud ham dastlab malomatiylikka mansub avliyo, keyinchalik esa Kubro nafasidan ta’lim olgan uvaysiy avliyo sifatida faoliyat yuritgan.

GULNARA SALIJANOVA
Tarix fanlari nomzodi, mustaqil tadqiqotchi
ORCID: 0009 0008 7945 4529

Qadimgi va ilk O‘rta asrlarda Turon-Turkiston hududida savodxonlik hamda ta’lim tarixiga doir.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimgi va ilk o‘rta asrlarda Turon-Turkiston hududida savodxonlik hamda ta’lim masalalari haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan. Qadimgi Mesopotamiya madaniyatining merosxo‘ri Bobilni istilo qilgan Ahamoniylar (er. av. 550–330-yy.) hukmronligi davrida Xorazm, Parfiya, Sug‘d va Baqtriya davlatlari uning tarkibiga kiritilgan. Ahamoniylar imperiyasi tarkibidagi barcha hududlarda savodxonlik va ta’lim sohasi deyarli bir xil darajada taraqqiy etgan.*

Qadimgi Xorazm, Parfiya, Baqtriya va Sug‘d yozuvlari, shuningdek, VIII asrdan boshlab 1200 yildan ortiq vaqt mobaynida amalda bo‘lgan arab yozuvi ham Bobildagi papirus va teriga yozilgan aramey yozuvi asosida paydo bo‘lgan.

Qadimda Turon o‘lkasida xat-savodga «dabiriston»lar deb atalgan mirzalar maktablarida o‘qitilgan. Dastlabki paytlarda dabiristonlarda xat-savod va ish yuritish qoidalariga faqat zodagon aholi farzandlarigina o‘qitilgan bo‘lsa, IV asrdan boshlab jamiyatda savodxonlik ancha keng tarqalgan. Mirzalar maktablarida o‘g‘il bolalar o‘qitilib, qiz bolalar orasida xat-savodga o‘qitilganlari savodini o‘z savodxon otalaridan saboq olib chiqarganlar.

Qadimiy maktablarda ta’lim dunyoviy bo‘lib, diniy ta’lim va sport maktab o‘quv dasturiga kirmagan. Sinf dars tizimi bo‘lmagan, har xil savod darajasidagi bolalar birga o‘qitilavergan. Bolalarni o‘qish va yozuvga o‘qitishda loy va yog‘ochdan yasalgan mumlangan taxtachalardan foydalanilgan. Maktab bitiruvchilari tarjimon-kotib, podsho yoki davlat kotiblari, ibodatxonalar xattoti, xususiy shaxslarga xizmat ko‘rsatuvchi mirza, ish yurituvchi, hisobchi, shuningdek, maktabdor bo‘lib xizmat qilganlar. Shu sababdan «dabir» deganda umuman o‘qimishli kishi tushunilgan.

Qadimda va ilk o‘rta asrlarda ta’lim o‘rta, o‘rta-maxsus yoki oliy o‘quv yurtlari toifalariga ajratilmay, barcha ta’lim tizimi funktsiyalarini «dabiriston»lar bajargan. Ilmiy salohiyatli bitiruvchilar o‘z malakalarini mustaqil ta’lim olib oshirganlar.

Ko‘pchilik dabiristonlarda maktab kutubxonalari ham bo‘lib, o‘quvchilar o‘quv qo‘llanmalarini shu joydan olib foydalanishi mumkin bo‘lgan.

Qadimgi Xorazm, Parfiya, Baqtriya va Sug‘d yozuvlari, shuningdek, VIII asrdan boshlab Xitoyda yozish uchun qog‘oz materialining ixtiro qilinishi va uning qadimgi Xorazm, Parfiya, Sug‘d hamda Baqtriyaga kirib kelishi, keyinchalik shu yerda ishlab chiqarilishi savodxonlik va ta’limning rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Turon xalqi Arab xalifaligi tarkibiga qo‘shib olingan paytda o‘z mahalliy yozuvi va ta’lim an’analariga ega bo‘lgan. U «Arab madaniy dunyosi»ning tarkibida bo‘lgan 1200 yildan ortiq davr mobaynida qadimgi va ilk o‘rta asrlardagi savodxonlik va ta’lim an’analari takomillashib, Sharq Renessansi davriga kelganda dunyoga ayrim fanlarning asoschilari bo‘lgan o‘zbek xalqining ulug‘ allomalarini yetkazib bergan.

Kalit so‘zlar: *Bobil madaniyati, ahamoniylar sulolasi, aramey yozuvi, dabiriston, dunyoviy ta’lim, mumlangan taxtacha, kutubxona, qog‘oz, savodxon.*

Аннотация: *В данной статье приведены научные сведения о грамотности и образовании на территории Турана в древности и раннем Средневековье. В период правления Ахеменидов (550-330 гг. до н.э.), завоевавших Вавилон, в состав их державы вошли государства Хорезм, Парфия, Согд и Бактрия. Во всех регионах империи Ахеменидов уровень грамотности и системы образования развивался примерно одинаково.*

Древние письменности Хорезма, Парфии, Бактрии и Согда, а также арабское письмо, использовавшееся более 1200 лет с VIII века, возникли на основе арамейского письма, которое в Вавилоне записывалось на папирусе и коже.

В древности в регионе Турана обучение грамоте проводилось в школах писцов, называемых «дабиристон». На первых этапах в дабиристонах обучались только дети знати, осваивая основы письма и правила делопроизводства. Однако с IV века грамотность стала распространяться шире в обществе. В школах писцов обучались мальчики, а девочки, которым позволялась учиться грамоте, получали знания у своих образованных отцов.

В древних школах обучение носило светский характер, религиозное образование и спорт не входили в школьную учебную программу. Классно-урочная система отсутствовала, и дети с разным уровнем грамотности обучались вместе. Для обучения чтению и письму использовались восковые дощечки, изготовленные из глины или дерева.

Выпускники таких школ становились переводчиками-письцами, царскими или государственными секретарями, храмовыми писцами, преподавателями, а также делопроизводителями, бухгалтерами и писцами у частных лиц. Именно поэтому слово «дабир» означало просто образованного человека.

В древности и раннем средневековье образовательные учреждения не разделялись на средние школы, средне-специальные или высшие учебные заведения – все эти функции выполняли дабиристаны. Выпускники школ писцов совершенствовали свои знания самостоятельно.

Во многих дабиристанах были школьные библиотеки, из которых учащиеся могли брат учебные пособия.

Изобретение бумаги в Китае и её распространение в Хорезме, Парфии, Бактрии и Согде, а затем производство бумагии на территории Турана способствовали развитию грамотности и образования.

Когда народ Турана был включён в состав Арабского халифата, у него уже существовали собственные традиции письменности и образования. Находясь в составе «Арабского культурного мира» более 1200 лет, древние и раннесредневековые традиции грамотности и образования продолжали совершенствоваться. К эпохе Восточного Ренессанса эта эволюция привела к появлению великих учёных узбекского народа, ставших основателями ряда научных дисциплин и внёсших значительный вклад в мировую науку.

Ключевые слова: *Вавилонская культура, династия Ахеменидов, арамейское письмо, дабиристон, светское образование, восковая дощечка, библиотека, бумага, грамотность.*

Annotation: *This article provides scientific information about literacy and education in the Turan region during ancient and early medieval times. During the reign of the Achaemenids (550-330 BCE), who conquered Babylon, the states of Khwarezm, Parthia, Sogd and Bactria were incorporated into their empire. In all regions of the Achaemenid Empire, literacy and education developed at nearly the same level.*

The ancient scripts of Khwarezm, Parthia, Bactria and Sogd, as well as the Arabic script, which was in use for more than 1.200 years starting from the 8th century, originated from the Aramaic script, which was written on papyrus and leather in Babylon.

In ancient times, literacy in the Turan region was taught in scribal schools known as "dabiristans". Initially, only the children of the nobility were educated in dabiristans, where they learned writing and administrative rules. However, from the 4th century onward, literacy became more widespread in society. In these schools, boys were educated, while girls who received literacy training usually learned from their literate fathers.

In ancient schools, education was secular, with religious instruction and sports not included in the curriculum. There was no classroom-based system, and children with different literacy levels were taught together. Waxed wooden or clay tablets were used to teach reading and writing.

Graduates of these schools became translators-scribes, royal or state secreta ries, temple scribes, personal clerks, accountants, scribes, and also teachers. For this reason, the term "dabir" generally referred to an educated person.

In ancient and early medieval times, educational institutions were not divided into secondary, specialized, or higher education categories – all educational functions were performed by dabiristans. Scholars who graduated from these schools continued to enhance their knowledge through independent study.

Many dabiristans also had school libraries where students could access textbooks and study materials.

The invention of paper in China and its subsequent introduction to Khwarezm, Parthia, Bactria and Sogd – followed by local production in these regions – contributed significantly to the development of literacy and education.

The people of Turan, when they were incorporated into the Arab Caliphate, already had their own local writing systems and educational traditions. Over the course of more than 1200 years within the framework of the "Arab cultural world", the ancient and early medieval traditions of literacy and education were continuous ly refined.

By the time of the Eastern Renaissance, this evolution led to the emergence of great scholars from the Uzbek people, who became the founders of various scientific disciplines and contributed significantly to world science.

Key words: *Babylonian culture, Achaemenid dynasty, Aramaic script, dabiristan, secular education, waxed tablet, library, paper, literacy.*

Kirish. Hozirgi paytda O‘zbekiston tarixining davlatimiz yirik imperiyalar tarkibiga kirgan qadimgi va ilk o‘rta asrlar davri tarixidagi ayrim sahifalari tarixchi olimlar nazaridan chetda qolmoqda. Ana shunday to‘ldirilishi muhim sahifalardan biri – qadimgi va ilk o‘rta asrlarda Turon o‘lkasida savodxonlik va ta’lim tarixi mavzusidir.

Qadimgi dunyo tarixi bilan shug‘ullangan AQSH, G‘arbiy Yevropa va ayrim sovet olimlari [1] qadimgi Mesopotamiya, Akkad, Shumer, Bobil davlatlari madaniyatini tadqiq etish natijasida Yaqin Sharq davlatlari insoniyatning ilk madaniyat beshigi bo‘lganligi, bu xalqlarda qadimdan savodxonlik va o‘z yozuvi bo‘lganligi haqida ilmiy xulosalarga kelganlar. Biroq masalaga Mesopotamiya madaniyatining merosxo‘ri Bobil orqali, Bobilni istilo qilgan axamoniylar sulolasi hukmronligi davrida (er. av. 550–330 yy.) bu imperiya tarkibiga kirgan va ular bilan bir xil taraqqiyot darajasida bo‘lgan xozirgi O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari ajdodlarining ham madaniyati va ta’limi ildizlari ekanligi sifatida yondoshuv hozircha tarixchi olimlarning diqqatini jalb qilgan emas.

[1] Falkenstein A. Die Babilonische Schule. – “Saeculum”. – Freiburg und Munchen, 1954. – IV. –P.127–137; Figulla H.H.Business Documents of the New Babilonian Period. – Ur. Excavations. – Texts IV-V, 1949. – P.9-17; Gadd C.J. Teachers and students in the Oldest Schools. – I., 1956. – P.18-25; Goetze A. Sakkanakkus of the Ur III empire. – JCS, 1963, 17. – P.23; Note 123; Hunger H. Holztafel. – RTA. – 1975. – IV/6-7. – P.458-459; Kaufman S.A. The Akkadian Influence on Aramais. – “Assyriological Studies”. – Chicago-London. – 1974. – N19. – P.107-111; Kramer S.N. The Sumerians. Their History, Culture and Character. – Chicago.-London, 1972. – P.236-244; Landsberger B. Scribal Concepts of Education. – C.H.Kraeling and R.M.Adams (ed) City Invincible. – Chicago, 1960. – P.94–119; Oppenheim A.L. Ancient Mesopotamia. – Chicago, 1964. – P.13–377; Waetzoldt H. Das Schreiberwesen in Mesopotamien nach den Texten aus neu Shumerischer Zeit (CA.2164–2003, V.Chr.) Vorgelegt als Habilitati. – Onsschrift. – Heidelberg, 1973. – P.9–369; Дандамаев М.А. Вавилонские писцы. – М.: “Наука”, Главная редакция Восточной литературы, 1983. – 248 с.; Дьяконов И.М. Проблемы Вавилонского города II тысяч лет до н.э. //Древний Восток. – Вып.I. – Города и торговля. – Ереван, 1973. – С.30–64; Семенов А.А. О среднеазиатской бумаге (сорта среднеазиатской бумаги, её производство и способы окраски) //Известия отделения общественных наук АН Таджикской ССР. - Душанбе, 1963. – N1 (32). – С.3–11; Гафуров Б.Г. Таджики. – Древнейшая, древняя и средневековая история. – 2-е изд. – Кн.1.- 382 с., Кн.2. – 480 с. – Душанбе: Ирфон, 1989 и др.

Vaholanki, er. av. I ming yillikda Bobilda papirus va teriga yozilgan aramey yozuvi ajdodlarimizning Qadimgi Xorazm, Parfiya, Sug‘d va Baqtriya yozuvlari, shuningdek ilk o‘rta asrlardan to sobiq Sovet hukumati tomonidan tugatilguncha Turkistonda amalda bo‘lgan arab yozuvining ham paydo bo‘lishida asos vazifasini o‘tagan[1].

Axamoniylar sulolasi hukmronligi davrida uning tarkibiga hozirgi Eron, Iroq, Turkiya, Misr, Suriya, Livan, Afg‘oniston, Pokiston, Markaziy Osiyo (shu jumladan O‘zbekiston va Tojikiston) davlatlari hududi kirgan. Bu hududlarda ish yuritishda aramey yozuvi qo‘llanib, o‘zidan avvalgi finikiy yozuvi kabi 22 ta undosh tovushdan iborat bo‘lgan. Er. av. III asrdan eramizning XI asrigacha amaliyotda bo‘lgan ko‘hna Xorazm yozuvi; er. av. II asrdan eramizning III asrigacha amal qilgan Parfiya yozuvi; xuddi shu davrda qo‘llanilgan Baqtriya yozuvi hamda er. av. II asrdan XI asrning birinchi choragigacha Sug‘diyonada ishlatilgan Sug‘d yozuvlarini tadqiq va tahlil qilgan professor M.M. Is’hoqovning tadqiqot natijalariga ko‘ra[2], bu yozuvlarning asosini aramey yozuvi tashkil etgan. Aramey yozuvi mixxat yozuvidan farqli o‘laroq o‘ngdan chapga qarab yozilgan[3].

Hududiy jihatdan ulkan va turli qabilalardan iborat Axamoniylar imperiyasida Kichik Osiyodan to Shimoli-G‘arbiy Hindistongacha, shu jumladan O‘rta Osiyoda ham, deyarli barcha satrapliklarda ma’muriy boshqaruv va devonxona ish yuritishida aramey tili asosiy muloqot vositasi hisoblangan. Aramey-mirzalar ko‘pincha hujjatlarni fors, midiyalik, parfiyalik, baqtriyalik, xorazmlik yoki sug‘dlik mahalliy amaldorlar aytib turganda, aramey tiliga tarjima qilib yozganlar. Satraplik devonxonasiga hisobot topshirilganda, aksincha, aramey tilidan mahalliy tillarga o‘girilgan. Ana shunday amaliyot natijasida sekin-asta aramey va mahalliy tillarning leksik hamda grammatik muvofiqligi tizimi vujudga kelgan. Ayni paytda aramey tilidagi hujjatlarga mahalliy tillar kuchli ta’sir o‘tkazgan. Bunda (asosan ma’muriy terminlarda) mahalliy tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar va iboralar paydo bo‘lgan, aramey tilidagi so‘zlar tarkibi o‘zgargan[4].

Eronshunos olimlarning kuzatishlariga ko‘ra, er. av. III asrning o‘rtalariga kelganda Baqtriya, Parfiya, Sug‘d va Xorazmda arameycha ish yuritishni mahalliy mirzalar olib borganlar. Axamoniylar imperiyasi hududida ish yuritishni aramey tilidan mahalliy tilga o‘tishini professor I.M.Dyakonov to‘rt bosqichga ajratgan. Birinchi bosqichda, mirzalar matnni aramey tilida tuzib, keyin uni mazmunan mahalliy tilga o‘girganlar; ikkinchi bosqichda, muntazam takrorlanuvchi aramey

[1] Ахунжанов Э.А. Письменная и книжная культура Узбекистана. Кн.1. Древность. Средние века. – Т.: Изд-во Национальной библиотеки Узбекистана им. Алишера Навои. – 2015. – Приложение N2.
[2] Исхаков М.М. Палеографическое изучение согдийских письменных памятников: Авторефю дисс… докт. ист. наук. – Ташкент, 1992. – С. 22–23; 25–26; 87; Он же. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Ташкент, 2008. – 340 с.
[3] Дандамаев М.А. Вавилонские писцы… – С.38.
[4] Ртveладзе Э.В., Ливщиц В.А. Памятники древней письменности. – Т.: “Узбекистан”, 1985. – С.8.

standartlariga tarjima va bayonda muvofiq keluvchi ekvivalentlar ishlab chiqarilgan; uchinchi bosqichda, aramey ish yuritishining barcha mahalliy ekvivalentlari ishlab chiqilgan va natijada har qanday matnni bemalol ikki tilda bayon etish mumkin bo‘lgan; va nihoyat, so‘nggi bosqichda, butun tekst mahalliy til grammatikasi qoidalariga muvofiq yozilgan. Ayni paytda, ko‘p rasmiy hujjatlarda qo‘llaniladigan aramey so‘zlari va iboralari ham mahalliy til grammatikasi qoidalariga rioya qilgan holda keng qo‘llanilgan[1].

Er. av. III asrga kelganda aramey tili o‘lik, faqat yozuv tili bo‘lib qoldi (fanda bu til «aramey imperiyasi tili» deb ataladi). Axamoniylar davridan an’ana bo‘lib qolgan o‘lik aramey tilida ish yuritishda mirza va amaldorlar mahalliy zabon bo‘lgan holatlarda, matnlar shu mahalliy tillardagi so‘z va iboralar bilan to‘ldirib borildi. Vaqt o‘tishi bilan bunday vaziyatning nonsens ekanligi ko‘zga tashlanib qoldi. Er. av. III – II asrlar chegarasida Turon-Turkiston davlatlarida hujjatlar aramey alifbosi belgilari bilan to‘liq mahalliy tillarda tuziladigan bo‘ldi[2].

Qadimgi davrlarda Turon hududida aramey yozuviga asoslangan mahalliy yozuvlarning qo‘llanilishi ajdodlarimizning ham Bobilda bo‘lgani kabi xat-savodga o‘z mahalliy maktablarida o‘qiganliklaridan dalolat beradi. Bu maktablar «dabiriston» («dabir» – mirza, «istan» – joy)[3], ya’ni «mirzalar maktabi» deb atalgan[4]. Dabiriston o‘quvchilari asosan hujjat tuzish uchun zarur bo‘lgan aramey yozuvi va iboralarini o‘rganishgan[5].

Dastlab, dabiristonlarda xat-savod va ish yuritish qoidalariga faqat zodagon aholi farzandlari o‘qitilgan bo‘lsa, milodning IV asridan boshlab jamiyatda savodxonlik ancha keng tarqalgan[6]. Dabiristonlarda faqat o‘g‘il bolalar o‘qitilib[7], qiz bolalar orasida xat-savodga o‘qitilganlari savodini o‘z savodxon otalaridan saboq olib chiqarganlar[8].

Qadimgi va ilk o‘rta asrlarda maktab binolari bo‘lganligi haqida shu davrlarga oid arxeologik qazilmalar guvohlik beradi [9] . Bu maktablar ularni tashkillagan maktabdorlar uylarida joylashgan[10].

---

[1] Дьяконов И.М. О гетерограммах и их месте в истории развития письма (Месопотамия и Ирак) //Переднеазиатский сборник. Древняя и средневековая история и филология. – М.: Наука, 1986. – С.15-16.

[2] Ахунжанов Э.А. История информационной культуры Узбекистана. Кн.1… – С.64.

[3] Ртвеладзе Э.И., Лившиц В.А. Памятники древней письменности. – Т.: “Узбекистан”, 1985. – С.11.

[4] Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя средневековая история. Кн.1. – 2-е изд. – Душанбе: Ирфон, 1989. – 382 с.

[5] Ртвеладзе Э.В., Лившиц В.А. Памятники древней письменности… –С.11.

[6] Ахунжанов Э.А. Указанное сочинение. –С.102; Он же. Состояние источниковедения истории рукописной книги и книжного дела в Средней Азии //Адабий мерос. – 1992. – N4 (62). – С.41-48.

[7] Gadd C.J. Teachers and students in the oldest schools … – P.24.

[8] Дандамаев М.А. Вавилонские писцы… – С.61.

[9] Falkenstein A. Die babilonische Schule … –P.127.

[10] Gadd C.J. Teachers and students in the oldest schools… – P.25.

1943-yilda Marida o‘tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida er. av. XVIII–XVII asrlarga oid maktab binosi hisoblangan ikkita xona topilgan. Xonalarda pishiq g‘ishtdan tayyorlangan bir necha qator supachalar bo‘lib, ularda bir-ikki yoki to‘rt kishidan bo‘lib o‘quvchilar o‘tirganlar[1]. Aramey tilida o‘quvchi «talmidu» («o‘qimoq» so‘zidan olingan) deb atalgan[2]. Ustoz «usta» ma’nosida «ummea» deb nomlangan[3]. O‘qituvchilar o‘quvchilarning ota-onalari bolalarini o‘qitish uchun to‘plagan puldan maosh olganlar[4].

Qadimda bolalar 5 yoshdan 7 yoshgacha davrda maktabga borib, u joyda 4-7 yil atrofida o‘qiganlar[5]. Vettsoldtning yozishicha, Girsu shahrining Lagash mahallasidagi maktabga xar yili 12 ta o‘quvchi qabul qilingan. Maktabda o‘qiydigan o‘quvchilarning umumiy soni bundan 3-4 marta ko‘p bo‘lgan[6]. O‘quvchilar sinflarga bo‘lib o‘qitilmagan, katta va kichik yoshdagi bolalar birga o‘qitilavergan[7].

Mirzalar maktablari o‘quvchilari maktabda quyosh chiqishidan to botguncha o‘qiganlar. Maktablarda yozish uchun mum bilan qoplangan loy yoki yog‘ochdan yasalgan taxtachalardan foydalanganlar. Bu yozuv taxtachalarini yasash uchun samshit, kedr, sarv yoki yong‘oq daraxtlari xomashyo vazifasini o‘tagan[8]. Yangi Bobil davridagi Urukning Eanna ibodatxonasida topilgan taxtachalar, bu davrda loydan yasalgan taxtachalardan ham foydalanilganligini ko‘rsatadi. Ularning bir tarafiga ustoz matn namunasini yozgan, boshqa tarafiga o‘quvchi uni ko‘chirib yozgan. Taxtachalarning ayrimlariga bo‘ginlab «maktab mulki» deb yozib qo‘yilgan. Bir qancha loy taxtachalarga 6 qatorga 10 tadan qilib 60 ta kichik kvadrat chizilgan. Bu bolalarni arifmetikaga o‘rgatish uchun abakus bo‘lgan[9].

O‘quvchi maktabga kelgach, avvalgi kun tayyorlagan taxtachadagi saboqni takrorlagan. Shundan keyin xalfa (ustoz yordamchisi) yangi taxtachaga keyingi saboqni tayyorlagan. Uni o‘quvchi ko‘chirib olgan va o‘rgangan. Keyin xalfa va maktabdor o‘quvchi yozgan nusxani tekshirib chiqqanlar. Qadimiy ta’lim o‘quv chilarning takror-takror o‘qib, yodlashiga asoslangan[10]. Dars davomida o‘quvchilar yozuvga o‘rgatilgan, ustoz o‘quvchilarning savollariga tushuntirishlar bergan.

Ko‘rib chiqilayotgan davrda maktablar o‘quv dasturi diniy bo‘lmay, dunyo viy bo‘lgan. Diniy ta’lim va sport maktab mashg‘ulotlari qatoriga kiritilmagan[11].

---

[1] Kramer S.M. The Sumerians … –P.236.
[2] Kaufman S.A. The Akkadian influence on Aramais… –P.107.
[3] Landsberger B. Scribal Concepts … –P.105.
[4] Дандамаев М.А. Вавилонские писцы … –С.58.
[5] Waetzoldt H. Das Schreiberwesen … –P.9.
[6] Уша жойда, Б.12.
[7] Дандамаев М.А. Вавилонские писцы…–С.63.
[8] Hanger H. Holdztafel … –P.458–459.
[9] Figulla H.H. Business Documents of the New Babilonian Period… –P.17.
[10] Дандамаев М.А. Вавилонские писцы… –С.56–57.
[11] Waetzoldt H. Das Schreiberwesen… – P.9.

Dabiristonlarda imtihonlar o‘tkazilganligi haqida ma’lumotlar saqlanmagan. Faqat imtihon xarakteridagi shaxsiy sirov o‘tkazilgan. Sifatli ta’limning kafolati bo‘lib ustoz nomining mashhurligi xizmat qilgan [1]. A.Gyottse va I.M. Dyakonovlarning fikricha, «dabir» deyilganda umuman o‘qimishli kishi nazarda tutilgan[2].

Er. av. I ming yillikda Bobilda dabiriston bitiruvchilari quyidagi lavozimlarda ishlaganlar:

- mirza-tarjimon (sepiru);
- podsho yoki saroy xizmati kotiblari;
- ibodatxonalar xattotlari;
- xususiy shaxslarga xizmat ko‘rsatuvchi mirzalar, ish yurituvchilar, hisobchilar.

Shuningdek, bitiruvchilarning bir qismi maktabdorlik bilan ham shug‘ullanganlar[3].

Landsberger, mirzalarning 70% ga yaqini ma’muriy apparatda, 20% xususiy shaxslar xizmatida va 10% tabib, ruhoniy kabi lavozimlarda xizmat qilgan deb hisoblaydi[4].

Mirzalar maktablarida ta’lim olish bitiruvchilarga turli darajadagi mansablarni egallashga imkon bergan. Biroq xizmat lavozimidan ko‘tarilish nafaqat mirzalarning iqtidori va mehnatsevarligi, balki ota-onalarining iqtisodiy va ijtimoiy holati, turli mansablarning otadan bolaga meros bo‘lib o‘tish tendensiyalariga ham bog‘liq edi[5].

Dabiristonlar haqidagi yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ular qadimgi davrlarda nafaqat boshlang‘ich yoki o‘rta maxsus ta’lim o‘choqlari, balki zamonasining o‘ziga har qanday ta’lim elementlarini birlashtirgan universal o‘quv yurtlari bo‘lgan. Maxsus oliy ta’lim maskanlari bo‘lgan madrasalarning paydo bo‘lishi esa Sharq Renessansi davriga to‘g‘ri kelgan.

Qadimda va ilk o‘rta asrlarda o‘quv yurtlarida adabiy hamda ilmiy tekstlar kolleksiyalari (shartli ravishda kutubxonalar) tashkil etilgan. Xattotlar ko‘p bo‘lgan katta shaharlarda kutubxona xo‘jayinining didini aks ettiruvchi xususiy kutubxonalar ham bo‘lgan. Ularda xattotlar yozuv an’analarining asosiy qoidalariga rioya qilgan holda kitoblarni ko‘chirganlar[6].

---

[1] Waetzoldt H. Das Schreiberwesen… – P.14.

[2] Goetze A. Sakkanakkus of the Ur III empire…–P.23; Note 123; Дьяконов И.М. Проблемы вавилонского города… –С.62, Примечание 110.

[3] Дандамаев М.А. Вавилонские писцы… – С.59, 171.

[4] Landsberger B. Scribal Concepts … –P.119.

[5] Wartzoldt H. Das Schreiberwesen… – P.110.

[6] Oppenheim A.L. Ancient Mesopotamia… –P.13.

Eramizning III asrida Qadimgi Xorazm, Parfiya, Sug‘d va Baqtriya madaniy hayotiga yozuv materiali sifatida Xitoydan (Sinszyan, Sharqiy Turkiston) qogozining kirib kelishi va uni Turon zaminida ham ishlab chiqarilishi [1] natijasida o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmalarining ko‘payishi, yozuv materialining arzonlashishi hamda savodxonlikning keng tarqalishiga olib keldi.

Turon o‘lkasini Arab Xalifaligi istilo qilgan paytda uning xalqi xalifalik tarkibiga o‘z mahalliy yozuvi va ta’lim an’analari bilan kirib kelgan. VIII–XIX asrlarda, ya’ni 1200 yildan ortiq davr mobaynida Turkiston xalqlari ulkan arab-eron-turk subetnosining «Arab madaniy dunyosi» deb atalgan tizimidagi tizimosti qismi bo‘lib keldi[2]. Bu madaniy dunyo tarkibida Qadimgi Xorazm, Parfiya, Sug‘d va Baktriya yozuvlari aramey yozuvining barcha Arab xalifaligi uchun umumiy bo‘lgan arab grafikasi bilan almashtirildi. Arab istilosigacha mavjud bo‘lgan mahalliy madaniy meros xalifalikning umum davlat tili hisoblangan arab tiliga tarjima qilindi. Arab xalifaligi hukmronligi davrida ta’lim tizimi takomillashib, uning yurtimizda ta’lim olgan bitiruvchilari orasidan ayrim fanlarga asos solgan mash’hur allomalar yetishib chiqdilar.

Xulosa. Qadimgi Bobil davlatini istilo qilgan, uning madaniy merosiga ega bo‘lgan Axamoniylar sulolasi imperiyasining tarkibiy qismi sifatida Turondagi savodxonlik va ta’lim tarixi masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Qadimgi Xorazm, Parfiya, Sug‘d va Baqtriya davlatlarida xat-savodga qadimgi Bobilda amal qilgan aramey yozuvi asosida shakllangan mahalliy yozuvlar grafikasida o‘rgatilgan.

Turon xalqi Arab xalifaligi tarkibiga o‘z mahalliy yozuvi va ta’lim an’analari bilan kirib kelgan. Xalqimiz «Arab madaniy dunyosi» tarkibida bo‘lgan 1200 yildan ortiq davr mobaynida qadimgi va ilk o‘rta asrlardagi savodxonlik va ta’lim an’analari takomillashib, u dunyoga ayrim fanlarning asoschilari bo‘lmish ulug‘ allomalarni yetkazib bergan.

[1] Семенов А.А. О среднеазиатской бумаге (сорта среднеазиатской бумаги, её производство и способы окраски) //Известия отделения общественных наук АН Таджикской ССР. – Душанбе, N1 (32). – С.3; Хабибуллаев Н.Н. Среднеазиатская бумага в период феодализма //На среднеазиатских трассах Великого шелкового пути: Очерки истории и культуры. – Т.: Фан, 1990. – С.63.

[2] Ахунджанов Э.А. Письменная и книжная … - С.172.

ГУЛЬДЖАХОН КОБИЛОВА
Докторант, ТГУВ

Роль «Корейской волны» в укреплении международного статуса южной кореи

Аннотация. *Статья посвящена анализу роли «корейской волны» (халлю) в укреплении международного статуса Республики Корея, начиная с исторического контекста. При этом отмечается многовековая зависимость Кореи от соседних государств, а также период японской оккупации (1905–1945), в ходе которой проводилась политика насильственной ассимиляции и подавления корейской идентичности. Раскрывается тема сохранения национальной культуры, несмотря на репрессии, вопрос сохранение языка, традиции и культуру через подпольное образование, народное искусство и зарубежные диаспоры. Также в статье приводится краткий обзор периода после обретения независимости в 1945 году и раскола Корейского полуострова на две страны, когда Южная Корея начала модернизацию и вестернизацию. В 1970-е годы появились первые национальные теледрамы и развлекательные программы.*

Процесс демократизации 1987 года привела к либерализации и росту массовой культуры. В 1990–2000-х годах современные корейские медиапродукты стали международным феноменом, превратившись в «корейскую волну», распространённую сначала в Азии, затем в США, Европе и на постсоветском пространстве. В статье подчеркивается, что корейская волна стала не только культурным, но и политико-экономическим инструментом «мягкой силы», способствующим улучшению имиджа страны, продвижению бренда «Made in Korea», укреплению отношений с соседями (Китаем и Японией) и повышению статуса Южной Кореи как современной, технологичной и прогрессивной державы. Отдельно рассматривается влияние цифровизации и глобальных платформ в распространении халлю. В заключении подчеркивается, что корейская волна – комплексное явление, включающее культуру, экономику, технологии и дипломатию.

Ключевые слова и понятия: *Корейская волна (Халлю), культурная дипломатия, мягкая сила, японская аннексия, колониальная политика, сохранение исторической памяти, запрет корейского языка, хангыль, саджан хаккё, культурная идентичность, народное искусство, устная традиция, патриотическая интеллигенция, колониальное сопротивление, независимость Кореи, СССР и США, раздел Кореи, Корейская война, антикоммунизм, цензура, Пак Чон Хи, индустриализация, модернизация, вестернизация, традиционная культура, Шестая Республика, демократизация, массовая культура, цифровизация культуры, экспорт культуры, международные отношения, имидж страны, технологический прогресс, южнокорейская экономика, культурное сотрудничество, глобализация культуры.*

Annotatsiya. *Mazkur maqola Koreya Respublikasining xalqaro maqomini mustahkamlashda katta o‘rin egallagan «koreys to‘lqini» (xallyu) fenomenining tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, tarixiy kontekstdan boshlanadi. Unda Koreyaning qo‘shni davlatlarga ko‘p asrlik qaramligi hamda yapon okkupatsiyasi davri (1905–1945 yillar) qayd etiladi. Ushbu davrda koreys milliy o‘zligini o‘chirishga yo‘naltirilgan majburiy assimilyatsiya siyosati olib borilgan. Maqolada repressiyalarga qaramay, tilni, an’analarni va madaniyatni yashirin ta’lim, xalq og‘zaki san’ati hamda xorijdagi diasporalar orqali saqlab qolish masalasi ochib berilgan. Shuningdek, 1945 yilda mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin Koreya yarimorolining ikki davlatga bo‘linishi va Janubiy Koreyada modernizatsiya hamda g‘arbona qadriyatlarning shakllanishi davri qisqacha ko‘rib chiqiladi. 1970-yillarda ilk milliy teleseriallar va ko‘ngilochar dasturlar yaratilgan. 1987 yildagi demokratik islohotlar ommaviy madaniyatning erkinlashuvi va rivojlanishiga olib kelgan. 1990–2000-yillarda zamonaviy koreys media mahsulotlari xalqaro fenomenga aylanishi natijasida «koreys to‘lqini» avval Osiyoda, keyinchalik AQSh, Yevropa va postsovet hududlarida keng tarqalgan. Maqolada koreys to‘lqini nafaqat madaniy, balki siyosiy va iqtisodiy jihatdan ham «yumshoq kuch» vositasi bo‘lib, mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish, «Made in Korea» brendini ilgari surish, qo‘shni davlatlar (Xitoy va Yaponiya) bilan munosabatlarni mustahkamlash va Janubiy Koreyaning ilg‘or texnologik davlat sifatida maqomini oshirishga xizmat qilgani ta’kidlanadi. Xallyuning tarqalishida raqamlashtirish va global platformalarning o‘rni alohida yoritiladi. Xulosa o‘rnida koreys to‘lqini – bu madaniyat, iqtisodiyot, texnologiya va diplomatiyani o‘z ichiga olgan murakkab hodisa ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar va tushunchalar: *Koreys to‘lqini (Xallyu), madaniy diplomatiya, yumshoq kuch, yapon anneksiyasi, mustamlakachilik siyosati, tarixiy xotirani saqlash, koreys tilining taqiqlanishi, xangil, sajang hakkyo, madaniy o‘zlik, xalq og‘zaki san’ati, og‘zaki an’ana, vatanparvar ziyolilar, mustamlakachilikka qarshilik, Koreyaning mustaqilligi, SSSR va AQSh, Koreyaning bo‘linishi, Koreya urushi, antikommunizm, senzura, Pak Chon Xi, industrializatsiya, modernizatsiya, g‘arblashtirish, an’anaviy madaniyat, Oltinchi Respublika, demokratlashtirish, ommaviy madaniyat, madaniyatni raqamlashtirish, madaniyat eksporti, xalqaro munosabatlar, mamlakat imiji, texnologik taraqqiyot, Janubiy Koreya iqtisodiyoti, madaniy hamkorlik, madaniyatning globallashuvi.*

Abstract. *This article explores the role of the “Korean Wave” (Hallyu) in enhancing the international status of the Republic of Korea, starting with the historical context. It highlights Korea’s centuries-long dependence on neighboring powers, as well as the period of Japanese occupation (1905–1945), during which a policy of forced assimilation and suppression of Korean identity was implemented. The study discusses the preservation of national culture despite repression, focusing on the protection of language, traditions, and cultural identity through underground education, folk art, and the activities of Korean diasporas abroad. The article also provides an overview of the post-1945 period, marked by Korea’s liberation and the subsequent division of the Korean Peninsula into two states. This division initiated a process of modernization and Westernization in South Korea. By the 1970s, the first national television dramas and entertainment programs had emerged. The democratization movement of 1987 led to liberalization and the expansion of mass culture. In the 1990s and 2000s, modern Korean media products became an international phenomenon, transforming into the*

Korean Wave, which initially spread across Asia and later reached the United States, Europe, and the post-Soviet space.

The article emphasizes that the Korean Wave has evolved not only into a cultural movement but also into a political and economic tool of soft power, contributing to the country's image, the promotion of the "Made in Korea" brand, the strengthening of relations with neighboring countries (notably China and Japan), and the elevation of South Korea's status as a modern, technologically advanced, and progressive state. Particular attention is given to the role of digitalization and global platforms in the international diffusion of Hallyu.

In conclusion, the article argues that the Korean Wave represents a multifaceted phenomenon encompassing culture, economics, technology, and diplomacy.

Keywords and concepts: *Korean Wave (Hallyu), cultural diplomacy, soft power, Japanese annexation, colonial policy, preservation of historical memory, suppression of Korean language, Hangul, sajang hakkyo, cultural identity, folk art, oral tradition, patriotic intelligentsia, colonial resistance, Korean independence, USSR and USA, division of Korea, Korean War, anti-communism, censorship, Park Chung-hee, industrialization, modernization, Westernization, traditional culture, Sixth Republic, democratization, mass culture, cultural digitalization, cultural exports, international relations, national image, technological progress, South Korean economy, cultural cooperation, cultural globalization.*

Прежде чем раскрывать понятие «корейской волны» и давать оценку её роли в повышении международного влияния и статуса Республики Корея, стоит упомянуть, что страна на протяжении большей части истории была так или иначе зависима от других, чаще соседних государств, среди которых можно указать Танский Китай, монгольсую империю при династии Юань в том же Китае, а также модернизированную и ставшую мощной державой Японию. Также можно отметить, что корейская культура на протяжении своей истории была под влянием нескольких культур, начиная от соседних Китая и Японии до западных стран. Но, пожалуй одним самых переломных моментов, когда сохранение не то, что традиционной культуры, а, даже национальной идентичности встало остро, – это период японской аннексии. Положение корейской культуры в период японского протектората (1905–1945) было довольно тяжёлым. Японская колониальная политика целенаправленно стремилась подавить и ассимилировать корейскую культуру, подменяя её японской. Тем не менее, несмотря на систематическое давление, корейскому народу удалось сохранить ключевые элементы своей культурной самобытности. Ниже — краткий обзор этой эпохи в историко-культурологическом контексте.

С установлением протектората в 1905 году, а затем и полной аннексии Кореи в 1910 году[1], Япония проводила политику насильственной ассимиляции:

[1] Курбанов С.О. История Кореи: с древности до начала XXI в. СПб.: Изд-во С-Петерб. ун-та, 2009. – с. 178.

– Запрет на использование корейского языка: корейский язык постепенно вытеснялся из школ, официальных учреждений и прессы. В 1930–40-е годы японский стал обязательным языком преподавания, а корейский фактически оказался вне закона в официальной сфере.

– Уничтожение исторической памяти: были разрушены и конфискованы корейские культурные памятники, библиотеки, храмы и исторические документы. Многие древние книги и артефакты были вывезены в Японию.

– Японизация имён и религии: с 1939 года корейцев заставляли принимать японские фамилии и имена (политика «создания одного тела» — *naisen ittai*)[1]. Насаждалась синтоистская религия, связанная с японской государственной идеологией.

– Цензура и контроль над СМИ: все издания подвергались жесткой цензуре. Независимые корейские газеты закрывались, а допустимые публикации должны были соответствовать японской идеологии.

Несмотря на давление, корейцы смогли сохранить свою культурную идентичность благодаря образованию и подпольным школам. Корейские интеллектуалы организовывали частные школы (*саджан хаккё*) [2] , где преподавали на корейском языке, изучали корейскую историю, литературу и конфуцианскую этику. Тайное обучение стало важным каналом передачи культурных знаний. Также после Движения за независимость 1 марта 1919 года, японские власти временно смягчили политику (период «культурной политики»)[3]. Это дало возможность открыть легальные корейские журналы, издательства, литературные кружки. В этот период развивалась модернистская литература, появилось движение за сохранение корейского алфавита хангыль. Письменность хангыль стала символом культурной независимости. Корейские учёные, такие как Чу Си Гён[4], активно продвигали его использование и создали первые современные грамматики и словари на корейском языке. Говоря об элементах традиционного искусства, в частности, традиционная музыка (*кугак*)[5], живопись, керамика и танец продолжали существовать в частных

[1] Andrei Lankov. Japanese policy of assimilation. The Korea times. URL: https://www.koreatimes.co.kr/opinion/20110303/552-japanese-policy-of-assimilation

[2] 20 세기 초 한국인 설립 사립학교 연구 : A Study of the Private Schools Founded by Korean Individuals in the Early 20th Century with a Particular Focus on the Agency of Their Founding and Financing
설립주체와 재정을 중심으로. URL: https://s-space.snu.ac.kr/handle/10371/152731?utm_source=chatgpt.com

[3] Clark W. Sorensen , Yong-Chool Ha , Hong Yung Lee. Politics of Communication and the Colonial Public Sphere in 1920s Korea. University of Washington Press. URL: https://muse.jhu.edu/pub/194/monograph/chapter/978116?utm_source=chatgpt.com

[4] Чу Си Гён, https://ru.wikipedia.org/?curid=8487576&oldid=141315278

[5] https://russia.korean-culture.org/ru/143/korea/45

формах, особенно в деревнях и среди народных исполнителей. Народное искусство стало формой тихого протеста и культурной памяти.

Кроме того, за рубежом, особенно в Китае, СССР, США и Японии, корейские эмигранты создавали культурные и образовательные организации, издавали газеты, поддерживали национальные традиции и боролись за независимость через культурную дипломатии. Немаловажным фактором также считается устная передача знаний, сохранение устного народного творчества через семью, обряды, устные рассказы, фольклорные песни, которые корейцы передавали из поколения в поколение. Слой патриотически настроенной интеллегенции в лице учёных, писателей и художников сознательно занимались сохранением языка, истории и традиций даже в условиях репрессий.

Вообще сама история показывает, что в условиях запретов культура не всегда исчезает, а уходит в «тень» — в быт, в символику, в народные традиции. Период колониального гнёта сформировал сильную культурную самоидентичность, основанную на сопротивлении и желании сохранить свою уникальность. Таким образом, японский колониальный режим представлял собой серьёзную угрозу для существования корейской культуры. Однако именно в условиях колониального угнетения корейская культурная идентичность укрепилась, сформировалась как символ национального сопротивления и впоследствии стала основой для стремительного культурного возрождения в послевоенный период.

Но, к счастью для корейского народа относительно недолгий по историческим меркам период японской оккупации всё же не смог стать причиной исчезновения корейского национального самосознания. Но момент японской капитуляции к концу Второй мировой войны стал отправной точкой раскола корейского общества под влиянием двух сильнейших держав того времени – СССР и США – на два отдельных государства с противоречащими друг другу идеологиями. Несмотря на обретение формальной независимости, оба корейских государства развивались под сильным влиянием коммунизма и капитализма. В частности, в Южной Корее начался постепенный процесс модернизации и вестернизации.

С момента основания Республики Корея в 1948 году культурное развитие страны проходило под влиянием политических и экономических обстоятельств, а также в условиях активного взаимодействия с внешним миром. Южнокорейская культура трансформировалась от консервативной и националистически ориентированной к глобализированной и разнообразной, пройдя путь от цензурируемых СМИ до всемирно признанной «корейской волны» (한류, халью)[1].

[1] Кащенко А. Ю. Феномен «Корейской волны» как политический фактор «мягкой силы» Южной Кореи // Научные высказывания. 2023. №8 (32). С. 31-33. URL:

В первые десятилетия после провозглашения независимости культура Южной Кореи находилась под сильным контролем государства. Военные конфликты, в том числе Корейская война (1950–1953), оказали разрушительное влияние на культурную инфраструктуру. Тем не менее в этот период происходило формирование национального культурного самосознания. Правительство активно использовало радио и печатную прессу как инструмент государственной идеологии, продвигая антикоммунистические и патриотические идеи. Культурное производство — в том числе литература и кинематограф — находилось под строгой цензурой, но уже в конце 1950-х годов начали появляться произведения, затрагивающие социальную тематику.

С приходом к власти режима Пак Чон Хи (1961–1979) и началом интенсивной индустриализации наблюдается рост интереса к развитию национальной культуры как части модернизационного проекта. Государство продолжало контролировать средства массовой информации, однако расширялась сеть телевизионных каналов, запускались новые издания, а киноиндустрия постепенно восстанавливалась. В 1970-е годы Южная Корея начала создавать собственные телевизионные драмы и развлекательные программы[1]. В то же время сохранялся жесткий контроль над политическим содержанием в культуре и медиа. Этот период также ознаменован расцветом традиционной культуры, в том числе продвижением хангыль (корейского алфавита) и восстановлением национальных обрядов.

После движения за демократизацию в 1987 году и установления Шестой Республики, культурная сфера Южной Кореи пережила кардинальные перемены. Снижение цензуры позволило развиваться новым формам художественного выражения — в литературе, театре, кинематографе, на телевидении и в музыке. В этот период массовая культура обрела особую популярность. Начало 1990-х ознаменовалось формированием современных корейских музыкальных жанров, в том числе раннего K-pop, а также ростом производства теледрам, получивших признание сначала в Азии, а затем и во всем мире.

Одновременно происходила либерализация медиарынка. Частные вещательные компании начали конкурировать с государственными, что способствовало улучшению качества программ и расширению тематического диапазона. Расширение доступа к зарубежной культуре и медиа также оказало значительное влияние на формирование новой культурной среды.

---

https://nvjournal.ru/article/Fenomen_Korejskoj_volny_kak_politicheskij_faktor_mjagkoj_sily_Juzhnoj_Korei

[1] Федоренко К. С. Предпосылки феномена Корейской волны (конец 1950-х – начало 1970-х годов) // Ученые записки Петрозаводского государственного университета. 2022. Т. 44, № 8. С. 20–26. DOI: 10.15393/uchz.art.2022.831

С начала 2000-х годов Южная Корея становится одним из лидеров мировой культурной индустрии. Формирование поколения K-pop ознаменовало собой рождение феномена халлю — корейской волны. Южнокорейские «дорамы», т. е., сериалы, музыкальные группы, кинофильмы и онлайн-контент начали массово распространяться за пределами страны, особенно в странах Юго-Восточной Азии, затем в США, Европе и на постсоветском пространстве.

В 1990-х годах Южная Корея была незначительным рынком музыкальной индустрии, и лишь немногие могли предположить, что в течение следующих двух десятилетий корейская культура станет глобальным феноменом. Однако сегодня нельзя оспаривать тот факт, что корейская волна оказывает огромное влияние на молодежь по всему миру.

Кто же запустил эту корейскую волну в мир? Конечно, музыкальная индустрия, где в качестве первых кандидатов назвали корейских поп-звезд.

Изначально в звукозаписывающей индустрии Южной Кореи доминировали мужские квартеты и женские артистки, но с появлением двухместных повествований корейская музыка привлекла к себе внимание молодых поколений со всего мира. Корейские музыканты получали высокую оценку за свой оригинальный стиль и талант не только в области музыки, но и в других сферах искусства.

Семейное кино, также называемое мелодрамой, стало важным инструментом для распространения корейской культуры в мире. Подчеркивая традиционные корейские ценности, такие как семья, дружба и любовь, семейное кино быстро завоевало популярность за пределами страны.

Ключевым моментом стала победа фильма «Паразиты» режиссёра Пон Чжун Хо на Каннском кинофестивале и получение премии «Оскар» в 2020 году, что стало символом признания корейского кинематографа на мировом уровне. Не менее значимым стало глобальное влияние группы BTS, которая превратилась в культурный феномен и инструмент мягкой силы Кореи.

Южнокорейские СМИ и цифровые платформы также прошли путь трансформации: появление YouTube, Netflix и V-Live позволило корейскому контенту выйти на новые рынки и адаптироваться под запросы международной аудитории.

В последние годы Южная Корея активно использует культуру как элемент внешнеполитической стратегии. Через культурные центры, международные фестивали и спонсорские программы K-pop, дорамы, кулинария, мода и дизайн стали частью культурной дипломатии страны. Цифровизация культуры и медиа, поддерживаемая государством и частными корпорациями, позволила стране занять прочные позиции в глобальной информационной и развлекательной экосистеме.

Современная культурная политика Южной Кореи ориентирована на устойчивое развитие культурного сектора, поддержку творческих индустрий и сохранение баланса между национальной идентичностью и глобальной интеграцией.

Однако, корейская волна не может быть ограничена только культурной сферой. Эта волна разбушевалась всеобщим экономическим подъемом Южной Кореи. Неоспоримый экономический рост южнокорейской экономики, технологический прогресс и активность инвестиций заложили основы успешного создания бренда "Made in Korea". Этот бренд обещал качество и сделал из того, что когда-то было портманто, уникальный и востребованный маркетинговый продукт.

Качество корейских товаров, опирающееся на уникальный местный опыт производства, достигло признания и заслуженного уважения в мире потребительской технологии. Теперь это экспортный хит: K-pop, BBQ, K-drama, K-beauty и так далее - все это бренды в других странах.

Технология и небывалый успешный рост корейской экономики играют важную роль в успешном создании современной корейской культуры, в том числе и в восприятии за рубежом.

Но в эпоху интернета и социальных медиа особую роль в успехе корейской волны играют усилия корейских звезд: взаимодействие с фанатами, использование социальных сетей, выступления, которые транслируются онлайн.

В итоге, нельзя отождествлять корейскую волну только с музыкой или кино, это феномен, который представляет собой комплекс новых тенденций, принадлежащих к разным сферам искусства и общества в целом, укрепляющих Южную Корею в международном сообществе в качестве «мягкой силы».

На сегодняшний день во внешней политике многих стран уделяется особое внимание стратегии «мягкой силы» как противопоставление «жесткой». Ее часто рассматривают как более тонкую и убедительную форму влияния по сравнению с жесткой силой, которая опирается на военную и экономическую мощь. Примеры мягкой силы включают в себя такие вещи, как культурные обмены, публичная дипломатия, образовательные программы и иностранная помощь.

Одной из первых стран, которая начала активно использовать "мягкую силу" во внешней политике, были Соединенные Штаты Америки[1]. США использовали культурные и образовательные программы для продвижения

[1] Лебедева М.М. «Мягкая сила» в отношении Центральной Азии: участники и их действия. Журнал «Вестник МГИМО Университета». – Москва, 2014. [Электронный ресурс]. URL https://cyberleninka.ru/article/n/myagkaya-sila-v-otnoshenii-tsentralnoy-azii-uchastniki-i-ih-deystviya

своих ценностей и идей за рубежом, а также защиты интересов своих стран в мире.

Другие примеры стран, которые успешно используют "мягкую силу" в своей внешней политике, включают Японию, Германию, Францию, Китай, а также Южную Корею.

Внедрение стратегии «мягкой силы» во внешнюю политику государств начинает наблюдаться с начала XXI века и становится новым этапом в развитии страны и ключевым фактором успеха в международной арене.

Республика Корея, или Южная Корея, является одной из ключевых стран в Азии и имеет существенное влияние на региональные и мировые дела. Эволюция ее внешней политики прошла через несколько значимых этапов:

1. Традиционная картина мира корейцев основывалась на взаимодействии с Китаем, Японией и Манчжурией. Это обосновывалось географическим положением страны – корейцы выстраивали отношения со своими ближайшими соседями и до XIX в. Все внешнеполитические связи этим и ограничивались.

Также по примеру стран-соседей Корея определённое время придерживалась «политики самоизоляции», которая предусматривала защиту от «чуждых» ценностей, а также от агрессии соседей.

2. В XIX веке Корея была вынуждена отказаться от режима изоляции и после ее открытия западному миру начать многосторонние взаимоотношения во внешнеполитической сфере. Опыта проведения самостоятельной политики без оглядки на всесильного соседа у нее не было, поэтому лишившись поддержки Китая, она в итоге оказалась в зависимости от Японии, став ее колонией.

3. Освобождение от колониальной зависимости привело Корейский полуостров к разделению, а Южную Корею к заключению военнополитического союза с США, который в настоящее время также можно рассматривать как форму внешнеполитической зависимости[1].

Именно в эпоху независимой Республики Кореи с конца XX века появляется необходимость рассмотрения новых направлений внешней политики. Причинами условно можно обозначить следующее:

1. Поддержание мира и стабильности: использование мягкой силы позволяет предотвратить конфликты и разрешать споры мирным путем, что способствует сохранению мира и стабильности в Республике Корея.

[1] Ермолаева Е.М. Формирование и развитие идеологии внешней политики Республики Корея. Жупнал «Genesis: исторические исследования», – «НБ-Медиа», Москва, 2020. [Электронный ресурс]. URL https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-i-razvitie-ideologii-vneshney-politiki-respubliki-koreya

2. Укрепление международных отношений: применение мягкой силы помогает улучшить образ страны на международной арене, укрепляет дипломатические связи и способствует установлению партнерских отношений с другими странами.

3. Продвижение своих интересов: мягкая сила позволяет достигать целей и защищать интересы страны без применения насилия и угрозы, используя дипломацию, культурные обмены, экономическое сотрудничество и другие мягкие методы воздействия.

4. Привлечение инвестиций и туризма: позитивный имидж и культурное влияние страны, создаваемые с помощью мягкой силы, способствуют привлечению иностранных инвестиций, развитию туризма и увеличению экономического роста.

5. Стимулирование внутреннего развития: применение мягкой силы способствует развитию культуры, образования, искусства и других областей, что способствует укреплению и процветанию общества в Республике Корея.

Согласно Д.И. Бураеву и М.Ц. Гармаханову в случае с Южной Кореей можно наблюдать интересный феномен, который стал основным инструментом реализации стратегии «мягкой силы», - «корейская волна»[1]. В их статье говорится о том, что правительство Южной Кореи изначально не делала ставку на культуру, как на способ влияния, но сумела своевременно разглядеть открывающиеся перспективы повышения международного имиджа страны и оказать своевременную поддержку в развитии национальной культуры.

При этом также стоит отметить, что корейская культура претерпела некоторую трансформацию, которую можно было проследить посредством СМИ, так как сохраняя традиционные корейские ценности, она вобрала в себя элементы современной массовой культуры, основой которого являются западные ценности. При этом она стала уникальной в своём роде и, вместе с тем, универсальной, потому что по сей день тепло встречается в различных странах у различных слоев населения. Это могут быть как страны, в большинстве, восточные, придерживающихся традиционных ценностей, так и страны диаметрально противоположные по взглядам и менталитету.

Современная популярная культура Южной Кореи сейчас, - это одно из основных механизмов популяризации национальной культуры. В этом также свою роль сыграли так называемые «корейские фабрики звёзд», как SM

[1] Бураев. Д.И., Гармаханов М.Ц. Корейская волна и мягкая сила. Стратегия развития и распространения. Вестник Бурятского государственного университета. Философия, - Улан-Удэ, 2014. [Электронный ресурс]. URL https://cyberleninka.ru/article/n/koreyskaya-volna-i-myagkaya-sila-strategiya-razvitiya-i-rasprostraneniya

Entertainment, YG Entertainment, JYP [1] . К ним как четвертый гигант присоединился HYBE labels. Это большие развлекательные компании, формирующие будущих певцов, актеров, телеведущих, журналистов и других. Их медиа-продукция нацелена на весь мир в целом и не делает акцент на определённый регион. Это одновременно ставит перед ними трудную задачу «угодить всем», с чем эти корейские компании успешно справляются.

Например, в 2012 году песня южнокорейского поп-певца Psy «Gangnam Style» заняла свое место в чартах как самая популярная песня за долгое время. С другой стороны, впервые на церемонии вручения премии «Оскар» в 2020 году награда за лучший фильм была вручена неанглоязычному фильму; Другими словами, он был отдан южнокорейскому фильму «Паразиты». Кроме того, южнокорейский сериал «Игра кальмаров», который был выпущен в 2021 году и является одним из самых просматриваемых сериалов на платформе просмотра сериалов Netflix, собрал около 900 миллиардов долларов[2].

Правительство Южной Кореи хоть и по-началу не планировало работать совместно со сферой популярной культуры, но увидев большой потенциал разработало стратегию поддержки национального медиа-производства. По данным автора статьи: «Халлю: интеграция южнокорейской культуры в мировой рынок» Рыбальской В.В.: «… бюджет Управления культурным содержанием Республики Корея составляет 5,5 млрд. долл. и реализуется в рамках развития экономики страны, в частности, за счет экспорта продукции индустрии культуры. Помимо этого, корейское правительство спонсирует от 20% до 30% инвестиционного фонда в размере 1 млрд. долл., предназначенного для развития и экспорта популярной культуры. Остальные инвестиционные потоки идут от банков и частных компаний, которые управляются Корейской инвестиционной корпорацией (КИК)[3].

Конечно у подобной поддержки будут свои ожидания. И в вышеуказанной статье также приводится информация о том, что в 2019 году, Халлю, по оценкам, увеличила корейскую экономику на 12,3 млрд. долл. В 1965 году ВВП

[1] Летина Н. Н., Логинова И. В. Idol как феномен современной корейской культуры. Верхневолжский филологический вестник, – Ярославль, 2017. [Электронный ресурс]. URL https://cyberleninka.ru/article/n/idol-kak-fenomen-sovremennoy-koreyskoy-kultury

[2] [Электронный ресурс]. URL https://www.ankasam.org/популярная-культура-как-мягкая-сила-ю/?lang=ru

[3] Рыбальская В.В. Халлю: интеграция южнокорейской культуры в мировой рынок. Журнал «Кореееведение в России: направление и развитие». – Казань, 2022. [Электронный ресурс]. URL https://cyberleninka.ru/article/n/hallyu-integratsiya-yuzhnokoreyskoy-kultury-v-mirovoy-rynok

на душу населения в Корее был меньше, чем в Гане. Сегодня Южная Корея занимает 11-е место в мире по величине экономики[1].

Исходя из вышеуказанного можно сделать вывод, что применение мягкой силы во внешней политике Республики Корея привело к ряду положительных результатов. В частности, страна смогла установить дипломатические отношения с многими странами и участвовать в международных организациях. Кроме того, благодаря своей мягкой силе Республика Корея смогла развивать экономические отношения с другими странами, что способствовало ее экономическому росту и процветанию. Также не будет ошибкой сказать, что благодаря стратегии «мягкой силы» Республика Корея смогла завоевать мировое признание и на порядок повысить международный имидж страны, что, в свою очередь, позволяет теперь Южной Корее влиять на мировые интеграционные процессы и успешно реализовывать свои национальные интересы. На сегодняшний день Южная Корея создала для себя так называемую «зону комфорта» в мировом масштабе, при котором корейцы будучи зарубежом также могут повсеместно видеть элементы своей культуры во множестве стран и всегда чувствовать «частичку дома».

Корейская волна – это явление, которое наблюдалось в ряде стран в начале 2000-х годов и связано с широким распространением корейской массовой культуры. Такие явления, как популярность корейских сериалов, музыки, кино, моды и еды, начали широко распространяться по всему миру и вызывать огромный интерес у миллионов людей. Однако, Корейская волна имеет не только культурный эффект – она влияет на политику и международные отношения, которые важны для Южной Кореи, и сейчас мы рассмотрим наиболее значимые из этих воздействий.

Распространение корейской культуры в качестве формы дипломатии – это одно из наиболее известных последствий Корейской волны. Южная Корея проявила свою готовность стать глобальным игроком в области культуры и искусства, а также использовать это в качестве дипломатического инструмента для укрепления своих международных отношений. Корейская волна предоставила возможность Южной Корее донести свою культуру до всех уголков мира, и это очень часто используется в качестве формы мягкой силы в отношениях с другими странами.

Укрепление образа Южной Кореи как прогрессивной и современной страны – это второе очень заметное последствие Корейской волны. Распространение корейской культуры на международном уровне позволило многим людям посмотреть на Южную Корею, с другой стороны. Через массовую культуру

[1] Рыбальская В.В. Халлю: интеграция южнокорейской культуры в мировой рынок. Журнал «Корееведение в России: направление и развитие». – Казань, 2022. [Электронный ресурс]. URL https://cyberleninka.ru/article/n/hallyu-integratsiya-yuzhnokoreyskoy-kultury-v-mirovoy-rynok

многие люди узнали о технологическом прогрессе Южной Кореи, о ее быстром росте в экономическом плане, а также об уровне жизни, который в Южной Корее является одним из самых высоких в Азии[1].

Влияние на отношения с Китаем и Японией – это немного менее распространенное, но все же очень важное последствие Корейской волны. Большая часть народов в Азиатско-Тихоокеанском регионе принимает участие в Корейской волне, включая Китай и Японию. Однако, отношения Южной Кореи с этими странами достаточно напряженные, и Корейская волна может использоваться для улучшения отношений между ними. Например, совместное производство корейско-японских драматических сериалов стало возможным благодаря Корейской волне, что, в свою очередь, способствовало укреплению отношений Южной Кореи с Японией.

В целом, Корейская волна имеет значительные последствия в политической области не только для Южной Кореи, но и для других стран. Эти последствия приводят к улучшению международных отношений, укреплению имиджа Южной Кореи, а также целому спектру других политических и экономических воздействий.

[1] Степанова Л. Л. Влияние «корейской волны» на экономику и туризм Южной Кореи // Казанский вестник молодых учёных. 2020. № 2. С. 60

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

OQILIDDIN ALIMOV
Dotsent, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU

Sharqiy Osiyodagi geoiqtisodiy megatrendlar: mintaqaviy integratsiyaning xalqaro-siyosiy va institutsional jihatlari

Annotatsiya. *So'nggi yillarda Osiyo–Tinch okeani mintaqasida kuzatilgan asosiy geoiqtisodiy tendensiyalar davlatlar tomonidan shakllantirilgan mintaqaviylik va bozor tamoyillariga asoslangan mintaqaviylashuv singari o'zaro bog'liq jarayonlar bilan belgilanmoqda. Bu ikki yo'nalishning uyg'unligi mintaqaviy integratsiyaning kengayishi va chuqurlashishiga zamin yaratdi. Bu mintaqadagi rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar jahon bo'ylab barqaror rivojlanish prinsiplarini qabul qilish va amalga oshirishda eng faol davlatlardan biri bo'lib turibdi. Mintaqadagi ko'plab hukumatlar BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini (SDG) – jumladan, qashshoqlikni bartaraf etish, ochlikka chek qo'yish, sog'liqni saqlash va farovonlikni ta'minlash, sifatli ta'limni joriy etish kabi maqsadlarni qo'llab-quvvatlaydi va ularga erishishga intiladi.*

Mintaqadagi yana bir muhim megatrend – infratuzilma va aloqaning kengayishi. Bunda, hukumatlarning roli yanada muhim ahamiyatga ega. Yevropa Ittifoqi, AQSH va Hind–Tinch okean mintaqasidagi Osiyo mamlakatlari raqamli texnologiyalar, transport infratuzilmasi va energiya sohalarida aloqa barpo etishga intilishmoqda. Xitoyning Bir makon, bir yo'l loyihasi, Yaponiyaning sifatli infratuzilma uchun hamkorlik dasturi, YEIning Yevropa va Osiyoni bog'lash Strategiyasi yoki G7 tomonidan qabul qilingan Build Back Better World kabi loyihalar turli hukumatlar va guruhlarning Hind–Tinch okean mintaqasidagi infratuzilma rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga bo'lgan intilishini namoyon etmoqda.

Zamonaviy bosqichda jahon iqtisodiy va siyosiy hayotining markazi Osiyo–Tinch okean mintaqasiga ko'chib o'tayotgani haqidagi yondashuv ikki raqobatdosh integratsiya megaloyihasi: "Trans–Tinch okean bo'yicha keng qamrovli va progressiv kelishuv" (Comprehensive and Progressive Agreement for Trans-Pacific Partnership (CPTPP) hamda "Keng qamrovli mintaqaviy iqtisodiy sheriklik" (Regional Comprehensive Economic Partnership (RCEP) shaklida o'z tasdig'ini topmoqda. Bu integratsiya birlashmalari o'zining ulkan ko'lami tufayli kelajakda nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda savdo-iqtisodiy manzarani tubdan o'zgartirishi mumkin.

Tayanch so'z va iboralar: *geoiqtisodiy transformatsiyalar, "Hind–Tinch okeani konsepsiyasi", iqtisodiy o'sish, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish, mintaqaviy integratsiya, mintaqaviy institutlar, CPTPP, RCEP, ASEAN.*

Аннотация. *В последние годы ключевые геоэкономические тенденции, наблюдаемые в Азиатско-Тихоокеанском регионе, определяются взаимосвязанными процессами: с одной стороны — регионализмом, формируемым на уровне государств, с другой — регионализацией, основанной на рыночных принципах. Синергия этих двух направлений способствовала расширению и углублению региональной интеграции. Развивающиеся и наименее развитые страны региона в настоящее время выступают одними из наиболее активных участников глобального движения по принятию и реализации принципов устойчивого развития. Многие правительства региона поддерживают и стремятся достичь целей Повестки дня ООН в области устойчивого развития (Sustainable Development Goals — SDG), включая такие задачи, как искоренение бедности, преодоление голода, обеспечение здоровья и благополучия, внедрение качественного образования.*

Другим важным мегатрендом в регионе является развитие инфраструктуры и коммуникаций, при этом роль правительств приобретает всё большее значение. Европейский союз, Соединённые Штаты Америки, а также азиатские государства Индо-Тихоокеанского региона стремятся к укреплению связей в таких сферах, как цифровые технологии, транспортная инфраструктура и энергетика. Такие инициативы, как китайский проект «Один пояс — один путь», японская программа сотрудничества по качественной инфраструктуре, стратегия ЕС по соединению Европы и Азии, а также принятая странами G7 инициатива «Build Back Better World», отражают стремление различных государств и международных объединений поддерживать инфраструктурное развитие Индо-Тихоокеанского региона.

На современном этапе усиливается подход, согласно которому центр мировой экономической и политической активности смещается в Азиатско-Тихоокеанский регион. Это подтверждается появлением двух конкурирующих интеграционных мегапроектов: «Всеобъемлющее и прогрессивное соглашение по Транс-Тихоокеанскому партнерству» (Comprehensive and Progressive Agreement for Trans-Pacific Partnership, CPTPP) и «Всеобъемлющее региональное экономическое партнёрство» (Regional Comprehensive Economic Partnership, RCEP). Благодаря своему масштабному охвату, данные интеграционные объединения способны в перспективе кардинально изменить торгово-экономическую картину не только в Азии, но и во всем мире.

Опорные слова и выражения: *геоэкономические трансформации, концепция Индо-Тихоокеанского региона, экономический рост, зелёная экономика и устойчивое развитие, региональная интеграция, региональные институты, CPTPP, RCEP, ASEAN.*

Abstract. *In recent years, the key geoeconomic trends observed in the Asia-Pacific region have been shaped by interrelated processes such as state-led regionalism and market-driven regionalization. The convergence of these two approaches has laid the foundation for the expansion and deepening of regional integration. Developing and least developed countries within the region have emerged as some of the most active participants globally in adopting and implementing the principles of sustainable development. Many governments in the region support and strive to achieve the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs), including eradicating poverty, ending hunger, ensuring health and well-being, and providing quality education.*

Another significant megatrend in the region is the expansion of infrastructure and connectivity, in which the role of governments has become increasingly important. The European Union, the United States, and Asian countries within the Indo-Pacific region are seeking to enhance connectivity in the fields of digital technologies, transportation infrastructure, and energy. Projects such as China's Belt and Road Initiative, Japan's Partnership for Quality Infrastructure, the EU's Strategy for Connecting Europe and Asia, and the G7's Build Back Better World initiative exemplify the growing efforts by various states and coalitions to support infrastructure development in the Indo-Pacific region.

At the current stage, the notion that the center of global economic and political dynamics is shifting toward the Asia-Pacific region is increasingly being substantiated through the emergence of two competing megaregional integration projects: the Comprehensive and Progressive Agreement for Trans-Pacific Partnership (CPTPP) and the Regional Comprehensive Economic Partnership (RCEP). Owing to their vast scale, these integration frameworks have the potential to fundamentally reshape the trade and economic landscape not only in Asia but also globally.

Keywords and expressions: *geoeconomic transformations, Indo-Pacific concept, economic growth, green economy and sustainable development, regional integration, regional institutions, CPTPP, RCEP, ASEAN.*

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklar davomida Osiyo–Tinch Okeani mintaqasida kuzatilgan asosiy geoiqtisodiy tendensiyalar davlatlar tomonidan shakllantirilgan mintaqaviylik (state-led regionalism) va bozor tamoyillariga asoslangan mintaqaviylashuv (market-led regionalisation) singari o‘zaro bog‘liq jarayonlar bilan belgilanmoqda. Bu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi mintaqaviy integratsiyaning kengayishi va chuqurlashishiga zamin yaratdi.

Mazkur jarayonning ilk bosqichi Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Yaponiya hamda to‘rt “Osiyo yo‘lbarslari” – Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya va Tayvanning o‘zaro iqtisodiy hamkorligi, ayniqsa, AQSH bilan iqtisodiy aloqalarni faol rivojlantirishi bilan boshlangan. Keyingi davrda, xususan, o‘tgan asrning 80-yillaridan e’tiboran, Xitoy Xalq Respublikasining tashqi dunyoga ochilishi natijasida mintaqadagi iqtisodiy integratsiya yanada kengaydi. Shuningdek, Indoneziya, Malayziya, Filippin va Tailand singari davlatlar ham mintaqaviy ishlab chiqarish va investitsiya tarmoqlariga faol ravishda qo‘shildi.

Ushbu jarayonning yana bir muhim jihati Yevropa davlatlarining, jumladan, Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniyaning mintaqadagi iqtisodiy faolligi bilan bog‘liq. Ularning mintaqa bilan iqtisodiy hamkorlikka kirishishi trans-regional iqtisodiy aloqalarni kuchaytirdi.

Sovuq urush tugaganidan so‘ng jarayon yangi bosqichga o‘tdi. Janubi -Sharqiy Osiyoning kommunistik rejimiga mansub davlatlari, ayniqsa, Vetnam, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik tarmoqlariga integratsiyalashdi. Shu bilan birga, Avstraliya, Hindiston va Yangi Zelandiyaning mintaqadagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni faol kengaytirishi ushbu jarayonni yanada tezlashtirdi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 1990-yillardan boshlab Yevropa Ittifoqi Osiyo–Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy tarmoqlarga integratsiya jarayonida faol ishtirok eta boshladi . Bu jarayon global iqtisodiy hamkorlik va transmintaqaviy integratsiyaning kengayishiga xizmat qildi.

Maqsad va vazifalar. Tadqiqotning maqsadi sifatida Osiyo–Tinch okeani mintaqasidagi zamonaviy geoiqtisodiy megatrendlarning xususiyatlari, mintaqada geoiqtisodiy tendensiyalarning shakllanish jarayonlari, global va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning siyosiy-tashkiliy asoslarining shakllanishi, yangi mintaqaviy formatlarning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish va yoritish kabi vazifalar qo‘yilgan.

Usullar: maqolada nazariy-metodologik, statistik tahlil va tizimlashtirish tamoyillari, shuningdek, qiyosiy, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza. Geoiqtisodiy nuqtayi nazardan, mintaqaviy integratsiya hanuz Sharqiy Osiyo va Osiyo–Tinch okean mintaqalari orasidagi farq bilan shakllanishda davom etmoqda. Buning asosiy sababi, Hindistonning mintaqaviy savdo shartnomalari va geoiqtisodiy tarmoqlarda nisbatan kamfaolligida ko‘rinadi. Shunga qaramasdan, Hind–Tinch okean konsepsiyasining “Hind” komponenti Tinch okeani va “Osiyo quruqligi” komponentlariga nisbatan kamroq mustahkam ekanligini kuzatish mumkin.

Biroq, Hindiston va Hind okeanining mintaqaviy iqtisodiyotlar uchun muhimligini, Janubi-Sharqiy Osiyo va Janubiy Osiyo bilan yaqinlashgan infratuzilma va iqtisodiy loyihalarning markaziy ahamiyatini inobatga olgan holda, Yevropa Ittifoqi va boshqa davlatlarning Hind–Tinch okeaniga oid strategiyalaridagi iqtisodiy komponentlar kelgusida Hind–Tinch okeanining geoiqtisodiy ahamiyatining o‘sishiga ishora qilmoqda.

Tinch va Hind okeanlari atrofidagi hududlar yaqingacha “Osiyo–Tinch okean mintaqasi” deb nomlanar edi. Bu atama, ko‘p yillar davomida, mintaqaviy geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi an’anaviy tushuncha bo‘lib kelgan. Biroq, 2007 yilda Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe tomonidan yangi konsepsiya yoki strategik yo‘nalish sifatida “Hind–Tinch okeani mintaqasi” atamasi kiritildi. Bu qaror, global geosiyosiy muhitdagi o‘zgarishlarga munosabat, shuningdek, Yaponiyaning mintaqadagi iqtisodiy va xavfsizlikka oid manfaatlarini ishlab chiqishga qaratilgan kompleks strategiyaning bir qismi sifatida qabul qilindi.

Keyinchalik, 2010-yilda AQSH Davlat kotibi Xillari Klinton ushbu hududni “Hind–Tinch okeani mintaqasi” deb nomladi. Bu esa AQSH ning mintaqadagi siyosiy yo‘nalishini aniq namoyon etdi. Klintonning bu ta’rifi ortidan AQSH o‘zining iqtisodiy va xavfsizlik sohasidagi, ayniqsa, Xitoyning o‘sib borayotgan ta’siriga qarshi turishni nazarda tutadigan strategik qarashlarini yanada kengaytirishga intildi. 2017-yilda, Tramp ma’muriyati ham ushbu hududni “Hind–Tinch okeani mintaqasi” deya tilga oldi. Ushbu yondashuv, AQSH ning mintaqadagi geosiyosiy

tahdidlarga nisbatan qo‘ygan yangi nuqtayi nazarini tasdiqladi. Mazkur atama AQSH ning strategiyasini qayta shakllantirish va mintaqaviy ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu bilan, Tramp ma’muriyati mintaqani Xitoyning ekspansiyasidan xatarsizlashtirish va strategik barqarorlikni saqlashga qaratilgan yangi siyosatni ilgari surdi.

Shu tarzda, “Hind–Tinch okean mintaqasi” atamasi, geografik va siyosiy jihatdan, so‘nggi yillarda, ayniqsa, AQSH , Yaponiya, Avstraliya va Hindistonda tez-tez ishlatilayotgan tushunchaga aylandi. Ushbu konsepsiyaning asosiy mohiyati ikki okeanni qamrab oluvchi inkluziv megaregionni barpo etishga qaratilgan strategiyani amalga oshirishdan iborat. Konsepsiya ta’rifining ishlatilishiga nisbatan ko‘plab talqinlar mavjud bo‘lib, bu uning kuchli tomonidir, chunki davlatlar uni o‘z shart-sharoitlariga moslashtirishlari mumkin. Ammo, shuningdek, bu uning eng katta zaifligi hamdir, chunki bunday moslashuvchanlik, konsepsiyaning kelajakdagi mintaqaviy xavfsizlik tartibini shakllantirishga qobiliyatsiz bo‘lish ehtimoliga ishora qiladi. Ayni paytda, ayrim versiyalarning, ayniqsa, AQSH ma’muriyati tomonidan Xitoyning raqib sifatida belgilanishi, mintaqadagi Xitoyning strategik sheriklarini xavotirga soladi.

Qolaversa, “Hind–Tinch okeani mintaqasi” konsepsiyasining ko‘pincha Xitoyni siqish maqsadida ishlatilishi, uning asosiy tarafdorlari (Avstraliya, Yaponiya, Hindiston va AQSH)ning «Quad» formatidagi hamkorligi, bu konsepsiyani Xitoyga qarshi siyosat bilan bog‘laydi. Ayni paytda, ushbu konsepsiyani ishlab chiqishda iqtisodiy rivojlanish, mintaqaviy barqarorlik va o‘zaro aloqaga intilgan inklyuziv siyosatni ilgari surishga yo‘naltirilgan strategiyalarning muhimligi alohida e’tiborga molikdir. Buning uchun, konsepsiyaning asosiy prinsiplari sifatida o‘zaro bog‘liqlik va inklyuzivlikni belgilash, uning amalga oshishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Ushbu konsepsiyaning geosiyosiy va geoiqtisodiy mohiyatini tushunish uchun, avvalo, uning ikki muhim elementga – global xavfsizlik va iqtisodiy integratsiyaga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilish zarur.

Geosiyosiy nuqtayi nazardan, “Hind–Tinch okeani mintaqasi” konsepsiyasi bir necha strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Birinchi navbatda, ushbu konsepsiya, asosan, Xitoyning global ta’siriga qarshi turish vositasi sifatida kuzatilmoqda. Hozirgi kunda, Xitoyning iqtisodiy va harbiy o‘sishi, ayniqsa, Janubiy Xitoy dengizidagi va Sharqiy Xitoy dengizidagi harbiy-siyosiy dominantligi ushbu konsepsiyaning geosiyosiy kontekstda shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlari va Avstraliya kabi davlatlar, Xitoyning mintaqadagi mustahkamlashuvini o‘zlariga tahdid hisoblab, ushbu konsepsiyani Xitoyning ekspansiyasini to‘xtatish va unga nisbatan geosiyosiy ravishda raqobatlashish maqsadida qo‘llashmoqda. Yaponiya va Hindiston uchun bu konsepsiya mintaqaviy qudratning muvozanatini saqlash omili sifatida ko‘riladi.

“Hind–Tinch okean mintaqasi” konsepsiyasining geoiqtisodiy mohiyati, o‘z navbatida, global savdo yo‘llarining asosiy qismi bo‘lgan Tinch va Hind okeanlari atrofidagi davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya va hamkorlikni kuchaytirishga qaratilganligini nazarda tutadi. Ayniqsa, Tinch okeandagi savdo va transport yo‘llari umumiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sanaladi. Mazkur konsepsiya ko‘p jihatdan, birinchi navbatda, savdo, energetika, ishlab chiqarish va texnologik innovatsiyalar kabi sohalardagi hamkorlikni oshirishga yordam beradi.

Ko‘p davlatlar, ayniqsa, Avstraliya, Yaponiya va Hindiston, ushbu konsepsiyani o‘z iqtisodiy faoliyatini kengaytirish va mintaqadagi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish vositasi sifatida qabul qilmoqda. Buning natijasida, ularda to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘p mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash va umumiy iqtisodiy majmuaga integratsiyalashish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Xususan, Avstraliya va Hindiston kabi davlatlar, shunday integratsiya orqali mintaqaviy energetika xavfsizligini ta’minlash, yangi ishlab chiqarish salohiyatini ishga solish va savdo yo‘nalishlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘z navbatida, Xitoy va Rossiya kabi davlatlar uchun bu konsepsiya, ularning strategik manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin. Bu holat, axborot va xavfsizlik sohasidagi raqobatning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasi “Hind–Tinch okean mintaqasi” konsepsiyasini qo‘llab-quvvatlamaydi va unga nisbatan jiddiy tanqidiy pozitsiyani egallaydi. Rasmiy Moskva nuqtayi nazariga ko‘ra, mazkur konsepsiya Amerika Qo‘shma Shtatlari manfaatlariga xizmat qiluvchi geosiyosiy tashabbus sifatida baholanadi. Shuningdek, u Rossiya va Xitoyga qarshi strategik bosim mexanizmi sifatida qabul qilinmoqda. Rossiya siyosiy isteblishmenti ushbu konsepsiyani xalqaro munosabatlarda Sovuq urush davridagi qarama-qarshiliklarning qayta tiklanishini anglatuvchi formula sifatida ko‘radi. Rossiya tomoni ushbu yangicha hududiy-siyosiy konsepsiyani notabiiy va sun’iy shakllantirilgan siyosiy konstruksiya deb hisoblaydi va mintaqadagi mavjud ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlariga xususan, ASEAN va SHHT kabi tuzilmalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri tahdid solishi mumkin, degan fikr ustuvor.

2019-yilda Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri “Osiyo–Tinch okean mintaqasi”dan “Hind–Tinch okeani mintaqasi”ga o‘tish orqali mintaqada keskin qarama-qarshiliklar, siyosiy tartibsizliklar va strategik beqarorlik yuzaga kelishi mumkinligini ochiq bayon etdi. Uning fikricha, bu jarayon mintaqadagi mavjud hududlararo ishonch va integratsion jarayonlarga putur yetkazishi ehtimoldan xoli emas. Shuningdek, Rossiya ekspert doiralarida “Hind–Tinch okeani mintaqasi” konstruksiyasining shakllanishi AQSH ning Afg‘onistondan chiqishi bilan bog‘liq yangi strategik muvozanatning o‘zgarishi natijasida yuzaga kelganini ta’kidlash tendensiyasi ham mavjud. Xususan, energetika sohasidagi istiqbolli loyihalar va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tashabbuslari “Hind–Tinch okeani” konsepsiyasi

orqali ikkinchi darajali maqomga tushib qolishi, u yoki bu tarzda AQSH ning geostrategik maqsadlariga bo‘ysundirilishi mumkinligi haqida jiddiy xavotirlar mavjud.

Shu bilan birga, agar konsepsiya ko‘proq ikki muhim prinsip – inkluzivlik va o‘zaro bog‘liqlikka asoslansa, u global barqarorlik, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va har tomonlama integratsiyani qo‘llab-quvvatlashga qodir bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, strategik sheriklik va davlatlararo munosabatlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Osiyo–Tinch okean mintaqasida integratsion guruhlarning shakllanishi.

Osiyo–Tinch okean mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya savdo va investitsiyalar asosida shakllangan hamda bu jarayon hozirgacha savdo va investitsiyalarning mintaqaviylashuvi bilan ustuvorlik qilmoqda. Bu geoiqtisodiy megatrendlar kelgusi o‘n yilliklarda ham davom etish ehtimoliga ega, chunki u bozor kuchlari tomonidan yo‘naltirilmoqda. Davlatlarning bu jarayonni nazorat qilishga bo‘lgan harakati samarasiz kechmoqda. Shu sababli, savdo shartnomalari, investitsiya kelishuvlari va boshqa hukumatlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan bitimlar, ko‘pincha mavjud tendensiyalarni qo‘llab-quvvatlash va tezlashtirishga xizmat qilyapti, xolos.

O‘tgan davr davomida mintaqada ikki alohida siyosiy, savdo va investitsiya guruhlari shakllandi. Bu – Sharqiy Osiyo va Osiyo–Tinch okeani mintaqasi integratsion guruhi. Asosiy farqlovchi jihat AQSH hamda Kanada va ba’zi Lotin Amerikasi mamlakatlarining bu guruhlarga kirish-kirishmasligida ko‘rinadi. Masalan, AQSH Sharqiy Osiyo iqtisodiy mintaqaviylashuvi yoki ASEAN+3 iqtisodiy muvofiqlashtirish tizimida ishtirok etmagan. Shuningdek, AQSH 2020-yilda imzolangan mintaqaviy umumiy iqtisodiy hamkorlik (RCEP) kelishuviga ham qo‘shilmagan. Shu o‘rinda AQSH 1989-yilda tashkil etilgan Osiyo–Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik forumining asos soluvchi a’zosi bo‘lgan. Vashington 2016-yilda imzolangan Trans–Tinch okean sherikligi (TPP)ning ham asoschilaridan biri edi, ammo keyinchalik undan chiqdi va qolgan a’zolar 2018- yilda Trans–Tinch okean sherikligi kelishuvining Kompleks va Rivojlantirilgan versiyasi (CPTPP)ni imzoladilar. Kanada va Chili, Meksika, Peru kabi davlatlar ham ushbu tashabbuslarning bir qismi bo‘lib kelmoqda. Shu jihatdan, Osiyo–Tinch okeani va Sharqiy Osiyo mintaqasi o‘rtasidagi institutsional farq kuzatilmoqda.

Hind–Tinch okeani mintaqasidagi integratsiya: Sharqiy Osiyo va Osiyo–Tinch okeani guruhlarining muvozanati.

Shuni ta’kidlash kerakki, so‘nggi paytlarda mutaxassislar va mintaqa davlatlarining siyosiy isteblishmenti Sharqiy Osiyo va Osiyo–Tinch okeani guruhlarining bir-birini to‘ldirishi xususiyatiga e’tibor berishmoqda. Mintaqadagi kelishuvlar “noodle bowl” (ya’ni, bir-biriga bog‘liqlik) tarzida shakllangan bo‘lib, ular bir-birini istisno etmaydi. Masalan, RCEP va CPTPP kelishuvlarini olaylik.

Avstraliya, Bruney, Yaponiya, Malayziya, Yangi Zelandiya, Singapur va Vyetnam kabi yetti mamlakat har ikkala kelishuvni ham imzolagan. Shu bilan birga, RCEP a'zolari bo'lgan Xitoy, Indoneziya, Janubiy Koreya, Filippin va Tailand davlatlari CPTPPga qo'shilish xohishlarini bildirganlar. Mintaqadagi ko'plab davlatlar boshqa ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama savdo va investitsiya kelishuvlarini imzolagan, ayrimlari esa Yevropa Ittifoqi va AQSH bilan ham kelishuvlar tuzgan.

Bu "noodle bowl" tizimi kelgusida yanada kengayishi va yangi davlatlar mavjud kelishuvlarga qo'shilishi, shuningdek, yangi kelishuvlar imzolanishi ehtimoliga ega. Bu, albatta, bozor kuchlari bilan birgalikda, savdo va investitsiya integratsiyasini yanada rivojlantiradi va shunga muvofiq, Hind–Tinch okeani mintaqaviy integratsiyasini kuchaytirishi mumkin. Bu, o'z navbatida, Osiyo–Tinch okeani yoki Sharqiy Osiyo integratsiyasidan ko'ra, Hind–Tinch okeani integratsiyasini mustahkamlashga olib kelishi mumkin.

Kelgusi o'n yillikda davom etishi kerak bo'lgan yana bir muhim megatrend – infratuzilma va aloqaning kengayishi. Bu holatda, hukumatlarning roli yanada muhim ahamiyatga ega. Yevropa Ittifoqi, AQSH va Hind–Tinch okeani mintaqasidagi Osiyo mamlakatlari raqamli texnologiyalar, transport infratuzilmasi va energiya sohalarida aloqa barpo etishga intilishmoqda. Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" loyihasi, Yaponiyaning sifatli infratuzilma uchun hamkorlik dasturi, YEIning Yevropa va Osiyoni bog'lash Strategiyasi yoki G7 tomonidan qabul qilingan Build Back Better World kabi loyihalar turli hukumatlar va guruhlarning Hind–Tinch okean mintaqasidagi infratuzilma rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga bo'lgan intilishini namoyon etmoqda.

Shu bilan birga, bozor kuchlari Hind–Tinch okeani mintaqasidagi geoiqtisodiy megatrendlarning yana bir muhim harkatlantiruvchi kuchidir. Natijada, infratuzilmani qurish va mintaqani bog'lash uchun asosiy kapital va ekspertlik bilimlarini xususiy kompaniyalar taqdim etmoqda, shuningdek, loyihalarni boshqarishda ham ishtirok etmoqda.

Iqtisodiy o'sish, yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish: Hind–Tinch okean mintaqasidagi asosiy geoiqtisodiy transformatsiyalar.

Hind–Tinch okean mintaqasida yuqori iqtisodiy o'sish sur'ati hudud uchun xos bo'lgan asosiy megatrendlardan biri bo'lib, u yaqin kelajakda ham davom etishi ehtimoldan yiroq emas. Ta'kidlash lozimki, 2030-yilga borib, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Yaponiya va Janubiy Koreya dunyodagi eng yirik o'nta iqtisodiyot qatoriga kiradi. Bundan tashqari, hozirgi kunda dunyodagi eng yirik iqtisodiyot bo'lgan AQSH 2030-yildan keyin ham uch yetakchi iqtisodiyotlardan biri sifatida qolishi kutilmoqda.

1997–1998-yillardagi Osiyo moliyaviy inqirozi, 2008-yildagi jahon moliyaviy inqirozi yoki 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi kabi kuchli iqtisodiy to'siqlar Hind–Tinch okeani mintaqasining yuqori o'sish sur'atlarini to'xtata olmadi.

Yaponiya, Janubiy Koreya va Tayvan kabi rivojlangan iqtisodiyotlar so‘nggi yillarda o‘sish sur’atining pasayishini boshdan kechirgan bo‘lsalar-da, Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Tailand va Vyetnam kabi rivojlanayotgan va yuksalayotgan iqtisodiyotlar mintaqaviy o‘sishning asosiy drayverlari bo‘lib qolmoqda.

Darhaqiqat, ushbu hududdagi mamlakatlar 2008-yildagi moliyaviy inqiroz va 2020-yildagi pandemiyadan Yevropa, Shimoliy Amerika va boshqa jahon mintaqalariga nisbatan ancha kichik iqtisodiy zarar ko‘rgan. Bu, o‘z navbatida, ularning iqtisodiy barqarorligi va qayta tiklanish salohiyati yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot modellariga o‘tish iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. COVID-19 pandemiyasidan so‘ng ko‘plab mamlakatlar o‘z iqtisodiy o‘sish modellarini qayta ko‘rib chiqishga o‘tishdi. Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQSH kabi Hind–Tinch okean mintaqasidagi yetakchi davlatlar barqarorlik tamoyillariga asoslangan yashil rivojlanish strategiyalarini e’lon qildilar.

Bu strategiyalar, aslida, so‘nggi yillardagi iqlim o‘zgarishiga oid xavotirlar va atrof-muhit holatini yaxshilashga qaratilgan ichki ijtimoiy bosimlar natijasida shakllangan uzoq muddatli rejalarga ham tayanadi. Ushbu strategiyalar natijasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kengaymoqda, barqaror infratuzilma qurilmoqda. Boshqacha aytganda, yashil iqtisodiyot endi faqat siyosiy bayonotlar darajasida qolmay, amaliyotga joriy etilayotgan aniq loyihalarga aylanmoqda.

Shu bilan birga, mintaqaning kam rivojlangan davlatlari uchun yashil iqtisodiyot hanuz iqtisodiy o‘sishning ikkinchi darajali masalasi bo‘lib qolmoqda. Bu mamlakatlar uchun ustuvor vazifa – aholini qashshoqlikdan chiqarish va o‘rta qatlam sonini ko‘paytirishdir. Shuning uchun, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun yaqin va o‘rta istiqbolda yashil o‘sishga nisbatan an’anaviy iqtisodiy o‘sish ustuvor bo‘lib qolishi ehtimoli yuqori.

Xitoy misolida esa, yashil o‘sish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida qanday muvozanat shakllanishi hali ham aniq emas. Bu muvozanat kelgusi yillarda mamlakatning ichki siyosiy ustuvorliklari, tashqi iqtisodiy bosimlar va texnologik imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Yashil o‘sish bilan o‘zaro bog‘liq holda barqaror rivojlanish ham Hind–Tinch okean mintaqasida kelgusi o‘n yillikda faol sur’atda rivojlanishi kutilgan muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Yaponiya, Janubiy Koreya va Tayvan kabi mintaqaning rivojlangan davlatlari so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish yoki “barqaror o‘sish” konsepsiyasiga o‘tishni boshlagan.

Shu bilan birga, Hind–Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlar jahon bo‘ylab barqaror rivojlanish prinsiplarini qabul qilish va amalga oshirishda eng faol davlatlardan biri bo‘lib turibdi. Mintaqadagi ko‘plab hukumatlar BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini (SDG) – jumladan,

qashshoqlikni bartaraf etish, ochlikka chek qo‘yish, sog‘liqni saqlash va farovonlikni ta’minlash, sifatli ta’limni joriy etish kabi maqsadlarni qo‘llab-quvvatlaydi va ularga erishishga intiladi.

Shunday qilib, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Hind–Tinch okean mintaqasidagi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun iqtisodiy o‘sish asosiy ustuvorlik bo‘lib qolishi ehtimoli yuqori. Xitoy misolida esa, barqaror rivojlanishga qanchalik ustuvorlik berilishi biroz noaniq va bu masala kelgusi yillarda muayyanlashishi kutilmoqda.

Ta’minot zanjirlarining xavfsizligi va diversifikatsiyasi.

So‘nggi yillarda, ayniqsa, Xitoyning ochiq iqtisodiyotga o‘tishi va Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi ortidan, Hind–Tinch okeani mintaqasida ta’minot zanjirlarining integratsiyalashuvi muhim geoiqtisodiy o‘zgarishlardan biriga aylandi. Shu bilan birga, ta’minot zanjirlarining xavfsizligi va diversifikatsiyasi masalasi COVID-19 pandemiyasigacha dolzarb bo‘lib ulgurgan edi, pandemiya esa bu masalani mintaqadagi eng ustuvor muammolar qatoriga olib chiqdi.

Pandemiyadan avval Hind–Tinch okeanida yagona mintaqaviy ta’minot zanjiri mavjud emas edi. Aksincha, Xitoyni markaziy bo‘g‘in sifatida namoyon etgan, butun Sharqiy Osiyoni, va tobora global miqyosdagi davlatlarni qamrab olgan Xitoyga qaram ta’minot zanjiri shakllangan edi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, pandemiya davrida Xitoyning jahon ishlab chiqarish hajmidagi ulushi rekord darajaga yetib, umumiy qiymatning taxminan 30 foizini tashkil etdi. Hind–Tinch okeani mintaqasidagi boshqa yetakchi ishlab chiqaruvchi davlatlar qatorida AQSH , Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreya va Indoneziya ham kuchli pozitsiyaga ega.

Xitoyning “dunyo fabrikasi” sifatidagi roli va unga ortib borayotgan qaramlik ta’minot zanjirlarini diversifikatsiya qilishga doir chaqiriqlarning asosiy drayveri bo‘ldi. Bundan tashqari, AQSH hamda Yevropa Ittifoqi tomonidan ta’minot zanjirlarini Xitoydan uzoqlashtirishga qaratilgan siyosiy tashabbuslar, Yaponiyaning muayyan darajadagi qo‘llab-quvvatlovi ushbu diversifikatsiya jarayonini ro‘yobga chiqarish ehtimolini kuchaytiradi.

Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, ta’minot zanjirlarining integratsiyalashuvini asosan bozor mexanizmlari shakllantirgan bo‘lib, hukumatlar tomonidan olib borilayotgan diversifikatsiya harakatlarining samaradorligi hali ham noaniq bo‘lib qolmoqda. Agar ta’minot zanjirlarini diversifikatsiya qilish amaliyotda o‘z samarasini ko‘rsata olsa, u holda Xitoy va mintaqadagi boshqa iqtisodiyotlar o‘rtasida qisman iqtisodiy ajralib ketish (decoupling) ro‘y berishi mumkin.

Bunday ajralish ehtimoli, avvalo, shu bilan izohlanadiki, ta’minot zanjirlarining chuqur integratsiyasi mintaqaviy savdo va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning, ayniqsa, Xitoyga yo‘naltirilgan investitsiyalarning asosiy turtkilaridan biri hisoblanadi.

Integratsiya va dezintegratsiya (decoupling) o‘rtasidagi muvozanat:

So‘nggi o‘n yilliklarda Hind–Tinch okean mintaqasidagi geoiqtisodiy jarayonlar chuqurlashib borayotgan iqtisodiy integratsiya bilan xarakterlanib kelmoqda. Ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bozor mexanizmlari bo‘lib, davlat siyosati muayyan darajada muhim, biroq ikkinchi darajali omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat kelgusi o‘n yillikda ham integratsiya mintaqaning geoiqtisodiy manzarasida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolish ehtimolini izohlaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan va yuksalayotgan iqtisodiyotga ega mamlakatlar iqtisodiy o‘sishni o‘zlari uchun eng ustuvor maqsad sifatida belgilab qo‘ygan bir paytda, ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyot masalalari hanuzgacha ikkinchi darajadagi vazifalar sifatida qaralmoqda.

Bunday sharoitda mintaqaviy iqtisodiy integratsiya ushbu davlatlarning o‘sishga qaratilgan strategik maqsadlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ta’minot zanjirlarining xavfsizligi va diversifikatsiyasiga oid sa’y-harakatlar, shuningdek, infratuzilma va o‘zaro bog‘liqlik sohasidagi turlicha yondashuvlar kelgusi o‘n yillikda qisman iqtisodiy ajralish (partial decoupling) holatini keltirib chiqarishi mumkin. Ta’minot zanjirlari mintaqaviy savdo va to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya oqimlari uchun markaziy ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, bunday qisman ajralish integratsiya jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, to‘liq iqtisodiy ajralish amalda amalga oshishi reallikdan yiroq ekani ta’kidlanishi lozim. Hind hamda Osiyo–Tinch okeani mintaqasida Xitoyni iqtisodiy hamkorlik tuzilmalaridan butunlay chetlatishga siyosiy ehtiyoj ham, iqtisodiy manfaat ham mavjud emas. Hatto agar shunday siyosiy istak paydo bo‘lgan taqdirda ham, bozor mexanizmlari va iqtisodiy manfaatlar integratsiyani davom ettirishni talab qiladi.

Megamintaqada vujudga kelgan bunday geosiyosiy va geoiqtisodiy vaziyat mintaqaviy hamda tarnsmintaqaviy institutlarning rolini oshiradi.

Megamintaqadagi geoiqtisodiy jarayonlarning institutsional rivojlanish omili.

So‘nggi ikki o‘n yillik ichida jahon iqtisodiy va siyosiy hayotining markazi Osiyo–Tinch okean mintaqasiga ko‘chib o‘tayotgani haqidagi yondashuv ikki raqobatdosh integratsiya megaloyihasi: “Trans–Tinch okeani bo‘yicha keng qamrovli va progressiv kelishuv” (Comprehensive and Progressive Agreement for Trans-Pacific Partnership (CPTPP) hamda “Keng qamrovli mintaqaviy iqtisodiy sheriklik” (Regional Comprehensive Economic Partnership (RCEP) shaklida o‘z tasdig‘ini topmoqda. Bu integratsiya birlashmalari o‘zining ulkan ko‘lami tufayli kelajakda nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda savdo-iqtisodiy manzarani tubdan o‘zgartirishi mumkin. Yaponiya Osiyoning ikkinchi iqtisodiyoti va dunyoning uchinchi iqtisodiyoti sifatida mintaqaviy va global darajada o‘zining iqtisodiy va siyosiy mavqeyini mustahkamlashda har ikki integratsion loyihadan samarali foydalanishni ko‘zlaydi. Buning uchun Tokio ikkala hamkorlikda ham yetakchilikni qo‘lga kiritishni maqsad qilgan. Yaponiyaning har ikki loyihada o‘z maqsadlariga

erishishdagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan Xitoy va Amerika Qo‘shma Shtatlarining integratsiya megaloyihalaridagi tashqi siyosat kursiga shuningdek, har ikkala jahon kuchlari bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini qurishga bog‘liq bo‘ladi. Tokio AQSH ning Trans–Tinch okean kelishuvidan chiqish qarorini xato deb hisoblaydi va AQSH ma’muriyatini ushbu integratsiya tuzilmasiga qaytishga undaydi. Shu bilan birga, Yaponiya Xitoyning “Trans–Tinch okeani bo‘yicha keng qamrovli va progressiv kelishuv”ga kirishi borasida ehtiyotkor pozitsiyani egallaydi.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligi oxirida Osiyo–Tinch okean mintaqasidagi integratsiya jarayonlari ikki raqobatdosh mega-loyiha: “Trans–Tinch okean hamkorligi bo‘yicha keng qamrovli va progressiv bitim” hamda “Keng qamrovli mintaqaviy iqtisodiy sheriklikning” (RCEP)(2020-yil 15-noyabrda Xanoyda onlayn imzolangan) vujudga kelishi tufayli keskin tezlashdi.

“Trans–Tinch okean hamkorligi bo‘yicha keng qamrovli va progressiv bitim”ga 11 mamlakat a’zo bo‘lib, bular – Avstraliya, Bruney, Kanada, Chili, Yaponiya, Malayziya, Meksika, Yangi Zelandiya, Peru, Singapur va Vyetnamdir. RCEP 15 ta davlatni – Avstraliya, Xitoy, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya va 10 ta ASEAN a’zosini (Bruney, Kambodja, Indoneziya, Laos, Malayziya, Myanma, Filippin, Singapur, Tailand va Vyetnam) birlashtiradi.

Bu integratsiya birlashmalari o‘zining ulkan ko‘lami tufayli kelajakda nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda savdo-iqtisodiy landshaftni tubdan o‘zgartirishi mumkin. Shu munosabat bilan, RCEPga a’zo davlatlar rahbarlarining Xanoydagi uchrashuvi yakunlari bo‘yicha e’lon qilingan qo‘shma bayonotida RCEP dunyodagi eng yirik erkin savdo bitimi sifatida savdo va sarmoyaning global qoidalari uchun ideal asos yaratish yo‘lidagi muhim qadam ekanligini alohida ta’kidlaydi[1]. Hamkorlik kotibiyati esa RCEP jahon iqtisodiyoti va siyosatini belgilab beradigan yangi savdo kelishuvi ekanligini ta’kidlaydi[2].

Ayrim xorijlik tahlilchilarning fikricha, RCEP “Osiyo asri”ning boshlanishi ramzi bo‘ladi[3]. S.V. Nozdrevning ta’kidlashicha, Qo‘shma Shtatlarning Trans–Tinch okean hamkorligidan chiqishiga qaramay, “... TTH hali ham xalqaro savdo, investitsiyalar, atrof-muhit va mehnat masalalarini qamrab olgan Osiyo–Tinch okean mamlakatlari tomonidan amalga oshirilgan eng ambitsiyali iqtisodiy integratsiya tashabbuslaridan biri sifatida qaralmoqda[4]. Yaroslav Lisovolik yana bir integratsiya loyihasi bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini quyidagicha ifodalaydi: “Eng keskin inqiroz davrida keng

[1] Asia forms world’s largest trading bloc RCEP after years of talks // Nikkei Asia, 16.11.2020.
[2] RCEP. https://rcepsec.org
[3] David Hutt and Shawn W. Crispin. RCEP trade pact heralds dawn of Asian Ccentury //Asia Times, 15.11.2020.https://asiatimes.com/2020/11/rcep-trade-pact-heralds-dawn-of-asian-century
[4] Ноздрев С.В. Азия: процессы региональной экономической интеграции // Восточная Азия: факты и аналитика. 2020. № 1. С. 34–46. DOI: 10.24411/2686-7702-2020-10003

qamrovli mintaqaviy iqtisodiy sheriklik (RCEP)ning tashkil etilishi proteksionizm va iqtisodiy tanazzulga qarshi kurashda mintaqaviylikning asosiy rolini ko‘rsatadi. Yangi tashkil etilgan mintaqaviy integratsiya bloki dunyodagi eng yirik mintaqaviy loyiha bo‘lib, jahon yalpi ichki mahsulotining deyarli 30 foizini tashkil etadi. Biroq, RCEPning yaratilishi jahon iqtisodiyoti evolutsiyasiga, ayniqsa mintaqaviy bloklar o‘rtasidagi raqobatga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. RCEP megaloyihasini ishga tushirishning eng yaqqol oqibatlaridan biri Osiyo–Tinch okeani mintaqasini liberallashtirish, savdo va jahon iqtisodiyotini o‘sish markazi sifatida yanada ilgari surishdir”[1]. D. Strelsovning fikricha, “Yaponiyaning Trans–Tinch okean sherikligi (TPP), Keng qamrovli mintaqaviy iqtisodiy sheriklik (RCEP) va Xitoy, Koreya Respublikasi va Yaponiyadan iborat Shimoli-Sharqiy Osiyo erkin savdo hududini tuzish bo‘yicha muzokaralarda bir vaqtning o‘zida ishtirok etishi mamlakat sobiq bosh vaziri S.Abening mintaqaviy integratsiyaga “inkluziv yondashuv”ni amalga oshirishga qaratilgan tashqi siyosat kursining ifodasidir”[2]. RCEP borasidagi V. Panovaning fikricha, “2020-yil 15-noyabrda mavjud global dunyo tartibini qayta formatlashda muhim bosqich boshlandi, bir vaqtlar barpo etilgan va asosan “Amerika-markaz” xalqaro institutlar va qoidalar tizimiga yana bir zarba berildi[3]. Biroq, A. N. Fedorovskiyning so‘zlariga ko‘ra, hozirgi vaqtda keng qamrovli va progressiv Trans–Tinch okeani sherikligi doirasida erishilgan iqtisodiy integratsiya masalalarining darajasi Xanoyda e’lon qilingan Bitim parametrlaridan muhimroq ko‘rinadi[4]. A.S. Korolev va G. Kalachiginning fikriga ko‘ra, RCEP umuman ilg‘or savdo kelishuvi emas va xalqaro savdodagi mavjud “o‘yin qoidalarini” o‘zgartirishga emas, balki uyg‘unlashtirishga qaratilgan[5]. Shu bilan birga, Yaponiya va Osiyo–Tinch okean mintaqasining boshqa mamlakatlarida ikki yangi integratsiya mega-loyihalariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Yaponiyalik ekspertlarning fikricha,

[1] Лисоволик Я. ВРЭП: ключевая веха в развитии мегарегионализма // Валдай. Международный дискуссионный клуб, 09.12.2020. https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/vrep-klyuchevaya-vekha-v-razvitii-megaregionalizma

[2] Стрельцов Д. Японский регионализм эпохи Синдзо Абэ через призму ценностного подхода // Мировая экономика и международные отношения. 2019. Т. 63. № 9. С. 38–49. DOI: 10.20542/0131-2227-2019-63-9-38-49

[3] Панова В. Прыжок азиатских тигров в пространство мегарегионов // Российский совет по международным делам, 08.12.2020. https:// russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/pryzhok-aziatskikh-tigrov-v-prostranstvo-megaregionov

[4] Федоровский А.Н. Подписание членами ВРЭП Соглашения о свободной торговле // Мировая экономика и международные отношения. 17.11.2020. https://www.imemo.ru/publications/relevant-comments/text/podpisanie-chlenami-vrep-soglasheniya-o-svobodnoy-torgovle

[5] Королев А.С.,Калачигин Г. На Восточном фронте есть перемены: что означает подписание ВРЭП? // Россия в глобальной политике. https://globalaffairs.ru/articles/na-vostochnom-fronte-peremeny/

barcha qiyinchilik va muammolarga qaramay, Yaponiya har ikki loyihani boshqarishda yetakchilik qilmog‘i darkor. Donald Tramp ma’muriyatining ikkala sheriklikdan masofani saqlash kursi xato bo‘lgani hamda AQSH ning loyihalarda yo‘qligi Yaponiyani ikkala kelishuvni ham integratsiya, ochiqlik, samarali boshqaruv va qonun ustuvorligiga yo‘naltirish uchun yetakchilik ko‘rsatishga majbur qiladi.

RCEP bo‘yicha muzokaralar 2012-yilda boshlangan va uzilishlar bilan davom etgan. Trans–Tinch okean sherikligining 2018-yildagi xulosasi RCEP muzokaralarida ishtirok etuvchi mamlakatlar hukumatlarini ushbu muzokaralarni tezlashtirishga majbur qildi. Kelishuvga 2019-yildayoq erishilishi mumkin edi, biroq Hindiston o‘z ichki bozoriga arzon Xitoy importining katta oqimi kirib kelishi ortidan Hindistondagi ko‘plab sanoat tarmoqlarining raqobatlasholmasligi vajidan paktdan chiqishga qaror qildi. Dehlining bu harakati muzokaralar taktikasi emasligiga ishonch hosil qilgan boshqa 15 hukumat kelishuvni yakunladi, ammo Hindiston uchun “eshiklar ochiq” qoldirildi.

RCEP – bu avtomobillar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, shu jumladan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga tariflarni olib tashlash, shuningdek, elektron tijorat va intellektual mulkni himoya qilish uchun yangi qoidalarni ishlab chiqish uchun keng qamrovli erkin savdo kelishuvidir. Shunga qaramay, Yaponiya mamlakat uchun muhim hisoblangan besh toifadagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – guruch, bug‘doy, mol go‘shti, sut mahsulotlari va shakarni tariflarni pasaytirishdan ozod qilishga muvaffaq bo‘ldi. Taxminan 20 yil ichida bojlardan ozod qilingan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ulushi Xitoy uchun 8 foizdan 86 foizga, Janubiy Koreya uchun 19 foizdan 92 foizga ko‘tariladi. Loyiha Yaponiya uchun mamlakat real yalpi ichki mahsulotini 2,7 foizga oshiradi va 570 ming ish o‘rni yaratilishini ta’minlaydi[1].

Shu o‘rinda, RCEPning ta’sirchan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlariga qaramay, uning ishtirokchilari uchun ushbu hamkorlikning real iqtisodiy foydasini ortiqcha baholamaslik kerak. Aslida, Trans–Tinch okean sherikligi RCEPga qaraganda tariflarni ko‘proq pasaytiradi va unga a’zo mamlakatlarning aksariyati allaqachon past tarif stavkalari bilan ikki tomonlama shartnomalarga ega, ASEAN a’zolari esa odatda o‘zaro erkin savdoga egadirlar. Ikki kelishuv bir-biridan farq qiladigan uch asosiy yo‘nalish – tariflarni bekor qilish, mehnat va atrof-muhit standartlariga e’tibor qaratadi. Trans–Tinch okeani sherikligi RCEP bilan solishtirganda ko‘proq tariflarni bekor qilish (99% gacha), yuqori mehnat va ekologik standartlarni maqsad qilib qo‘ygan hamda davlat korxonalariga ba’zi cheklovlar qo‘yishga harakat qilmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, RCEP 2030-yilga kelib 80 trln. dollardan oshadigan jahon iqtisodiyotiga atigi 6 milliard dollar qo‘shadi, bu uning a’zolari yalpi ichki mahsulotining 0,2 foizini tashkil qiladi[2].

[1] Japan approves far-reaching RCEP free trade deal // Japan Times, 28.04.2021.
[2] RCEP: Big numbers, bigger potential // Japan Times, 19.11.2020.

Shu bilan birga, RCEPning tashkil etilishi katta ramziy ma’noga ega. Osiyo–Tinch okeani mintaqasidagi ushbu yangi integratsiya tuzilmasi dunyoning boshqa mamlakatlaridagi hukumatlar to‘siqlar qurayotgan va proteksionizmga qaytayotgan bir paytda a’zo-davlatlarning savdoni liberallashtirish va chuqurroq integratsiyaga sodiqligining tasdig‘idir. Shuni ta’kidlash joizki, mazkur bitm Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi dunyoning yirik iqtisodiyotlarini birlashtirgan birinchi savdo kelishuvi sifatida alohida e’tiborga molik. Hozirgi vaqtda Xitoyga eksport qilinadigan yapon tovarlarining atigi 8 foiziga tariflar qo‘yilmaydigan bo‘lsa, RCEP doirasida bu ko‘rsatkich 86 foizga oshadi[1].

Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyaning yagona mintaqaviy iqtisodiy tuzilmaga kiritilishi amaldagi savdo tizimini soddalashtirish bilan birgalikda RCEPning real qiymatini sezilarli darajada oshiradi va unga katta imkoniyatlar beradi. Osiyo–Tinch okean mintaqasi bo‘yicha nufuzli ekspert Uilyam Pesekning fikricha, birinchi marta Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiyani ko‘p tomonlama savdo kelishuvida birlashtirgan RCEPni vujudga kelishida muhim voqea bo‘ldi. Tahlilchiga ko‘ra, bu kelishuv ilk bora yuz berayotgan ikki muhim voqelikni ifodalaydi. Bular Yaponiya va Janubiy Koreya o‘rtasidagi to‘siqlarni kamaytirish bo‘yicha ikki tomonlama kelishuv hamda Osiyoning bu yirik davlatlari iqtisodni siyosatdan samarali ravishda ajratishga muvaffaq bo‘lishidir[2].

Darhaqiqat, 2012-yildan beri Shimoliy-Sharqiy Osiyoda Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreyadan iborat erkin savdo zonasini yaratish bo‘yicha uzluksiz muzokaralar olib borilayotganiga qaramay, o‘zaro keskin siyosiy va hududiy mojarolar tufayli bu tashabbusning amaliyotga tatbiq etilishi qiyin kechdi.

Shu bilan birga RCEP Shimoliy Amerika erkin savdo bitimi (NAFTA) yoki Yevropa Ittifoqi (EI) kabi izchil iqtisodiy birlikni yaratish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bitim 15 a’zo davlat uchun yagona kelib chiqish qoidalarini yaratadi, bu esa ichki savdoni sezilarli darajada osonlashtiradi. Hozirda Osiyo mintaqasi ishlab chiqarishining katta qismi dunyoning boshqa qismlarida iste’mol qilinayotgan bo‘lsada, RCEP ichki bozorni rivojlantirishni rag‘batlantirishi kutilmoqda, bu esa Osiyo mamlakatlariga o‘zlari uchun ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Bu jahon iqtisodiyoti faoliyatidagi tarixiy o‘zgarishlarni ko‘rsatadi.

RCEPning yaratilishi AQSH rolining pasayishi bilan parallel ravishda Xitoyning jahon iqtisodiyotidagi rolining oshishiga olib keldi. Qolaversa, ushbu hamkorlikning shakllanishini qator ekspertlar Xitoyning g‘alabasi, Xitoy diplomatiyasining muvaffaqiyati sifatida baholamoqda. Ammo, bunday qarashlarga faqat qisman qo‘shilish mumkin. Chunki, Pekin ushbu tuzilmadan Trans–Tinch okean

[1] RCEP: Big numbers, bigger potential // Japan Times, 19.11.2020.
[2] William Pesek. US sidelined as China, Korea and Japan unite // Asia Times, 20.11.2020. https://asiatimes.com/2020/11/us-sidelined-as-china-korea-and-japan-unite

hamkorligiga qarshi muvozanat hamda Osiyo–Tinch okeani mintaqasida o‘zining iqtisodiy va siyosiy ta’sirini kuchaytirish vositasi sifatida foydalanishni ko‘zlamoqda.

Ammo shuni ham nazarda tutish kerakki, birinchidan, RCEP bitimi ASEAN tashabbusi bilan tuzilgan, ikkinchidan, Yaponiya ham o‘zining iqtisodiy va siyosiy manfaatlarida RCEPdan maksimal darajada foydalanish niyatida. RCEPning vujudga kelishi Xitoyning g‘alabasi degan da’vo hatto, hamkorlikning rasmiy veb-saytida rad etilgan, xususan: “Ko‘pincha “Xitoy boshqaruvidagi” deb nomlanadigan RCEP aslida ASEANning diplomatik sa’y-harakatlari mahsulidir. Sharqiy Osiyo bo‘yicha yirik savdo bitimining ahamiyati uzoq vaqtdan beri e’tirof etib kelingan bo‘lsa-da, biroq, mintaqaning eng yirik iqtisodiyoti bo‘lgan na Xitoy, na Yaponiya loyihaning haqiqiy me’morlari sifatida qabul qilinadi[1].

U yoki bu davlatning hamkorlikdagi ta’sirining haqiqiy o‘lchovi uning o‘z ish standartlarini ishlab chiqish va takomillashtirish yoki tuzilmaga yangi a’zolarni qo‘shishni muhokama qilishda namoyon bo‘ladi. Elektron tijorat va ma’lumotlarni nazorat qilish kabi yangi texnologiyalar va ulardan foydalanishga oid norma va qoidalar alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Rasmiy Tokioning RCEPdagi roli uning Trans–Tinch okean hamkorligiga a’zoligi bilan ham yanada oshadi. Bundan tashqari, yana oltita davlat ham har ikki erkin savdo bitimiga a’zo. O‘z navbatida, Yaponiya ular bilan yaqindan hamkorlik qilish niyatida, shu asnoda, RCEP yanada ochiqlik va liberallashuv yo‘lida rivojlanib, oxir-oqibat Trans–Tinch okeani hamkorligi bilan ideal tarzda birlashishi mumkin bo‘lgan kengroq va keng qamrovli kelishuvga aylanadi. Shu bilan birga, bir qator osiyolik mutaxassislar RCEP tashkil etilishi uning ishtirokchilari uchun, qolaversa, butun mintaqa iqtisodiyoti uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini e’tirof etgan holda, hamkorlikning cheklangan imkoniyatlari, kamchiliklari va muammolariga ham e’tibor qaratadilar. O‘zining misli ko‘rilmagan masshtabiga qaramay, RCEP bozorga kirish bo‘yicha boshqa yirik savdo shartnomalaridan orqada qolmoqda. Kelishuv tovarlarning 91 foiziga bojlarni bekor qiladi, bu Trans–Tinch okean hamkorligi yoki Yaponiyaning Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy hamkorligi to‘g‘risidagi bitimida nazarda tutilgan ko‘rsatkichlardan kamroqdir[2].

Koreya universitetining iqtisod professori, Osiyo taraqqiyot bankining sobiq bosh iqtisodchisi Li Chon Vaning so‘zlariga ko‘ra, RCEPning imzolanishi, ehtimol, COVID-19 inqirozi boshlanganidan beri eng muhim iqtisodiy yutuq bo‘ldi. Biroq, shunga qaramay, uning fikricha, ushbu integratsiya megaloyihasining o‘zi Osiyo–Tinch okean mintaqasidagi “xastalangan” ko‘p tomonlama savdo tizimini qutqara olmaydi. Iqtisodiy integratsiya Osiyo–Tinch okeani mintaqasida mamlakatlarning

[1] RCEP: A new trade agreement that will shape global economics and politics // RCEP. https://rcepsec.org/rcep-a-new-trade-agreement-that-will-shape-global-economics-and-politics/

[2] ASEAN, China, other partners set world's biggest trade pact RCEP // Mainichi, 15.11.2020.

rivojlanish darajalari, madaniyatlari va institutsional tuzilmalaridagi sezilarli farqlar, shuningdek, davom etayotgan hududiy nizolar tufayli juda qiyin[1].

Ta'kidlash joizki, RCEP muzokaralari boshlangan 2012-yilga kelib, Avstraliya, Bruney, Yaponiya, Malayziya, Yangi Zelandiya, Singapur va Vyetnam, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari kabi ishtirokchilarni o'z ichiga olgan Trans–Tinch okean hamkorligi (TPP) kelishuvi bo'yicha muzokaralar ko'p yillar davomida olib borilayotgan edi. Ko'pgina davlatlar RCEPni AQSH ishtirokisiz Osiyo uchun mintaqaviy kelishuv sifatida ko'rdilar. Shu bilan birga, "Trans–Tinch okeani bo'yicha keng qamrovli va progressiv kelishuvi" Xitoyni tiyib turishga qaratilgan integratsiya tuzilmasi sifatida qarala boshladi.

Dastlab, "Trans–Tinch okean bo'yicha keng qamrovli va progressiv kelishuv" (o'sha paytda "Trans–Tinch okeani sherikligi") AQSH sobiq prezidenti Barak Obamaning "Osiyoga burilish" deb nomlangan kengroq strategiyasining bir qismi edi. Strategiya AQSHning Xitoydan tashqari Osiyo davlatlari bilan ko'p tomonlama savdo harakatlari va mintaqadagi harbiy ishtirokini kuchaytirishdan iborat edi.

Biroq, "Trans–Tinch okeani sherikligi" AQSH Kongressida keng qo'llab-quvvatlanmadi. Prezident Donald Trump 2017-yil boshida Qo'shma Shtatlar ikki tomonlama savdo kelishuvlari foydasiga "Trans–Tinch okeani sherikligi"dan chiqishini e'lon qilganidan so'ng, RCEP Osiyoning asosiy ko'p tomonlama savdo kelishuviga aylandi.

Yaponiya qolgan 10 ta davlat, shu jumladan Avstraliya va Kanada bilan kelishuvga erishib, TPPni saqlab qolish bo'yicha sa'y-harakatlarga rahbarlik qildi va 2018-yilda rasmiy ravishda keng qamrovli va progressiv Trans–Tinch okeani hamkorlik kelishuvi deb nomlanuvchi qayta shakllantirilgan kelishuvni taklif qildi. Mazkur kelishuv bilan qamrab olingan ko'plab hududlar RCEP tomonidan ham qamrab olingan. Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, har ikkala shartnomaga kiritilgan qator davlatlar bir-biri bilan alohida ikki tomonlama erkin savdo shartnomalariga ham ega.

AQSH va Yaponiyaning nufuzli ekspertlari Yaponiya "Trans–Tinch okeani sherikligi"ni boshqarishi hamda Qo'shma Shtatlarning savdo blokiga qaytishi zarurligini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, 2020-yil dekabr oyida sobiq Davlat kotibi o'rinbosari Richard Armitaj va Garvard universiteti Jon F. Kennedi maktabining sobiq dekani Jozef Nay rahbarligida yozilgan hisobotining ("The Armitage-Nye Report") beshinchi va eng so'nggi versiyasi nashr etildi. "2020-yilda AQSH - Yaponiya ittifoqi: Global kun tartibiga ega teng ittifoq" nomli hujjatda Yaponiya siyosati bo'yicha takliflar bayon etildi[2].

[1] RCEP has its limits when it comes to saving multilateral trade // Japan Times, 07.12.2020.

[2] Include Japan in Six Eyes, Armitage-Nye report says // Nikkei Asia, 08.12.2020.

Mualliflar o‘z xulosalari orqali AQSHni tezda tuzilmaga qo‘shilishga chaqirdilar. Osiyodagi keng masshtabdagi savdo bitimini nazarda tutadigan “Mintaqaviy keng qamrovli iqtisodiy sheriklik” (RCEP) Vashington uchun ogohlantiruvchi jiddiy signal bo‘lishi kerak”, – deyiladi hisobotda[1]. Shinzo Abe davrida Yaponiya hukumati Qo‘shma Shtatlarning ushbu hamkorlikdan chiqishidan qattiq afsuslangan edi. AQSH siz mazkur tuzilma jahon yalpi ichki mahsulotining atigi 10 foizini tashkil etadigan iqtisodiy blokni tashkil qiladi. Ammo AQSH tashkilotga qaytsa, bu ko‘rsatkich 40 foizga ko‘tariladi[2].

Yaponiya sanoat mahsulotlariga AQSH ning juda katta ichki bozoriga chiqish uchun yangi keng imkoniyatlar ochgan ushbu tuzilmada ishtirok etish Abe iqtisodiy kursining (Abenomika) ustunlaridan biri edi. Kurs mamlakat iqtisodiyotini uzoq davom etgan turg‘unlik davridan keyin barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tkazishni maqsad qilgan bo‘lib, Yaponiyaning yetakchi sanoat doiralari manfaatlariga mos edi, biroq bu qadam mamlakatning noraqobatbardosh qishloq xo‘jaligi sektoriga tuzatib bo‘lmas zarar yetkazishi xavfidan qishloq xo‘jaligi lobbisining jiddiy qarshiligiga sabab bo‘ldi.

Xitoyning Osiyo–Tinch okeani mintaqasida ta’sirini kuchaytiradigan RCEP bo‘yicha kelishuvning tuzilishi Vashingtonni Trans–Tinch okeani hamkorligiga qaytishga undashi mumkin. AQSH transmilliy kompaniyalari ushbu hamkorlikka a’zo mamlakatlardagi sho‘ba korxonalari orqali RCEPdan foyda olishlari mumkin bo‘lsa-da, kelishuv Vashingtonni mintaqadagi ishtirokini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilishi mumkin[3].

Xitoy, Qo‘shma Shtatlardan farqli o‘laroq, har ikki tuzilmaga katta qiziqish bildirmoqda va aftidan, ikkala integratsiya megaloyihalaridan ham o‘z iqtisodiy manfaati uchun, ham Osiyo–Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlash uchun foydalanmoqchi. Ushbu jihat, ayniqsa, XXR va Qo‘shma Shtatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning kuchayib borayotgani nuqtai nazaridan, ikki qudratli davlatning global va mintaqaviy miqyosdagi o‘zaro ta’sirining deyarli barcha sohalarida Pekin uchun dolzarbdir. Pekin dastlab RCEPni birinchi bosqichda Vashington homiyligida Xitoyni iqtisodiy cheklash niyatida yaratilgan TPPga qarshi muvozanat sifatida ko‘rdi. Bundan tashqari, RCEP yordami bilan Tayvanning Osiyo–Tinch okeani mintaqasida izolyatsiyasini kuchaytirishga umid qilmoqda.

Xitoyning RCEPga a’zoligi Tayvanning ushbu hamkorlikka yo‘lini to‘sib qo‘yishini anglagan Taypey mintaqaviy integratsiya sohasida “aylanma yo‘l”dan

[1] Include Japan in Six Eyes, Armitage-Nye report says // Nikkei Asia, 08.12.2020.
[2] Yukihiro Sakaguchi. Japan cautiously explores possibility of US returning to TPP // Nikkei Asia, 15.05.2021.
[3] Asia-Pacific countries sign world’s largest trade pact//Asia Times. https://asiatimes.com/asia-pacific-countries-sign-worlds-largest-trade-pact

borishga va TPPga qo‘shilishga qaror qildi. Biroq, Xitoyning PPTCIga a’zo bo‘lishi Tayvan uchun muammo tug‘dirishi mumkin.

Qo‘shma Shtatlarning TPPdan chiqishi Xitoyga, garchi Yaponiya CPTPP ning geoiqtisodiy va geosiyosiy lokomotivi rolini o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa ham tuzilmada hosil bo‘lgan ma’lum bir yetakchilik bo‘shlig‘ini to‘ldirish imkonini berishi mumkin. Osiyoning ahamiyatining Vashington tomonidan past baholanishi muqarrar ravishda Osiyoning ikki yetakchi kuchi–Yaponiya va Xitoyning mintaqadagi geoiqtisodiy va geosiyosiy yuksaklik uchun raqobatining kuchayishiga olib keladi. Bu raqobat Xitoyning CPTPPga qo‘shilishi bilan yanada kuchayadi.

RCEPga kelsak, Pekin ushbu hamkorlikdan sof savdo foydasidan tashqari, Osiyo–Tinch okeani mintaqasida o‘zining “Bir kamar, bir yo‘l” megaloyihasini yanada samaraliroq ilgari surish uchun foydalanish niyatida. Sharqiy Osiyo bo‘yicha taniqli ekspert Pepe Eskobarning fikricha, RCEP savdo pakti tufayli Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi yangi impuls oladi[1]. Ko‘rinib turibdiki, Xitoyning ushbu tashabbusini dastlab Pekinning iqtisodiy va siyosiy ekspansiyasi vositasi deb hisoblagan Tokio Xitoyning RCEP yordamida bu tashabbusga “ikkinchi nafas” berishga urinishlarini diqqat bilan kuzatib boradi.

Yaponiyaning biznes nashri Nikkei Asia ta’kidlaganidek, Xitoyning RCEPni imzolash uchun Osiyo–Tinch okean mintaqasidagi boshqa 14 davlatga qo‘shilish qarori mintaqada proteksionist AQSH tomonidan qoldirilgan bo‘shliqni to‘ldirish va muzokaralar jarayonida global savdo uchun yo‘l xaritasi va qoidalarni ishlab chiqishga urinish edi. Shu bilan birga, Pekin RCEP orqali garchi bu import tariflarini kamaytirish yoki bekor qilish tufayli o‘z mahalliy sanoati uchun qiyinchiliklarni anglatsa ham, osiyo mamlakatlari bilan savdoni rivojlantirishni tanladi. Bu shuningdek, Xitoyni raqamli savdo qoidalariga rioya qilishga majburlovchi birinchi savdo kelishuvi bo‘lib, uning mamlakatga kirib kelayotgan va tashqariga chiqayotgan ma’lumotlar ustidan nazoratini zaiflashtirishi mumkin.

Yaponiya muzokaralarning boshida transchegaraviy ma’lumotlar oqimi kelajakdagi biznes faolligini va hatto kuchlarning geosiyosiy muvozanatini shakllantirishi mumkinligini ko‘rdi va bunday qoidalarni qo‘llash uchun mintaqada koalitsiya tuzish ustida ishladi. 2017-yil may oyida Xanoyda RCEPning bo‘lajak a’zolari bo‘lgan mamlakatlar vazirlarining yig‘ilishida Yaponiyaning o‘sha paytdagi iqtisodiyot, savdo va sanoat vaziri Seko Xirosige muzokaralarga raqamli qoidalarni kiritish taklifi bilan hujjat taqdim etdi.

Ushbu tashabbusga Xitoy e’tiroz bildirdi, ammo bu g‘oya Vyetnam va Singapur kabi davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va muzokara ishtirokchilari tomonidan qabul qilindi. U elektron tijorat qoidalarini belgilaydi, ular o‘rtasida erkin ma’lumotlar almashinuvini kafolatlaydi va Xitoy kabi mamlakatlarning

[1] Pepe Escobar. RCEP set to supercharge the New Silk Roads // Asia Times. https://asiatimes.com/rcep-set-to-supercharge-the-new-silk-roads.

ma’lumotlarni mahalliy serverlarda saqlash talablarini rad etadi. Tokioning asosiy strategiyasi Pekin boshchiligidagi muzokaralarning oldini olish edi. Xitoy bilan yakkama-yakka muzokaralar olib borish qiyinligini hisobga olib, Yaponiya xuddi shu maqsadni qo‘llab-quvvatlaydigan boshqa davlatlarni safga qo‘shishga harakat qildi[1].

Tokiodagi strategik tadqiqotlar forumining katta ilmiy xodimi Rupakjioti Bora, RCEPning Yaponiya uchun mumkin bo‘lgan foydalari va yo‘qotishlarini ko‘rib chiqib, mamlakatning RCEPga a’zo bo‘lishining xavflaridan biri iqtisodiy yoki boshqa har qanday sohada Xitoyga haddan tashqari qaramlik bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Koronavirus pandemiyasi davrida ko‘plab mamlakatlar iqtisodiy jihatdan Xitoyga haddan tashqari bog‘liqlik oqibatlari bilan to‘qnash keldi. Xitoy eksportiga kuchli qaram bo‘lgan Avstraliya kabi davlatlar Pekin o‘z manfaati uchun iqtisodiy dastaklardan foydalanishiga guvoh bo‘ldilar.

Tahlilchiga ko‘ra, RCEPda Hindistonning yo‘qligi ham xavotirga sabab bo‘ladi, chunki bu RCEP doirasidagi savdo Xitoy foydasiga bir tomonlama bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Pekin bu hamkorlikdagi iqtisodiy ta’siridan o‘z foydasiga va Tokioning zarariga foydalanishi mumkin[2].

Taxminlarga ko‘ra, Pekin CPTPP a’zolari bilan bo‘lajak muzokaralarda o‘z iqtisodiyotini isloh qilish bo‘yicha katta majburiyatlarni oladi. CPTPP talab qiladigan islohotlar Xitoyda hozirda mavjud bo‘lmagan mustaqil kasaba uyushmalarini shakllantirish uchun sharoit yaratishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, islohotlar davlat xaridlari va nizolarni arbitrajda yanada shaffofroq qilish, shuningdek, transchegaraviy ma’lumotlar almashinuvi va ma’lumotlarning erkin aylanishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, Xitoyning CPTPP bilan aloqasi nafaqat geoiqtisodiy, balki geosiyosiy xarakter ham kasb etadi. Pekinning ushbu savdo kelishuviga qo‘shilish imkoniyati haqidagi bayonoti asosan Tayvanning CPTPPdagi ishtirokini to‘sib qo‘yishga qaratilgan bo‘lishi mumkin, chunki Tayvanni dunyodan izolatsiyalsh Xitoy rahbariyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Aksincha, Yaponiya Tayvanning bu blokka qo‘shilishidan manfaatdor. Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan 2016-yilda tuzilgan ekspertlar guruhi o‘z hukumatiga tashqi siyosat bo‘yicha tavsiyalar to‘plamini tuzgan. Ulardan biri Yaponiyani TPPda muhim hamkorlar, jumladan, Tayvan, Janubiy Koreya, Tailand, Indoneziya va Filippin ishtirokini faol rag‘batlantirish va

[1] Japan teams with RCEP allies to push China on data free flow // Nikkei Asia, 30.12.2020.

[2] Rupakjyoti Borah. Good or Bad, Japan Joined the RCEP and Now Must Stay Alert to Keep Markets Free//Japan Forward, 02.12.2020. https://japan-forward.com/good-or-bad-japan-joined-the-rcep-and-now-must-stay-alert-to-keep-markets-free/

qo‘llab-quvvatlashga chaqirdi. Tayvanni ro‘yxatning yuqori o‘rniga qo‘yish orqali Xitoyni ichki islohotlarni o‘tkazishga undash ham ko‘zda tutilgan edi[1].

Hozircha Xitoyning CPTPPga qo‘shilishi va Qo‘shma Shtatlarning ushbu hamkorlikka qaytishi haqidagi faraziy ssenariyni tasavvur qilish yanada qiyinroq. Basharti, bu sodir bo‘lsa, Yaponiya o‘zining asosiy savdo-iqtisodiy sherigi – Xitoy va yagona harbiy va siyosiy ittifoqchisi – AQSH o‘rtasidagi ushbu hamkorlikda muvozanatni saqlash uchun nozik siyosat olib borishi kerak bo‘ladi.

Xulosa. Osiyo–Tinch okean mintaqasida ikkita raqobatlashuvchi integratsiya mega-loyihalari – Trans–Tinch okeani hamkorligi (CPTPP) va Keng qamrovli mintaqaviy iqtisodiy sheriklik (RCEP) to‘g‘risidagi bitimning shakllanishi mintaqada integratsiya jarayonlarining sezilarli darajada tezlashishini anglatadi. Osiyo–Tinch okean mintaqasi nafaqat mintaqaviy, balki global darajada savdo-iqtisodiy rejimlar va geoiqtisodiy jarayonlarning chuqur o‘zgarishiga olib keladi.

Ushbu integratsiya birlashmalarining keyingi rivojlanishi asosan asosiy ishtirokchilar, birinchi navbatda, Yaponiya, Xitoy va ASEAN o‘rtasidagi kuchlar muvozanati bilan belgilanadi.

Ikki sheriklikning raqobatbardosh tabiatiga qaramay, xalqaro savdoni liberallashtirishdagi strategik maqsadlarining o‘xshashligi, uzoq muddatda bir qator davlatlar (xususan, Xitoy)ning ularga bir vaqtning o‘zida a’zo bo‘lishi ularning qo‘shilib ketishiga olib kelishi va bu parametrlari bo‘yicha Yevropa Ittifoqi yoki NAFTA bilan taqqoslanadigan yirik savdo-iqtisodiy blokning vujudga keltirishi mumkin.

Yaponiya Osiyoda ikkinchi va dunyoning uchinchi iqtisodiy kuchi sifatida mintaqaviy va global miqyosda o‘zining geoiqtisodiy va geosiyosiy mavqeyini mustahkamlash uchun CPTPP va RCEPdan eng samarali foydalanish niyatida. Shu maqsadda Tokio ikkala hamkorlikda ham yetakchilikni qo‘lga kiritishga intiladi. Yaponiyaning har ikki tuzilmada o‘z maqsadlariga erishishdagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan Xitoy va Qo‘shma Shtatlarning ushbu integratsiya megaloyihalari bo‘yicha keyingi yo‘nalishga, shuningdek, har ikkala jahon iqtisodiy yetakchilari bilan o‘zining ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va siyosiy aloqalarini qurishga bog‘liq bo‘ladi.

[1] Yukihiro Sakaguchi. Japan cautiously explores possibility of US returning to TPP // Nikkei Asia, 15.05.2021.

MUTALIB KASIMOV
Dotsent, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD),
"Federal Davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi “MEI” Milliy tadqiqot universitetining Toshkent shahridagi filiali

Pokiston – Hindiston – Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarning xalqaro xavfsizlikka ta’siri

Annotatsiya: *Maqolada bitta mintaqada yoki ma’lum bir tuzilmaga mansub bo‘lgan davlatlar o‘rtasida sodir bo‘layotgan jarayonlarni tahlil qilishda xalqaro miqyosga xos bo‘lgan hodisalarni tahlil qilish mezonlariga javob beradigan nazariy asosni shakllantirish zarurligi borasidagi fikrlar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *munosabat, xalqaro xavfsizlik, siyosiy tizim, tuzilma, kuch, qudrat, uyushma, ittifoq, neorealizm, “uchburchak” tizimidagi davlatlar, tahdidlar, qarshi muvozanatlar.*

Аннотация: *В статье выдвигаются идеи о необходимости формирования теоретической базы, отвечающей критериям анализа явлений, характерных для международного масштаба, при анализе процессов, происходящих в одном регионе или между государствами, входящими в ту или иную структуру.*

Ключевые слова: *Отношение, международная безопасность, политическая система, структура, сила, могущество, объединение, союз, неореализм, государства в системе "треугольника", угрозы, противовесы.*

Annotation: *The article puts forward ideas about the need to form a theoretical framework that meets the criteria for analyzing phenomena characteristic of an international scale when analyzing processes occurring in one region or between states that are part of a particular structure.*

Keywords: *Attitude,international security, political system, structure, Power, might, unification, alliance, neorealism, states in the "triangle" system, threats, counterweights.*

Zamonaviy siyosatshunoslikning xalqaro munosabatlar sohasida, odatda, qo‘shni davlatlar, yoki boshqa boshqa qit’alarda joylashgan bo‘lsada muayyan munosabatda ustivor va o‘xshash qarashlarga ega davlatlar o‘rtasidagi ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish ancha keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarda uch yoki to‘rt, yohud undan-da ko‘proq mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilishga urinishlar nisbatan yaqinda boshlangani ko‘zga tashlanmoqda.

Pokiston, Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi uch tomonlama munosabatlar bir qator murakkab mintaqaviy xavfsizlik masalalari, jumladan, Kashmir, terrorchilik, yadro arsenali va mintaqadagi siyosiy beqarorlik bilan bog‘ liqdir.

Bu mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy jihatlari:

Kashmir mojarosi:

Hindiston va Pokiston Kashmir hududi borasida qadimdan bahslashadi, bu ular o‘rtasidagi keskinlikning asosiy manbayi hisoblanadi. Ushbu keskinliklar ayniqsa mojaroning kuchayishi tufayli mintaqaviy xavfsizlik uchun xavf tug‘ diradi,

Terrorchilik:

Pokiston va Hindiston terrorizmga qarshi kurashmoqda va ikkala davlat ham bir-birini uni qo‘llab-quvvatlashda ayblamoqda. Terrorizmga qarshi kurashda Xitoy ham o‘z manfaatlariga ega, ayniqsa Shinjonda.

Yadro arsenali:

Pokiston va Hindiston yadro quroliga ega, bu esa mintaqaga beqarorlik omilini qo‘shadi. Ular o‘rtasidagi munosabatlar tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid soladigan yadro qarama-qarshiligi kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy va siyosiy raqobat:

Pokiston va Hindiston iqtisodiy va siyosiy jihatdan raqobatlashmoqda, bu ham mintaqa xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xitoy yirik iqtisodiyot sifatida mintaqada o‘z manfaatlariga ega va bu raqobatda ishtirok etishi mumkin.

Siyosiy beqarorlik:

Mintaqada siyosiy beqarorlik mavjud bo‘lib, buni ichki nizolar, etnik va diniy to‘qnashuvlar va boshqa omillar yanada kuchaytirishi mumkin.

Tarixiy, geosiyosiy va iqtisodiy omillar tufayli Pokiston, Hindiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarda murakkab xavf va muvozanatlar mavjud. Asosiy xavflar hududiy nizolar (Kashmir mojarosi), Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi o‘zaro ishonchsizlik hamda harbiy qarama-qarshilik, shuningdek, Xitoyning mintaqadagi ta’sirining kuchayishi bilan bog‘ liq. Qarama-qarshiliklarni iqtisodiy o‘zaro ta’sirlar va keskinlikni kamaytirish va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan diplomatik sa’y-harakatlarda topish mumkin mumkin bo‘ladi.

Bir tomondan, Hindistonning yuksalishi va mintaqa ichida ham, tashqarisida ham munosabatlarni o‘rnatish siyosatini amalga oshirish eng muhim omillardir. Boshqa tomondan esa, Xitoyning iqtisodiy va harbiy qudratga ega bo‘lgan buyuk mamlakat sifatida o‘sishi kundan kunga ko‘proq sezilarli bo‘lib bormoqda. Pokistonga keladigan bo‘lsak, u har ikki davlat manfaatlariga ta’sir qiluvchi va o‘z ehtiyojlariga ega bo‘lgan bo‘g‘ in vazifasini bajaradi.

Bu mamlakatlar o‘ziga xos “uchburchak”ni shakllantirgan holda, bir vaqtning o‘zida potensial mojarolarni olib boradigan hamda o‘zaro manfaatli hamkorlikka umid qiladigan munosabatlar dinamikasini o‘zgartirishga moyildirlar.

Bizning ishimizda Pokiston – Hindiston – Xitoy “uchburchagi” dagi mojaroli, ayni vaqtda umid uyg‘ otadigan munosabatlarining asosiy jihatlari bugungi kun nuqtayi nazaridan, eng yangi manbalarga asoslangan holda ko‘rib chiqilmoqda.

Xalqaro munosabatlar, ulardagi turli kelishmovchiliklar, to‘qnashuvlar, mojarolar muammosi, bularni to‘xtatib turadigan omillar va ularni tinch yo‘l bilan hal qilish yo‘llari zamonaviy siyosatshunoslikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu masalaning dolzarbligi Janubiy Osiyo davlatlarining global tizimdagi xalqaro siyosiy ahamiyatining keskin o‘sishi bilan bog‘ liq bo‘lib, bugungi kunda xalqaro xavfsizlik va barqarorlik masalalari, ayniqsa, O‘zbekiston uchun ham muhim bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, alohida ishtirokchilarning, ayniqsa Xitoyning faollashishi ushbu mintaqada sodir bo‘layotgan jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlariga kiradi, bu vaziyatni ko‘p jihatdan murakkablashtiradi, yadro omili esa Hindiston–Pokiston munosabatlarini nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlik muammosiga aylantiradi. Dissertatsiyada ko‘rib chiqilayotgan Hindiston, Xitoy va Pokiston o‘rtasidagi munosabatlar muammoli o‘zaro ta’sir xususiyatlariga ega bo‘lib, ular o‘rtasidagi ziddiyat potensialini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotning dolzarb ekanligini belgilaydi, bular:

1. Geosiyosiy omil. Xitoy va Hindiston YaIM bo‘yicha sotib olish qobiliyati pariteti bo‘yicha hisoblangan dunyoning birinchi va uchinchi iqtisodiyotlari, aholisi eng ko‘p bo‘lgan ikki buyuk davlat (dunyo aholisining deyarli 40%), global tizimning asosiy markazlari va eng yirik harbiy kuchga ega davlatlardir.

2. Pokiston va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlarda doimiy keskinlik manbayi mavjudligi, boshqa narsalar qatori, bir-birining madaniyati va tamaddunini rad etish bilan bog‘ liq bo‘lib, bu bir necha bor o‘zaro hududiy da’volar va keng ko‘lamli urushlarga olib kelgan.

3. Hindiston–Xitoy munosabatlaridagi muammolar. Mintaqaviy raqobat (va bu kelajakda global raqobatga aylanishi mumkin) ko‘pincha ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlardagi keskinlik bosqichiga o‘tib qolmoqda. Ko‘p sonli salbiy parametrlar (Pokiston omili, qo‘shni davlatlar, harbiy qarama-qarshiliklar, hududiy omil, Amerika–Hindiston hamkorligi, madaniy, mafkuraviy, ilmiy va texnologik sohalardagi zaif aloqalar) asosiy tafovut – ikki mamlakat o‘rtasidagi raqobatdan kelib chiqadi. Xitoy va ayniqsa, Hindiston boshqa tomonni uzoq muddatli strategik raqib deb biladi.

4. Yadro omili. Hindiston, Pokiston va Xitoy yadroviy qurolga ega bo‘lgan bevositad qo‘shni davlatlardir, bularning dastlabki ikkitasi – Hindiston va Pokiston rasman yadro klubiga a’zo emas, biroq harbiy va yadroviy imkoniyatlarini kengaytirishda davom etmoqda. Radikal diniy ekstremizm va terrorizm kuchlarining

faollashishi va ko‘rib chiqilayotgan davlatlarning beqarorlik nuqtalari – Afg‘ oniston hamda Yaqin Sharqqa yaqinligi hisobga olinsa, Islomiy jangarilarning ommaviy qirg‘ in qurollariga ega bo‘lish ehtimoli xalqaro xavfsizlikka katta xavf tug‘ dirmoqda.

5.“Bir-biriga qarshi”o‘yin. Xitoyning “yumshoq kuch” tushunchasi doirasidagi Pokistonga munosabati va Hindistonning Mintaqa tashqarisida Xitoyga nisbatan qarshi mamlakatlar bilan ittifoq tuzishga intilayotgani ushbu tadqiqot mavzusining dolzarb ekanligini yana bir bor ta’kidlamoqda.

6. Janubiy Osiyodagi integratsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari va ko‘plab keskinlik o‘choqlarining mavjudligi ushbu mintaqani “beqarorlik o‘ta yuqori makon” sifatida tavsiflashga imkon beradi hamda ayrim mamlakatlar ichidagi qashshoqlik va boshqaruv muammolari ko‘lami ham ushbu “uchburchak” davlatlari munosabatlarini chuqurroq o‘rganish dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ikkidan ortiq davlatlarning xatti-harakatlarini nazariy tushunish bitta mintaqada yoki ma’lum bir tuzilmada sodir bo‘layotgan jarayonlarni tahlil qilishda xalqaro miqyosga xos bo‘lgan hodisalarni tahlil qilish mezonlariga javob beradigan nazariy asosni shakllantirish zarur. Buning uchun, avvalo, “tizim” iborasiga nisbatan siyosatshunoslikdagi turli maktablarning yondashuvlarini ko‘rib chiqish zarurati kelib chiqmoqda, shundan kelib chiqqan holda, ko‘pincha ijtimoiy fanlardagi jarayonlarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan tarkibiy-tizimli yondashuvga murojaat qilish mumkin.

Ikkidan ortiq davlatlarning xatti-harakatlarini nazariy tushunish bitta mintaqada yoki ma’lum bir tuzilmada sodir bo‘layotgan jarayonlarni tahlil qilishda xalqaro miqyosga xos bo‘lgan hodisalarni tahlil qilish mezonlariga javob beradigan beradigan nazariy asosni shakllantirish zarur. Buning uchun ko‘pincha ijtimoiy fanlardagi jarayonlarni tahlil qilish uchun ishlatiladigan tarkibiy-tizimli yondashuvga murojaat qilish mumkin. Siyosatshunoslikda “siyosiy tizim” atamasi D.Iston tomonidan kiritilgan, tizimli yondashuv keyinchalik G.Almond va D. Apter asarlarida ishlab chiqilgan.

D. Iston siyosiy tizimlar uchun konseptual jihatdan yangi asosni taklif qildi: bunga ko‘ra siyosiy tizimda qaror qabul qiluvchilar (davlat rahbarlari) talab yoki tarzida baholanishi mumkin bo‘lgan ba’zi alomatlarga duch kelishadi.

Ushbu shaxslar siyosatga olib keladigan talablarni hal qilish uchun yordamdan foydalanadilar. Siyosat siyosiy muhitga (mahalliy, milliy, xalqaro muhitga) ta’sir qiladi, bu esa rahbarga bo‘lgan talab va yordamni o‘zgartiradi. Siyosat hokimiyatga ega bo‘lgan hamda qadriyatlarni qayta taqsimlaydigan harakatlardan iboratdir.

Mumtoz ma’noda tizim deyilganda o‘zaro bog‘ liq bo‘lgan va bir-biriga o‘zaro ta’sir qiladigan unsurlar majmuyi tushuniladi, bu yerda tizimning xususiyatlari

unsurlarning xususiyatlariga borib taqalmaydi. Tizimning tabiati nafaqat uning unsurlari, balki o‘zaro bog‘ liqligi bilan ham belgilanadi, shu bilan birga u muhitdagi xatarlarga, shuningdek, ichki qarama-qarshiliklarga ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro munosabatlar bo‘yicha yana bir tadqiqotchi M. Kaplan o‘zining “Xalqaro siyosatdagi tizim va jarayon” asarida keyinchalik rejim nazariyasining asosini tashkil etgan jihatlarni ko‘rsatib o‘tgan. Ular xalqaro faoliyatdagi madaniy me’yorlar, xatti-harakatlar, qadriyatlar hamda hokimiyatni taqsimlash bilan bog‘ liqdir. Hokimiyatning taqsimlanishiga qarab, mamlakat guruhlari rahbarlarini ushbu kuch taqsimlangan haqiqatga moslashtiradigan tartibga solish tizimlari paydo bo‘lmoqda. Agar kuch tizimdagi bir nechta nufuzli rahbarlar o‘rtasida taqsimlansa, unda muvozanat paydo bo‘ladi: rahbarlar muzokara olib boradilar, jang qilmaydilar va agar ulardan biri xavf ostida bo‘lsa, o‘zaro qarama-qarshilikni tugatadilar. M. Kaplan tizimning quyidagi turlarini ko‘rsatib o‘tgan:

1) yagona vetoli tizim (ishtirokchi tizimni cheklab qo‘yish va raqibni qo‘rqitish qobiliyatiga ega bo‘lgan tizim);

2) keskin ikki qutbli (ikki davlat blokining birga mavjudligi, boshqa ishtirokchilar orasida betaraflikning yo‘qligi);

3) ko‘p qutbli (tizimda beshdan ortiq buyuk davlatlarning mavjudligi);

4) keng bipolyar (davlatlar ham, davlatlar uyushmalari ham, xalqaro tashkilotlar ham bunday tizimning bir qismi bo‘lishi mumkin);

5) ierarxik (milliy davlatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadigan va boshqa tuzilmaga aylanadigan tizim);

6) universal (asosiy rol universal yetakchiga – xulq-atvor qoidalari va me’yorlarini o‘rnatadigan tashkilotga tegishli bo‘lgan tizim).

Amerikalik siyosatshunos K. N.Uolts o‘z asarlarida tizimli yondashuvga asoslangan boshqacha izohlashdan foydalangan. U progressiv empirik siyosatshunoslik ehtiyojlariga muvofiq va yangi siyosiy voqelikni hisobga olgan holda siyosiy realizm asoslarini o‘zgartirdi hamda to‘ldirdi, konservatizm va realizm qarashlarini tizim tushunchasi orqali birlashtirdi.

Neorealizm maktabi vakillarining qarashlariga ko‘ra tizim, bu – “o‘zaro ta’sir qiluvchi birliklar majmuyidir”. Bir bosqichda tizim tuzilmadan iborat. Har bir tuzilma tizim bosqichining bir qismidir, bu o‘lchov birliklarini oddiy majmuadan farqli to‘plam sifatida ko‘rish imkonini beradi. Navbatdagi bosqichda, tizim o‘zaro ta’sirdan iboratdir .

Davlatlarning xatti-harakatlari va tizimli keskinlik o‘rtasidagi munosabatlar turli xil siyosiy tuzilmalar, geografik daraja va demografik zaxiralar bilan farq qiladigan,

ammo o‘xshash vaziyatlarda o‘zini tegishli tarzda tutadigan davlatlarning harakatlarini izohlaydi.

Muayyan davlatlar (mazkur holatda Pokiston–Hindiston–Xitoy) xalqaro tuzilmasi majburlash va cheklovlar to‘plami bilan tavsiflanadi, ular orasida yetakchi xususiyatlar anarxiya (xalqaro muhitda oliy hokimiyatning yo‘qligi) va subyektlarning imkoniyatlari ularning kuchiga muvofiq taqsimlanishiga qarab belgilanadi. Bu davlatlar o‘zaro bir-biriga bosim o‘tkazish yoki bir-birini tiyib turish imkonini beradi.

Yuqorida qo‘llanilgan “kuch” iborasining keng tushunchasi nafaqat harbiy salohiyatni, balki iqtisodiy omilni ham anglatadi. Shuning uchun iqtisodiy ustunlik va jangovar armiyaga ega davlatlar harbiy yoki noharbiy usullar bilan harakat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, tizimning tarkibiy xususiyatlari kuchli davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar natijasi bo‘lgan kichik va o‘rta mamlakatlarning har qanday harakatlaridan deyarli mustaqildir.

Biz olib borayotgan tadqiqotda Buyuk Sharqiy Osiyo keng ma’noda ko‘rib chiqilmoqda, buning doirasida Janubiy Osiyo davlatlariga, birinchi navbatda, Hindiston va Pokistonga katta e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, Shimoli-Sharqiy Osiyo mintaqasiga tegishli bo‘lgan Xitoy aloqalari va munosabatlarini ko‘rib chiqish va tavsiflash juda muhimdir. Tizim, ko‘p qirrali hamda ko‘p omilli xalqaro munosabatlar tushunchalari asos sifatida qabul qilinganligi sababli, tahlil jarayoni uchta davlatning o‘zaro ta’sirida bog‘ langan alohida hududlarni hisobga olmasa to‘liq tahlil bo‘lmaydi. Mazkur “uchburchak” doirasiga Oksoy Chin, Gilgit-Baltiston, Jammu va Kashmir, Shaksgam vodiysi, Siachen muzligi va Saltoro viloyati, Ser Krik va Janubiy Tibet hududlari kiradi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq kabi butun mintaqalar ham kiradi.

Bunday keng hududiy qamrovning bir qancha sabablari bor. Birinchidan, ko‘rib chiqilayotgan davlatlar o‘zaro munosabatlarning tabiati va xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadigan mintaqaviy va xalqaro uyushmalar doirasida bir-birlari bilan munosabatga ega. Ikkinchidan, Hindiston ham, Xitoy ham dunyodagi yetakchi davlatlardan bo‘lsa, Pokiston mintaqada joylashgan kuchli davlatlardan biridir va ularning boshqa rahbarlar bilan aloqalari tadqiqotga qiziqish uyg‘ otadi hamda unga yanada obyektiv va to‘liq tus bahsh etadi.

Shu tarzda, kam sonli kuchli ishtirokchilardan tashqari, bularga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydigan ko‘plab davlatlar va hududlarni o‘z ichiga olgan tizimlar paydo bo‘lmoqda. Bundan tashqari, bunday tizimda qudratli davlatlar qancha kamroq bo‘lsa, tizim shu qadar barqaror bo‘ladi. Tizimda kuchli davlatlar sonining ko‘payishi tizimdagi beqarorlikka va dunyo tartibotining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida bayon qilib o‘tilganidek, tizim o‘z ichidagi ishtirokchilarining teng bo‘lmagan mavqelari bilan ajralib turadi. Shu bois tizimga turli maktablarning nazariyalarini ko‘rib chiqish zarur bo‘ladi.

Neorealizm nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, bu kuch yoki qudrati ma’nosida notenglik degan xulosaga kelish mumkin. Demak, faqat taxminan teng qudratga ega bo‘lgan davlatlar o‘zaro bog‘ liq bo‘lishi mumkin. Teng bo‘lmagan mavqe o‘zaro bog‘ liqlikni ba’zilarning boshqalarga qaramligiga aylantiradi, shuning uchun o‘zaro bog‘ liqlik tushunchasini “nisbiy qaramlik” yoki “mustaqillik” atamalari bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir .

R.Gilpin davlatlarning xatti-harakatlariga va tizim ichidagi ustunlik hodisasiga biroz boshqacha yondashadi. Uning modeli iqtisodiy va sotsiologik nazariyalarga asoslangan bo‘lib quyidagi beshta asosiy xususiyatga ega:

1. Xalqaro tizim agar biron-bir davlat uni o‘zgartirishni xohlamasa, muvozanat holatida turaveradi

2. Agar kutilyotgan foyda xarajatlardan ko‘proq bo‘lsa, davlat tizimni o‘zgartirishga harakat qiladi.

3. Davlat foyda xarajatlarga teng yoki undan oshgunga qadar siyosiy, iqtisodiy va hududiy kengayish orqali o‘zgarishlarga intiladi.

4. Kuchli davlatlardan biri tizimni o‘zgartirish unga qo‘shimcha foyda keltiradi deb hisoblamaguncha muvozanat saqlanib turadi.

5. Mavjud boshqaruv va hokimiyatni qayta taqsimlash o‘rtasida nomuvofiqlik mavjud bo‘lgan tizim o‘zgaradi. Shu tarzda, davlatlar imkoniyatlarining holatini aks ettiruvchi yangi muvozanat o‘rnatiladi.

R.Gilpin ustunliklarga vaqtinchalik tus beradi. Bu doimiy rivojlanayotgan tizimning turg‘ un (doimiy) bo‘lishiga imkon bermaydigan global jarayonlarning sur’ati bilan bog‘ liqdir. Xalqaro munosabatlardagi doimiy hodisa boshboshdoqlik (anarxiya) sharoitida hokimiyat, boylik va ta’sir uchun kurashdir. Bu har bir ishtirokchi davlatning (aktor) moddiy va nomoddiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘z manfaatlari borligini, davlatlar hokimiyatga mutlaq kattaligida emas, balki hokimiyatni “kuch” tushunchasiga yaqin salmog‘i, nufuzi va obro‘-e’tibor kafolati sifatida tushunishga intilishini anglatadi.

“Uchburchak” tizimdagi cheksiz davriy o‘zgarishlar uning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Bu iqtisodiy, harbiy yoki siyosiy nuqtayi nazardan yangi hukmron davlatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘ liq bo‘ladi. Bunday sharoitda ustunlik faqat vaqtinchalik tusga ega. Bir aktyorning hukmronligi boshqa rahbar paydo bo‘lganda nihoyasiga yetadi.

Yetakchilik vorisligi davriyliklari yoki “yakka hukmronlik davriyliklari” mavjud bo‘lib, bular yadro quroli davlatlari ko‘payib borayotgan davrda dolzarb bo‘lib qoladi. (Bizning tadqiqotimizdagi uchala davlat – Pokiston – Hindiston –Xitoy yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlardir. – M.K.).

Tizimda yetakchilikning tugashiga olib keladigan quyidagi sabablar ma’lum:

1. A.J. Turgotning “unumdorlikning kamayishi” qoidasi. Bunda davlatning kuchi tez o‘sib boradi, so‘ngra rivojlanish va qudratning pasayishi kuzatiladi.

2. Iste’mol va investitsiyalarning notekis taqsimlanishi. Davlat tobora ko‘proq iste’mol qila boshlaydi, lekin ayni paytda kamroq sarmoya kiritadi. Bu qudratning ortishini sekinlashtirib qo‘yadi.

3. Texnik ustunlikni saqlab qolishda cheklovlar. Bunda ilmiy-texnik taraqqiyotda yetakchi davlatni ortda qoldirib, uning o‘rnini egallashga qodir mamlakatlar paydo bo‘ladi.

Ma’lum bo‘lishicha, xalqaro munosabatlar tizimida nafaqat kuchlarning joylashuvi, balki da’vogarning yetakchi rol o‘ynash hamda ma’lum bir tuzilmaning qoidalari va me’yorlariga rioya qilish istagi ham muhimdir.

Xavfsizlik borasida tadqiqot olib borgan siyosatshunos B. G. Buzan o‘zining “Insonlar, qo‘rquv va Davlat: xalqaro munosabatlarda milliy xavfsizlik muammosi” asarida strukturalizm nazariyasini ishlab chiqadi. U ko‘proq mintaqaviy tizimlarni o‘rgangan, uning fikriga ko‘ra, mintaqaviy tizimlar global va davlat tizimlari o‘rtasidagi oraliq tizimlardir.

Bugungi kunda zamonaviy siyosatshunoslikda Mintaqaviy xavfsizlik majmualari nazariyasi MXMN (RSCT) zamonaviy jahon siyosatining mintaqaviy xususiyatlarini tahlil qilish uchun eng tartibli va samarali nazariya hisoblanadi. Mazkur nazariya asoschilari “mintaqaviy xavfsizlik majmuyi” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradilar: “mintaqaning xavfsizlik va xatar ostida bo‘lish jarayonlari shu qadar o‘zaro bog‘ liqki, ulardagi davlatlarning xavfsizlik muammolarini bir-biridan alohida tahlil qilish yoki hal qilish mumkin emas”.

Xalqaro tizimda davlatlar muayyan maqsadlarga erishish uchun ittifoq/ uyushmalar tuzishlari mumkin. Davlatlar tizimning yaxlitligini buzmaydigan muayyan maqsadlarga erishish uchun ittifoqlarga qo‘shilishadi. Ularga erishgandan so‘ng, ittifoqlar parchalanishga moyil bo‘lib qoladi.

Ma’lumki, qo‘shni davlatlar xavfsizlik masalalarida bir-biriga bog‘ liq bo‘lib chiqadi hamda ularning davlat xavfsizligi yagona xavfsizlik va boshqalardan ajralib turadigan xavfsizlik sifatida ko‘rib chiqilmaydi. Xavfsizlikning mintaqaviy tuzilmasi ikkita asosiy fikrga asoslanadi:

1. “Kuch” va “qudrat” tushunchalari nuqtayi nazaridan imkoniyatlarni taqsimlash.

2. Tizimdagi ishtirokchilar munosabatlaridagi do‘stlik yoki dushmanlik.

Mintaqaviy xavfsizlik majmualarining ikki xil turi mavjud bo‘lib B. Buzan va O.Veyver ularni standart va markazlashtirilgan majmualar deb atashgan. Bularning birinchisi Vestfal xalqaro munosabatlar tizimi bilan bevosita bog‘ liq bo‘lib, unda xalqaro darajadagi davlat milliy manfaatlarga muvofiq harakat qiladi va bunda asosiy harakatlantiruvchi kuch davlatlar o‘rtasidagi raqobatdir . Mazkur holatda tizimni saqlashning asosiy usuli – bu bir davlatning boshqasidan ustunligi bo‘lmagan kuchlar muvozanatidir. Markazlashtirilgan mintaqaviy xavfsizlik majmualari konsepsiyasi xalqaro munosabatlar tuzilishini neorealistik tushunish bilan bevosita bog‘ liqdir. Ushbu turdagi mintaqaviy majmua super davlat (AQSH), buyuk davlatlar (Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Hindiston, Yaponiya, Xitoy) va mintaqaviy kuchlar (Janubiy Afrika, Braziliya) kabi davlatlarga asoslanadi. Agar xavfsizlik majmuasi nafaqat mintaqaviy kuchni, balki buyuk yoki super davlatni o‘z ichiga olsa, unda tizimning global darajasi mintaqada ustunlik qiladi, chunki boshqa mintaqaviy rahbarlar buyuk yoki super davlat bilan bir xil salohiyatga ega bo‘lolmaydilar.

Potentsial yetakchi bo‘lmagan hududlar nisbatan barqarordir. Bunday o‘zaro ta’sirning misoli muassasalar/tashkilotlar ichidagi integratsiyadir. Masalan, hozirda Yevropa Ittifoqi aynan shunday maqomga ega. Bu markazlashtirilgan va standart tizimning omixtasidir (gibrididir), unda Yevropa Ittifoqining o‘zi o‘ziga xos buyuk davlatdir, lekin ayni paytda u boshqa buyuk davlatlarni ham o‘z ichiga oladi.

B. Buzan va O. Veyver quyidagi mintaqaviy xavfsizlik majmualarini:

1) Sharqiy Osiyo; 2) Janubiy Osiyo; 3) Yevropa; 4) Janubiy Afrika;

5) Markaziy Afrika; 6) Shimoliy Amerika; 7) Janubiy Amerika; 8) Yaqin Sharq; 9) Sho‘rolardan keyingi mintaqaviy xavfsizlik majmualarini ajratib ko‘rsatgan. Bundan tashqari, ikkita potensial majmua – G‘ arbiy Afrika va Afrika mo‘gizi ham qayd etilgan.

Rossiyalik tadqiqotchi E V. Koldunova xavfsizlik majmualari konsepsiyasini “yangi” tahdidlar, qiyinchiliklar, shuningdek, nodavlat tusga ega bo‘lgan fuqarolik yoki harbiylashtirilgan tusdagi xatarlar bilan to‘ldiradi. Bularga transmilliy tusdagi ichki siyosiy muammolar ham kiradi.

Shuni ham ta’kidlash joizki, ushbu majmualarning chegaralari bir-birining ustiga chiqa olmaydi va kesisha olmaydi, ya’ni aynan bir mamlakat boshqa majmuaga a’zo bo‘la olmaydi. Ammo agar davlat ikkita majmuaning, tutashgan joyida, masalan, Myanma yoki Afg‘ onistonga o‘xshab joylashgan bo‘lsa, u ularning ikkalasida ham ishtirokchi bo‘lmaydi va “cheklovchi” maqomini oladi.

Xorijiy tadqiqotchilar K. N. Uolts va S. M. Uoltning ta’kidlashlaricha, davlatlar xavfsizlikni oshirish, potensial kuchli raqiblar tahdidlariga qarshi muvozanatni

saqlash maqsadida uyushmalarning (alyanslarning) bir qismiga aylanadi. Bundan tashqari, uyushmalarga qo‘shilgan davlatlar ularda ishtirok etish uchun turli strategiyalardan: muvozanat saqlash va ergashish strategiyalaridan foydalanadi. Bu tashqi tahdidga duch kelganda, ishtirokchi boshqa davlatlar bilan kuchlarni birlashtirish orqali muvozanat strategiyasini tanlashi yoki tahdidga ergashishi mumkinligini anglatadi.

Masalan, K.N.Uolts o‘zining “Xalqaro siyosat nazariyasi” asarida muvozanatning ikkita asosiy turini ko‘rib chiqadi:

1. Ichki muvozanat. Bu o‘z zaxiralarini safarbar qilish va begonalarga qaramlikni imkon qadar kamaytirishni o‘z ichiga oladi.

2. Tashqi balans. Bu tahdid haqida qayg‘ uradigan ittifoqchilarni topishga qaratilgan .

Ergashish strategiyada tahdidga qarshi turishning iloji yo‘q va ba’zida bunday davlat o‘z suverenitetini yo‘qotish evaziga kuchli raqib shartlarini qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Tahdidlar muvozanati nazariyasining asoschisi S.M.Uolt o‘zining “Uyushmalarning kelib chiqishi” asarida xalqaro munosabatlarda “ittifoq” tushunchasiga ta’rif beradi. Unga ko‘ra, “Uyushma “ikki yoki undan ortiq suveren davlatlar o‘rtasidagi xavfsizlik bo‘yicha hamkorlik doirasidagi rasmiy yoki norasmiy munosabatlar” deb ta’riflanadi. Bu uyushmani tashkil etuvchi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro manfaatli bo‘lishini anglatadi.

S. M. Uolt tahdidga ergashish strategiyasi g‘oyasini ishlab chiqib, uning ikki turini: mudofaa va hujum turini ko‘rsatib o‘tgan. Ergashish mudofaa strategiyasi tahdidning o‘ziga xos “tinchlantirish shakli” bo‘lib, o‘zi tomondan hujumni imkon qadar kichraytirishga sharoit yaratadi. Hujum strategiyasiga davlatning g‘alabasidan foydalar olish uchun tahdid soluvchi davlat bilan moslashish istagi kiradi.

Ko‘pincha, uyushmalardagi davlatlarning xatti-harakati tahdidga ergashishdan ko‘ra ko‘proq muvozanat qidirishdan iborat bo‘ladi, ammo har bir holatni universal deb hisoblash mumkin emas. Potensial sherikning tabiatini tahlil qilib, hukumat xatar va muvozanatlarni bashorat qiladi.

Tahdidning kattaligi: geografik joylashuvi, tajovuzkorning umumiy qudrati va harbiy salohiyati singari turli omillarga bog‘ liq. “Umumiy qudrat – bu: davlat, uning aholisi, sanoat, harbiy va texnologik salohiyatidan kelib chiqadigan formuladan iborat bo‘lgan davlatning umumiy qudratidir, bu qudrat qanchalik katta bo‘lsa, uning boshqalarga potensial tahdidi ham shunchalik katta bo‘ladi”.

Davlat ittifoqchilarini tanlashga tahdidning geografik joylashuvi ta’sir qiladi. U qanchalik yaqin bo‘lsa, unga yaqinroqdan sheriklarni izlash shunchalik oqilona bo‘ladi. Bundan tashqari, tajovuzkorlar atrof-muhitni ularga qarshi muvozanat uchun qo‘zg‘ atishi mumkin. Tahdid yo‘qolishi yoki zaiflashuvi bilan hamkorlik o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Davlatning iqtisodiy salohiyati va mafkurasi ittifoqchi izlashda davlatlarning xatti-harakatlarini belgilaydigan boshqa omillar jumlasiga kiradi. Davlatlar o‘z siyosiy qarashlarida ularga yaqin bo‘lgan davlatlar bilan ittifoqni afzal ko‘rishadi. Biroq, bu omil asosiy omil emas. Ko‘pincha iqtisodiy aloqalar, ayniqsa, sheriklardan biri boshqasiga bog‘liq bo‘lsa munosabatlarning birlashtiruvchi omiliga aylanishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, uyushma ichidagi o‘zaro ta’sir jarayonida ittifoqchilarning bir-biriga nisbatan idroki, shuningdek, umidlari o‘zgarishi mumkin. Shu bilan birga, hatto mamlakatning iqtisodiy qaramligi ham siyosiy qarama-qarshiliklarning zaiflashishiga olib kelmasligi mumkin, masalan, Nepal va Hindiston o‘rtasidagi munosabatlarda shunga o‘xshash holatni kuzatish mumkin.

Hujumkor realizm nazariyasi muallifi D. Mearshaymer ittifoqlarning qisqa muddatli tabiatiga e’tibor qaratadi va “Bular faqat hisob-kitoblarga asoslangan vaqtinchalik nikohlar ekanligi, bu yerda kechagi dushman uyushmada sherik bo‘lishi bugungi dushman ertaga sherikka aylanishi mumkinligini” ko‘rsatib o‘tadi. Uyushma davlat uchun foydali bo‘lishni to‘xtatishi bilanoq, davlat bu uyushmada ishtirok etishni davom ettirishdan bosh tortadi.

Liberalizm tarafdorlari tizimni va undagi davlatlarning xatti-harakatlarini muqobil idrok etishga moyildirlar. Tarkibiy yondashuv liberallar qarashlarida markaziy mavzu emasligiga qaramay, bu masala bo‘yicha muayyan qarashlar mavjud. Tuzilma turli tomonlar o‘rtasida bir nechta o‘zaro ta’sirlar yuz beradigan rivojlanish sifatida qabul qilinadi.

Ushbu taraqqiyot ishtirokchilari orasida nafaqat davlatlar, balki xalqaro tashkilotlar, nodavlat tuzilmalar, transmilliy korporatsiyalar va yirik tashkilotlar ham bor. Har bir ishtirokchi muloqotning boshqa a’zolari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Shunday qilib, tizim turli xil: iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy manfaatlar majmuyi bilan belgilanadi.

D.Nay va R.Keoxeyn xalqaro tizimni o‘zaro bog‘liq tizim deb ta’riflaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, davlatlar o‘zaro munosabatlar natijasida yuzaga keladigan ko‘plab muammolar va kun tartibiga muvofiq harakat qilishadi. Davlatlar xatti-harakatlaridagi o‘zgarishlar turli muammoli sohalar nisbiy ahamiyatining o‘zgarishi bilan bog‘ liqdir. Masalan, XX -asrning so‘nggi o‘n yilliklarida iqtisodiy muammolar xavfsizlik muammolari bilan almashdi va ularga inson huquqlarini himoya qilish kabi

global muammolar qo‘shildi. XXI-asrning boshlarida turli sohalardagi o‘zaro ta’sirning murakkabligi va tabiati u yoki bu omil (ichki yoki tashqi siyosat)ning katta yoki kichik ta’siri bilan bog‘liq edi. Kelajakda ularning ta’sirini kuchaytiradigan yoki davlatni almashtiradigan boshqa omillarning harakatlari tufayli o‘zgarishlar yuz beradi.

Shunday qilib, tadqiqotchilarning tizimning ishlashi va undagi davlatlarning xatti-harakatlariga turli xil yondashuvlarini ko‘rib chiqib, tizimli yondashuv yaxlit xususiyatga egaligi borasidagi xulosaga kelishimiz mumkin. Garchi u voqealarni mikro darajada tasvirlay olmasa ham, umumiy darajada ishonchli tushuntirishlarga imkon beradi.

Neorealizm maktabi vakillarining asosiy tushunchalariga ko‘ra, kuch davlatning o‘z xavfsizligini ta’minlash va o‘z manfaatlariga rioya qilish qobiliyati; tizimning anarxizmi va “o‘zingizga o‘zingiz yordam bering” tamoyilining ustunligi bo‘lib qolmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, neorealistlar o‘zaro bog‘ liqlik va ko‘p qutbli tizimning zaifligiga ishora qiladilar. Unda katta harakatchanlik, nomutanosiblik va muvozanatsizlik mavjud hamda ziddiyat ehtimoli o‘zaro tiyilish bilan tavsiflangan ikki qutbli tizimga, uning turg‘ unligiga qaraganda ancha yuqoridir.

Davlatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishiga yordam beradigan iqtisodiy omil tizimning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u mamlakatning kuchi va qudrati kategoriyalarida qo‘llaniladi.

Xalqaro tizim turidan qat’i nazar – bir qutbli, ikki qutbli yoki ko‘p qutbli davlatlar o‘zlarining milliy manfaatlaridan kelib chiqib harakat qilishadi. Ittifoq yoki uyushmaning bir qismi bo‘lgan davlat o‘z niyatlari va foydalariga ergashishni afzal ko‘radi.

SUHROB BO‘RONOV
Dotsent, s.f.f.d., PhD, TDSHU

Qo‘shtepa kanalining Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘shtepa kanali va uning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri masalalari tahlil etiladi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi suv bilan bog‘liq boshqa ehtimoliy omillar ham tadqiq etiladi.*

Kalit so‘zlar: *mintaqaviy xavfsizlik, Amudaryo, Qo‘shtepa kanali, “Tolibon 2.0”, Murg‘ob va Tejen daryosi, Qoraqum kanali.*

“Tolibon 2.0”, Murg‘ob va Tejen daryosi, Qoraqum kanali

Abstract: *This article analyzes the issues of the construction of the Qoshtepa Canal in Afghanistan and its impact on regional security in Central Asia. It also examines other potential water-related factors that pose a threat to regional security.*

Key words: *Regional security, Amu Darya, Qoshtepa Canal, “Taliban 2.0”, Murghab and Tejen rivers, Karakum Canal.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы строительства канала Коштепа в Афганистане и его влияние на региональную безопасность в Центральной Азии. Также изучены другие потенциальные факторы, связанные с водными ресурсами, которые представляют угрозу региональной безопасности.*

Ключевые слова: *Региональная безопасность, Амударья, канал Коштепа, «Талибан 2.0», реки Мургаб и Теджен, Каракумский канал.*

Kirish. XXI asrning 20-yillaridan e’tiboran xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilgari amal qilgan an’anaviy qarashlar va chora-tadbirlar zamon talablariga yetarli darajada javob bera olmayotgani bugungi kunning haqiqatidir. Sir emaski, dunyoning turli nuqtalarida davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va uning ichki ishlariga aralashmaslik kabi qat’iy belgilangan xalqaro tartib-qoidalar jahon siyosatining ayrim yirik aktyorlari tomonidan qo‘pol ravishda buzilmoqda. Shuningdek, xavfsizlikning “bo‘linmaslik” tamoyili ham hozirga kelib “bo‘linayotgani” ogohlik qo‘ng‘irog‘i sifatida chalinmoqda. Tan olish lozimki, Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimi jiddiy transformatsiyaga duch kelmoqda. XX asrning 90-yillarida “Tolibon” harakati Kobulda boshqaruvga kelishi bilan vujudga kelgan vaziyat Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga chinakam tahdid omiliga aylangan bo‘lsa, bugungi kunda bunday qarashlar o‘zgarishlarga uchrayotganining guvohi bo‘lish mumkin.

XXI asrning bo‘sag‘asida terrorizm balosiga qarshi kurashda Markaziy Osiyo davlatlari AQSH madadiga tayangan edi. Amerikaning Markaziy Osiyo mintaqasi va Afg‘onistonda harbiy mavjudligining o‘rnatilishi va 20 yil davomida “Katta Markaziy Osiyo” konsepsiyasini amalga tadbiq etishga qaratilgan urinishlari mintaqa xavfsizlik tizimini “qayta qurish”ga jiddiy ishora qilgan edi. Shu o‘rinda professor R.Alimovning amerikalik siyosatchi va diplomat Genri Kissenjerdan iqtibos keltirgan holda ta’kidlagan fikrlarini eslatib o‘tish joizdir: “Terrorizmga qarshi urushda gap faqat terroristlarni kuzatish haqida ketmaydi. Gap shundaki, bu, avvalo, jahon tizimini qayta qurish uchun favqulodda foydali imkoniyatni qo‘ldan boy bermas fursatidir”. Shak-shubhasiz, bunday “qayta qurish” aynan Afg‘onistondan boshlangan edi va bu jarayonlar bir qator kuch markazlarining geostrategik manfaatlari, jamlangan, Markaziy Osiyo va uning atrofidagi xalqaro munosabatlar tizimi transformatsiyaga bevosita ta’sir ko‘rsatdi”[1]. 2021-yil avgust oyi oxiridan e’tiboran AQSH harbiy kuchlarining Afg‘oniston hududini rasman tark etishi natijasida Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimini “qayta qurish”ning yangi davri boshlandi. Ustiga ustak, Markaziy Osiyodagi xavfsizlik arxitekturasining kafolatli himoyachisi sifatida

o‘zini doimo ko‘rsatib keladigan Rossiya Federatsiyasi 2022-yil Ukrainada boshlangan urushga butun diqqat-e’tiborini qaratib kelmoqda. Shunday sharoitda, ayniqsa, Afg‘onistonda “Tolibon” boshqaruvi qayta o‘rnatilgan strategik noaniqlik holatida Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy xavfsizlikning yangi tizimini mustaqil tarzda barpo etish zarurati paydo bo‘ldi. Siyosiy fanlar doktori, dotsent S. Ubaydullayeva xulosa qilgani kabi “2021-yil avgust oyida hokimiyat tepasiga “Tolibon” muvaqqat hukumati kelganidan keyin mintaqaviy xavfsizlik bo‘yicha kompleks o‘zaro bog‘liqlik tizimida mavhum holat yuzaga keldi. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik bo‘yicha o‘zaro bog‘liqlik tizimini shakllantirishga hamda bu jarayonda Afg‘onistonning roliga munosabat va yondashuvlarda noaniqlik mavjud. Holbuki, Afg‘oniston Janubiy Osiyodagi xavfsizlik tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi”[2]. Garchi XX asrning 90-yillaridagi kabi Markaziy Osiyo davlatlari uchun o‘ta jiddiy tahlikali vaziyat yuzaga kelmagan bo‘lsa-da, “Tolibon 2.0” hukumatining diniy boshqaruv uslubi, qabul qilayotgan qarorlari, uning ba’zi tuzilmalari va xalqaro terrorchi guruhlar o‘rtasidagi muntazam aloqalar davom etayotganligi hamda keltirayotgan bayonotlari mintaqaviy xavfsizlikka yaratishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy tahlikalarni e’tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Nazarimizda, bunday ehtimoliy chaqiriqlar o‘zida ham an’anaviy, ham noodatiy xavflarning birikmasini aks ettiradi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu maqolada tizimli-funksional tahlil, tarixiylik, ivent va qiyosiy-siyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning obyekti sifatida Afg‘onistondagi Qo‘shtepa kanali va uning Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligiga ta’siri olingan va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid tug‘diruvchi suv bilan bog‘liq boshqa ehtimoliy jarayonlar ham o‘rganiladi.

Natijalar. Qo‘shtepa kanalining qurilishi Markaziy Osiyodagi suv tanqisligi va suvga bo‘lgan ehtiyojlarni yanada ortishiga sabab bo‘lib qo‘shnilar o‘rtasidagi munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uning oqibatlari nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik masalalarida ham ko‘zga tashlanishi mumkin. Masalan: “Global Water Intelligence” jurnali ma’lumotiga ko‘ra, suv bozorida bir yilda aylanadigan pul miqdori butun dunyo bo‘yicha harbiy maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag‘ga yaqinlashib qolganini hisobga olsak, masala yanada oydinlashadi.

Markaziy Osiyodagi suv bilan bog‘liq xavotirlarni dunyoning eng katta ko‘llari turkumiga kiruvchi Orolning qurib borishi va xalqaro darajada e’tirof etilishi bilan anglash mumkin. Orolning qolgan qismlarini saqlab qolish favqulodda dolzarb va ahamiyatli sanaladi.

Shunday sharoitda “Tolibon 2.0” hukumati tomonidan qurilayotgan Qo‘shtepa kanali loyihasi Markaziy Osiyodagi suv resurslari muvozanatiga katta ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Shu boisdan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv resurslari taqsimotiga Afg‘oniston tomonini ham keng jalb etish, ko‘p tomonlama muzokaralar


olib borish va manfaatli kelishuvlarga erishish suv nizolarining oldini olishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Suv omili kelajak masalasidir. Yer kurrasidagi suvning 96 foizini okean va dengizlar sho‘r suvi, atigi 3 foizini chuchuk suv zaxirasi tashkil etadi. Yaqin o‘n yil ichida dunyodagi chuchuk suv zaxirasi yana ikki barobar qisqarishi mumkin. Hozir jahondagi 80 mamlakatda chuchuk suv tanqis, ikki milliard aholi chuchuk suv yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Geosiyosiy ahamiyati katta bo‘lgan Markaziy Osiyo aholisi tez o‘sib borayotgan, ayni paytda, suv zaxiralari cheklangan mintaqadir. Modomiki, suv muammosi globallashib borar ekan, demak suv geosiyosati haqida so‘z yuritishga jiddiy asoslar talaygina.

Suv masalalariga ixtisoslashgan dunyoning ko‘plab tillarida nashr etiladigan “Global Water Intelligence” jurnali ma’lumotiga ko‘ra, suv bozorida bir yilda aylanadigan pul miqdori butun dunyo bo‘yicha harbiy maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag‘ga yaqinlashib qolgan. Bu hali jarayonning boshlanishi. 2006-yili Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligi davlat rahbariyatiga murojaat qilib, butun Yer shari bo‘ylab ichimlik suvi tanqisligidan ro‘y berishi mumkin bo‘lgan urushga tayyor turishga chaqirgan edi. O‘sha paytdagi Mudofaa vaziri Jon Reydning fikricha, bunday muhoraba bir vaqtning o‘zida dunyoning bir necha mintaqasini qamrab oladi [3].

Markaziy Osiyodagi suv bilan bog‘liq vaziyat esa kutilgandan ham xavotirli. Dunyoning eng katta ko‘llari turkumiga kiruvchi Orolning yillar davomida qurishiga sabab bo‘luvchi omillar turli-tuman bo‘lsa ham, lekin fojia ko‘lami allaqachon xalqaro darajaga chiqib ulgurgani sababli, muammoni keltirib chiqargan sabablardan ko‘ra, Orolning qolgan qismlarini saqlab qolish favqulodda dolzarb va ahamiyatli sanaladi. Chunki, Orolning ekologik falokati oqibatlari butun mintaqa xalqlari hayotiga birdek daxldor muammo sanaladi.

Shunday sharoitda “Tolibon 2.0” hukumati tomonidan qurilayotgan Qo‘shtepa kanali loyihasi Markaziy Osiyodagi suv resurslari muvozanatiga katta ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. 2022-yil mart oyidan boshlab, “Tolibon 2.0” hukumati Amudaryo o‘zanida Qo‘shtepa kanali loyihasini qurishni boshladi.



Kanalning uzunligi 285 km, eni 100 metr, chuqurligi 8 metrni tashkil etib, u Afg‘oniston shimolining taxminan 550 ming gektar yerlarini sug‘orishga mo‘ljallangan. “Tolibon 2.0” hukumatining rasmiylari ma’lumotlariga qaraganda kanalning qurilish ishlari 2028-yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.

Mutaxassislarning baholashlariga ko‘ra, 2050-yilga bormay Markaziy Osiyoda turli sabablar tufayli “suv urushi” boshlanishi mumkin. Bu esa mintaqa uchun yirik tahdid omiliga aylanishini istisno etib bo‘lmaydi. Bir yilda jon boshiga 1000 m^3 (ya’ni, minimal ehtiyojlarni qondirish uchun zarur) to‘g‘ri keladigan davlatlar orasida Markaziy Osiyoning Turkmaniston (206 m^3) va O‘zbekiston (625 m^3) kabi davlatlari bor[4]. Jahon resurslari institutining tadqiqotlariga ko‘ra, Turkmaniston va O‘zbekiston suv bilan eng kam ta’minlangan dunyodagi 13 ta mamlakatlar qatoriga kiradi. Shu sababdan ham “Tolibon 2.0” hukumatining Qo‘shtepa kanali loyihasi eng avvalo, Amudaryo quyi oqimida joylashgan O‘zbekiston va Turkmaniston davlatlari uchun jiddiy suv tanqisligi muammosini keltirib chiqaradi. Bu kanalning to‘liq ishga tushishi ayniqsa O‘zbekiston uchun iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va ehtimolan xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi, shuningdek, Markaziy Osiyoda mintaqasidagi suvdan foydalanish tartibini o‘zgartirishi mumkin. O‘zbekiton Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qo‘shtepa” kanali loyihasi haqida to‘xtalib, “mohiyat-e’tiboriga ko‘ra, mintaqamizda suvdan foydalanish jarayonida bizning mamlakatlarimiz bilan hech qanday majburiyat asosida bog‘lanmagan yangi ishtirokchi paydo bo‘ldi. Afg‘on tomoni kanalni qurish bo‘yicha faol ish olib borayotganini yaxshi bilasiz. Uning ishga tushirilishi Markaziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibi va muvozanatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin”[5], deb ta’kidlagan edi.

Tabiat resurslari va iqtisodiyot bo‘yicha xalqaro mutaxassis Riyeks Boschning quyidagi fikrlari vaziyatni yanada aniqroq ifoda etishda yordam beradi: “Qo‘shtepa kanalining qurilishi – juda qiziq mavzu. Birinchi bo‘lib 1950-yilda mazkur loyihaga inglizlar, keyinroq ruslar qiziqib, uning ustida ishlab ham ko‘rishgandi. So‘ng oxirgi nuqtada amerikaliklar bir “siljitib ko‘rmoqchi” bo‘lishdi. “Tolibon” kanalga Amudaryo suvining 20 foizini yuborishni rejalashtirgan. Agar shunday qilinsa, Xorazm va Qoraqalpog‘iston Amudaryodan foydalanishni 50 foizga qisqartirishi kerak bo‘ladi. Bir o‘ylab qaraganda, bunga samaradorlikni oshirish orqali qisman erishish mumkin, ammo fermerlar uchun yaxshigina tanqislik yuzaga keladi. Nima bo‘lganda ham bunda O‘zbekiston aziyat chekadi. Yuqorida aytganimdek, kanal qurish oson, sug‘orish tizimini qurish esa 10 barobar qiyin. Tolibon hukumati buni qila oladimi yoki yo‘q, javob olinishi kerak bo‘lgan eng katta savol ham shu. Bu qurilishning asosida inshootlarini barpo qilish metodologiyasi turadi. Eshitilishi juda oddiy, ya’ni shunchaki qazish kerak deb hisoblaysiz. Ammo bunda suv miqdorini aniqlash uchun sug‘orish sxemasi juda aniq va batafsil ishlab chiqilishi kerak. Bu esa o‘ylanganidan ancha murakkabroq. “Tolibon” qiyinchiliklarga duch keladi, deb

o‘ylayman. Aytaylik, sug‘orish uchun qatorlarda suv ochib qo‘yiladi, har bir qatorga teng ravishda suv taqsimlay olish juda qiyin. Bularning hammasini boshqarish oson emas, toliblar kanal qurishdan ko‘ra, uni ishlata olishiga ko‘proq kuch sarflashi kerak bo‘ladi. Agar bu tizim ishlab chiqilmasa, kanal bo‘ylab kamida 30–40 foiz suv isrof bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston, Turkmanistonda har bir kub suvning narxi 1,60 dollardan 1,20–1,30 dollargacha hisoblanadi. Lekin asl qiymati 16 dollar, ya’ni hozirgi narxidan 10–15 baravar qimmatroq. Yuqoridagi loyiha sabab suvning narxi yanayam keskin oshishi mumkin”[6].

Muhokama. O‘zbekiston bugungi kunda Qo‘shtepa kanali bo‘yicha afg‘on xalqining Amudaryo suv havzasidan foydalanishga haqqi mavjud ekanligi, uning qurilishiga to‘sqinlik qilmasligi, biroq suv resurslarining aniq taqsimotini huquqiy jihatdan rasmiylashtirish bo‘yicha diplomatik muzokaralar olib borish tanlovini ilgari surmoqda. Hattoki, O‘zbekiston kanalning texnik qurilish jarayonlarida ishtirok etishga tayyorligini ham ma’lum qilgan. Sharqshunos-afg‘onshunos ekspert Aleksandr Knyazev Qo‘shtepa kanalining qurilishi O‘zbekiston uchun o‘z xavfsizligini ta’minlovchi omildir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘shtepa kanali bo‘yicha O‘zbekistonning yondashuvi qarama-qarshilik xususiyatida emasligini eng to‘g‘ri yo‘l deb baholab, ushbu kanal O‘zbekiston uchun nozik masala bo‘lishiga qaramay, o‘z xavfsizligini ta’minlashga yordam berishi mumkin. Uning yozishicha, Qo‘shtepa kanali ishga tushishi bilan Afg‘oniston shimolidagi qishloq xo‘jaligi rivojlanib, bu chegaradosh viloyatlardagi vaziyatni barqarorlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, A.Knyazev Markaziy Osiyodagi suv resurslarini boshqarishdagi kelgusi tashabbuslarda Afg‘onistonning mumkin bo‘lgan talablarini hisobga olish kerakligi, bunday talablarni hisobga olishning to‘g‘ri yo‘li Amudaryo bo‘yida joylashgan barcha davlatlar ishtirokida yangi mintaqaviy muzokaralar o‘tkazish va o‘zaro maqbul yechimlarni izlash lozimligini qayd etgan [7]. Ammo, bizning fikri ojizimizcha, “Tolibon” Qo‘shtepa kanalini aynan Afg‘oniston shimolidagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida qurayotganiga turli shubhalar bildirish mumkin. Bunday maqsad bo‘lganda shimoldagi qo‘shnilar bilan avvalroq kelishib ish tutilar, Amudaryo quyi havzasidagi davlatlar hamkorlikka taklif etilar edi, degan asosli savollarni o‘rtaga tashlash mumkin. Biroq, bunday bo‘lmadi. Bundan tashqari, “Tolibon” suv omilidan qo‘shnilari Eron (Helmand daryosi) va Pokistonga (Kunar daryosi) qarshi siyosiy tahdid quroli sifatida foydalanganini ham unutmaslik lozim. Qolaversa, qisqa muddat ichida Qo‘shtepa kanali kabi yirik loyihani qurishni moliyalashtirish tashqaridan yordam berilmasdan amalga oshishi haqiqatdan yiroq, degan xulosa qilishga undaydi.


Tashqi kuchlarning Qo‘shtepa kanali loyihasi ortida turgani haqidagi bahs-munozaralar toki ushbu kanal qurilib foydalanishga topshirilguniga qadar davom etadi. Qiziq bir jihati shundaki, Afg‘oniston shimolida Amudaryo quyi havzasidan kanal o‘tkazish loyihasi inglizlar tomonidan boshlanib, sovet-afg‘on urushi yillarida

Moskva, “terrorizmga qarshi urush” paytida esa amerikaliklar tomonidan ishlab chiqilgan edi. Aniqroq aytganda, ushbu kanalning yaqin va uzoq o‘tmishi uning tashqi kuchlarning loyihasi ekanligidan darak beradi. So‘nggi marta 2018-yilda Afg‘onistonning sobiq prezidenti Ashraf G‘ani davrida rasmiy Kobul AQSH ning USAID kompaniyasi bilan Amudaryo suvlarini burish va qishloq xo‘jaligi yerlarining ulkan yangi maydonlarini ochish uchun yangi Qo‘shtepa kanalining texnik-iqtisodiy asoslanishi bo‘yicha shartnoma imzoladi. Afg‘on mutaxassislariga ko‘ra, eng qiziq jihati kanal qurilishi aslida 2021-yilning birinchi yarmida, ya’ni Ashraf G‘ani hukumatining qulashidan oldinroq boshlangan va o‘sha vaqtda qazilgan hududlar 7 km masofani tashkil etgan [8]. Keyinchalik, loyiha bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borish uchun shtab-kvartirasi AQSHda joylashgan AACS Consulting va AECOM Amerika konsalting firmalari yollandi. 2019-yil apreldagi baholashlarga ko‘ra, Qo‘shtepa kanalining qurilish qiymati 1,5 mlrd. dollarni tashkil etgan [9]. 2024-yil noyabrda “Известия” nashrida chop etilgan maqolada ham USAID Qo‘shtepa kanalini maxfiy tarzda moliyalashtirgani qayd etiladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, kanalning 80 foizi qurib bitkazilgan. Qurilish jiddiy ekologik va geosiyosiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bu nazoratsiz amalga oshirilmoqda, suv kanali ibtidoiy tarzda qazilmoqda, bu sug‘orish tizimining buzilishi va keyingi ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Markaziy Osiyo uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan Amudaryodan suv oqimining burilishi Turkmaniston va O‘zbekistonda suv inqiroziga olib keladi. Nashrda yozilishicha, USAIDning ushbu loyihani moliyalashtirishi Markaziy Osiyodagi vaziyatni beqarorlashtirish va Kobul ustidan ta’sir o‘tkazish uchun mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin edi [10]. Ushbu ma’lumotlar Amerika “Tolibon” harakati bilan o‘tkazilgan ko‘p raundlik maxfiy muzokaralarning ma’lum bir qismida Qo‘shtepa kanali loyihasini “toliblar” vositasida davom ettirish ijodkori bo‘lgan, degan taxminiy xulosani ilgari surishga imkon beradi.

Ba’zi tahlilchilar Xitoy va “Tolibon 2.0” o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning faollashuviga e’tibor qaratib, Qo‘shtepa kanalining moliyalashtirilishida Pekinning ham “qo‘li” mavjud, degan taxminlarni ilgari surmoqda. Bunga Xitoyning Shinjon–Markaziy Osiyo neft va gaz kompaniyasi Afg‘oniston Muvaqqat hukumati bilan Amudaryo havzasidan neft qazib olish bo‘yicha imzolagan shartnomasi misol qilib keltirilmoqda. Ammo, bizning fikrimizga ko‘ra, Xitoy bu loyihaning yaratilishi va moliyalashtirilishida asosiy o‘yinchi bo‘la olmas edi. E’tibor qaratsak,“toliblar”ning suvni siyosiy ta’sir vositasi sifatida ko‘rsatishida Eron va Pokiston qo‘shni davlatlari bilan turli nizolar kelib chiqqani, eng kamida, Xitoy variantini Qo‘shtepa kanali loyihasi bilan yaqindan bog‘lashga imkon bermaydi. Chunki, Xitoy mintaqaning ushbu ikki muhim davlati bilan juda yaqin munosabatlarga ega va bu munosabatlarni sovuqlashtirish yoki sekinlashtirish niyatida emas. Xuddi shu singari Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari ham yuqori sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Goh-gohida “Xitoy Qo‘shtepa kanali orqali Markaziy Osiyoga ta’sir

ko‘rsatishni rejalashtirgan”, deb aytilgan taxminlarga kelsak, Xitoyning mintaqadagi ta’sir qilish vositalari Qo‘shtepa kanalisiz ham yetarli darajada mavjud. Biroq, ta’kidlash o‘rinliki, xitoylik investorlarning Afg‘onistonda serqatnov bo‘lib turishi va “Tolibon 2.0” hukumati bilan turli investitsiya shartnomalarini imzolashi, natijada tushgan “sarmoyalar” “toliblar” rahbariyati tomonidan Qo‘shtepa kanalini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi ehtimoldan xoli emas.

“Tolibon 2.0” hukumatining suv omilidan foydalanib, qo‘shni davlatlarga ta’sir qilish imkoniyatlarini kengaytirib borishi qo‘shni davlatlarni ushbu hukumat bilan aloqalarini saqlab turishga, istiqbolda esa “toliblar” hukumatining legitimligini tan olishga undaydi. Bu esa Qo‘shtepa kanalini iqtisodiy emas, aksincha ko‘proq siyosiy loyiha ekanligini anglatadi. Nazarimizda, suv omili bilan bog‘liq yana bir muhim masalaga e’tibor qaratishni o‘rinli, deb hisoblaymiz. Garchi Turkmaniston hukumati “Tolibon 2.0” hukumati bilan hamkorlik aloqalaridan iqtisodiy foyda olishi tufayli Qo‘shtepa kanaliga nisbatan rasman va jiddiy munosabat bildirmayotgan bo‘lsa-da, “Tolibon” suv masalasi bo‘yicha yana bir muhim ta’sirni ishga tushirishini inkor etib bo‘lmaydi. Agarda Afg‘onistonning tog‘li hududlaridan boshlanuvchi, Harirud daryosi havzasi tarkibiga kiruvchi Murg‘ob va Tejen daryoslarining quyi oqimlarida “toliblar” tomonidan yirik suv omborlari qurilsa yoki suv yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan qandaydir loyihalar ishlab chiqilsa, Turkmaniston suv ta’minotida juda katta qiyinchilikka duch keladi.



Ma’lumki, Murg‘ob daryosi Afg‘onistonning tog‘li hududlaridagi o‘zaro tutashgan ko‘llardan boshlanib, Turkmanistonning Mari shahri yonida Amudaryodan keluvchi Qoraqum kanali bilan qo‘shiladi va kanalga aylanadi. Tejen daryosi esa Markaziy Afg‘onistonning 3000 metr balandlikdagi Kohi-Bobo tog‘laridan oqib tushadi. Hirot shahriga yetib kelgach, keng o‘zan oladi va sokin oqa boshlaydi. So‘ng Afg‘oniston va Eron, Eron va Turkmaniston o‘rtasida tabiiy chegara vazifasini

bajaradi. Turkmaniston hududiga o‘tgach, Qoraqum kanali bilan tutashadi. Uning yirik irmog‘i bo‘lgan Jomrudning Tejenga quyilish joyida dunyodagi eng balandlikda qurilgan Jomrud minorasi joylashgan. Daryoning yuqori oqimida Afg‘oniston hududida Salma suv ombori, Turkmanistonning Tejen shahri atrofida Tejen va Xarxor suv omborlari, Eron va Turkmaniston chegara tumanida Eron–Turkmaniston do‘stlik to‘g‘oni va suv ombori barpo etilgan [11]. 2011-yilda AQSH Senatining Tashqi aloqalar qo‘mitasi tomonidan e’lon qilingan “Suv urushlaridan qochish: suv tanqisligi va Markaziy Osiyoning Afg‘oniston va Pokistonda barqarorlik uchun ahamiyatining ortib borishi” nomli hisobotida Afg‘oniston va unga qo‘shni davlatlar o‘rtasida transchegaraviy suvlar bo‘yicha bahslar kuchayib borishi haqida ogohlantirilgan. Shuningdek, Norvegiya Xalqaro aloqalar instituti(NUPI) 2008-yilda Afg‘onistonda transchegaraviy suvlar bo‘yicha suv infratuzilmasini rivojlantirish mintaqadagi kelishmovchiliklarga sabab bo‘luvchi va xavfsizlikka ta’sir etuvchi muhim omili ekanligi haqida tahlil etib, Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston, Rossiya va AQSH o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat Markaziy Osiyodagi suv resurslari bo‘yicha raqobat bilan bir qatorda jiddiy muammolarni keltirib chiqarishini taxmin qilishgan. NUPIning ma’lumotlariga ko‘ra, binobarin, transchegaraviy daryolarning siyosiy xususiyat kasb etishi mintaqada vaziyatni yanada murakkablashib borishiga olib keladi[12]. Boshqacha aytganda, Harirud daryosi quyi havzasidan foydalanish bo‘yicha kelishmovchiliklar nafaqat Turkmaniston, balki Eron uchun ham yangi muammolar sun’iy tarzda yaratilishi ehtimolidan dalolat beradi.

Xulosa. Qo‘shtepa kanalining qurilishi istiqbolda Markaziy Osiyodagi suv resurslari muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uning oqibatlari nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va xavfsizlik masalalarida ham ko‘zga tashlanishi mumkin. Shu boisdan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi suv resurslari taqsimotiga Afg‘oniston tomonini ham keng jalb etish, ko‘p tomonlama muzokaralar olib borish va manfaatli kelishuvlarga erishish suv nizolarining oldini olishga xizmat qiladi.

DILAFRUZ TURDIYEVA
Associate professor, PhD, International Islamic Academy of Uzbekistan

Development of the Religious Education System in Malaysia and its significance today

Annotation. *This article provides a systematic analysis and overview of the development of Islamic education in Malaysia, a middle-to-high-income country in Southeast Asia. The Southeast Asian region exhibits significant diversification in economic development levels, which directly impacts the variations in national education systems. While education in these countries is primarily conducted in their respective national languages, Malaysia, in*

particular, has various perspectives on the formation and evolution of its Islamic education system.

The aim of this research is to offer a comprehensive understanding of the development trajectories of Islamic education in Malaysia, taking into account the diversity of existing opinions on this matter. The article conducts a detailed study of the key stages in the establishment and transformation of Islamic educational institutions, their role in modern society, and their interaction with the state education system. Particular attention is paid to analyzing the factors that facilitate or hinder the advancement of Islamic education, as well as its influence on the country's socio-cultural and economic life. The research findings contribute to a deeper understanding of Malaysia's unique development path within the regional educational paradigm.

Keywords: *pondok, education system, religious education, Ministry of Education, "Islam Hadhari", hujra, Islam, mosque, International Islamic University of Malaysia.*

Аннотация. *Данная статья посвящена систематическому анализу и обзору развития исламского образования в Малайзии, одной из стран Юго-Восточной Азии с доходом выше среднего. Регион Юго-Восточной Азии демонстрирует значительную диверсификацию в уровне экономического развития, что напрямую отражается на различиях в национальных системах образования. В то время как обучение в этих странах ведётся преимущественно на национальных языках, в Малайзии, в частности, наблюдаются различные точки зрения на формирование и эволюцию её исламской образовательной системы.*

Цель исследования — дать всестороннее представление о путях развития исламского образования в Малайзии, принимая во внимание разнообразие существующих мнений по этому вопросу. В статье проводится детальное изучение ключевых этапов становления и трансформации исламских образовательных институтов, их роли в современном обществе и взаимодействия с государственной системой образования. Особое внимание уделяется анализу факторов, способствующих или препятствующих развитию исламского образования, а также его влиянию на социально-культурную и экономическую жизнь страны. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию уникального пути развития Малайзии в контексте региональной образовательной парадигмы.

Ключевые слова:

Пондок, система образования, религиозное образование, Министерство образования, "Ислам Хадхари", худжра, ислам, мечеть, Международный исламский университет Малайзии.

Annotatsiya. *Ushbu maqola Janubi-Sharqiy Osiyodagi yuqori o'rta daromadli mamlakatlardan biri bo‘lgan Malayziyada islom ta'limining rivojlanishini tizimli tahlil qilish va ko‘rib chiqishga bag'ishlangan. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi iqtisodiy rivojlanish darajasida sezilarli darajada farqlanadi, bu esa milliy ta'lim tizimlaridagi farqlarga bevosita ta’sir ko'rsatadi. Ushbu mamlakatlarda ta’lim asosan o‘zlarining milliy tillarida olib borilsada, Malayziyada islom ta’lim tizimining shakllanishi va evolyutsiyasi xususida turli nuqtayi nazarlar mavjud.*

Tadqiqotning maqsadi Malayziyada islom ta’limining rivojlanish yo‘nalishlari haqida har tomonlama tushuncha berish, bunda mavjud turli fikrlarni hisobga olishdan iborat.

Maqolada islom ta'lim muassasalarining shakllanishi va o'zgarishining asosiy bosqichlari, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va davlat ta'lim tizimi bilan o'zaro aloqasi batafsil o'rganiladi. Islom ta'limining rivojlanishiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni tahlil qilish, shuningdek, uning mamlakatning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotiga ta'siriga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari Malayziyaning mintaqaviy ta'lim paradigmasi kontekstida noyob rivojlanish yo'lini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: *pondok, ta'lim tizimi, diniy ta'lim, ta'lim vazirligi, "Islam Hadhari", hujra, islom, masjid, Malayziya xalqaro islom universiteti.*

Introduction. In recent decades, countries in East and Southeast Asia have been playing an increasingly prominent role in global political and economic development. Until recently, this role was largely underpinned by extensive natural and human resources, the use of which allowed them to compete actively with traditional centers of industrial production. Southeast Asia is a diverse region in every respect. It is home to a variety of religious teachings, including Islam, Christianity, Confucianism, Buddhism, and other religious minorities.

From the perspective of living standards, the countries of the region can be divided into wealthy (Brunei and Singapore), middle-income (Malaysia and Thailand) or close to middle-income (Indonesia, Vietnam, and possibly the Philippines), and developing countries (Myanmar, Cambodia, Laos). In this regard, the higher education systems of the Southeast Asian states differ significantly, with more differences than similarities in many aspects. This is understandable, as each country must find its own approaches to meeting the educational needs of its society[1].

Higher education reform in East and Southeast Asian countries, as well as the integration processes launched there regarding universities, have partly enabled these nations to overcome the technological gap with Western Europe and North America. As a result, China, Korea, and especially Japan have transformed into countries with advanced industries and high rates of innovation. Vietnam, Indonesia, and other major Southeast Asian countries are gradually catching up. The advancements in higher education in East and Southeast Asia are allowing these countries to emerge as global leaders in the modern world[2].

The religious factor is also considered alongside social, political, economic, personal, and international factors in the development of Malaysia's national education system[3]. According to this, Malaysian citizens are recognized as individuals possessing the necessary knowledge and skills, well-mannered, responsible, and capable of achieving high results. It is also emphasized that they

[1] Куликов С.Б. Проблемы развития высшего образования в странах Восточной и Юго-Восточной Азии. Томский государственный педагогический университет, "Томск", 2017. –Стр. 171-177.
[2] O'sha manba.
[3] https://www.globaldialog.ru/countries/malaysia/higher_education/ [accessed: 28.10.22]

should be able to contribute to the restoration and harmonization of family, societal, and national values. In nurturing such citizens, Malaysian education is based on a firm belief in and devotion to the Creator. Despite recognizing Islam as the official religion, Malaysia, as a multi-ethnic and multi-confessional country, does not hinder the activities of Christianity, Buddhism, Hinduism, and other religions. Furthermore, the government focuses primarily on the principle that religion is an integral part of a well-rounded individual.

Aim and task. The fulfillment of the need for higher education also varies significantly. For example, in Myanmar, only 10% of the population continues their education after finishing school, whereas in Singapore, this figure is 87%. In Thailand, it's 50%, in Malaysia 37%, in Indonesia 32%, and in both Cambodia and Laos, it's less than 20%.

The highest proportion is in Singapore, which boasts two universities ranked among the top 100 globally. Malaysia has six universities that have entered international rankings. In the region, only Singapore and Malaysia allocate significant funds from their state budgets to higher education. Conversely, in Thailand, Indonesia, and Cambodia, the primary focus is on private educational institutions, with 80% of the population attending private higher education institutions.

